

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUXANDISLARI INSTITUTI**

A.R.BABA JANOV, A.M.MUQUMOV, Z.X.XAFIZOVA

YERDAN FOYDALANISHDA INTEGRATSION BOS HQARUV



Toshkent -2018

A.R.Babajanov, A.M.Muqumov, Z.X.Xafizova

Yerdan foydalanishda integratsion boshqaruv. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, TIQXMMI, 2018 – 355 b.

O‘quv qo‘llanmada bugungi bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish sharoitida sug‘oriladigan yerlardan tizimli tarzda foydalanish va ularni integratsion boshqarish tushunchalari, yerdan foydalanish usullari va xarakteri hamda yerdan foydalanishni integratsion boshqarish uslublari, shu jumladan to‘la takror ishlab chiqarish davrini hisobga olgan holda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish va yerdan foydalanishni ma‘muriy boshqarish masalalari atroflicha bayon qilingan.

«Yerdan foydalanishni integratsion boshqarish» o‘quv qo‘llanmasi «Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish» mutaxassisligining magistrantlariga mo‘ljallangan. Ammo shu bilan bir katorda o‘quv qollanmasidan «yer tuzish va yer kadastri» ta‘lim yo‘nalishining talabalari, iqtisod va moliya bo‘yicha oliy o‘quv yurtlarining talabalari, magistrantlari, doktorantlari va professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar, shuningdek yer-suv hamda boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

O‘quv qo‘llanmasini tayyorlashda TEMPUS dasturining «Land resource management in Uzbekistan» (LAREMA) loyihasi doirasida TIQXMMI ning «Yerdan foydalanishni rivojlantirish o‘quv-tadqiqot markazi» tomonidan bajarilgan ishlar va ma‘lumotlardan foydalanildi.

Mas‘ul muxarrir: professor S.A.Avezboev

Taqrizchilar: Juraev R.I. – “Uzdavyerloyiha” respublika ilmiy loyihalash institutining bosh muxandisi;
Axadov A.A.- TIQXMMI, «Tuproqshunoslik va dexqonchilik asoslari» kafedراس dotsenti, k/x. f.n.

@. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash
muxandislari instituti (TIQXMMI)

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi katta miqdordagi yer resurslariga ega. U mamlakat Konstitutsiyasida qayd qilinganidek, o'zbek xalqining milliy boyligini tashkil etadi. Yer resurslarini jamiyat hayotida va rivojidadagi tutgan o'rni benihoya yirikdir. U ishlab chiqarish vositasi hamda kenglik-operatsion asos sifatida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, inson faoliyatining ijtimoiy va boshqa turli jabhalarida foydalaniladi. Muhim yer toifalaridan biri – bu qishloq xo'jalik yerlari, shu jumladan sug'oriladigan yerlardir.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish ko'p jihatdan ushbu muhim jarayonni integratsion boshqarishda qo'llaniladigan uslublar va usullar bilan belgilanadi. Yerdan foydalanishni integratsion boshqarish bugungi bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitida rang-barang moddiy va boshqa boyliklar ishlab chiqarishda jamiyatning bugungi kun talablariga javob beradigan yerdan foydalanish tizimini yaratishni talab qiladi. Ushbu maqsadda bu sohaga oid vakolatli davlat hokimiyati organlari va idoralarini, shuningdek nodavlat, notijorat tashkilotlarini yerdan (va sug'orish suvidan) foydalanishning integratsion boshqarish uslublari hamda vositalari bilan qurollantirish zarurdir.

Magistrantlar uchun tayyorlangan ushbu o'quv qo'llanmasi «Yer resurslaridan foydalanishni integratsion boshqarish» fanining o'quv dasturiga binoan yozildi. Qo'llanmani tayyorlashda respublikada yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning holati va tajribalari hisobga olindi, ushbu soha bo'yicha zamonaviy adabiyotlardan, shuningdek chet el tajribalaridan foydalanilgan. Kitobni tayyorlashda ayniqsa 2009 yilda professor A.S.Chyertovitskiy va i.f.d. A.K.Bazarovlar tomonidan tayyorlangan va nashr kilingan “Upravlenie zemlepolzovaniem” qo'llanmasidan, Germaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Shvetsiya, Rossiya Fedyeratsiyasi kabi rivojlangan mamlakatlarda bu sohada to'plangan tajribalardan va ushbu mamlakatlar olimlari tomonidan nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanmalaridan keng

foydalanildi. Qo‘llanmada keltirilgan materiallar ma‘muriy-hududiy birliklar darajasida sug‘oriladigan yerlardan foydalanishni integratsion boshqarishning amaliy jihatdan barcha tomonlarini qamrab olgan.

O‘quv qo‘llanmasi i.f.n., dotsent A.R.Babajanov, A.Muqumov va Z.X.Xafizovalar tomonidan birgalikda tayyorlangan.

O‘quv qo‘llanma to‘g‘risidagi fikr- muloxazalaringizni ushbu manzilga yuborarsiz degan umid bilan mualliflar.

100000, Toshkent sh., Q.Niyoziy kuchasi, 39, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti, “Yerdan foydalanish” kafedrası.

I BOB. YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING NAZARIY MASALALARI

1-mavzu. Boshqarish to'g'risida tushuncha. Tizimlarni integratsion boshqarish

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar so'nggi yillarda nihoyatda faollashayotgan qator muhim omillar, jumladan fan va texnikani jadal rivojlanishi, uning yutuqlarini amaliy faoliyatda keng-ko'lamda qo'llanilishi, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni ancha murakkablashganligining ta'sirini o'sganligi bilan bog'liqdir. Buni to'la tushunib olish hamda boshqarishning samarali strategiyasini qabul qilish uchun jamiyatning murakkab iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik muammolari bo'yicha anchagina chuqur bilimlarni egallash talab qilinadi. Bu holat ayniqsa iqtisodiy obyektlarning murakkablashganligi hamda ushbu jarayonga mos bo'lmagan boshqarish tizimini qayta qurish natijasida xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi boshqarish uslublari va ishlab chiqarish aloqalari o'rtasidagi oldingi mavjud tenglik buzilgan, iqtisodiyoti bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlar uchun xarakterlidir. Bunda iqtisodiy munosabatlarni tubdan isloh qilish, korxonalar va ishlab chiqarishni tubdan qayta tarkiblash, resurslarni iqtisod qiluvchi texnologiyalarni hamda iqtisodni boshqarishning bozor uslublari qo'llash talab qilinadi. Shu munosabat bilan jamiyatni xo'jalik salohiyatidan foydalanish strategiyasini rejalashtirish hamda uni murakkab iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik vazifalarini hayotga tadbiiq qilishda samarali ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi ayniqsa oshadi. Analitik ishlanmalardan foydalanish asosida boshqaruvning turli konsepsiyalari ishlab chiqilmoqda. Bunda ayniksa integratsion boshqarish yirik ahamiyatga ega bo'lmoqda. Murakkab masalalarni hayotga tadbiiq qilish strategiyasini rejalashtirish amaliyoti shuni ko'rsatadiki, murakkab muammolarni tadqiq qilishning anchagina samarali uslublari – bu muammoga tizimli yondashuv hamda tizimli tahlilga asoslangan tizimlangan tadqiqotlardir.

Boshqarish deganda, boshqariladigan tizimlarga ta'sir jarayoni tushuniladi. Har qanday murakkab tashkil etilgan boshqariladigan tizimlar, shu jumladan

yardan foydalanish tizimi ham, o'zining boshlang'ich parametrlarini ushlab turishi, shuningdek, o'zlarining sifat holatlarini ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan darajalariga erishishi uchun obyektiv ravishda boshqarishni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, boshqarish—bu boshqariladigan tizimlarni, ularni ichki mazmuni bilan mavjud bo'lishining obyektiv zaruriyatidir. Boshqarish tizimni o'zining rivojlanish qonuniyatlariga mos tarzda amalga oshiriladi. Boshqarishsiz tizim amaliy jihatdan bo'linib ketadi.

Boshqarish to'g'risida so'z ketganda shuni aloxida e'tirof etish zarurki, bugungi globallauv va tezkor rivojlanish sharoitida davlat boshqaruvini jamiyat taraqqiyotining bugungi ehtiyojlariga mos ravishda modernizatsiya qilish o'ta dolzarb vazifa sifatida mayonga chiqmoqda. Mamlakatimiz ravnaqini ta'minlash, jamiyatni jtimoiy siyosiy boshqarish, shu jumladan, unga davlat xokimiyati vositasida ko'maklashuv mexanizmlarini takomillashtirish yangi yangi imkoniyatlarni izlashni taqozo etadi. Bu to'g'rida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoev tomonidan qobul qilingan "O'zbekistonni rivojlantirishning 2017- 2021 yilarga mo'ljallangan Xarakatlar strategiyasi"ning birinchi bo'limida har tomonlama asoslangan xolda so'z yuritiladi. Jumladan, davlat boshqaruvini oqilona tashkil etish, uning samaradorligini oshirish zamonaviy ilm- fan va tafakkur yutuqlarini joriy etishga tayanmog'i zarur. Mustaqil davlatchiligimiz tarqqiyoti yillar davomida izchillik va sobitqadamlik bilan amalga oshirib kelinayotgan islohotlar tufayli bugungi kunda mamlakatimizda demokratik qadriyatlar asosida shakllangan va faoliyat yuritadigan xalqchil davlat xokimiyati va boshqaruvi tizimi qaror topdi. "Xarakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonda davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlar va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning rolini yanada kuchaytirishga, davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilgani ayniqsa e'tiborga loyiq[17]. Bu tarixiy xujjatda mamlakatning yaqin istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari belgilab berildi. "Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada

rivojlantirish va uni ximoya qilishga doir kompleks masalalarni hal etish, hukumat, davlat boshqaruv organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanadi [17].

«Boshqarish» tushunchasi maxsus adabiyotda etarli darajada yaxshi o'rganilgan. «Boshqarish (administration, control, management va boshq.)—keng ma'noda—mavjud bo'lishini ushlab turish yoki uni holatini o'zgartirish maqsadida boshqarish obyektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir vositasida tizimni bir holatdan boshqasiga o'tkazishdir» [29, 654 b]. Boshqarish stixiyali (ko'zda tutilmagan kuchlar ta'sirining natijasi) hamda ongli (jamoat institutlari va tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan) turlarga ajratiladi. Boshqacha so'z bilan ta'riflasak, «boshqarish—bu ushbu tizimga xos bo'lgan obyektiv qonunlardan foydalanish asosida uni yangi sifat holatiga o'tkazish maqsadida tizimga ta'sir etish jarayonidir» [32, 27 b]. Ya'ni, boshqarish jarayoni mavjud tizimga (uning parametrlariga) ta'sir etishi sifatida e'tirof etiladi hamda u boshqarish funksiyasi yordamida boshqariladigan tizimning o'ziga xos mexanizmlari vositasida amalga oshiriladi. Bunda e'tirof etiladiki, «Tizimni yoki uning funksiyasini o'zgartirish manbasi odatda tizimning o'zida yotadi» [32, 17 b].

Ammo boshqarishni faqatgina uni yangi sifat holatga o'tkazish deb qarash kerak emas, bunday qoida to'lakonli bo'lmaydi [32, 25 b]. Murakkab boshqariladigan tizimning muhim xususiyati shundan iboratki, boshqarish uni optimal holatda saqlanishini ta'minlaydi vashu sababli bir vaqtda tizimning o'zini ham tashkil etishga yo'naltirilgan, ya'ni boshqarishning mohiyati tizimni tartibga solish uchun unga ta'sir etibgina qolmasdan, balki uni tashkil etishdan ham iboratdir. Darhaqiqat, boshqarish tizimni o'zini tashkil etish vositasi bo'lib ham xizmat qiladi.

«Boshqarish» tushunchasi «jarayon» va «tizimlar» tushunchalari bilan ham uzviy bog'liqdir. Jarayon (lotinchadan processus) harakatni bildiradi va “nimanidir rivojlanishida holatni, voqeilikni ketma-ket o'zgarishi, qandaydir natijaga erishish uchun ketma-ket xarakatlar majmuasi” sifatida ta'riflanadi [29, 1075 b].

Shuni koʻzda tutish zarurki, boshqarish jarayonlarni kechishi, mashinalarni ishlashi va okibatda obyektlar tarkibida yuz beradigan oʻzgarishlar, tizimning ishlashi bilan amalga oshiriladi, ammo hech qachon obyektlarning oʻzi bilan emas. Shu sababli amaliyotda hamda maxsus va oʻquv adabiyotlarida uchraydigan «tabiiy resurslarni boshqarish», «Yer resurslarini boshqarish», «Yerni boshqarish», «Suvni boshqarish» va hokazolar tipidagi soʻzlar unchalik ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq emas.

Boshkarish tizimida «integratsion boshqarish» tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Integratsion boshkarish deganda boshkarishning turli kirralarini, jumladan iktisodiy, ijtimoiy, huquqiy, texnik, texnologik, tashkiliy, hududiy va boshka kirralarini uzaro bir-birlari bilan kushilgan xolda obyektlardan foydalanishni boshkarish tushuniladi. Bunday boshkarish ayniksa yer resurslaridan foydalanishni boshkarish tizimida yirik amaliy ahamiyat kasb etadi.

Boshqarish tizimini tashkil etish va unga taʼsir etish jarayoni sifatida tizimlar tushunchasini koʻrib chiqish koʻzda tutiladi. «Tizim (grekchadan systema) – qismlardan tuzilgan bir butun, yaxlit; bir-biri bilan maʼlum munosabatda va bogʻliqlikda boʻlgan, maʼlum bir yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi birikma, koʻp elementlar toʻplamidir». [32, 1215 b.]


«Tizim – bir –birlari bilan munosabatda va maʼlum aloqada boʻlgan hamda maʼlum yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi elementlarning tartibga solingan majmuasidir» [24, 557 b.]. Yaʼni, tizim deganda maʼlum munosabatda boʻlgan va bir–birlari bilan bogʻlik, oʻzlarinig birligida oʻziga xos yaxlitlik, birlikni yaratuvchi koʻp sonli elementlar tushuniladi. Qayd qilish muhimki, tizimning umumlashgan xususiyati uni tashkil etuvchi alohida elementlar xususiyatlarining umumiy yigʻindisi bilan bir xil emas, bu–faqatgina ushbu tizim uchun xos boʻlgan sifat jihatdan yangi xususiyatdir. Har qanday tizimning oʻziga xos boʻlgan xususiyati shundan iboratki, har bir element teskari aloqalar mavjud boʻlgandagina uning xususiyatiga taʼsir qiladi, yaxlitlik boʻlganida tizim sifatidagi koʻpgina xususiyatlar, shu bilan birga, uni tashkil etuvchi

elementlarning xususiyatlari yo'qotiladi. Ushbu o'zaro bog'liq elementlar majmuasining mavjud bo'lishi tizimning umumiy maqsadga Erishishga yo'naltirilgan.

Tizimlar odatda moddiy va abstrakt turlarga ajratiladi. Moddiy tizimlar, qoidaga binoan, tabiiy mohiyatga, abstrakt esa logik mohiyatga egadir. Tabiiy tizimlardan farqli o'laroq sun'iy tizimlar inson tomonidan yaratiladi, ochiq tizimlar tashqi dunyo bilan bog'liq, yopiqqlari esa bog'liq emas, axborotli resurslar bilan uncha yirik bo'lmagan almashishga ega. Maqsadli belgilari bo'yicha tizimlar bir maqsadli, ko'p maqsadli hamda funksional turlarga bo'linadilar.

Murakkab iqtisodiy obyektlarni tadqiq qilishda tizimlarni yaratishdan maqsad – ular taxlilini soddalashtirish, «murakkabdan oddiy» topishdan iboratdir [23, 71 b]. Murakkab obyektning yaratilgan tizimi uning tarkibini «etarlicha oddiy» qilib ko'rsatishga, uni tashkil etuvchi elementlarning sabab–oqibatli aloqalari tahlilini soddalashtirishga, ushbu obyektidan foydalanishni boshqarishning amaliy masalalarini hal qilishga imkon beradi. Umumiy holatda mavjud bo'lgan tizim quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin (1-rasm).

1-rasmdan ko'rinadiki, tizim kirish, qo'llash jarayoni va natijani o'z ichiga oladi. Kirishning asosiy elementi bo'lib obyekt (moddiy, resursli, axborotli) hisoblanadi. U tizimga ta'sir ko'rsatadi hamda tizimga «kiradi». Kirishda bundan tashqari tizimga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi muhitning omillariga kiruvchi ikkilamchi (ikkinchidarajali) elementlar hamda to'g'ridan–to'g'ri boshqarish mumkin bo'lmaydigan, noqonuniy xarakterga ega bo'lgan omillar ham mavjud bo'ladi. Tizimning ikkinchi qismi– masalani tadbiq qilish jarayoni (tizimni obyektga ta'sir etishi) – zaruriy natijani olish maqsadida kirish elementlariga ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlar (operatsiyalar)dan iborat. Tizim faoliyatining natijasi yoki mahsuloti uning chiqish qismida olinadi. Natijani baholash asosidatizimning barqarorligi hamda ishonchligi to'g'risida hulos



1-rasm. Tizimning umumiy ko'rinishi

qilinadi. Bunda uning muhim xususiyatlari sifatida ularning ajralib ketishiga uchrashi mumkin bo'ladigan barqarorligi, tashqi va ichki muhitga moslashishi alohida etiborga olinadi.

Iqtisodiy tizimlarning xususiyati shuki, ular inson tomonidan yaratiladi. Iqtisodiy obyektlarni tadqiq qilishni tizimli yondoshuvida jamiyat faoliyatining alohida tarmoqlari, mamlakat iqtisodi, alohida ishlab chiqarish majmualari va hokazolar alohida tizimlar sifatida o'rganiladi. Ular odatda vertikal va gorizontal aloqalarni o'z ichiga olgan, boshqarishni ierarxik darajasini tashkil etuvchi tarkibli va funksional xarakterli kichik tizimlardan iborat bo'ladi. Fan va texnikani jadal rivojlanishi, tarmoqlararo aloqalarni yirik hajmlarda kengayishi hamda ishlab chiqarishni nihoyatda ko'payishi iqtisodiy muammolarni tadqiq qilish jarayonida «yirik tizimlar» deb ataladigan nomni ajratishga imkon beradi. Bu tizimlar maqsadli yo'nalishligi va bo'linqarilishi, murakkab ierarxik tarkiblilik, yirik o'lchamlari, yaxlitligi hamda murakkabligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, yirik iqtisodiy masalalarni hal qilish uchun «yirik murakkab tizimlar» ham ajratiladi. Ular murakkab tarkibli maqsadga, bitta tizimda bir necha tarkibga, tizimlarning murakkab izohnomasiga egadirlar. Yirik murakkab tizimlar tadqiq qilish tizimlarni ham talab qiladi. Ular tominidan iqtisodiy tizimlar hamda

boshqarish usullarini o'rganishda murakkabligi bo'yicha shunga mos keluvchi tadqiq qilish tizimlari yaratilishi zarur.

Tabiatdan foydalanish muammolarini o'rganishda moddiy va abstrakt tizimlar muhim rol o'ynaydi. Tabiatdan foydalanish jarayoni, bir tomondan, tabiiy resurslarning miqdorlari va ulardan foydalanishni, ikkinchi tomonidan esa ushbu jarayonni boshqarishni o'z ichiga olganligi sababli tabiatdan foydalanish tizimlari ham o'zining xarakteri bo'yicha birlashtirilgan yoki moddiy – abstrakt, o'zining mohiyati bo'yicha esa iqtisodiy-ekologik tizimlardir. Tarkibi jihatdan ularga tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy, ekologik hamda boshqa qirralari xarakterli bo'lgan, jamiyatni rivojlanishi uchun o'sha muhim kichik tizimlarni o'z ichiga oladi. Kichik tizimlar rang-barang aloqalarga ega bo'ladilar. Ularni o'rganish esa tabiiy resurslardan foydalanishni samarali boshqarish uchun zarurdir.

Shunday qilib, tizimlar deganda umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda ta'sir ko'rsatuvchi, zamon va makonda ma'lum bir qonuniyatlar asosida joylashgan o'zaro bog'liq hamda o'zaro ta'sir etuvchi elementlarning birligi tushuniladi. Tizimlar moddiy va abstrakt turlarga ajratiladi. Tizimlarning birinchi turi neorganik tabiiy hamda tirik xillarga ajratiladi. Abstrakt tizimlar–bu tushunchalar, gipotezalar, nazariyalar, formallashtirilgan, logik va boshqa ilmiy bilimlardir.

Tizim quyidagi talablarga javob berishi zarur:

-tizimni har bir elementining holati umumiy yaxlit tizimning holatiga ta'sir etadi, ular ajralgan taqdirda tizimning o'sha muhim xususiyatlari yo'qotiladi;

-tizim elementlarining holati hamda ularni yaxlit tizim bilan ta'siri o'zaro bog'liqdir, ularni tizimdan ajralib ketishi natijasida ham elementlarning muhim xususiyatlari yuqoladi.

Darhaqiqat, tizim ega bo'lgan holat, xususiyat uni tashkil etgan alohida elementlar (kichik tizimlar)ning holati, xususiyatidan farq qiladi. Tizim–bu mustaqil qismlarga ajratilmagan, bulish mumkin bo'lmagan ko'p sonli

elementlardir. Tizim elementlarining xususiyatlar to'plami tizimning umumiy xususiyatini yoritmaydi, faqatgina bir necha yangi xususiyatni beradi xolos.

Har qanday tizim rivojlanayotgan tizimdir, u o'zining o'tgan zamondagi boshlanishiga hamda kelgusidagi davomiyligiga ega [23, 71 b.]. Tizim tushunchasining tahlilini soddalashtirish, tarkibini urganish hamda tizimni mavjud bo'lishini o'rganish maqsadlarida u o'z ichiga murakkabdan oddiyini topishni oladi.

Jismoniy va abstrakt (tadqiqotchining fikr- muloxazalari, rejalar, gipotezalar va tushunchalar) ga bo'linishidan tashqari tizimlar tabiiy hamda inson tomonidan yaratilgan turlarga, tashqi muhit bilan bog'liq darajasi bo'yicha—ochiq (atrof muhit bilan moddiy—axborotli resurslar yoki energiya almashinish) hamda yopiq (nisbatan yirik bo'lmagan almashinuv) turlarga bo'linadi [23, 72 b.].

Bizni o'rab turgan dunyo miqyosida tizimlarning beqarorligi hamda o'zgaruvchanligi (o'zgarmas, kam o'zgaruvchan va kuchli o'zgaruvchan) bosh rolni o'ynaydi. Barqarorlik holati iqtisodiy—ijtimoiy tizimlar uchun nisbatan qisqa vaqt muddatlarda kuzatiladi. Kuchsiz barqaror tizimlar uchun tashqi muhitning kichkina o'zgarishi tizimga yangi sharoitda yangi barqarorlik holatiga Erishishiga imkon beradi. Kuchli beqaror tizimlar, ya'ni tashqi muhitga o'ta ta'sirchan tizimlar, uncha kuchli bo'lmagan tashqi signallar ta'sirida ham nihoyatda kuchli o'zgartirishlarga uchrashi mumkin. Maqsadli belgilari bo'yicha tizimlar bir maqsadli (yagona maqsadli- vazifali) va ko'p maqsadli, funksional tizimlarga bo'linadilar. Ijtimoiy iqtisodiy tizimlarning yorqin o'ziga xos xususiyati — bu unda inson ishtirokidir.

Mamlakat iqtisodiyoti muammolarini o'rganishga tizimli yondoshishda alohida tashkilotlar yakuniy maqsadga erishish uchun boshqarishning bir qator barqaror ierarxik darajalarini tashkil etuvchi funksional hamda tarkibli alohida — alohida kichik tizimlardan tashkil topgan tizimlar sifatida qaraladi. Vertikal hamda gorizontal aloqalarning mavjudligi ierarxik tashkil etish natijasi hisoblanadi. Vertikal aloqalar tashkil etishning turli darajadagi, gorizontal esa bitta darajadagi kichik tizimlarning o'zaro ta'sirini ko'zda tutadi. Tizimning

ierarxik tashkil etish tamoyili turli darajadagi kichik tizimlarni nisbatan alohidaligi tushunchasi bilan bog‘liqdir. Kichik tizimlarning nisbatan alohidaligi – bu shunday kichik tizimlarni ierarxik qatorning yuqori va past turgan kichik tizimlariga nisbatan bir muncha mustaqillikka (avtonom holga) egaligini, ularni o‘zaro ta’siri esa kirish va chiqish bo‘yicha amalga oshirilishini bildiradi. YUqori turgan tizimlar pastda turgan tizimning kirishiga signal berish yo‘li bilan ta’sir etadilar hamda chiqish bo‘yicha ular holatini kuzatadilar, o‘z navbatida, pastda turgan kichik tizimlar ular signaliga etibor berganlari holda yuqori turgan tizimlarga ta’sir ko‘rsatadilar.

Ilmiy–texnik rivojlanish boshqarish sohasidagi tadqiqotlarning yangi obyektini vujudga keltirdi. U “yirik tizimlar” (KT) nomini oldi. Uning muhim tavsiflari quyidagilar hisoblanadi [23, 74 b]:

- tizimni maqsadli yo‘naltirilganligi va boshqarilishi, barcha tizimda undan ancha yuqori darajalarda beriladigan va to‘g‘rilanadigan maqsad va mohiyatlarning mavjudligi;

- markazlashgan boshqarishni uni avtonom qismlari bilan birlashishini ko‘zda tutadigan tizimni tashkil etadigan murakkab ierarxik tarkib;

- tizimni yirik o‘lchami, ya’ni yirik miqdordaligi qismlar va elementlar, kirish va chiqishlar, rang–barang bajariladigan funksiyalar va boshq;

- holatning yaxlitligi va murakkabligi. Teskari aloqani qo‘shgan o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi murakkab bog‘lanib ketgan o‘zaro munosabatlarning bittasini uzgarishi boshqa ko‘p sonli o‘zgaruvchilarni o‘zgarishiga olib keladi.

Yirik tizimlarga odatda yirik ishlab-chiqarish-iqtisodiy tizimlar, shaharlar, qurilish va ilmiy-tadqiqot majmualari va boshqalar kiradi. Ko‘pgina iqtisodiy va boshqaruv masalalari aynan shunday xarakterga ega, qachonki yirik tizimlar bilan ish olib borayotganligimizni hech ikkilanmasdan oldindan aytish mumkin. Muammolarni tizimli tahlil qilishda maxsus usullar ko‘zda tutiladi. Ular yordamida tadqiqotchi qarab chiqishi qiyin bo‘lgan yirik tizimlarni bir qator kichik o‘zaro bog‘liq tizimlarga ajratish mumkin bo‘ladi. Demak, yirik tizim deganda odatda kichik tizimlarsiz tadqiq qilib bo‘lmaydigan tizim tushuniladi.

Yirik tizimlar bilan bir qatorda iqtisodiyotni boshqarish masalalarida murakkab tizimlar (MT) ham ajratiladi. Ular ko'p maqsadli, ko'p qirrali masalalarni echishda tuziladi. Boshqarish tizimini loyihalash va tahlil qilish uchun murakkab tizim konsepsiyasidan to'g'ridan-to'g'ri chiqishda quyidagi omillarni hisoblash talablari bajariladi:

-murakkab maqsad mavjudligi, turli maqsadlarni parallel mavjud bo'lishi yoki maqsadlarni birin-ketin almashishi;

-bitta tizimda bir vaqtning o'zida turli tarkibni mavjud bo'lishi (masalan, texnologik, ma'muriy, funksional va boshq.);

-bitta tilda tizimni izohlash mumkin bo'lmasligi, uni alohida kichik tizimlarini loyihalash va tahlil qilish uchun turli tillardan foydalanish zaruriyati, masalan, mahsulot tayyorlashning texnologik sxemasi, huquq va majburiyatlartaqsimotini belgilovchi me'yoriy–huquqiy hujjatlar, hujjatlar aylanish sxemasi va majlislar dasturi, reja loyahasini ishlab chiqishda xizmatlar va bo'limlarning o'zaro aloqalarning tartibi.

Yirik murakkab tizim (YMT)larni o'rganish faqatgina zaruriy tartibda tashkil etilgan tadqiqot tizimi yordamida amalga oshirilishi mumkin. Iqtisodiy tizim (IT)larni har tomonlama o'rganish hamda uni boshqarishni bilish uchun o'zining murakkabligi bo'yicha iqtisodiy tizim (IT)ga teng keladigan tadqiqot tizimini yaratish zarur; boshqarishning oddiy tizimi yordamida yirik tizim (KT)ni samarali boshqarish mumkin emas, u murakkab boshqaruv mexanizimini talab qiladi. Hal qilinadigan masalalar murakkabligining oshishi bilan ushbu masalalarni hal qilishni boshqarish tizimining imkoniyatlari oshishi zarur. Yirik tashkilotlar murakkab, ko'p tomonli rejalarni talab qiladi.

Tizimni boshqarishning prinsipial tushunchalaridan biri–bu teskari aloqa tushunchasidir. Teskari aloqa–bu tizimning to'g'ridanto'g'ri o'zi bilan, yoki uning boshqa elementlari orqali amalga oshiriladigan kirish va chiqishlar o'rtasidagi bog'liqlikdir. Odatda ijobiy va salbiy teskari aloqalar ajratiladi. Teskari aloqaning asosiy vazifalari quyidagilar [23,77 b.]:

-belgilangan chegaradan chiqqan taqdirda tizimning o'zi qilayotgan harakatga teskari ta'sir (sifatni pasayishi va hok.);

-o'rni qoplash hamda tizimni barqaror holatini ushlab turish;

-tizimni barqaror holatdan chiqarishga xarakat qiladigan tashqi va ichki yo'qotishlardan sintezlash, ushbu yo'qotishlarni bir yoki bir necha boshqariladigan qiymatlarga keltirish;

-yomon formallashuv qonuni bo'yicha boshqaruv obyektiga boshqariluv ta'sirini ishlab chiqish.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlardagi teskari aloqaning buzilishi og'ir oqibatlarga olib keladi.

Murakkab iqtisodiy tizim (MIT) larning xususiyati shundan iboratki, ular yordamida har doim ham teskari aloqalarni aniq yoritib bo'lmaydi hamda ular yordamida boshqariladigan miqdorlar parametrlariga qo'yiladigan ko'pgina chegalarni belgilash mushkuldir.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

1. Jarayon deganda nima tushuniladi?
2. Boshqarish deb nimaga aytiladi?
3. Jarayonlarni boshqarish deb nimaga aytiladi?
4. Integratsion boshqaruv deganda nima tushuniladi?
5. Tizimga qanday ta'rif beriladi?
6. Tizim qanday elementlarni o'z ichiga oladi?
7. Tizimning qanday turlari mavjud?
8. Qanday tizimlar moddiyga kiradi?
9. Qanday tizimlar abstrakt tizim deb ataladi?
10. Qanday tizimlar moddiy-abstrakt tizimdir?
11. Tizim qanday talablarni qondirishi zarur?
12. Tizimlarni boshqarish deganda nima tushuniladi?
13. "Murakkab iqtisodiy tizim" tushunchasi nimani anglatadi?
14. Murakkab iqtisodiy tizimlarni boshqarish qanday amalga oshiriladi?

2-mavzu. Mamlakatning yer fondi - boshqarish obyekti sifatida

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining asosiy boyliklaridan biri bu yer resurslari hisoblanadi. Mamlakat chegarasidagi uning maydoni 44892.9 ming ga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda fuqarolar foydalanishidagi maydon esa 44892,4 ming ga (zahira yerlar bilan) tashkil etadi (35, 9 b.). Yer maydoni bo'yicha O'zbekiston dunyodagi qator mamlakatlar, jumladan Yaponiya, Norvegiya, Finlyandiya, Italiya, Buyuk Britaniyadan yirik, Shvetsiya, Ispaniya kabi mamlakatlar yer maydonlari bilan nisbatan tengdir. O'zbekistonning ijobiy tabiiy sharoiti–iqlimi, tuproqlari, reliefi, sug'orish suvi, foydali qazilmalarini hisobga olgan holda mamlakat yer resurslarining muhimligi hamda foydaliligini e'tirof etmasdan iloj yo'q. Mamlakat tabiiy boyliklarini e'tirof etgan holda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday yozadi: "O'zbekistonning muhim xususiyati-respublikani agrar salohiyatli mamlakatga aylanishiga imkon bergan yerining yuksak unumdorligidir. Ma'qul iqlim sharoiti, dehqonchilikni sug'orish xarakteri yirik miqdorlardagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni amalga oshirishni rivojlantirish uchun tarixan respublikada yaxshi sharoit yaratdi [26, 191 b].

O'zbekistonning yer resurslari faqatgina yuqori industrial va samarali qishloq xo'jaligini yuritish uchun muhim emas."Uning yer ostida yirik miqdorlarda foydali qazilma zahiralari: qimmatli va rangli metallar, uran va temir rudalari, neft va gaz, mineral qazilmalar mavjud. Bugun respublikada 2,7 mingdan ortiq konlar hamda istiqbolli foydali qazilmalar joylari aniqlangan. Ular o'z ichiga 100 ga yaqin mineral xom-ashyolarni oladi, shundan 60 tasi ishlab chiqarishga tortilgan, 900 dan oshik joylar razvedka qilingan, ulardagi tasdiqlangan zahiralari 970 mlyard AQSH dollarida baholangan" [27, 178 b]. Bularning barchasi mamlakat iqtisodiyoti uchun yirik hajmlardagi investitsiyalarni kiritish uchun kuchli omildir.

O'zbekiston Respublikasida yer davlat mulki hisoblanadi hamda u yuridik va jismoniy shaxslarga umrbod me'rosiy egalik, ijara, egalik va foydalanish huquqlari asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda esa mulkchilik huquqi

asosida beriladi. Ammo mamlakatda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashuvi yer munosabatlarini ancha keskin isloh qilish zaruriyatini obyektiv tarzda tug'dirdi. Respublikaning birinchi prezidenti I.A.Karimovning 2006 yil 24 iyuldagi PF-3780–sonli Farmoniga binoan respublikada ishlab chiqarish obyektlari hamda shaxsiy uy-joy qurilishi bilan band yerlarni xususiylashtirilishi ko'zda tutiladi [15]. Mulkchilik shakllari hamda yerga bo'lgan huquq turlarining turli–tumanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga binoan quyidagicha ko'rsatiladi: «Yer... va boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur hamda ular davlat tomonidan himoyalanaadi» [1].

Foydalanish maksadlariga karab mamlakat yagona yer fondi kuyidgi toifalarga bulinadi¹:

-qisxo'jalik yerlari (20417,0 ming ga);

-aholi punktlar hloqi yerlari (219,6 ming ga);

-sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar(905,1 ming ga);

-tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya mohiyatidagi yerlar (76,0 ming ga);

-tarixiy-madaniy axamiyatga molik yerlar (9,7 ming ga);


-o'rmon fondi yerlari (9752,3 ming ga);

-suv fondi yerlari (832,4 ming ga);

-zahira yerlar (12680,3 ming ga).

Jamiyatda yer ko'p maqsadli funksional mohiyatga egadir. Shu jihatdan ham mamlakat yer fondi tarkibiy jihatdan sakkizta yer toifasiga bo'lingan(2 va 3 rasmlar, 1-jadval) [35,13,6 b].

¹ O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 8-moddasi




2-rasm. O'zbekiston Respublikasi yer fondining tarkibi

Davlat yer fondining har bir toifasi boshqa yer toifalaridan alohida ajralib turadigan o'ziga xos maqsadli mohiyatiga egadir. Aynan shu jamiyatning turli-tuman talablarini hayotga tadbiq qilish nuqtai nazardan ulardan foydalanish xarakterini ko'zda tutadi.

Turli vazirlik va idoralarga, yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan, butun jamiyat doirasida o'zlarining asosiy maqsadli mohiyatiga mos ravishda foydalanilayotgan yerlar mamlakatning yerdan foydalanishini tashkil etadi.

Yer toifalariga mos tarzda mamlakat yerdan foydalanishi tizim sifatida o'z ichigi ettita (zahira yerlaridan tashqari) bir xil nomli yerdan foydalanishlarni – kichik tizimlarni biriktiradi. (4-rasm).

O'zlarining maqsadli mohiyati bo'yicha ham, o'lchamlari bo'yicha ham ancha muhim yerlardan foydalanish turi–bu qishloq xo'jalik yerdan foydalanishi hisoblanadi.



3-rasm. Yer toifalari maydonlaring solishtirma miqdorlari

U dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini, shuningdek sanoat uchun xom-ashyo ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Shuni e'tirof etish etarliki, ushbu yerdan foydalanish turini mamlakat ichki yalpi mahsulot (IYAM) ga qo'shgan ulushi deyarli 25%ni tashkil etadi. Uning tarkibida 4,2 mln. ga dan ortiq ekin yerlari, shu jumladan 3,3 mln. ga sug'oriladigan ekin yerlari, 358,0 ming ga yaqin ko'p yillik daraxtzorlar, 15,4 mln. ga yaylovlar mavjud [35]. O'zining ahamiyati bo'yicha navbatdagi yerdan foydalanish turiga aholi punktlari yerdan foydalanishi kiradi. Bunga shaharlar va shahar tipidagi poselkalar yerlari (219,6 ming ga) va qishloq aholi punktlari yerlari (644,9 ming ga) kiradi, ularda jami 29 mln. dan ortiq aholi istiqomat qiladi [35; 13, 15 b], [37, 45 b]. Ushbu turdagi yerdan foydalanish asoson ijtimoiy maqsadga mo'ljallangan bo'lib, yer bu joyda kenglik operatsion asos vazifasini o'taydi. Umumiy maydoni 0,905 mln. gadan iborat bo'lgan mamlakat yerdan foydalanishining navbatdagi turiga sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerdan foydalanish kiradi. Uning yerlari sanoat va boshqa turlardagi ishlab chiqarish

hamda tijorat obyektlarini joylashtirishga mo'ljallangan va ham iqtisodiy ham ijtimoiy mohiyatga egadir. Birinchi holatda ular ishlab chiqarishning asosiy sharti, ishlab chiqarish vositasi sifatida gavalansa, ikkinchi holatda-kenglik operatsion asos sifatida namoyon bo'ladilar. Tabiatni muhofaza qilish va rekratsion yerdan foydalanish tabiat majmuasini hamda jamiyat ijtimoiy talablarining muhim komponenti sifatidagi yerlarning ekologik talablarini qondirishni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblaydi. Bu joyda yer ishlab chiqarish vositasi hamda kenglik operatsion asos sifatida mavjud bo'ladi. O'rmon xo'jaligi yerdan foydalanishi o'zining maydoni bo'yicha ancha yirik hisoblanib (qishloq xo'jalik yerlaridan so'ng ikkinchi) 8,54 mln. gani tashkil etadi. Bunda o'rmon daraxtzorlari bilan qoplangan maydonlar esa anchagina kichikdir.

O'rmon fondi yerlari asosiy ishlab chiqarish vositasi rolini o'ynaydi. O'zbekistondagi o'rmonlar asosan tuproqni himoyalash xarakteriga egadir. O'zining ahamiyati jihatidan suv fondi yerlari ham muhimdir. Bunday yerdan foydalanish maishiy, sanoat va qishloq xo'jaligi ahamiyatidagi yerdan foydalanish kichik turlariga bo'linadi. Suv fondi yerlarining yirikgina solishtirma miqdorlari (90% dan ortiq) qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Buzilgan qishloq xo'jalik yerlarning bir qismi o'rmon fondi toifasiga boshqa qismi zahira yerlari toifasiga o'tkazilgan. Qarab chiqilayotgan davrda aholi punktlari hududlarining yer maydoni ko'paygan. Buning asosiy sababi mamlakat birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1989 yildagi «Qishloq joylaridagi tomorqa yerlarini ko'paytirish to'g'risida»gi Farmonini hayotga tadbiiq etilishi natijasida qishloq aholi punktlarida tomorqa uchastkalari maydonlarini ko'paytirilganligidir. Bu, o'z navbatida, qishloq aholisini ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilashda juda yirik rol o'ynadi. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yer maydonlarning o'sishi keyingi 15 yilda 10% ga yaqinni tashkil etgan hamda bu mustaqillikka erishish va bozor munosabatlariga o'tish sharoitida mamlakatni rivojlanayotgan iqtisodiyotining talablari bilan bog'liqdir. O'rmon fondi yerlari ham yirik o'zgarishlarga uchradi. Qaralayotgan vaqt davomida uning maydoni deyarli 3,5 barobarga oshgan va buzilgan yaylov yerlarini 1992, 1995 va

1997 yillari o'rmon fondi yerlariga o'tkazilishi hisobiga uning maydoni 8,5 mln. gaga etgan. Suv fondi toifasidagi yerlar maydoni ham o'sishga Erishgan. Karalayotgan davr mobaynida ular maydoni amaliy jihatdan 30% ga o'sgan. Bu yerlar maydonining yillik o'rtacha o'sishi 1-5 ming ga atrofida bo'lgan. Bu o'sish asosan ishlab chiqarish talablari, ayniqsa qishloq xo'jaligining o'sishi bilan izohlanadi. yer maydonlarini 1994-1996 yillari yirik miqdorlarda o'zgarishining asosiy sababi-ulardagi suv ombori suvini Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi Arnasoy hamda Aydarko'l ko'llariga tashlanishi natijasida ular maydonlaring birdaniga o'sganligidir va nihoyat, zahira toifasidagi yerlar maydoni, umuman olganda, taxlil davriga nisbatan 30%ga ko'paygan. Bunda, oldingiga, 1991 va 1992 yillari ushbu toifa yerlarini o'rmon fondi yerlari toifasiga o'tkazilishi natijasida bu Yerlar maydoni anchagina qisqardi, 1997 va 2002 yillari esa aksincha–buzilgan yaylov yerlarini qaytarish hisobiga har yili o'rtacha 3 mln. ga oshgan.


Yer fondi tarkibining asosiy yer turlari bo'yicha taqsimlanishi

(ming ga hisobida)

T/ r	Yer turlari	2010 yil 1 yanvar holatiga	2011 yil 1 yanvar holatiga	2012 yil 1 yanvar holatiga	2013 yil 1 yanvar holatiga	2014 yil 1 yanvar Holatiga	2015 yil 1 yanvar Holatiga	2014 y.01.01 2015 y.01.01 farqi +;-
1	Qishloq xo'jalik yer turlari	25280	25258,5	25252,2	25251,5	25140,5	25621,4	480,9
	Shu jumladan, sug'oriladigani	3740,3	3739,1	3738,8	3738,2	3740,1	3732,2	-7,9
	-ekin yerlar	4073,1	4071,0	4064,7	4062,5	4055,3	4043,6	-11,7
	Shu jumladan, sug'oriladigani	3315,9	3313,1	3307,3	3305,2	3298,5	3288,2	-10,3
	-ko'p yillik daraxtzorlar,	347,8	350,9	356,7	358,3	367,9	371,9	+4,0
	Shu jumladan, sug'oriladigani	333,7	336,1	341,5	343,0	351,5	354,1	+2,6
	-bo'z yerlar	82,5	80,5	80,4	80,4	80,4	80,3	-0,1
	shu jumladan, sug'oriladigani	47,7	46,9	47,0	47,0	47,1	46,9	-0,2
	-pichanzor va yaylovlar	20776,6	20756,1	20750,4	20750,3	20636,9	21125,6	+488,7
	Shu jumladan, sug'oriladigani	43,0	43,0	43,0	43,0	43,0	43,0	
2	Tomorqa Yerlar	692,7	691,1	691,4	691,7	692,2	693,0	+0,8
	Shu jumladan, sug'oriladigani	516,3	514,6	514,6	514,8	514,9	515,5	+0,6
3	O'rmonzor va butazorlar	3312,0	3328,6	3334,9	3335,3	3453,4	3543,3	+89,9
	Shu jumladan, sug'oriladigani	52,4	52,8	52,5	52,6	52,8	53,9	+1,1
4	Bog'dorchilik- uzum-chilik va	7,6	7,4	7,4	7,4	7,4	7,4	

	sabzavot-chilik uyushmalari yerlari							
	Shu jumladan, sug'oriladigani	6,7	6,6	6,5	6,6	6,6	6,5	-0,1
5	Meliorativ qurilish holati- dagi yerlar	74,1	73,0	72,9	72,7	72,7	72,6	-0,1
6	Boshqa yerlar	15043,9	15051,7	15051,5	15051,7	15044,1	14954,7	-89,4
	Jami yerlar:	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3	44410,3	44892,4	+482.1
	Shu jumladan, sug'oriladigani	4315,7	4313,1	4312,4	4312,2	4314,4	4308,1	-6,3

Manba: *Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi ma'lumotlari bo'yicha



4-rasm. Respublikadagi Yerdan foydalanishlarning asosiy turliri.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarni o'tkazilishi sharoitida asosiy yer toifalari (yoki yerdan foydalanishlar tarkibi) maydonlarining o'sish sur'atlari yer munosabatlarida etarli darajada chuqur o'zgarishlar yuz berayotganligi to'g'risida, jamiyatni turli-tuman moddiy boyliklarga, ijtimoiy, rekratsion, sog'lomlashtirish va tabiatni muhofazalash xizmatlariga bo'lgan zamonaviy talab-ehtiyojlarini ko'zda tutgan yer resurslarini taqsimlanishi hamda undan foydalanish xarakterining qayishuvchi jarayonlari to'g'risida guvohlik beradi. Shu bilan birga, u mamlakat yer fondidan foydalanish tarkibini optimallashtirishga yo'naltirilgan jarayonning natijasi ham emas. To'g'risi—bu mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning birinchi bosqichida yuz bergan ijtimoiy–iqtisodiy o'zgarishlar natijasidir. Bu ayniqsa qishloq xo'jaligi va aholi punktlari yerlariga tegishlidir.

Ma'muriy–hududiy jihatdan yerlar viloyatlar, tumanlar, yer uchastkalari va poselkalar, shuningdek alohida yer uchastkalariga bo'linadi. Viloyatlar yer fondi 2–jadvalda keltirilgan, undan ko'rinadiki:

O'zbekiston Respublikasining yer fondi, 1.01.2016 y*.

t/r	Viloyatlar	Aholisi, ming kishi**	yer maydoni, ming.ga							
			umumiy	1 kishi/ ga	q.x yerlari	1 kishi/ ga	ekin yerlari	1 kishi/ ga	sug'oriladig an ekin yerlari	1 kishi/ ga
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1571,8	16100,6	10,2	5146,9	3,3	419,4	0,27	419,4	0,27
2	Andijon	2375,9	430,3	0,2	250,5	0,1	198,3	0,08	198,3	0,08
3	Buxoro	1525,9	4193,7	2,7	2902,0	1,9	199,6	0,13	199,6	0,13
4	Jizzax	1051,4	2117,8	2,0	1248,9	1,2	480,7	0,46	260,4	0,25
5	Qashqadaryo	2420,4	2856,8	1,2	2194,4	0,9	678,3	0,28	421,6	0,17
6	Navoiy	812,7	10937,4	13,5	9263,4	11,4	109,8	0,14	109,8	0,14
7	Namangan	2103,6	718,1	0,3	389,9	0,2	198,6	0,09	198,6	0,09
8	Samarqand	2907,5	1677,4	0,6	1296,8	0,4	439,9	0,15	257,0	0,09
9	Surxondaryo	1925,1	2009,9	1,0	1174,9	0,6	280,2	0,15	242,0	0,13
10	Sirdaryo	677,0	427,6	0,6	296,5	0,4	256,0	0,38	256,0	0,38
11	Toshkent	2468,0	1526,0	0,6	804,6	0,3	337,1	0,14	301,7	0,12
	Toshkent viloyati Toshkent sh.bilan	4608,5	1558,5	0,3	805,3	0,2	337,6	0,07	302,2	0,07

	birgalikda									
12	Fargʻona	2878,9	700,6	0,2	314,9	0,1	249,6	0,09	249,6	0,09
13	Xorazm	1453,9	681,6	0,5	399,5	0,3	209,3	0,14	209,2	0,14
14	Toshkent shahri	2140,5	32,5	-	0,7	-	0,5		0,5	-
	Jami	26312,7	44410,3	1,7	25683,9	1,0		0,15	3303,6	0,13

* O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

-yer resurslarining eng yirik maydonlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi (16,1 mln. ga) keyin Navoiy (10,9 mln.ga) va Buxoro (4,2 mln.ga) viloyatlar, eng kichik maydoni–Sirdaryo viloyatida (0,43 mln. ga);

-qishloq xo‘jalik yer turlarining yirik maydonlari Navoiy viloyatiga (9,1 mln. ga), Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (5,1 mln. ga) va Buxoro viloyatiga (2,9 mln. ga), eng kichik Andijon viloyatiga (0,25 mln, ga to‘g‘ri keladi;

-ekin yerlarining eng yirik maydonlari Qashqadaryo (0,68 mln. ga), Jizzax (0,48 mln. ga) va Samarqand (0,44 mln. ga) viloyatlarida mavjud; eng past ko‘rsatkich esa Navoiy viloyatida (0,11 mln. ga) dir;

-sug‘oriladigan yerlarning eng ko‘p maydonlari Qashqadaryo viloyatida (0,42 mln. ga), Qoraqalpog‘iston Respublikasida (0,42 mln. ga) va Toshkent viloyatida (0,30 mln. ga); eng kam maydonlari esa Navoiy viloyatida (0,11 mln. ga);

-eng yirik solishtirma maydon (1 kishiga) Navoiy viloyatiga (13,5 ga kishi), eng kam esa Andijon va Farg‘ona viloyatlariga to‘g‘ri keladi;

-qishloq xo‘jalik Yerlarining maksimal solishtirma maydonlari Navoiy viloyati (11,4 ga / kishi); minimal maydonlari esa Andijon va Farg‘ona (0,1 ga/ kishi), shuningdek Namangan (0,2 g / kishi viloyatlari uchun xarakterlidir;

-sug‘oriladigan ekin Yerlarining maksimal maydonlari Sirdaryo viloyatiga (0,38 ga / kishi), Qoraqalpog‘iston Respublikasiga (0,27 ga / kishi), Jizzax viloyatiga (0,25 ga / kishi); minimal maydonlari Andijon (0,08 ga / kishi), Farg‘ona, Namangan va Samarqand viloyatlariga (0,09 ga / kishi) to‘g‘ri keladi;

-ekin yerlarining solishtirma maydoni respublika bo‘yicha 0,15 ga / kishini va sug‘oriladigan ekin yerlarini -0,13 ga / kishini tashkil etadi.

Demak ma‘lumotlardan kurinadiki, absolyut qiymati hamda solishtirma ko‘rsatkichlari bo‘yicha yer resurslari viloyatlar bo‘yicha notekis taqsimlangan. Bu esa qishloq aholisini bandligida ma‘lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Bir qator regionlarda sug‘orish suvi bilan ta‘minot muammosi keskinlashmoqda. Qayd qilish zarurki, bundan 10-15 yil oldin sug‘oriladigan yerlarning solishtirma

maydonlari respublika bo'yicha 0,17 ga / kishini tashkil etgan, bugungi kunda esa– 0,14 ga / kishidan kamroq. Qisqarish nainki aholi sonining o'sishi natijasida, balki shu bilan birga sug'oriladigan yerlar maydonini birmuncha qisqarganligi natijasida ham ro'y bergan. Eng past ko'rsatkichlar Farg'ona vodiysi hamda Samarqand viloyatida–0,09ga / kishi. SHu bilan birga sug'oriladigan Yerlar sifati ham keskin pasaymoqda.

Yer fondining muhim tushunchalaridan biri yer turlarining tarkibidir. U jamiyat tomonidan yer resurslaridan foydalanishni ko'p maqsadli xarakterining natijasi bo'lib yerlardan foydalanishning oqilonaligi va samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun iqtisodiy tarmoqlar va umuman mamlakat miqyosida yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish muammosi vaqt o'tgan sayin dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish yerni to'la qayta tiklash jarayonini joriy etishning tarkibiy qismi hisoblanadi hamda undan foydalanish samaradorligiga yirik ta'sir ko'rsatadi.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

- 1.O'zbekiston yer resurslarining muhimligi va o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
- 2.Mamlakat yer fondi tarkibini tavsiflang.
- 3.Yer toifalaridan qay biri eng yirik solishtirma qiymatga ega?
- 4.Mamlakat yerdan foydalanishlarining asosiy turlarini ayting.
- 5.Yer toifalari maydonlarining o'sish sur'atlarini asosiy sabablarini ayting.
- 6.Qaysi yer toifasining maydonlari eng yirik o'zgarishga uchragan?
- 7.Qaysi yer toifasining maydonlari eng kam o'zgarishga uchragan?
- 8.Hududiy belgilari bo'yicha mamlakat yer fondi tarkibini tavsiflang.
- 9.Mamlakatning har bir kishisi hisobiga qishloq xo'jalik yerlarini solishtirma maydonini ayting.
- 10.1 kishi hisobiga sug'oriladigan ekin yerlarining solishtirma maydonini ayting.

II BOB. YERDAN FOYDALANISH VA UNDAGI MUAMMOLAR

2.1 Qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishi

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi - O'zbekiston iqtisodiyotning muhim tarmog'idir. Mamlakatning ichki yalpi maxsuloti miqdorida uning ulushi 24,0 % ga yaqinni tashkil etadi [37,10 b]. Jami valyuta tushumlarining 45% ga yaqini mamlakat agrosanoatining ulushiga tug'ri keladi. Sug'oriladigan yerlar ayniqsa yirik qiymatga egadir. Uning umumiy maydoni 4,3 mln. gani, shu jumladan 3,3mln.ga sug'oriladigan ekin yerlarini tashkil etadi. «O'zbekiston – qadim sug'oriladigan mamlakat.Sug'oriladigan dehqonchilik respublika oziq–ovqat mustaqilligining asosi hamda mahsulotlarni eksport qilish manbasidir» [27,191 – 192 b].

Bugungi kunda har yili respublika bo'yicha 3,7mln. tonnaga yaqin paxta–xom ashyosi, 7,5 mln. tonnaga yaqin don hamda 5mln.tonnadan ortik meva–sabzavot mahsulotlari etishtiriladi. O'zbekiston har yili 1,2mln. tonnaga yaqin paxta tolasi, 590 ming tonna meva–sabzavot mahsulotini eksport kiladi. Paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha respublika dunyoda 4 o'rinni hamda uni eksport qilish bo'yicha esa 2 o'rinni egalaydi. Shu sababli ham agrar sohani isloh qilish uzbek iqtisodiy modelini tadbiq qilishda eng ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishi 22,37 mln. gani tashkil etadi, shundan 4,3 mln. gasi sug'oriladigan yerlardir. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham O'zbekiston dunyoda etakchi o'rinni egallaydi. Sug'orilgan yerlar ulushiga jami qishloq xo'jalik mahsulotlarining 95% to'g'ri keladi. Qishloq xo'jalik yerlari solishtirma miqdorini bir qator kamayishiga qaramasdan, ekin yerlari va ko'p yillik daraxtzorlar maydonlarida deyarli o'zgarishlar yuz bermadi. Bu xol esa qimmatli yerlardan foydalanish va muxofaza qilishda ijobiy tendensiyadir (3 - jadval).

Qaralayotgan davrda qishloq xo'jalik korxonalarining sug'oriladigan ekin yerlari atiga 1% ga, lalmi yerlari–2,8 %, ko'p yillik daraxtzorlari–8,4% ga qisqargan. Shu bilan bir vaqtda bo'z yerlar 33% ga ko'paygan, yaylovlar 40,4% ga qisqargan, pichanzorlar esa 9,8% ga qisqargan [35].

2014 yili mamlakat bo'yicha paxta maydonlari 48,5% ni, donli ekinlar – 37,8%, sabzavot va boshqa ekinlar–14,7% ni tashkil etgan. Paxta–xom ashyosi va donli ekinlar yitishtirish bo'yicha sug'oriladigan yerlarning sifat holati hamda ulardan foydalanish samaradorligi to'g'risida fikr bildirish mumkin (4-jadval). Paxta hosildorligini pasayishi tuproq unumdorligini pasayib ketganligidan guvohlik beradi. Bu tuproqlar bonitet ballarining dinamikasi bilan tasdiqlanadi. Birinchi galda bu sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yomonlashganligi bilan bog'liq. 2014 yil 01.01. holati bo'yicha turli darajada sho'rlangan sug'oriladigan yerlarning umumiy yerlari respublika bo'yicha 67,3% ni , shu jumladan kuchli sho'rlangan – 4,2% ni tashkil etadi. Eroziya jarayonlariga uchragan yerlarning umumiy maydoni 2 mln. gektarga etgan, yirik maydonlar botqoqlangan va suvga bostirilgan, ifloslangan. Yirikgina maydonlar sifati yomon sug'oriladigan yerlarni tashkil etadi, amalda bu yerlar xo'jalik oborotida chiqarilgan (383 ming gektar atrofida) tuproqning bonitet balli 1991 yilgi 60 dan [35, 203 b]. 2008 yili 53 ga tushgan [35] (5-rasm).

Sifatning bunday yomonlashuvi oldingi respublikalar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari buzilishi bilan bog'liq obyektiv xarakterga ega bo'lgan qator sabablar bilan tushuntiriladi. Yerlarning meliorativ holati bo'yicha eng murakkab holatlar ayniqsa Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida vujudga kelgan. Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlarining to'rtta tumanlarida turli sabablar bilan foydalanilmaydigan sug'oriladigan yerlar to'g'risida 5, 6, 7 va 8 jadvallarda keltirgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, fermer xo'jaliklarida ularning maydonlari 5-6% dan 20% gacha Qiziltepa tumanidagi «Toshrobod» fermer xo'jaliklari birlashmasida esa 60% atrofida tuproqlarning bonitet balli esa 27 ballni tashkil etgan. 40-45 ballda paxta hosildorligi 16-18 s / gani tashkil etadi, ammo bu ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlay olmaydi.

Sug'oriladigan yerlarning sifat holatini pasayishiga o'zining befarq emasligini bildira turib mamlakat Prezidenti I.A.Karimov yozadi. «Afsuski eng yirik yo'qotish, keyingi yuz yil ichida, regionning aynan ekologik tizimiga qilindi tabiatdan foydalanish bo'yicha, yer va suv boyliklaridan xo'jasizlarcha

foydalanishni taqiqlovchi ota–bobolarimizning an’anaviy etikasi tubdan buzildi» [25, 120 b].

Iqtisodiy islohotlarning birinchi yillaridagi moliyaviy qiyinchiliklarga qaramasdan yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarga alohida e’tibor qaratilgan. Respublikada «2005 yilgacha bo‘lgan davrda yer–suv resurslaridan foydalanish samaradorligini hamda yerlar unumdorligini oshirish dasturi» davlat tomonidan amalga oshirildi. Unda quyidagilar ko‘zda tutilgan:

-yer resurslarining holati, o‘zgarish sur’ati va foydalanishini monitoringini tashkil etish;

-regionlar xususiyatlarini hisobga olish maqsadida respublika hududini tabiiy–qishloq xo‘jalik rayonlashtirish;

-har bir xo‘jalikda tuproq bonitirovkasining yangi materiallaridan foydalanish;

-tuproqlar unumdorligini oshirish hamda ular mahsuldorligini ko‘paytirish bo‘yicha agromeliorativ tadbirlar o‘tkazish;

Keyingi 10-15 yil davomida yerlarning meliorativ holatiga investitsiyalar amalga oshirilganligiga qaramasdan, ular etarli bo‘lmagan (9-jadval). Masalan, kollektor–drenaj tarmoqlarini tozalash ishlarining har yillik xajmlari zaruriy miqdorlarining bor-yo‘g‘i 20-25% ini tashkil etgan. O‘rmon himoyalash polosalarini yaratish va rekonstruksiya qilish ishlari ham ba’zan etarli darajada amalga oshirilmagan, ba’zan esa umuman bunday ishlar bajarilmagan. Dalalarga mineral o‘g‘itlar solish, ayniqsa organik ug‘itlar solish maqbul me’yorlarga umuman mos kelmaydi. Amaliyot ko‘rsatadiki, yerni chuqur haydash, dalalar yuzalarini tekislash, sho‘rini yuvish kabi meliorativ tadbirlar yoki umuman o‘tkazilmagan, yoki bo‘lmasa juda ham chegaralangan hajmlarda o‘tkazilgan. Yerlarni sifatini baholash (tuproq bonitirovkasi) bo‘yicha doimiy ravishda o‘tkazilayotgan ishlarining natijalari ko‘rsatadiki, sug‘oriladigan yerlarning sifatini ijobiy tomonga ko‘tarilishi haligacha kuzatilmayapti.

9-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish va muxofaza qilish bo'yicha qabul qilingan tadbirlar hozircha etarli emas. Sug'oriladigan yerlarni sifat holatini tubdan yaxshilash, etarli asoslangan investitsiyalarga tayangan kompleks meliorativ tadbirlarni amalga oshiish bo'yicha maxsus davlat dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish talab qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, tuproqlar unumdorligini oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, sug'oriladigan yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jalik korxonasi va tashkilotlari tasarrufidagi asosiy yer turlari
tarkibining dinamikasi, 1991-2007 y.y.

Yillar	Jami yerlar, ming.ga	Shu jumladan												Meliorativ tayyorgarlik yerlari ming.ga
		sug'oriladigan ekin yerlari		lalmi ekin yerlari		ko'p yillik daraxtzorlar		bo'z yerlar		yaylovlar		pichanzorlar		
		ming.ga	%	ming.ga	%	ming.ga	%	ming.ga	%	ming.ga	%	ming.ga	%	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
1991	32255,3	3318,5	10,3	755,6	2,3	365,7	1,1	71,6	0,2	20999,5	65,1	109,3	0,4	88,7
1992	32239,6	3309,9	10,3	763,3	2,4	367,5	1,1	72,4	0,2	20972,8	65,1	107,3	0,3	86,1
1993	31904,6	3318,8	10,4	757,5	2,4	368,1	1,2	71,3	0,2	20824,6	65,3	107,4	0,3	79,0
1994	31172,0	3320,6	10,7	754,1	2,4	366,8	1,2	63,0	0,2	20176,3	64,7	107,5	0,3	78,5
1995	29736,0	3328,5	11,2	745,5	2,5	361,3	1,2	68,4	0,2	19078,2	64,2	107,3	0,4	74,6
1996	29657,7	3328,1	11,2	741,8	2,5	357,0	1,2	70,8	0,2	18939,0	63,9	105,5	0,4	73,9
1997	25359,5	3318,8	13,1	740,3	2,9	351,9	1,4	76,9	0,3	15526,3	61,2	105,0	0,4	77,3
1998	25259,5	3305,2	13,1	737,5	2,9	342,5	1,4	77,0	0,3	15428,0	61,1	110,0	0,4	80,4
1999	25789,9	3302,2	12,8	735,7	2,9	339,4	1,3	79,9	0,3	15938,0	61,8	110,0	0,4	77,8
2000	25736,0	3295,5	12,8	740,4	2,9	333,8	1,3	81,9	0,3	15881,2	61,7	109,7	0,4	81,5
2001	25477,7	3296,0	12,9	737,4	2,9	329,1	1,3	84,6	0,3	15703,3	61,6	108,8	0,4	78,3
2002	22614,0	3293,4	14,6	737,9	3,3	322,9	1,4	83,4	0,4	12881,1	57,0	99,5	0,4	77,6

2003	22570,4	3283,9	14,5	737,3	3,3	323,4	1,4	83,2	0,4	12863,8	57,0	99,4	0,4	77,5
2004	22446,1	3281,1	14,6	745,1	3,3	324,8	1,4	82,5	0,4	12812,9	57,1	99,8	0,4	76,6
2005	22371,3	3288,0	14,7	746,0	3,3	321,7	1,4	82,1	0,4	12750,3	57,0	99,8	0,4	76,3
2006	22338,3	3292,7	14,7	749,2	3,4	325,1	1,5	80,9	0,4	12741,8	57,0	104,7	0,5	74,8
2007														

Manbaa * Yergezdezkadastr davlat qo‘mitasi ma’lumotlari

Respublika bo'yicha 1991-2007 yillari asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarini
ishlab chiqarish ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	yillar								
	1991	1992	1994	1996	1998	2000	2002	2004	2006
Ekin maydoni, ming. ga:									
Paxta	1721	1667	1540	1487	1532	1444	1452	1456	1445
Donli ekinlar	488	627	959	1329	-	1355	1394	1667	1601
Hosildor, s/ga									
Paxta	27,0	24,7	25,6	22,5	21,0	21,8	22,0	24,5	26,6
Donli ekinlar	12,5	15,4	14,2	20,6	25,1	26,0	36,4	35,4	38,1
Yalpi hosil, ming. ga t:									
Paxta – xom ashyosi	4646	4116	3938	3350	3206	3002	3122	3537	3700
Donlilar	6104	964	1363	2742	-	-	5551	5869	6100
Tuproqning bonitet	60	60	60	55	55	53	53	53	53
Balli									

Manbaa: * O'zbekiston Respublikasi statistika davlat qo'mitasi ma'lumotlari

**[66] ma'lumoti bo'yicha

Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi fermer xo'jaliklarining foydalanilmaydigan sug'oriladigan yerlari[66]

T.r	Fermer xo'jaliklari birlashmalarining nomlari	Xo'jaliklar soni	O'rtacha TBB	Umumiy, maydoni, ga	Sug'oriladigan ekin maydoni, ga	Foydaniilmaydigan sug'oriladigan ekin maydoni, ga	Shu jumladan sabablari bo'yicha				
							kuchli sho'rlangan	suv etarli emas	tarmoq nosoz	botq oqlangan	foydalanilishi mumkin
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1	O'zbekiston f/x	88	52	2967,3	1818,2	-	-	-	-	-	-
2	Koson f/x	164	50	5034,8	3328,7	-	-	-	-	-	-
3	BERuniy f/x	158	47	4032,4	3294,5	-	-	-	-	-	-
4	Guliston f/x	143	49	4208,6	2313,0	-	-	-	-	-	-
5	Gulbog' f/x		41	7067	3355	127	100	-	27	-	127
6	A.Nabiev f/x	81	42	4724,6	3150,9	1103	1041	-	62	-	62
7	Temirxo'ja f/x	121	56	5887,2	1843,9	-	-	-	-	-	-
	Tuman bo'yicha	755	47	33921,9	19104,2	1230 100%	1141 92,8%	-	89 7,2%	-	201

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi fermer xo'jaliklarining foydalanilmaydigan sug'oriladigan yerlari [66]

T.r	Fermer xo'jaliklari birlashmalarining nomlari	Xo'jaliklar soni	O'rta-cha TBB	Umumiy, maydoni, ga	Sug'oriladigan ekin maydoni, ga	Foydaniilmaydigan sug'oriladigan ekin maydoni, ga	Shu jumladan sabablari Bo'yicha					
							kuchli sho'rlangan	suv etarli emas	Sug'orish tarmo-g'i nosoz	suv bos-gan	Bot-qoq-langan	izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1	Moxonkul f/x	45	38	11480,0	1128,1	-	-	-	-	-	-	
2	Andijon f/x	36	54	1140,6	507,4	-	-	-	-	-	-	
3	Mustaqillik f/x	64	64	5629	1090,6	464	23	-	441	-	-	
4	A.Navoiy f/x	91	39	7429,8	1233,1	148	23	-	125	-	-	
5	Tarobiy f/x	33	41	568,5	325,3	309	6	-	303	-	-	
6	N.Rajabov f/x	78	52	4117,8	1655,4	139	37	-	102	-	-	
7	Ibn-Sino f/x	165	46	5477,8	1764,2	328	91	-	237	-	-	
8	T.Salimov f/x	38	51	1582,7	430,6	279	20	-	259	-	-	
	Tumandagi fermer xo'jaliklari bo'yicha jami	550	55	37426,2	8134,7	1167 100%	200 12,0%	-	1467 88,0%	-	-	

Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi fermer xo'jaliklarining foydalanilmaydigan sug'oriladigan yerlari [66]


t.r	Fermer xo'jaliklari birlashmalarining nomlari	Xo'jaliklar soni	O'rtacha TTB	Umumiy maydoni, ga	Sug'oriladigan ekin maydoni, ga	Foydalanilmaydigan ekin maydoni, ga	Shu jumladan sabablari bo'yicha					
							kuchli sho'rlangan	suv etarli emas	sug'orish tarmog'i nosoz	suv bosgan	Botqoqlangan	Izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1	Zarafshon f/x	93	54	2890,9	1121,5	224,0	(224)	-	-	224	(224)	
2	Navoiy f/x	84	42	1461,8	1309,7	130	(90)*	-	40	90	(90)	
3	Yangiqo'rg'on f/x	72	53	1334,7	1183,6	30	-	-	-	30	(30)	
4	Oxunboboev f/x	148	58	1407,5	1290,2	70	-	-	-	70	(70)	
5	S.Jo'raev f/x	81	53	1444,8	1211,4	28	-	-	28	-		
6	Uch tut f/x	88	52	1364,5	1176,4	20	(20)	-	-	20	(20)	
7	Ijand f/x	46	51	1313,4	871,0	20	(20)	-	-	20	(20)	
8	Navro'z f/x	53	54	636,0	565,1	20	(20)	-	-	20	(20)	
9	Istiqlol f/x	173	49	2255,8	1980,1	40	(40)	-	-	40	(40)	
10	Navbahor f/x	103	42	1904,4	999,1	-	-	-	-	-	-	
11	Gigant f/x	114	51	2341,5	1673,0	89	(60)	-	29	60	(60)	
	Hammasi	1055	52	18355,3	13381,1	671 100%	(474)	-	97 14,5%	574 85,5%	(564)	

* Shu jumladan boshqa sabablar bo'yicha.

Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi fermer xo'jaliklarining foydalaniladigan sug'oriladigan yerlari [66]

T.r	Fermer xo'jaliklarini	Xo'jaliklar soni	O'rtacha TBB	Umumiy maydon, ga	Sug'oriladigan yerlari, ga	Sug'oriladigan ekin yerlari, ga	Sug'oriladigan foydalaniladigan ekin yerlari, ga	Shu jumladan sabablari				
								kuchli sho'rlangan	suv etarli emas	sug'orish tarmog'i nosoz	suv bosgan	botqoqlangan
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1	Toshobod f/x	45	27	2005,2	2005,2	1455,5	861,5 100%	702,6 81,6%	158,9 18,4%	-	-	-

Xo‘jaliklar ixtisosliklarini hisobga olib qishloq xo‘jalik yerdan foydalanishi sug‘oriladigan va lalmi turlariga, yerlarni ishlash usullari bo‘yicha–dalachilik va ko‘p yillik daraxtzorlarga; lalmi yerlar esa o‘z navbvtida–haydalma va yaylovli turlarga bo‘linadi. Dalachilik sug‘oriladigan yerdan foydalanish ixtisosliklari bo‘yicha paxtachilik, kanopchilik, donchilik, sholichilik, sabzavotchilik, kartoshkachilik, tamakichilik, bedachilik, em-xashak etishtiruvchilik, urug‘chilikka, ko‘p yillik daraxtzorlar esa–pillachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, anorchilik, ko‘chatchilikka bo‘linadi.



5-*ras*m. Respublikadagi sug‘oriladigan yerlarning sifat holati.

Lalmi yerdan foydalanish asosan donchilikka, yaylovlar–cho‘l, tog‘oldi, baland tog‘li kichik turlarga, ajratiladi. Chorvachilik yerdan foydalanish go‘sht etishtirish (yirik shoxli qoramollar va qo‘ychilik), qoraqulchilik, cho‘chqachilik, otchilik, tuyachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik hamda nasilchilik kabi kichik turlarga ajratiladi (6-*ras*m).

Qishloq xo‘jaligi yerdan foydalanish tarkibining muhim ko‘rsatkichi bo‘lib uni kichik turlari maydonlarining solishtirma nisbati hisoblanadi. U bilan ishlab

chiqarish tarkiblari, hajmlarini hamda mahsulotlarni davlat tomonidan sotib olish hajmlari, mahsulotlarni zaruriy hamda mumkin bo'ladigan eksport va import qilish hajmlari va tarkibini rejalashtirish bog'liqdir. Yerdan foydalanish tarkibi qishloqlarni ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmasini, resurslarga bo'lgan talabini, tuproqlar unumdorligini qayta tiklashga bo'lgan xarajatlarni aniqlaydi, yerlardan foydalanish samaradorligiga yirik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishi hozirgi kunda 25 dan ortiq kichik turlarni o'z ichiga biriktiradi. Bunda chorvachilik yerdan foydalanishi 2006 yilda barcha qishloq xo'jalik yerlarning 61,8%; shu jumladan yaylovlarning 19,5% sug'oriladigan, 11,1% jami ekin yerlari hamda 4,7%-sug'oriladigan ekin yerlarini tashkil etgan. Ko'p yillik daraxtzorlar yerdan foydalanishi o'z ichiga jami qishloq xo'jalik yerlarni 3,4% ini hamda sug'oriladigan ko'p yillik daraxtzorlarning 29,6%larini oladi. Paxtachilik yerdan foydalanishi (sug'oriladigan yerlarda donli ekinlar etishtirishni hisobga olgan holda) barcha qishloq xo'jalik yerlarning 66,6%ini, ekin maydonlarining 71,1% ini hamda sug'oriladigan ekin yerlarining 83,3% ini tashkil etadi. Boshqa dalachilik ixtisosliklarning barcha yerdan foydalanishlari jami ekinzorlarning 12,9% ini,shu jumladan sug'oriladigan ekin yerlarning 8,8%ini tashkil etadi. Shulardan eng yiriklari: donchilik (barcha ekin turlarining 5,5%,shu jumladan 0,8% - sug'oriladigan), sholichilik (mos ravishda 3,6% va 4,4% va sabzavotchilik (2,3% va 2,2%). Bedachilik va em-xashakchilik yerdan foydalanishlari maydonlari bo'yicha uncha yirik emas (0,03% va ulardan kam) [37].

9-jadval

Respublikada yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha investitsiyalar, va tadbirlar, 1996-2000 y-y.

Tadbirlar turlari	Ko'rsat- kichlar	Yillar	1998	1999	2000
Yerdan foydalanish va muhofaza qilishga investitsiya mln.so'm					
SMRga mln.so'm	463,3	183,1	383,7	605,7	1436,4

	400,7	160,0	291,4	519,2	1203,0
Rekultivatsiya qilingan yerlar maydoni, ming.ga	38,4	40,6	42,8	45,2	47,7
O'rmon himoyalash palasalarini yaratish, ming.ga	42,3	21,0	5,0	5,0	5,0
-o'g'itlash.t/ga					
-organik	-	2,4	2,0	1,4	1,2
-mineral (100 % ozuqa moddasiga aylantirilgan xolda)	-	197	187	183	206


Darhaqiqat, maydoni bo'yicha eng yirigi paxtachilik yerdan foydalanishi hisoblanadi. To'g'ri, bundan kuzgi don etishtirish ham hisobga olingan. Shu bilan birga sabzavotchilik va em-xashakchilik yerdan foydalanishlarning maydonlari asossiz ravishda qisqartirilgan har bir turida asoslanmagan ekinlar tarkibi mavjud, ularning qat'iy rotatsiyasi ham mavjud emas. Bu hol esa o'z navbatida yerlarning meliorativ holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yaylov yerlardan foydalanishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol' uynaydigan qishloq xujaligining muhim kichik turidir. U mamlakat agrosanoat majmuasining muhim tarkibiy qismidir. Bu yerda qishloq xo'jaligining yerlarini yirik qismi to'plangan-83%(eki respublika umumiy yer fondining 51%) [39], respublika aholisining 10%ga yaqini istiqomat qiladi, ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotining 10% dan ortig'i ishlab chiqariladi (qorako'l teri, jun, go'sht), qayta tarmoqli suv manbaalari yashirilgan (yaylov maydonlarining 88%dan ortig'i suv bilan ta'minlangan), avtomobil yo'llari elektr uzatish (tarmoq)liniyalari, aloqa tarmoqlari rivojlangan.Chorvachilik mahsuloti ishlab chiqarish bilan bir qatorda uning hududida gaz, neft, oltin va ko'pgina boshqa foydali qazilmalarga boy bo'lgan konlar to'plangan va ishlatilmoqda.

Ammo yirik tabiiy va iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan yaylovlar qator obyektiv hamda subektiv sabablarga ko'ra etarli darajada to'la foydalanilmayapti, bu mintaqada ekologik holat hamda ijtimoiy sharoit juda yomonlashmoqda. "O'zdaverloyiha "instituti tomonidan 1994 yili o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatadiki,

kuzatilgan 18,0mln.ga yaylov yerlaridan 40% ga yaqini degradatsiyaga uchragan. O'tish davrining harajatlari evaziga iqtisodiy - ijtimoiy muammolar yerlar sifatini qayta tiklash bo'yicha targ'ibotlarning etarli bo'lmaganligi hamda Orol dengizi basseynidagi ekologik holatning yomonlashuvi natijasida ekologiya muammolari chuqurlashdi. Umuman, holatni yomonlashuvining umumiy sababi, fikrimizcha, uni rivojlantirishning iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, huquqiy, texnologik, institutsional qirralarini kompleks jamlangan holda o'z ichiga olgan oqilona va barqaror yaylov yerlaridan foydalanishining mavjud emasligidir. Yaylovlardan foydalanish samaradorligini pasayishining asosiy sabablariga quyidagilarini kiritish mumkin.

Iqtisodiy–yaylovlarda asossiz mollar bosh sonini oshishi, hududiy belgilari va fasllari bo'yicha tabiiy yem-xashaklarni kamyoqligi va noto'g'ri taqsimlanishi; hayvonlarning qo'shimcha oziqlantirishni va yem–hashaklar importini qisqarishi; transport vositalarini va yonilgi moylash materiallari bilan ta'minotini qisqarishi; ishlab chiqarish zaruriyatlariga davlat dotatsiyalarini qisqarishi; chorvachilikni rivojlantirishni samarasiz baholash mezonlari (uni mahsuldorligi va mehnat unumdorligi bilan emas, balki mollar bosh soni bilan baholanishi); bozor munosabatlarini rivojlanishi sharoitida ho'jalik yuritishning maqbul ishlab chiqilgan modellarining yoqligi va hak. **Ijtimoiy**–yaylov mintaqasidagi yerlarda xo'jalik yuritishning yangi tashkiliy–huquqiy shakllarini shakllantirish; sobiq korxonalarni qayta tashkil etish natijasida davlat tomonidan bu yerda istiqomat qilayotgan aholiga ijtimoiy kafolatlarni qisqartirilishi; bu joyda istiqomat qilayotgan aholining moddiy darajasini pasayishi hamda ishsizlikni o'sishi;



6-rasm. Qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishining tarkibi

yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanuvchi aholi turmush tarzining o'ziga xosligi, shuningdek tabiiy mintaqalar (cho'l, tog'oldi, tog', balandtog') bo'yicha turmush tarzini tabaqalashtirish; muhofazalanish darajasini pasayganligi sharoitila tabiiy ofatlar (sovuq urishi, qurg'oqchilik) oldida fermerlar tavakkalchiligini o'sish va boshqalar.

Huquqiy–yerga davlat (monopol) mulkchiligi va yaylovlardan foydalanishni davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi; yaylov yerlaridan foydalanish bo‘yicha nazoratni susayishi va boshqalar.

Ekologik–Markaziy Osiyo respublikalaridagi irrigatsiya qurilishining asossiz miqyoslari hamda Orol dengizining qurishi natijasida yaylov mintaqasidagi ekologik tanglikni kuchayishi; ushbu regionda iqlim tavakkalchiligining oshishi; yaylov mintaqasida resurslarni tejash hamda ulardan foydalanish ishonchligi muammolarini etarli o‘rganilmaganligi; yaylov yerlariningsifatiga hamda ularni qayta tiklanishiga davlat tomonidan etarlicha nazorat mavjud emasligi; tuproqlar eroziyasi, yaylov yerlarining degradatsiyasi va hokazolar.

Texnologik–yyem-xashak zaxiralarini iqlimiy va geografik sharoitlar ta‘sirida cheklanganligi; ularni hududlar va fasllar bo‘yicha noto‘g‘ri taqsimlanganligi; yaylovlardan tizimsiz foydalanish, yaylovlar almashishiga rioya qilmaslik; haydab boqish tizimini etarli rivojlanmaganligi; fasllar bo‘yicha yaylovlardan foydalanishdagi ortiqcha yaylovdan foydalanish; yozgi yaylovlar mahsuldorligini pasayishi; daraxt va butalarni yonilg‘i sifatida foydalanish; nasl genofondining yirik qismini yuqotilishi; o‘troqlik darajasining o‘sishi va hayvonlar kasalliklarini ko‘payishi; transport vositalarining etishmasligi sababli hayvonlarni keng ko‘lamli xarakatining yo‘qligi; quduqlarni ishdan chiqqanligi sababli suv bilan ta‘minlanishni yomonlashuvi hamda bunda zaruriy nazoratning yo‘qligi va hokozolar.

Institutsional–fermer xo‘jaliklarini yuritish, shuningdek mahsulotlarni qayta ishlash va marketing bo‘yicha zaruriy tajribalarni yo‘qligi; rejalashtirishning markazlashgan tizimini buzilganligi, bozor mexanizmlarini esa to‘la ishlab chiqilmaganligi; ferma ishchilarida majmual malakaviy tayyorgarlikni mavjud emasligi va boshq.

Yuqorida sanab o‘tilgan hamda yaylov yerdan foydalanishini yomonlashtiradigan qator boshqa sabablar quyidagilarni e‘tirof etish imkonini beradi:

-bugungi kunda u inqiroz holatida hamda uni yaxshilash bo‘yicha shunga mos radikal tadbirlarni talab qiladi;

-yaylov yerdan foydalanishida, ayniqsa yaylov yerlarini qayta tiklashda tizimli yondoshuv mavjud emas;

-bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan chorvachilikni yuritishning zamonaviy tizimi mavjud emas.

Sabablar majmuasini sanab o'tishning o'zi oqilona yaylov yerdan foydalanishi va chorvachilik muammolarini nihoyatda murakkab ekanligini ko'rsatadi. Har bir yuqorida sanab o'tilgan sabablarni turlicha rejali va chuqur xurujliligi shuni tasdiqlaydiki, ushbu muammoni yagona echimi mavjud emas, balki bunda yaylov mintaqasi har bir regionining o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan xolda tabaqalangan echimni izlab topish zarur bo'ladi.

Barqaror yaylov yerdan foydalanish konsepsiyasi, eng avvalo, yaylov yerlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini, aholini yashashi va xo'jalik faoliyati uchun normal ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni ta'minlaydigan tabiiy majmualar va jamiyatni garmonik rivojlanishini ko'zda tutish zarur. Shu sababli ham, hech ham kechiktirib bo'lmaydigan echimni talab qiluvchi birinchi galdagi muammolar—bu texnologik (maxsus) muammolar bilan uzviy bog'liq bo'lgan ekologik, hamda ijtimoiy—iqtisodiy muammolar echimi hisoblanadi. Bunday zaruriyat mavjud ekologik holatdan kelib chiqadi va u inson—tovar ishlab chiqaruvchining manfaatlari eng yuqori bo'lgan respublikada bozor munosabatlarini rivojlanishini ko'zda tutadi.

Yaylov yerlaridan foydalanishining butun bir majmuasini barqaror rivojlanishini birinchi navbatdagi vazifasi, fikrimizcha, respublikada yaylov yerlarini mintaqalash va rayonlashtirishdir. Tabiiy sharoiti bo'yicha mintaqalash, ma'lumki, oldin o'tkazilgan, ya'ni yaylovlarda cho'l, tog'oldi (adir), tog' va balandtog' (yaylov) mintaqalari ajratilgan.

Yaylov yerlarini rayonlashtirishni ekologik va iqtisodiy belgilari bo'yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda yukoridagi to'rtta mintaqadan har birida ekologik ijtimoiy, iqtisodiy omillardan qay biri ko'proq ta'sir ko'rsatishi bo'yicha rayonlarga bo'linadi.

Ekologik maqbul rayonlarga yaylov yerlari to'la yoki ularning yirik qismi buzilgan hududlar kiradi. Ushbu maqsadda yaylov yerlarini degradatsiyaga

uchraganlik darajasini baholash uchun shunga mos mezonlar ishlab chiqilishi zarur. Yaylov yerlarini tiklash muammosini hal qilish tabiiy resurs sifatidagi yaylov yerlarini o'z-o'zini muvofiqlashtirish jarayonini buzmaslik uchun unga antropogen ta'sirni belgilash talab qilinadi. Bu chegaradan oshib ketgan rayonlarda yaylov yerlarini qayta tiklash uchun maxsus tadbirlar amalga oshirilishi zarur, xo'jalik faoliyati bu yerda yoki chegaralanadi, yoki bo'lmasa tuproq qatlami hamda yerlar unumdorligi to'la tiklangunga qadar to'la ta'qiqlanadi. Chegaralanish muddatlari o'tkaziladigan tadbirlarning samaradorligi bilan belgilanadi. Bunday yaylov rayonlariga buyurtma bog'lar yoki kurikxonalar makomini berish maqsadga muvofiqdir.

Ijtimoiy omillar aksariyat hollarda ta'sir etuvchi rayonlarga me'yor bo'yicha qabul qilinadigan past darajadagi ijtimoiy sharoitga ega bo'lgan hamda nisbatan yirik miqdorlarda aholi to'plangan yaylovlar kiradi. Davlat tomonidan moliyalash hisobiga o'tkaziladigan ijtimoiy xarakterdagi tadbirlarni tadbiq qilishga asoslangan bunday rayonlarda keyinchalik o'zining muhimligi hamda va zarurlik darajasi bo'yicha muhim bo'lgan ekologik xarakterdagi masalalar ham xal qilinadi. Ijtimoiy muammolarning hal qilinishiga hamda ijobiy ekologik holatga qarab rayonning rivojlanishida iqtisodiy qirra muhim bo'ladi.

Uchinchi guruh rayonlarga ekologik hamda ijtimoiy jihatlardan ijobiy (yoki nisbatan ijobiy) bo'lgan rayonlar kiradi. Bu yerda asosan ishlab chiqarishni rivojlantirishning iqtisodiy muammolari hal qilinadi.

Respublikaning butun yaylov mintaqasi miqyosida yaylov yerlarining taklif etilgan rayonlashtirish ekologo-ijtimoiy sharoitlarni yaxshilash hamda yaylov yerdan foydalanishini samaradorligi bo'yicha aniq birinchi darajali tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirishga imkon beradi. Qayd qilish zarurki, yaylov mintaqalaridagi holatni yaxshilash bo'yicha respublika hukumati tomonidan qat'iy tadbirlar qabul qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining bu yo'nalishdagi qarorlari, xususan "Chorvachilikda islohotlarni takomillashtirish hamda dehqon (fermer) xo'jaliklari manfaatlarini himoya qilish va fermerlarni xususiyashtirish to'g'risida"gi 87-sonli (1994 y) va "Navoiy viloyati Tomdi va

Uchquduq tumanlaridagi qorako‘lchilik fermerlarini xususiylashtirishni chuqurlashtirish bo‘yicha tadbirlar to‘g‘risida”gi 246-sonli (1996 y) va boshqalar shular jumlasidandir.

Oqilona (barqaror) yaylov yerdan foydalanish muammosini hal qilish ikkita birin-ketinli vazifaga bo‘linadi: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik sharoitlarni maqbul (me‘yoriy) darajagacha tiklash hamda keyinchalik barqaror yaylov yerdan foydalanishni ushlab turish.

Demak, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishi (mamlakat iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari yerdan foydalanishlariga nisbatan) o‘zining tarkibi, xarakteri hamda yerdan foydalanishning intensivligi bo‘yicha anchagina murakkabdir. Shuning uchun u bugungi kunda anchagina muammoli masaladir va uning uchun quyidagilar harakterlidir:

-yerdan foydalanishda tizimlilik mavjud emas, Yerdan foydalanish o‘zining to‘la qayta tiklanish siklida qaralmaydi;

-qishloq xo‘jalik yerdan foydalanishining to‘la holatdagi tarkibi hamda har bir kichik tipdagi yerdan foydalanishdagi ekin turlarining tarkibini maqbullashtirishning yo‘qligi;

-qishloq xo‘jaligi mohiyatidagi yerlarni qayta tiklanishiga zaruriy e‘tiborni yo‘qligi;

-asoslanishni talab qiluvchi sug‘oriladigan yerlarning sifat holatini yaxshilashga investitsiyaning etarli emasligi;

-meliorativ tadbirlarni o‘tkazishni majmuali emasligi, tarqoqligi;

-o‘rmon himoyalash polosalarini yartish va rekonstruksiya qilishga e‘tiborni etarli emasligi;

-yer-suv resurslaridan foydalanishda bozor prinsiplarini etarli darajada qo‘llanilmaganligi.

Umuman, qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanishning majmuali muammosi – tuproq unumdorligini qayta tiklash, mamlakatni eksport imkoniyatlarini hisobga olgan holda jamiyatni oziq-ovqat va xom-ashyo bilan ta‘minlash bo‘yicha oldinga qo‘yilgan


vazifalarni tadbiq etish maqsadida yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, uni tarkibini maqbullashtirishdir.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

1. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishi qanday yer fondiga ega?
2. Keyingi yillari sug'oriladigan yerlar va sug'oriladigan ekin yerlarining o'sish sur'ati qanday?
3. Keyingi yillarda yaylov yerlarining o'sish sur'ati va uning sabablari qanday?
4. Sug'oriladigan yerlarning sifati va uni o'sish sur'ati qanday?
5. Keyingi yillarda yerlarni tiklash va muhofaza qilish bo'yicha qanday tadbirlar o'tkazilgan?
6. Sug'oriladigan yerlarning sifat holatiga tavsif bering.
7. Kichik turlari bo'yicha qishloq xo'jaligi yerdan foydalanish tarkibini ayting?
8. Sug'oriladigan ekin yerlaridagi ekinlar tarkibi qanday?
9. Tuproq unumdorligini tiklash uchun qanday asosiy tadbirlarni o'tkazish zarur?
10. Yaylov yerlarini degradatsiyaga uchrashining asosiy sabablari qanday?
11. Yaylov yerlarining sifatini oshirishning birinchi navbatdagi vazifalari nimalardan iborat?

2.2 Suv xo'jaligi yerdan foydalanishi

Suv xo'jaligi yerdan foydalanishi o'z tarkibiga maishiy suv ta'minoti, sanoat va qishloq xo'jalik yerdan foydalanishlari kabi kichik turlarni oladi, ular ham o'z navbatida kichik turlarga bo'linadi (7-rasm). Eng yirigi-qishloq xo'jaligi suv ta'minoti yerdan foydalanishi bo'lib, u o'z ichiga qishloq va suv xujaligi vazirligining yirik gidrotexnik inshootlari yerlarini (suv omborlari, yirik mashina-magistral kanallar, shuningdek tranzit kollektorlar), BUIS-irrigatsiya tizimlari va kollektor tarmoqlari, STB-xo'jaliklararo sug'orish va kollektor tarmoqlari, SIU-uyushmalarning ichki xo'jalik sug'orish va kollektor tarmoqlarini oladi. Uchastka sug'orish tarmoqlari fermer va shirkat xo'jaliklari yer uchastkalariga kiritilgan.



7-rasm. Suvdan foydalanish turlari.

Maishiy suv ta'minoti yerdan foydalanishi shahar, tuman hamda qishloqlar ichimlik suvi tarmoqlari va injenerli inshootlardan, sanoat ta'minoti esa sanoatning har bir tarmog'idagi vodoprovod tarmoqlari yerlaridan va keyingisi—har bir ishlab chiqarish obyekti (yuridik shaxs) vodoprovod tarmog'i yerlaridan iborat.

Meliorativ tadbirlar majmuasida ma'lum bir injenerli inshootlarni joylashtirish va texnologik jarayonlarni bajarish uchun ma'lum bir yer maydonlaridan foydalanishni ko'zda tutgan holda tadbiq qilinadigan irrigatsiya va gidrotexnik melioratsiya asosiy o'rinni egallaydi.

Suv fondi yerlari (suv omborlari, suv havzalari, ko'llar, vodoprovod tarmog'i, sug'orish kanallari va kollektorlar injenerlik inshootlari bilan birga, xizmat yuzasidan berilgan yer bo'laklari) 825 ming gani tashkil etadi, shundan 91% qishloq xo'jaligi suvdan foydalanishga kiradi. Keyingi 16 yil mobaynida ular maydoni 33% o'sgan; 1990 yilgi 618 dan 2006 yil 825 ming ga gacha (10-jadval). Bunday o'sish sur'atlari boshqa yer toifalarida kuzatilmagan. Ammo sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini oxirgi 15 yil bo'yicha qiyosiy baholash uning sifati oshganligini hamda sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini ko'tarilganligini emas, balki uning teskarisi – uni pasayganligini ko'rsatadi. (8-rasm).

Sug'oriladigan yerlar va suv fondi maydonlarini taqqoslash shuni ko'rsatadiki, har bir 4 ga sug'oriladigan yerga 1 ga suv fondi yeri to'g'ri keladi, ya'ni suv fondi yerlari sug'oriladigan ekin yerlarining 25% ini tashkil etadi. 1991 yili bu nisbat mos ravishda 19% va 5:1 ni tashkil etgan. Agarda suv xo'jaligi tizimi 2005 yili ham 1991 yildagiday samarali faoliyat ko'rsatganida edi, ko'paytirilgan maydondan (200 ming gaga) yaqin qo'shimcha ravishda 0,5 mln. t. paxta-xom ashyosi olingan bo'lur edi. Bu ko'rib chiqilayotgan toifa yerlaridan nooqilona foydalanilayotgandan darak beradi.

Ushbu toifa yerlari uchun bugungi kunda yurilayotgan yer hisobining nohaqqoniyliigi, ulardan foydalanish samaradorligini baholashning mavjud emasligi xarakterlidir. Kanal va kollektorlarni har bir tozalashda do'ngliklarni kengayishi kuzatiladi, bu hol har doim ham hisobga olinavermaydi; maydonlarni o'lchash chog'ida ko'pincha kanallar va kollektorlarni naturada kengliklarini o'lchash ishlari bajarilmaydi; ichki xo'jalik kanallari va kollektorlarining maydonlari har doim ham qishloq xo'jalik yerlaridan chiqarib tashlanmaydi, yer turlarining tarkibini o'rnatish amaliyoti bu yerda mavjud emas va hak.

10-jadval

Suv xo'jaligi yerlari maydonining o'sish sur'atlari 1991-2015 y.y*

Yillar	1991	1995	2000	2005	2010	2015
1	2	3	4	5	6	7
yer maydoni, ming.ga	618,8	702,0	810,2	825,4	821,1	832,4

* Yergeodezikadastr davlat qo'mitasi ma'lumotlari bo'yicha mualliflar tomonidan tuzildi

Baholash ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqilmagan, sug'oriladigan yerlar va suv fondi maydonlarini ilmiy asoslangan maqbul nisbatlari mavjud emas, ushbu yerlardan keyinchalik samarali foydalanish bo'yicha qandaydir maqsadli dasturlar mavjud emas. Hozirgi vaqtda ushbu toifa yerlari etarli darajada aniqlik kiritilmasdan hisobga olinadi, ulardan foydalanish samaradorligini baholash amaliyoti mavjud emas.

11,12,13 va 14-jadvallarda faqatgina sug'orish kanallari hamda kollektor-drenaj tarmoqlarining (gidrotexnik obyektlar va inshootlarsiz) texnik ko'rsatkichlari keltirilgan. Respublika bo'yicha kollektor-drenaj tarmoqlarining bugungi kundagi umumiy uzunligi 132,1 ming km.ni, shu jumladan magistral va xo'jaliklararo-32,0 ming. km va ichkixo'jalik-100,1 ming.km ni tashkil etadi. Joyning ushbu elementi bilan band bo'lgan maydon mos ravishda 216, ming ga, 127,9 va 88,4 ming gani tashkil etadi. 1 ga sug'oriladigan ekinzor maydoniga gektar kollektor va zovur

maydoni to'g'ri keladi. Sug'orish tarmoqlarining umumiy uzunligi 197,6 ming kmni, shu jumladan magistral hamda xo'jaliklararo—27,4 ming kmni va ichkixo'jalik— 170,2 ming kmni tashkil etadi. Joyning ushbu elementi bilan band bo'lgan yer maydoni mos tarzda 118,0 ming gani, 32,9 va 85,1 ming gani tashkil etadi. 1 ga sug'oriladigan ekinzor maydoniga 0,04 ga magistral va xo'jaliklararo kollektorlar, 0,05 ga—ichki xo'jalik hamda 0,09 ga—jami ushbu elementlar to'g'ri keladi. Sug'orish tarmoqlari bo'yicha-1 ga sug'oriladigan ekinzorlarga 0,036 ga jami sug'orish tarmoqlari, 0,012 ga magistral va xo'jaliklararo hamda 0,024 ga ichki xo'jalik kanallari to'g'ri keladi.

Qayd qilish zarurki, kollektorlar, sug'orish kanallari, ichki xo'jalik yo'l tarmoqlari, shuningdek gidrotexnik inshootlar bilan band yerlar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari rolini o'ynaydi. Ular ichki tarmoq ishlab chiqarishining iste'moli uchun foydalaniladi. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bo'yicha bunday yerlar yer solig'idan ozod qilingan bo'lsalar-da, bu maydonlar yer solig'iga tortilishi zarur. Sug'orish, kollektor va yo'l tarmoqlari bilan band yerlarni soliqqa tortish qishloq xo'jalik Yerlaridan oqilona va samarali foydalanishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida suvdan foydalanish va suv fondi yerdan foydalanishida bozor tamoyillarini qo'llash asosida suv fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish zarur. Bunda muhim vazifalar bo'lib, bir tomondan, suv fondi yerlaridan oqilona foydalanishni ta'minlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, ulardan foydalanish samaradorligini baholash ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi hisoblanadi. Birinchi holatda obyektlarni mavjudligini maqbul rejimini ta'minlaydigan suv ho'jaligi tizimlarini minimal me'yoriy yer uchastkasi bilan balandligini hamda texnik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va ilmiy asoslash zarur. Bundan tashqari, yerdan foydalanishning pullilik tamoyiliga hamda ularni qishloq xo'jalik jarayonida qatnashishiga mos tarzda suv fondi yerlariga asoslangan yer solig'ini kiritish zarur, bu o'z navbatida ulardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi. Ushbu yerlardan foydalanish samaradorligini baholash uchun baholash ko'rsatkichlari tizimini ishlab chikish zarur.

Suv fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun o'z ichiga texnik- texnologik hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni jamlagan baholash ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilishi zarur. Fikrimizcha, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar quyidagilar bo'lishi zarur:

-irrigatsiya va kollektor-zovur tarmoqlarini hamda ulardagi injenerli inshootlarni ishchi holatida ushlab turishga to'la va solishtirma ekspluatatsion harajatlar;

-sug'orish suvining kadastr qiymati;

-sug'orish suvining tashkiliy qiymati (umumiy va solishtirma, suv manbaasiga nisbatan yer uchastkasi joylashgan o'rnihisobga olgan holda tabaqalashtirilgan);

-suv fondi yerlaridan yer solig'i (suv xo'jaligi tizimi);

-qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish tannarxida suv ta'minoti va meliorativ tadbirlarga sarflanadigan harajatlarning solishtirma miqdori;

-qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorliklari;

-sug'oriladigan yerlarning bonitet balli (tizim bo'yicha o'rtacha, AVP bo'yicha tabaqalangan);

-sug'oriladigan suvning bonitet balli (tizim bo'yicha o'rtacha, AVP bo'yicha tabaqalangan);

-irrigatsiya tarmoqlarining rentabelligi

O‘zbekiston Respublikasi kollektor–drenaj tarmoqlarining umumiy texnik ko‘rsatkichlari, 2008 y. 1.01*

Viloyatlar	Sug‘oriladigan maydon, ming. ga	SHu jumladan drenaj bilan ta’minlangan, ming. Ga	SHu jumladan		Drenajning umumiy uzunligi, km	SHu jumladan xo‘jaliklararo km	SHu jumladan ichki xo‘jalik, km		
			vertikal, ming.ga	yopiq gorizantal, ming. ga			Umumiy uzunligi	shu jumladan yopiq gorizantal	shu jumladan ochiq drenaj
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	520	368	-	7,4	19885	3445	16440	430,4	16110
Andijon	264	181	35,39	14,95	8479	3508	4971	728,7	4242
Buxoro	274	219	40,22	15,55	7576	2843	4733	1001,4	3732
Jizzax	301	255	82,09	217,6	14982	1282	13700	11116	2584
Qashqadaryo	501	292	32,25	80,7	13939	2649	11290	6811	4479
Navoiy	132	103	12	4,7	2647	1045	1602	156	1446
Namangan	279	136	24,67	0,2	5071	1814	3257	29,6	3227
Samarqand	376	95	8,74	-	3197	1782	1415	-	1415
Surxandaryo	326	202	1,4	88,62	7163	1106	6057	1079	4978
Sirdaryo	291	291	53,8	86,53	16516	1963	14553	9403	5151
Toshkent	382	237	11,56	4,9	8560	2804	5755	141,2	5614
Farg‘ona	367	256	87,8	18,79	14492	4024	10468	639,6	9828
Xorazm	276	268	0,2	0,2	1064	3718	6922	504,1	6418
Respublika bo‘yicha	4260	2902	310,1		132146	31982	100163	32040	69125

* “Uzsuvloyiha” AJ ma’lumotlari bo‘yicha.

O'zbekiston Respublikasi sug'orish tarmoqlarining texnik ko'rsatkichlari, 2008 y. 01.01 ga*

Ko'rsatkichlar	Birliklar	Respublika bo'yicha jami	Norin -Qoradaryo	Norin -Sirdaryo	Qo'yi -Sirdaryo	CHirchiq - Ohangaron	Amu - Surxon	Amudaryo - Qashqadaryo	Amudaryo - Buxoro	Quy - Amudaryo	Zarafshon	Sirdaryo - Sox
Sug'oriladigan maydon	ming.ga	4260	271,0	275,2	524,4	382,8	325,0	507,5	273,7	755,4	543,3	262,0
Suv olish gidrouzillari	dona	686	22	28	22	19	3	216	23	117	167	47
Gidroinshootlar	dona	13345	1700	3192	1832	1631	1567	1535	2583	1347	3857	1836
Nasos stansiyalarining x/o tarmog'i	dona	1786	143	219	69	133	118	48	17	775	88	147
Nasos stansiyalarning ch/x tarmog'i	dona	6285	425	510	193	455	476	478	341	2307	348	752
Sug'orishga quduqlar	Dona	2968	71	1125	414	13	162	345	265	-	433	154
X/o tarmoqlari uzunligi	Km	27408	2726	2620	1454	3426	1514	2042	1901	6011	3046	2668
Betonlashgan	Km	8509	888	1037	545	916	418	1329	778	362	1200	1032
I/x tarmoqlarining uzunligi	Km	170192	12017	9492	11258	12021	13489	20450	16426	33277	23303	18460

* "Uzsuvloyiha" AJ ma'lumotlari bo'yicha 2015y. 01.01 ga.

O‘zbekiston Respublikasi sug‘orish tarmoqlarining texnik ko‘rsatkichlari, 2008 yil 1.01 ga*

Ko‘rsatkichlar	O‘lcho v birliklari	Respublika bo‘yicha jami	Norin -Qoradar yo	Norin - Sirdaryo	Qo‘yi - Sirdaryo	CHirchiq - Ohangar on	Amu - Surxon	Amudaryo o - Qashqad aryo	Amudaryo o - Buxoro	Quyida Amudaryo	Zarafshon	Sirdaryo o - Sox
X/o kanallar bilan band Yerlar	ga	32890	3271	3144	1745	4111	1817	2450	2281	7213	3655	3202
I/x kanallar bilan band Yerlar	ga	85096	6009	4746	5629	6011	6745	10225	8213	16639	11652	9230
Jami kanallar bilan band Yerlar	ga	117986	9280	7890	7374	10122	8561	12675	10494	23852	15307	12432
1 ga sug‘oriladigan ekinzorga to‘g‘ri keladigan x/o kanallari	ga/ga	0,012	0,018	0,017	0,005	0,016	0,008	0,007	0,013	0,014	0,010	0,018
1 ga sug‘oriladigan ekinzorga to‘g‘ri keladigan i/x kanallari	ga/ga	0,024	0,027	0,021	0,013	0,019	0,025	0,024	0,036	0,026	0,026	0,042
1 ga sug‘oriladigan ekinzorga to‘g‘ri keladigan jami kanal	ga/ga	0,036	0,045	0,038	0,018	0,035	0,033	0,031	0,049	0,040	0,036	0,060

* “O‘zsuvloyiha” AJ ma’lumotlari bo‘yicha muallif hisoblari.

Respublika kollektor-zovur va sug'orish tarmoqlarining texnik ko'rsatkichlari

Viloyatlar	Sug'oriladigan maydon ming.ga	Kollektorlar egallagan Yerlar maydoni			Sug'orish tarmoqlari egallagan maydon.ga			Kollektor va sug'orish tarmoqlari egallagan jami Yerlar.ga		
		Jami	Xo'jaliklararo	Ichki xo'jalik	Jami	Xo'jaliklararo	Ichki xo'jalik	Sug'orish tarmoqlari	Kollektor	Barchasi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	520	30088	13780	16308	-	-	-	-	0,06	-
Andijon	264	18711	14032	4679	-	-	-	-	0,07	-
Buxoro	274	15705	11372	4333	-	-	-	-	0,06	-
Jizzax	301	14382	5128	9254	-	-	-	-	0,05	-
Qashqadaryo	501	19162	10596	8566	-	-	-	-	0,04	-
Navoiy	132	5720	4180	1540	-	-	-	-	0,04	-
Namangan	279	10501	7256	3245	-	-	-	-	0,04	-
Samarqand	376	8543	7128	1415	-	-	-	-	0,02	-
Surxandaryo	326	10049	4424	5625	-	-	-	-	0,03	-
Sirdaryo	291	18644	7852	10792	-	-	-	-	0,06	-
Toshkent	382	16915	11216	5699	-	-	-	-	0,04	-
Farg'ona	367	26308	16096	10212	-	-	-	-	0,07	-
Xorazm	276	21592	14872	6720	-	-	-	-	0,08	-
Respublika bo'yicha	4260	216319	127932	88387	0,036	0,012	0,024	0,04	0,05	0,09

* "O'zsuvloyiha" AJning ma'lumotlari bo'yicha muallif hisoblari, 2008y 1.01ga.

Suv fondi yerlaridan foydalanish bo'yicha quyidagilarni hulosa qilish mumkin:

1. Yerdan va suvdan foydalanishda bozor tamoyillarini tadbiq qilish umumiy tarzda suv xo'jaligi tizimini samaradorligini, shu jumladan ular egallagan Yerlardan foydalanish samaradorligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblaniladi. SHu sababli ularni joriy qilishning shunga mos mexanizimlarini ishlab chiqish zarur.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotidagi suv fondi yerlardan foydalanishdagi ushbu resursni tarmoq ichidagi (qishloq xo'jaligi) mahsuldor ist'yemoli sifatida qaralishi zarur. Shu jihatdan ham u soliqqa tortilishi zarur. Qishloq xo'jaligi mohiyatidagi suv obyektlari yer bilan uzviy bog'liq ishlab chiqarish vositasi (EBBICHV) sifatida qaralishi zarur. Buning mashinasida suv fondi yerlarini qishloq xo'jalik yerlari bilan birgalashtirish maqsadga muvofiqdir.

3. Irrigatsiya va kollektor tarmoqlari, shuningdek ulardagi injenerli inshootlar tagidagi yerlar hisobining aniqligini mumkin qadar oshirish zarur. Ularni hisob qilishda noinki obyektlar tagidagi umumiy maydonlarni aniqlash, balki yer turlari maydonlarini ham aniqlash zarur, ya'ni yerlar ekslikatsiyasini tuzish zarur.

Shunday qilib, suv fondi yerlariga ham (qishloq xo'jaligi suvidan foydalanilishi) sug'oriladigan yerlar kabi ehtiyotkor munosabatda bo'lish zarur, negaki sug'orish va kollektor tarmoqlariga ham sug'oriladigan mintaqadagi yerlar ajiratiladi, ular ham qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanishi mumkin edi.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

1. Yer fondi toifasiga qanday yerlar kiradi?
2. Qishloq xo'jaligi suvdan foydalanishga suv fondi yerlarining qancha solishtirma ulushi to'g'ri keladi?
3. Suv fondi yerlari maydonining o'sish sur'ati qanday?
4. Suv fondi yerlari maydonining o'sish sur'atining asosiy sabablari qanday?

5.Sugʻorish va kollektor tarmoqlari nima uchun yer bilan chambarchas bogʻliq ishlab chiqarish vositasi deb ataladi?

6.Respublikada irrigatsiya tarmoqlarining texnik koʻrsatkichlari qanday?

7.Respublikadagi kollektor tarmoqlarining koʻrsatkichlari qanday?

8.Irrigatsiya tarmoqlari bilan, shu jumladan xoʻjaliklararo va ichki xoʻjalik tarmoqlari bilan maydonlar qancha?

9.Kollektor tarmoqlari bilan, shu jumladan xoʻjaliklararo va ichki xoʻjalik tarmoqlari bilan qancha yer maydonlari band?

10. Yer bilan chambarchas bogʻliq ishlab chiqarish vositalari tagidagi yerlardan foydalanish samaradorligi qanday baholanadi?

11. Suv fondi yerlaridan foydalanishda bozor tomoyillarini qoʻllashning qanday imkoniyatlari mavjud?

2.4 Aholi punktlari yerlaridan foydalanish

Aholi punktlari yeridan foydalanishi yerdan foydalanishning alohida, oʻziga xos turini tashkil etadi. Rasmiy maʼlumotlarga qaraganda, 2015 yil 1.01.ga aholi punktlari bilan band boʻlgan yerlar miqdori 929,1 ming.gani tashkil etadi. Bunda shaharlar va shahar tipidagi posyolkalar bilan band yerlar 219,6 ming.gani , qishloq aholi punktlari yerlari esa 709,5 ming.gani tashkil etadi. [35,15b]. Aholi punktlari yerdan foydalanishi oʻz ichiga 120ta shahar, 113 shahar tipidagi posyolkalar va 10 mingdan ziyod qishloq aholi punktlari yerlarini oladi [35,26 b]. Aholi punktlari (keyinchalik-shaharlar) maydonlari mamlakat yer fondining bor yoʻgʻi 2,1%ini tashkil etadi, ammo jamiyatni rivojlanishida bu yerlarning roli nihoyatda yirik; u yerlardan foydalanishni ijtimoiy, iqtisodiy,rekreatsion hamda ekologik mohiyatini aniqlaydi. Aholi punktlari yerlarining ijtimoiy mohiyati aholini joylashtirish hamda hayot faoliyatini amalga oshirilishini koʻzda tutadi. Aholini maqbul hayot faoliyati uchun aholi punktlarida quyidagi hududiy mintaqalar belgilanadi: uy-joy, jamoat markazi, ishlab chiqarish, injenerlik va transport infratuzilmalari, rekratsion va boshqa maxsus mohiyatdagilar [6,42b]. Iqtisodiy qirrasidan iboratki, shaharlar va posyolkalarning yirik qismida

Yerdan foydalanishning yuqori samaradorligini ko'zda tutuvchi sanoat obyektlarini, transport tarmoqlarini, injenerlik infratuzilmalarni joylashtirish bilan aniqlanadi. Aholi punktlarida rekratsion mintaqalar ham joylashtiriladi. Ularga shahar o'rmonlari, o'rmon-parklari, qirg'oq bo'ylari, madaniy meros obyektlari va boshqalar kiradi. Aholi punktlarini loyihalash va obodonlashtirish tabiiy landshaftlarni saqlashga imkon beradi. Bundan tashqari ular texnogen va tabiiy landshaftlar bilan uzviy o'zaro bog'liqdir. Bunday yerlardan foydalanish ko'p maqsadli, ko'p qirrali harakterga egadir.

Yerlardan foydalanishning ko'p maqsadli harakteri hududni rivojlanishini boshqarish hususiyatlarini, yer kadastrini yuritishni, hududni tashkil etishni, yerlarni qayta tiklash hamda muhofaza qilishni ko'zda tutadi. Aholi punktlari yerlarda 5395,3 mlrd so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga qarama-qarshi o'laroq 10913,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jalik yerlari (faqatgina sug'oriladigan yerlar bo'yicha)ning maydoni aholi punktlari maydonidan 9 barobar yirikdir. 2014-yili qishloq xo'jalik yerlaridan undirilgan soliqning umumiy miqdori 86 mlrd so'm atrofida bo'lgan bo'lsa, aholi punktlari yerlaridan esa (sanoat obyektlari bilan birgalikda) 283 mlrd so'mni tashkil etdi. Ushbu toifa yerlarni jamiyat uchun eng yirik ahamiyatga ega deb e'tirof etish hamda yer fondi tarkibiga uni birinchi o'rinda keltirish maqsadga muvofiqdir. Aholi punktlari yerdan foydalanishida uning kichik turlarini ajratish zarurdir; ***shaharlar, shahar tipidagi posyolkalar hamda qishloq posyolkalari yerdan foydalanishi***, ularning hususiyati maqsadli mohiyati bilan belgilanadi (9-rasm)

Qishloq posyolkalarida uy joy mintaqasi umumiy maydonning 90-95 %ni, shaharlarda-60% ga yaqinini tashkil etadi. Shaharlarda yirik maydonlarni sanoat va transport, savdo va xizmat ko'rsatish, jamoat mintaqalari tashkil etadi. Ko'p xonadonli hamda yakka tartibdagi uy-joy qurilishlari, dehqon (tomorqa) xo'jaligi yerdan foydalanishlari muhim kichik turlarga kiradi. Yerdan foydalanish tarkibi uning samaradorligiga, xarakteriga, yerlardan foydalanish intensivligiga, ular qiymatiga qamda yerlar uchun to'lovlarni tabaqalashtirishga yirik ta'sir ko'rsatadi.


Aholi punktlarining muhim hususiyatlari shundan iboratki, shaharlar va pasyolkalar chegaralarida qator boshqa toifa yerlardan foydalanishlari mavjuddir: sanoat va transport, suv va o'rmon fondi, tarixiy madaniy yodgorliklar, tabiatni muhofaza qilish va rekreatsion. Jumladan, shahar va shaxar tipidagi posyolkalar chegarasida bugungi kunda 9,5 ming.ga qishloq xo'jalik yerlari, 63,1 ming.ga yakka tartibdagi yer uchastkalari (shu jumladan 25,4 ming.ga ekinlar, 15,9 ming.ga bog'lar va uzumzorlar, 21,8 ming.ga qurilishlar tagidagi yerlar), 4,4 ming.ga o'rmon daraxtzorlari tagidagi yerlar mavjud. Bunda, agarda sanoat obyektlari, tarixiy madaniy yodgorliklar, rekreatsion, o'rmon xo'jaligi va suv xo'jaligi obyektlari yerdan foydalanishlari shahar (posyolka) chegaralariga kirishlariga qaramasdan ular o'zlarining yer toifalari statusini saqlab qoladilar. Bunday fikrni qishloq xo'jaligi mohiyatidagi yerlar to'g'risida aytish mumkin emas, ular shahar (posyolka) chegarasida bo'lishi kerak emas.

Agarda qishloq xo'jalik yerlari huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan shahar (posyolka) chegarasida bo'lsa ular qishloq xo'jaligi korxonasining balansidan tushirilgani holda (qishloq xo'jaligi yer mohiyati toifasidagi Yerdan chiqarilgani holda) yer ajratishni huquqiy rasmiylashtirish asosida shaharga olib berishi zarur. Agar yerlar baribir qishloq xo'jalik korxonasiga qarashli bo'lsa, ularni shahar, posyolka chegaralariga qo'shish uchun hech qanday huquqiy asos yo'q. Shunday qilib, shahar (posyolka) chegarasiga huquqiy asos bilan qo'shilgan qishloq xo'jalik yerlari qishloq xo'jaligi maqomini yo'qotadilar hamda ular qishloq xo'jalik toifasidagi yerlar sifatida hisobga olinishi kerak emas.

Shaharlar va posyolkalar yerdan foydalanishi huquqiy qirrasining hususiyati shundan iboratki ushbu toifadagi yer uchastkalariga huquqiy turkumining miqdori ko'pdir: mulk, abadiy merosiy egalik, foydalanish, ijara. Respublikadagi yakka tartibdagi uy-joylar tagidagi yer uchastkalariga (ishlab chiqarish va tijorat mohiyatidagi yer uchastkalari bilan bir qatorda) huquqiy mulkchilikni kiritish hozirda rejalashtirilgan. Ushbu toifa yerlarning boshqa hususiyati shundan iboratki, faqat shular uchun abadiy-merosiy egalik huquqi mavjuddir. Ushbu yerlardan foydalanish huquqiy rejimining hususiyatiga yangidan berilgan yer uchastkasidan

foydalanish, qurilishlar qurishni ikki yil davomida amalga oshirish kabi majburiy talabni kiritish lozim.

Shaharlar (posyolkalar) yerdan foydalanishining muhim hususiyatlari qatoriga ular hududini qator belgilari bo'yicha mintaqalash zarurligini kiritish mumkin: Yerlarni ma'muriy-hududiy, funksional mohiyati bo'yicha qiymati, sifat bahosi, soliq tizimi va xak. Mintaqalashni har bir turining mazmuni uni maqsadli mohiyati bo'yicha aniqlanadi, masalan:



8-rasm. Aholi punktlari Yerdan foydalanishining tarkibi.

shahar hududini rivojlantirishni boshqarish, shahar hududidagi qurilmalar tarkibini maqbullashtirish va boshqalar. Ammo, shahar hududini mintaqalashda qo'llanladigan "kadastr", "iqtisodiy" va "soliq" mintaqalashtirish baholash ko'rsatkichlarini tabaqalashtirish uchun uslubiy jihatdan noto'g'ri baholash natijalarini buzib ko'rsatuvchi usuldir.

Aholi punktlari yerdan foydalanishini axborotli ta'minotining o'ziga hosligi shaharlar va posyolkalar yerlari kadastrini yuritishning qator hususiyatlarini o'z

ichiga oladi. Ushbu yerlarni hisob qilishning o'ziga hos hususiyati shundan iboratki, shaharlar va posyolkalarda kichik maydonli yer uchastkalariga ega bo'lgan (qishloq xo'jaligi korxonalariga nisbatan) ko'p sonli yerdan foydalanuvchilar to'plangan. Bu esa, o'z navbatida, ancha yirik masshtabli karta materiallaridan foydalanishni, yerda turib tasvirga olish zaruriyatini, nisbatan murakkab kodlashtirishni, yer uchastkalar maydonlarini bog'lash va aniqlashni, yer hisobida ancha yuqori aniqlikni (boshqa toifa yerlarga nisbatan), mintaqalar 'yicha yer uchastkalarini tabiqlashtirishni talab qiladi. Yerlarni baholash uchun ham qator hususiyatlar harakterlidir: Yerlarni bonitirovkasini o'tkazish zaruriyati (tuproq bantirovkasidan farqli o'laroq): "tashqi" va "ichki" omillarning butun majmuasini hisob qilish talablari, qaysiki ular yer uchastkalarini iste'mollik hususiyatlariga ta'sir etadilar: shahar (posyolka) chegarasidagi turli toifa yerlarni baholash zaruriyati. Shaharlar va posyolkalarda yirik miqdordagi yerdan foydalanuvchilarning mavjudligi manfaatdor foydalanuvchilar tomonidan kadastr ahborotlarini kayta ishlash, bir tizimga keltirish, saqlash, yangilab turish, qidirish va tezkor ravishda etkazib berishda avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llashni talab qiladi. Yer kadastrining yuritishning o'ziga hos hususiyatlariga shuni ham kiritish zarurki, yerlarni baholash uchun maqsadli kadastr hamda bino va inshootlar kadastrining zaruriy ahborotlaridan foydalanish kerak bo'ladi, ya'ni sanab o'tilgan kadastrlar o'rtasida etarli aloqalar mavjuddir. Aholi punktlaridagi soliq stavkalari yerlarning funksional mohiyatini hisobga olgan holda tabaqalashtirilishi zarur. Bu ham aholi punktlari yerdan foydalanishining muhim hususiyatlaridan biridir.

Yer uchun to'lovlarga nisbatan, ya'ni soliq va ijara haqlariga nisbatan quyidagilarni qayd qilish zarur: soliq umuman mulkdan undiriladi (mulk sifatidagi ko'chmas mulklardan), uning miqdori ko'chmas mulkning qiymatidan foiz stavkasi sifatida aniqlanadi hamda, u xo'jalik yurituvchi subektning tadbirkorlik faoliyati natijalariga bog'liq emas. ijara haqi ijaraga olingan mulkdan (ko'chmas mulk) undiriladi va uning miqdori ijarachining tadbirkorlik faoliyati natijalariga bog'liq, shuning uchun yer davlat tasarrufida bo'lganda yerdan foydalanuvchi subektlar esa amalda ijarachilar bo'lganda yer solig'i to'g'risidagi qa'tiy

mazmunda gapirish unchalik to'g'ri emas. Aholi punktlaridagi yer solig'ining stavkasi shahar va posyolka yerlarini funksional mohiyatini hisobga olgan holda tabaqalashtirilishi zarur. Soliq stavkasining bunday tabaqalashtirilishi aholi punktlari yerdan foydalanilishining o'ziga hos hususiyatlaridan biridir.

Shahar va posyolkalarda yerlardan foydalanishni bozor qirrasini ularni kadastr qiymatini baholashni ko'zda tutadi. Qiymat baholash (bozor mavjud bo'lganda) va me'yoriy baholash (bozor mavjud bo'lmaganda) amalga oshiriladi. Yerlarni hususiyashtirish va yerlarni birlamchi bozorini yaratish sharoitida kadastr baholashning asosiy hamda, yagona qabul qilinishi mumkin bo'lgan usuli-bu daromadli usulga asoslangan me'yoriy uslubdir. Shuning uchun ham ko'chmas mulk obyektidan olinadigan daromad tabaqalashtirishni talab qiladi (qishloq xo'jaligi yerlarini baholashdan farqli o'laroq): bir tomondan, bino va inshootlarga to'g'ri keladigan daromaddan ulushni belgilash, ikkinchi tomondan-yer uchastkasidan. Qurilmagan yer uchastkalarini baholash uchun ham maxsus uslubiyat zarur.

Shaharlar va posyolkalar yerdan foydalanishining o'ziga hos hususiyatlaridan yana biri shundan iboratki, ushbu toifa yerlaridan foydalanishni baholash majmualari tarzda hamda Yerdan foydalanishning har bir qirrasiga mos keluvchi samaradorligining barcha turlari bo'yicha bir vaqtda o'tkazilishi zarur: ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion, ekologik. Bu esa bir vaqtda bir qator baholash uslublarini mavjud bo'lishini va qo'lanilishini (yerdan foydalanishni har bir qirrasini bo'yicha), shaharlar va posyolkalarning yerlaridan foydalanishning jamlangan samaradorligini o'rnatish (qator boshqa yer toifalari uchun harakterli bo'lmagan)ni talab qiladi. Aholi punktlari toifasidagi yerlarni qayta tiklash (qishloq xo'jaligi yerlari singari) o'z ichiga miqdor va sifat tarkiblarni oladi. Birinchi holatda qayta tiklash shahar chegarasiga boshqa toifalardan yangi yerlarni qo'shish (oldingi yerlardan foydalanuvchilardan yoki zahira yer toifasidan) vositasida amalga oshiriladi. Ikkinchi holatda esa yer uchastkasidan foydalanishni sifat jihatdan yaxshilash hisobiga amalga oshiriladi. O'z navbatida ikkita tashkil etuvchini qarab chiqish mumkin: Oldingi yoki kichik yer uchastkasidagi obyektlarni (ancha baland

uy-joy binolarini, yirik ishlab chiqarish va boshqa mohiyatdagi obyektlarni joylashtirish hisobiga) hamda yer uchastkasini qo‘shimcha yaxshilash natijasida (unga yoki uni yonidagi hududga investatsiya kiritish hisobiga). Buning natijasida yer uchastkasining iste‘mollik hususiyati, uning qiymat bahosi oshadi, demak samaradorlik (iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, rekreatsion) hamda foydalanishning daromadlilik ham oshadi. Shaharlar va posyolkalar yerini qayta tiklashning bunday o‘ziga hos karakteri ular yerlaridan foydalanishning o‘ziga hos hususiyatlaridan biridir. Shaharlar va posyolkalarning mavjud yerlaridan foydalanish, yuqoridagilar bilan bir qatorda, o‘zlarining ma’lum muammolariga ega. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- shaharlar va posyolkalar yerlaridan foydalanishning bugungi kundagi qonunchilik bazasi O‘zbekiston Respublikasining yer va shaharsozlik kodekslari bilan, “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi, “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilangan. Ammo ushbu qonunlarning hech-birida shahar yerlaridan foydalanishni boshqarish bo‘yicha “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasining vakolatlari to‘g‘risida gapirilmagan. Respublikadagi yer resurslari va yer kadastrini bo‘yicha shahar xizmati nisbatan yaqinda tashkil etilgan, yerdan foydalanishni boshqarishning alohida funksiyalari boshqa vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi: masalan, yer uchastkalarini berish hamda yer uchastkalariga baholarni tabaqalashtirish “Arxitektura va qurilish davlat qo‘mitasi” tomonidan amalga oshiriladi, yer uchastkalariga qiymatni belgilash davlat Mulk qo‘mitasi tomonidan o‘tkaziladi, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish “Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi” tomonidan, yerdan foydalanishni pullik tamoyilini tadbiriq qilish-davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan, yer kadastrini yuritish-“Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Yerlardan oqilona va samarali foydalanish, yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish, shaharlar yerdan foydalanish samaradorligini baholash, yerlardan oqilona foydalanish bo‘yicha nazorat tadbirlarini ishlab chiqish kabi funksiyalar umuman amalga oshirilmaydi. Bunday holat shaharlar yerlaridan foydalanishda ma’lum bir tizimning mavjud emasligini

hamda ularni boshqarishga diqqat-e'tiborning yo'qligini ko'rsatadi. Ma'lum bir tizimga ega bo'lgan yer kadastr ahborotli ta'minotning yo'qligi shahar yeridan foydalanishning muhim kamchiliklaridan biridir. Shaharlarda yer kadastrini yuritish respublikada yerdan foydalanishning pullilik tamoyilini hayotda tadbiq etilganidan boshlab boshlangan (1994-yil). Shaharlarda kadastr ishlarini vaqt bo'yicha bunday orqada qolishi boshqarish funksiyasini tadbiq etish bo'yicha qator kamchiliklar bo'lishiga olib keldi. Ulardan asosiylari quydagilardir:

-amaliy jihatdan respublika hududidagi barcha axoli punktlarining (G'ijduvon shahri bundan mustasno) qonuniy belgilangan, mustahkamlangan chegarasining mavjud emasligi, bu shaharlarning aniq umumiy maydonlarini hamda umuman aholi punktlari toifasidagi yerlarning maydonlarini zaruriy aniqlikda aniqlash, shuningdek respublika chegarasidagi barcha toifalar maydonlarini bog'lashga imkon bermaydi;

-shaharlar chegaralarining mavjud emasligi yer turlari maydonlari va tarkibiy (yerlar eksplutatsiyasi) aniqligini, shuningdek shaharlar va posyolkalar doirasida yer turlari maydonlarini bog'lanishini ta'minlamaydi;

-shahar (pasyolka) chegaralari tushunchasi turli me'yoriy hujjatlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan: O'zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksida (35-modda) e'tirof etiladiki, shahar yerlarini rivojlantirish va qurish Bosh planda belgilanadigan shahar chegarasi bilan aniqlanadi. Ammo masalaning bunday qo'yilishi, fikrimizcha, to'g'ri emas. shahar bilan qo'shni, shaharning loyihaviy chegarasiga qo'shilgan yerdan foydalanuvchilarning yer maydonlari hozirgi kunda shahar yerlariga kirmaydi, bu yerga huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan yer ajratish ishi amalga oshirilmagan. Bunday loyihaviy chegara haqiqiy yerdan foydalanishni yoritmaydi. Bu hol kadastr ma'lumotlarida yoritilishi zarur. chegaradosh yerdan foydalanuvchilar yerlarini (yoki yer uchastkasining bir qismini) zaruriy huquqiy rasmiylashtirmasdan turib shahar chegarasiga kiritish davlat yer hisobini yuritishda va umuman yer kadastrini yuritishda chalkashliklarga, qo'shni yerdan foydalanuvchilarni nohaqqoniy va samarasiz

rejalashtirishga hamda yer solig'ini noto'g'ri undirishga, yerdan foydalanishni boshqarishning qator boshqa funksiyalarini noto'g'ri amalga oshirishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida (60-modda) yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalari chegaralari bo'yicha aholi punktlarini chegaralarini belgilash ko'zda tutilgan. Demak, shahar chegarasi qo'shni yerdan foydalanuvchilarni huquqiy rasmiylashtirilgan chegaralari bo'yicha o'tishi zarur. Shu sababli shahar chegaralarini belgilashni aholi punktlari yer kadastrini yuritishning asosiy boshlang'ich holati deb qarash zarur:

-yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish, shaharlarda yer hisobini yuritish ham, yerdan foydalanuvchilarni to'lov qobiliyatiga qarab, (kadastr xizmatlari uchun) bugungi kunda amaliy jihatdan tanlangan holda amalga oshiriladi. Davlat yer kadastrini yuritish shahar va tuman xizmatlarida amalga oshiriladi, ular xo'jalik hisobi asosida ish yuritadilar. Buning natijasida shahar chegarasidagi yerlarni yoppasiga (ma'muriy va ijtimoiy obyektlar bilan birgalikda) ro'yhatga olish va hisobini yuritish bo'yicha har doim ham moliyaviy imkoniyatga ega emaslar. Shu sababli ham hozir kungacha amaliy jihatdan respublikaning hech bir shahri yer kadastrini bilan to'la qamrab olinmagan;

-shahar yerlarini kadastr baholanishining samarali, ilmiy asoslangan uslubiyatining mavjud emasligi hamda buning natijasida kadastr tadbirlari tarkibida bu turdagi ishning bajarilmaganligi. Bugungi kunda, 2007 yilning boshidan yer uchastkalarini hususiylashtirishni boshlanishi munosabati bilan shahar yerlari qiymatini kadastr baholash asosida emas, balki hududni iqtisodiy baholash asosida belgilashga urinishlar mavjuddir. Bu ikki turdagi baholashning alohida-alohida va turli mazmundagi turlari bo'lib ular turli mohiyatga, metodologiyaga hamda mazmunga egadirlar. Undan tashqari yerga bahoni tabaqalashtirish uchun (yer solig'ini va ijara haqini hisoblash) hududni mintaqalash qurolidan foydalanish metodologik nuqtai-nazaridan noto'g'ri usuldir, negaki bunday holatda salbiy samara vujudga kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, qidirilayotgan natijaning aniqligini pasaytiradi. Hududni iqtisodiy baholash ma'lumotlaridan shahar yerlarini qiymat baholash hamda hududni mintaqalash

mexanizmi uchun foydalanish yerga baho belgilashda, yer solig'ini hamda ijara haqini hisoblashda ma'lum noaniqlarga olib keladi;

-shaharlar va posyolkalar yerdan foydalanishida bozor tamoyillarini qo'llash sharoitida ko'p xonalik uylar yeridan foydalanishni takomillashtirish, yerga huquqni belgilash hamda jamoa bo'lib yerdan foydalanishda (yoki ijarada) to'lovlarni hisoblash masalalarini hal qilishga imkon beruvchi "kondominimular" deb nomlanadigan muammo o'rganilmagan.

Yer uchun to'lovlarni hisoblash muammosi amaliy jihatdan ikkita tashkil etuvchidan iborat:

a)shaharlar va posyolkalar yerlarini ilmiy asoslangan kadastr baholashni yerlar bonitirovkasini mavjud emasligi.

b) yer uchun ilmiy asoslangan to'lov stavkalarining mavjud emasligi.

Yer uchun to'lovlarni hisoblab chiqish muammosi yerlarni qiymat baholash muammosi bilan bog'liq, chunki to'lovlar yerni qiymatiga asoslanadi. Respublikada bu ikki muhim davlat tadbiri xronologik va metodologik jihatdan ba'zi obyektiv va subektiv sabablarga ko'ra joylarini almashtirishgan. 1994-yildan boshlab shahar yerlaridan foydalanishga to'lovlar belgilangan, 2006-yildan esa yerga baho belgilangan, bunda yerga baho belgilashda soliq to'lovlarni belgilash mexanizmidan foydalanish tavsiya qilingan.

Yer solig'ini hisoblab chiqish uchun bugungi kunda shaharlarda iqtisodiy (soliq) mintaqalar deb nomlanadigan termindan foydalaniladi. Toshkent shahrining hududi 5 soliq mintaqasiga, boshqa yirik shaharlar-3, o'rtacha-2, mayda shaharlar va posyolkalar esa 1 mintaqaga bo'lingan.

Toshkent shahri hududini soliq bo'yicha mintaqalashning asosiga hududni xo'jalik salohiyatini (resurslarini) baholash natijalari, ya'ni hududni iqtisodiy baholash materiallari qo'yilgan. Bunda shahar yerlari iste'mol qiymatini o'zgarishiga xo'jalik resurslarini ta'sir darajasini baholash emas, balki ushbu xo'jalik resurslarini smeta (qoldiq) qiymatidan foydalanilgan. 1999-2001 yillari o'tkazilgan shaharni tabiiy-xo'jalik salohiyatini iqtisodiy baholash ishlari yerlarni kadastr qiymatini baholashni o'zining maqsadi deb bilmagan, shahar hududini

iqtisodiy baholash ishlarini bajarish jarayonida yerning o'zi tabiiy resurs sifatida baholanmagan. Shunday tartibda bajarilgan shaharni xo'jalik salohiyatini iqtisodiy hududiy baholash amalda, umuman, shaharning xo'jalik salohiyatining (resurs sifatidagi yer maydonisiz) qiymati hamda shaharlarning ma'lum bir yer birligiga ushbu salohiyat qiymatining solishtirma ko'rsatkichi ko'rinishini olgan. Yer uchastkalarining iste'mollik xususiyatiga shahar tabiiy-xo'jalik salohiyatini belgilangan ta'siri nuqtai nazaridan shahar yerlarini hech qanday kadastr baholash to'g'risida so'z bo'lmayapti. Boshqacha qilib aytganda, yerni resurs sifatidagi bahosi boshqa resurslarni, asosan, xo'jalik (antropogen) resurslarining qiymati bilan almashtirilgan. Bu ikki turdagi baholash alohida-alohidadir hamda hudud va yerni turli xildagi baholashdir, ular turli mohiyatga, metodologiya hamda mazmunga egadirlar. Shunga qaramasdan Toshkent shahri hududini iqtisodiy baholash materiallari 1994-yildan boshlab soliq nuqtai nazaridan mintaqalash hamda yer solig'ini hisoblash asosiga qo'yilgan. Bundan tashqari yerga bahoni tabaqalashtirish uchun (yer solig'i hamda ijara haqini hisoblash uchun ham) hududni mintaqalashni qo'llanish metodologik nuqtai nazaridan noto'g'ridir, negaki ushbu holatga "salbiy samara" ta'sir etadi. Bu esa kutilayotgan natijaning aniqligini buzadi. Tabiiyki, bunday iqtisodiy mintaqalash Yerlarni qiymat baholash metodikasi bilan hech qanday umumiy asosga ega emas hamda YER uchun obyektiv va aniq to'lovlarni ta'minlamaydi.

Respublikaning boshqa shaharlariga kelsak, ular hududidagi soliq mintaqalari hech qanday tadqiqotlarsiz, subekktiv tarzda belgilangan.

Iqtisodiy nazariyadan ma'lumki, iqtisodiy toifalar sifatida yer solig'i bilan ijara haqi o'rtasida yirik farq mavjud: soliqlar mulkka-hususiy mulkka belgilanadi, ijara haqi esa ijaradagi mulkka belgilanadi. Ularni belgilash usullari ham turlichadir: soliq-bu mulkka belgilangan to'lov foyizi, ijara haqi-bu foydaning bir qismi hamda renta to'lovlarida asoslanadi. Davlat tasarrufidagi Yerlar yuridik hamda jismoniy shaxslarga foydalanishga beriladi. Shuning uchun bunday holatda yer solig'i emas ijara haqini hisoblash mexanizmini belgilash hamda ijara haqini undirish to'g'risida gapirish ancha maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bularning

barchasi yerga to'lovlar stavkasini hamda ilmiy asoslangan uslubni mavjud emasligidan dalolat beradi.

Turli maqsadga mo'ljallangan yer uchastkalariga to'lovlar miqdorini belgilash ilmiy jihatdan tadqiq qilinmagan hamda ilmiy asoslangan uslubiyat ishlab chiqilmagan: uy-joylar qurilishi, sanoat obyektlari, transport va aloqa obyektlari, o'rmon va suv fondi yer uchastkalari, tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion, salomatlikni tiklash mohiyatidagi, tarixiy madaniy yodgorliklar yerlari. ushbu barcha obyektlar shaharning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida turlicha rol o'ynaydilar hamda turlicha samaradorlik asosida foydalaniladi. Demak yer uchastkalariga to'lovlar ham tabaqalangan bo'lishi zarur.

Bugungi kunda shahar va posyolkalar chegarasida joylashgan ishlab chiqarish obyektlari yerlaridan to'lovlar undirish uslubining yo'qligi sababli bunday yerlardan soliq undirish qishloq joylarida joylashgan ishlab chiqarish obyektlari yerlariga shahar va posyolkalar soliq stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi. Shu maqsadda ushbu obyektlar yerlari, hatto ular shahar bilan qo'shni bo'lmasalarda (masalan: AGMK, Tallimarjon GESsidan yer solig'ini hisoblashda shunday amaliyot mavjud) sun'iy ravishda shahar chegarasi tarkibiga qo'shiladi. Bunday uslubiyat ularni iqtisodiy jihatdan mavjudligini inkor etib salbiy oqibatlarga olib kelgani holda sanoat korxonalarini yerlaridan to'lovlarni xuquqiy jihatdan buzilishiga olib keladi.

Bozor iqtisodining asosiy komponentlaridan biri (yerni qo'shgan holda) ko'chmas mulk bozori hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga (2006.24.07dagi PF 3780)ga muvofiq 2007 yil 1.01.dan ishlab chiqarish obyektlari tagidagi yer uchastkalarini, 2008yil 1.01dan esa yakka tartibda uy joy qurilishi uchun berilgan yer uchastkalarini hususiy lashtirish boshlanishi ko'zda tutilgan edi. yer bozorini yaratish bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun kuchli omil bo'ladi, negaki:

-ko'chmas mulk bozorini mavjud bo'lishi yerni bozor munosabatlariga to'la tortilishini hamda undan foydalanish samaradorligini tubdan oshirilishini ta'minlaydi;

- yer uchastkalarini hususiylashtirishdan davlat byudjetiga pul vositalarini tushishini hamda ko'chmas mulklarga bo'lgan huquqlarini ro'yhatga olishda davlat tushumlarini to'planishini ta'minlaydi;

-mamlakat iqtisodida hususiy mulkning rolini kuchaytiradi va ulushini ko'paytiradi, biznesni keyingi rivojlanishiga imkon beradi;

- yer munosabatlari subektlari tomonidan kreditlar olinishini, ipoteka institutlarini rivojlanishini hamda iqtisodiyotning ishlab chiqarish va uy-joy sektoriga yo'naltiriladigan investitsiyalarini ko'payishini ta'minlaydi, uy-joy qurilishi hamda uy-joy bozorini rivojlanishiga imkon beradi;

-bino va imoratlarni sotish bahonasi bilan davlat mulkchiligidan bo'lgan yer uchastkalarini sotish asosida vujudga kelgan qora yer bozorini tugatishga imkon beradi. Yer bozorini yaratishda, eng avvalo, ularni maqsadli mohiyati bo'yicha foydalanish samaradorligi va huquq turlari tartibidagi uy-joy qurilishi uchun yer fondini shakllanishi, yirik maydonlarda (1:500-1:2000) yirik mashtabli sifatli kartografik materiallarni mavjudligi, ularni deshifrovka qilish yoki to'g'rilash, yer uchastkalari maydonlarini aniqlash bo'yicha yirik hajmdagi ishlar bo'yicha aholi punktlari yerlarini yo'qlamadan (inventirizatsiya) o'tkazish talab qilinadi.

Yer uchastkalarini hususiylashtirish, shu bilan bir qatorda, noqishloq xo'jalik yerlarining kadastr axborotlarini ishlab chiqarishni, yer uchastkalari qiymatini aniqlashni, hususiylashtirilgan yerlarni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni, ijaraga berilgan yer uchastkalariga uzoq muddatli ijara haqlarining miqdorini belgilashni talab qiladi. Bu muammolar o'zlarini tadbiiq qilinishi va echimini kutmoqda.

Bugungi kunda shaharlar va posyolkalar yerlaridan foydalanish samaradorligini kompleks tarzda baholash uslubiyati mavjud emas. Shahar yerlaridan foydalanishning ko'p maqsadli harakteri (uy-joy qurilishlari, sanoat qurilishlari, transport va aloqa obyektlari, umumiy foydalanishdagi yerlar, tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion maqsaddagi yerlar, o'rmon va suv fondi yerlari, qishloq xo'jaligi yerlari, tarixiy-madaniy yodgorlik obyektlari) turli xildagi samaradorlikni olish bilan bog'liq; ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik. Bu o'z navbatida

shahar yerlaridan foydalanish samaradorligini baholashning yuqoridagilarga mos maqsadli uslubiyatlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu muammoli masala amaliy jihatdan yoki umuman o'rganilmagan yoki kam o'rganilgan. Shaharlar hududini funksional mintaqalari tarkibini maqbullashtirish muammosi to'la tadqiq qilinmagan, shunday shaharlar borki, yirik sanoat obyektlarining yerlari shahar yerlariga asossiz kiritilganligi natijasida sanoat mintaqasi boshqa barcha funksional mintaqalardan 10 barobar oshib ketadi. Darhaqiqat, shaharlarni funksional mintaqalarini maqbul tarkibini belgilash maqsadida shahar yerlaridan foydalanishning maqbullashtirilgan iqtisodiy - matyematik modelini ishlab chiqish zarur. Uning maqsadli funksiyasi sifatida shahar yerlaridan foydalanishni maqbul kompleks samaradorligi, cheklanish shartlari bo'lib esa, aholi uchun normal ijtimoiy, rekreatsion, sog'lomlashtirish hamda ekologik sharoitlarni ta'mirlaydigan parametrlar hisoblanadi.

Shaharlar yerdan foydalanishining muhim muammosi bo'lib, miqdoriy va sifat tashkil etuvchilarni o'zida jamlagan yer resurslarini qayta tiklash hisoblanadi.

Miqdoriy jihatdan shahar yerlarini kengaytirish qo'shni yerdan foydalanuvchilar (ko'p hollarda qishloq xo'jalik korxonalaridan) yerlarini kesib berish yoki zahira yerlar hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 44-moddasida qayd qilinadiki, sug'oriladigan yerlar alohida muhofaza qilinadi, ushbu yerlarni sug'orilmaydigan yerlar toifasiga o'tkazish alohida hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan bir vaqtda respublikada har yili qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan 5-7 ming gektargacha sug'oriladigan yerlar noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun, shu jumladan aholi punktlarini qurish uchun ham ajratiladi. Demak, sug'oriladigan yerlarni muhofaza qilish masalasiga etarli diqqat e'tibor berilmayapti. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksining 51-moddasida shahar atrofi mintaqalarining yerlari shaharlar, aholi punktlari hududlarini rivojlantirish uchun imkoniyat sifatida qaraladi. Bunda qanday yerlar, zahira yoki sug'oriladiganmi, aniqlik kiritilmagan. Sifat nuqtai-nazaridan shahar yerlarini qayta tiklash deganda oldingi yer

uchastkalaridagi qurilishlar qavatligini oshirish, yer osti kengliklaridan ancha jadal foydalanish, oldingi yoki qisqartirilgan maydonlarda quvvatli sanoat obyektlarini qurish va boshqalar tushuniladi. Yerdan foydalanishning ushbu muammolari ham o'zining keyingi tadqiqatlari va echimlarini talab qiladi.

Shunday qilib, sanab o'tilgan qisqacha tahlil shaharlarda tizimli yerlardan foydalanishning mavjud emasligidan darak beradi. Bu holat aholi punktlari toifasi Yerlaridan oqilona va samarali foydalanishga imkon bermaydi. Shu munosabat bilan hisoblaymizki, mamlakat yerlaridan foydalanish umumiy tizimining tarkibiy qismi sifatida shaharlar yerlaridan foydalanishni rivojlantirish va integratsion boshqarish O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tomonidan (yer resurslari bo'yicha shahar xizmatlari tomonidan) amalga oshirilishi zarur hamda bu vakolat qonunchilik asosida mustahkamlanishi zarur. Bu holat shaharlar yerlaridan foydalanish tizimini markazlashgan holda boshqarishga hamda harakterlarni muvofiqlashtirishga, yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishga, yerlardan bozor nuqtai-nazaridan foydalanish mexanizimini takomillashtirishga, yerlardan foydalanish va muhofaza qilishni tezkor amalga oshirishga, yer munozaralarini hal qilishga, yerlardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishni amalga oshirishga imkon beradi.

Aholi punktlari yerlaridan foydalanishdagi sanab o'tilgan o'ziga hos xususiyatlar va muammolar aholi punktlarida tizimli yerdan foydalanishning mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, ular yerlaridan oqilona va samarali foydalanishga imkon bermayapti. Shuning uchun shaharlar yerdan foydalanishini boshqarish mamlakat yerlaridan foydalanishni integratsion boshqarishning tarkibiy qismi sifatida "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshirilishi zarur hamda bu vakolat qonunchilik asosida mahkamlanishi zarur.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

1. Respublika aholi punktlari yerlarining maydoni qancha?
2. Aholi punktlari yerdan foydalanishining kichik turlarini aytib bering?

3. Aholi punktlari yerdan foydalanishi turlari bo'yicha maydonlari qanday tarkibga ega?
4. Aholi punktlari yerlarining toifasi qanday hususiyatlarga ega?
5. Aholi punktlari yerdan foydalanishida bozor tomoyillarini qo'llashning hususiyatlarini aytib bering?
6. Aholi punktlari yerdan foydalanishining qonunchilik bazasini nima tashkil etadi?
7. Aholi punktlari yerdan foydalanishining kamchiliklarini sanab bering?
8. Aholi punktlari yerdan foydalanishiga qanday to'lovlar ko'zda tutilgan?
9. Aholi punktlari yerlarini qayta tiklash usullarini aytib bering?
10. Aholi punktlarida yer kadastru ishlari qanday amalga oshiriladi?
11. Yer bozori bilan birgalikda ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish qanday istiqbollarga ega?

2.4 Mamlakatning mavjud yerdan foydalanishidagi muammolari

Yer resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini hayotga tadbqiq qilish sur'atlari mamlakatda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar salmog'iga unchalik to'la javob bermaydi. Bu to'g'rida yerlarni maqbul tarmoqlararo taqsimlanishi hamda iqtisodiy tarmoqlari va jamiyat faoliyatining sferalari bo'yicha yerlardan foydalanish samaradorligini baholash amaliyotini mavjud emasligi, yer kadastrini yuritishdagi mavjud kamchiliklar, qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning uncha yuqori bo'lmagan samaradorligi, qishloq xo'jalik yerlari sifatini pasayishi, bozor sharoitida yerlardan foydalanish mexanizimiga kiritiladigan iqtisodiy omillarni unchalik to'la o'rganilmaganligi, qishloqda aholini joylashtirish muammolarini mavjudligi, yer resurslarini qayta tiklash va boshqa qator muammolar guvohlik beradi. Yer resurslaridan foydalanishdagi kamchiliklarning asosiy sabablaridan biri-bu hozirgi kungacha tizimli yerdan foydalanishning aniq va samarali ravishda ishlab chiqilgan davlat Dasturlarining mavjud emasligidir. Bu Dastur yerdan foydalanish konsepsiyasini, yer munosabatlarining tarkibiy qismlari

tamoyillarini, mazmuni va metodologiyasini, keyingi rivojlanish yo'llarini aniqlaydi.

Yerdan foydalanishning samarali Dasturlarini mavjud emasligi yerdan foydalanishni ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatidagi mohiyatiga va rivojlangan yoki rivojlanmagan bozor iqtisodiyotiga ega jamiyatdagi yerning umum egallagan roliga, tabiiy majmuaning muhim birikmasi sifatidagi roliga etarli baho berilmaganligi bilan belgilanadi. Bunday dastursiz samarali yer siyosatini o'tkazish hamda yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash mumkin emas. Davlat mamlakatda bosh islohotchi, yer siyosati uchun vakolatli va ma'suliyatli davlat organi-bu "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi hisoblanadi. Bu tashkilot bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida ancha faol va aniq yer siyosatini yuritishi zarur.

Tizimli yerdan foydalanish Dasturining mazmuni yer resurslarini to'la tiklanish sikli bilan bog'liq bo'lishi zarur: ularni toifalari bo'yicha, jamiyat faoliyatining sferalari bo'yicha, iqtisodiy tarmoqlar, yer uchastkalari bo'yicha taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi); ularning maqsadli mohiyatiga mos tarzda foydalanilishi va ushbu jarayonni tadbiq qilish samaradorligini nazorat qilish; yer resurslarini qayta tiklash. Dastur bozor iqtisodiyotini yaratish mohiyati va vazifalariga javob beradigan tizimli yerdan foydalanish konsepsiyasini o'z ichiga olishi zarur. Yer nainki asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida, balki jamiyatdagi bozor munosabatlarining va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarining obyektini hamda tabiiy majmuaning asosiy birligi sifatida qaralishi zarur. Yerdan foydalanishni barcha qirralarining mazmuni va istiqboldagi rivojlanishi bu yerda o'z o'rnini topishi zarur.

Dasturda asosiy diqqat-e'tibor, ayniqsa bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan, yerdan foydalanishning iqtisodiy qirrasiga qaratilishi zarur. Barcha turlardagi yer maydonlarini hisoblash, bonitirovka qilish va yerlarni iqtisodiy baholash, soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, ipoteka tizimini rivojlantirish, hududni rivojlantirish hamda yer uchastkalaridan foydalanishda investitsiyalash shartlari va tartibi, Yerlarni qayta tiklash mexanizimini hamda ularni oqilona foydalanishni

rag'batlantirish, yer uchastkalari bilan turli harakatlarni amalga oshirish kabi muammolar ayniqsa yirik ahamiyatga ega bo'ladilar. Yerlardan iqtisodiy foydalanish mexanizimiga qo'shilishi mumkin bo'ladigan boshqa omillarni ham qabul qilish mumkin.

Dasturda mumkin qadar ijtimoiy, rekreatsion hamda ekologik masalalarni ko'proq ishlab chiqish zarur: Yerdan foydalanish masalalarini aholining turmush faoliyati uchun normal sharoitlar bilan, yer resurslaridan foydalanish jarayonidagi atrof muhitni saqlash bilan bog'lash zarur bo'ladi. Qishloq aholisini joylashtirishning maqbul sharoitlari, yerdan foydalanishning mintaqaviy tizimlarini (Qoraqalpog'iston, Farg'ona vodiysi va boshqa regionlar) ishlab chiqish yerdan foydalanishning o'ta muhim muammolari hisoblanadi. Yerdan foydalanishning ijtimoiy yo'nalishiga taalluqli tamoyillarni tadbqiq qilish yo'llarini, tabiiy majmualar bilan ularni o'zaro bog'liqligini aniqlash zarur bo'ladi.

“Yerdan foydalanish” tushunchasi bilan mutaxassislar o'rtasida juda keng tarqalib kelgan hamda yuqoridagiga nisbatan keng yoki teng mazmun va ahamiyatga ega bo'lgan “yer tuzish” tushunchasi o'rtasida aniq chegara qo'yilishi zarur. “yer tuzish” hududni tashkil etish bo'yicha davlat tadbirlarining tizimi bo'lib, yerdan foydalanishning hududiy qirrasini, yerdan foydalanishni integratsion boshqarishning funksiyalaridan biri sifatida mavjud bo'ladi. “yerdan foydalanish” hamda “yer tuzish” tushunchalari o'rtasida aniq chegaralanishning mavjud bo'lmaganligi yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasida chalkashliklarga va ularni tadbqiq qilish hamda yerlardan foydalanishda qator kamchiliklarga olib kelmoqda. Yerdan foydalanish mohiyatiga, mazmuniga hamda funksiyasiga ilmiy asoslangan yondoshuv zarur.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni doimiy ravishda chuqurlashuvi sababli yangilanib turadigan yer qonunchiligi tizimi ishlab chiqilgan hamda mavjuddir. Yer kodeksiga tizimli yerdan foydalanish to'g'risidagi tushunchani kiritish, bozor iqtisodiyoti sharoitida yerni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarining obyekt sifatidagi rolini etarli darajada ochib berish zarur; yerga bo'lgan mulkchilikning turli-tuman shakllarini mavjud bo'lishi nuqtai nazardan 16,17,39 va 40-moddalari

yirik tuzatishlar talab qiladi; yer uchastkasining mulkdori, egasi, foydalanuvchisi va ijarachisi terminlari chalkashib ketgan; umuman olganda, kodeks aksariyat agrar yo‘nalishga ega, shu bilan birga yirik miqdordagi qonun osti me‘yoriy hujjatlari ishlab chiqish zarur. Yerdan foydalanishning huquqiy qirrasini yer munosabatlarini tubdan isloh qilish uchun, yerda xo‘jalik yuritishning turli-tuman, tashkiliy-huquqiy shakllarini rivojlantirish, yerdan foydalanish subektlarining huquqiy rejimini takomillashtirish uchun zaruriy sharoitlarni yuqori sur‘atlarda ta‘minlashi zarur. Ushbu maqsadda “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish uchun zaruriy kenglikni ta‘minlaydigan yer munosabatlarini isloh qilish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va bashoratlash ishlarini amalga oshirish zarur.

Yer resurslarini tarmoqlararo taqsimotini maqbullashtirish ham yerdan foydalanishning muhim muammosi hisoblanadi. Yerdan foydalanish turlarini nazariy jihatdan yanada qayta o‘rganish talab qilinadi. Ularni hal qilish yerlarni tarmoqlararo taqsimlashni maqbullashtirish bilan hamda hududni tabiiy-iqtisodiy mintaqalari bilan bog‘liqdir. Yerdan foydalanish turlari, ularning mazmuni, o‘shirish sur‘atlari va xususiyatlari, har bir yerdan foydalanish turlari bo‘yicha yerdan foydalanish samaradorligini baholash nuqtai nazaridan yerlardan oqilona foydalanish masalalari rivojlantirilishi zarur. Barcha toifa yerlardan foydalanish ularga mos samaradorlikda (iqtisodiy, ijtimoiy, rekreatsion, ekologik) amalga oshirilishi zarur. Har bir faoliyat sohasida, iqtisodiyotni har bir tarmog‘ida yerlardan foydalanish samaradorligini (mavjud va potensial) baholash uslubiyatini ishlab chiqish zarur. Misollarga murojaat qilaylik. Masalan, suv fondi yerlarining maydoni keyingi 37 yil ichida 6 marta o‘sgan [60,50b], [39]. Ushbu sur‘at bilan yerlardan foydalanishning iqtisodiy yoki bo‘lmasa boshqa samaradorlikni o‘shirish qay tarzda kechganligi taqqoslanadi. Qishloq xo‘jalik yerlarini noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun har yili yirik miqdordagi (5-7 ming.ga sug‘oriladigan ekin yerlari) ajratilishi (kayta taqsimlanishi), ichki xo‘jalik qurilishlari (2-3 ming.ga sug‘oriladigan ekin yerlari), suv xo‘jaligi qurilishlari shular jumlasidandir. Yerlarni tarmoqlararo taqsimlashni maqbullashtirish nuqtai nazaridan bu qanchalik

asoslangan va samarali? Yerni ajratishda ularni o'rnini qoplash stavkalari etarli ilmiy asoslanishga egami?

Qishloq aholisini joylashtirish yerdan foydalanishning tarkibiy muammosi hisoblanadi. Respublikada 10 mingdan ortiq qishloq aholi punktlari mavjud, ularning umumiy maydoni 670,0 ming ga atrofida, asosan ular sug'oriladigan mintaqada joylashgan. Qishloq aholisini yiliga o'rtacha 2% o'sishini e'tiborga olsak, tomorqa yerlar fondini yillik o'sish sur'atlari 7-8 ming gani, posyolkalarni qo'shimcha obodonlashtirish va qurish hisobiga 9-10 ming ga sug'oriladigan yerlarni tashkil etadi [35,45b]. Bu qimmatli qishloq xo'jalik yerlaridan nooqilona foydalanishning eng yirik omillaridan biridir hamda bu qishloq aholisini joylashtirish muammosini vaqt o'tishi bilan murakkablashtiradi hamda dolzarb masalalar qatoriga chiqaradi.

Yer-suv munosabatlarini isloh qilishda yagona birlikka, organik jihatdan yagonalikka erishish sug'oriladigan yerdan foydalanishning eng muhim muammolaridan sanaladi. Yer va suv resurslari qishloq xo'jaligining asosiy omillari hisoblanadi. Nazariy jihatdan sug'oriladigan yer turlariga, hamda birinchi navbatda, ekin yerlariga tushuncha berish va mazmunini ochib berish zarur. Ikkinchidan, suv va yer resurslarini isloh qilishni, ayniqsa, xususiy yerdan foydalanish va ijara munosabatlarini rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda olib borish zarur. Yer uchastkalariga suvni etkazib berish hamda tabiiy resurs sifatidagi sug'orish suviga to'lovlarni ko'zda tutadigan qishloq xo'jaligi suvdan foydalanishida bozor tamoyillarini qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqishni tezlashtirish zarur.

Yerdan foydalanishni zamonaviy plan- kartalar bilan ta'minlash ham uning muhim muammosi hisoblanadi. Yer maydonlarini maqsadli foydalanishiga qarab (qishloq xo'jaligida, noqishloq xo'jaligida) ularga plan-kartalar tayyorlash uslublari o'zgaradi. Qishloq xo'jaligi uchun foydalaniladigan plan-karta materiallarining masshtablari asoslangan emas. "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tomonidan yer tuzish maqsadlari uchun 1:10000 masshtabdagi, bundan 15-20 yil muqaddam tayyorlangan fotoplanlardan bugungi kunda ham birlamchi

material sifatida foydalanilmoqda. U paytlarda qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘lchamlari 2,0 mingdan 10,0 ming gektargacha bo‘lgan. Bugungi kundagi fermer xo‘jaliklarining maydonlari bor-yo‘g‘i 20-40 gektarni tashkil etadi, talab qilinayotgan kartashunoslik materiallarining masshtablari esa asoslanmagan. Eski birlamchi fotomateriallarning masshtablarini yiriklashtirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan kompyuter texnologiyalari hech qanday maqtovgga loyiq emas, negaki olinadigan kartashunoslik asosining aniqligi fototasvirlar qanchalik yirikyishiga qarab proporsional ravishda pasayadi. Yer ustida bajariladigan geodezik ishlar yordamida fermer xo‘jaliklari maydonlarini aniqlash usuli ham samarali emas.

“Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi yerlarni xususiylashtirish hamda soliqqa tortishda anchagina faol rolni o‘ynashi zarur. Ishlab chiqarish obyektlari tagidagi hamda yakka tartibda uy-joy qurish uchun berilgan, xususiylashtiriladigan yer uchastkalarini qiymat baholash, shuningdek uni tabaqalashtirish aynan “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasining funksiyasiga kiradi. Mamlakat Prezidentining 2006 yil 24 iyuldagi PF-3780-sonli Farmonini-5 punktida aytiladiki, yuqorida qayd qilingan mohiyatga ega bo‘lgan YER uchastkalarini qayta baholash yerlarni kadastr baholashga asoslanishi zarur [19]. Ammo yerlarni kadastr baholashni mavjud emasligi sababli shahar yerlarini baholash asosiga Arxitektura va qurilish davlat qo‘mitasi tomonidan bajarilgan hududlarni iqtisodiy baholash materiallari qo‘yilgan. Natijada bu muammo o‘zining to‘g‘ri echimini topmadi, negaki yerning o‘zi emas, balki yerning o‘zida (yer tagida) joylashgan xo‘jalik obyektlari baholanadi.

Yerni soliqqa tortish tizimini ham takomillashtirish zarur bo‘ladi. Ushbu muammoni hal qilish renta munosabatlarini hisobga olgan holda faoliyatning barcha sohalari hamda iqtisodiy tarmoqlar tomonidan yer resurslaridan foydalanishga tizimli yondoshuv asosida amalga oshirilishi zarur. Yer umummilliy boylik hisoblanadi hamda idoraviy bo‘ysunuvidan qat’iy nazar barcha foydalaniladigan yerlar soliqqa tortilishi zarur.

Yer resurslarini qayta tiklash yerdan foydalanishning markaziy muammosi hisoblanadi. Ularni tabiiy jihatdan qayta tiklash chegaralangan. Iqtisodiy qayta tiklash o'z ichiga turli maqsadli mohiyatdagi qurilishlar uchun ajratilgan yerlarning me'yoriy tarifini qisqartirish, qurilishlar qalindligini oshirish, yerlarni rekultivatsiya qilish, yerlarni salbiy tabiiy va antropogen jarayonlardan muhofaza qilish kabi tadbirlarni oladi. Qishloq xo'jaligida ularni qayta tiklash tuproqlar unumdorligini qayta tiklash, yer turlarini transformatsiyalash bilan, buzilgan yerlarni rekultivatsiyasi ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan chiqib ketishini muhofaza qilish bilan bog'liqdir. O'ziga xos murakkabligi sababli ushbu muammo mamlakat yer resurslaridan foydalanishning Bosh sxemasida o'zining hal qiluvchi echimini topishi zarur. Bu sxema uchta asosiy bo'limni o'z ichiga oladi: Yer resurslarini maqbul taqsimlash (va qayta taqsimlash); mumkin qadar maksimal maqsadli funksiyasi asosida jamiyat faoliyatining sohalarida va iqtisodiy tarmoqlarda yerlardan foydalanish; yerlarni qayta tiklashni kengaytirish.

Yerdan foydalanishning tashkiliy muammolaridan biri-bu boshqarish funksiyasini chegaralashdir. Mamlakatda yer resurslarini taqsimlash davlat hokimiyati organlarining vakolatidir, loyiha ishlanmalarini muvofiqlashtirish hamda ularni to'g'ridan-to'g'ri tadbiriq qilish-“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasining vazifasidir. Yerlarning toifalari hamda iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha samarali foydalanish-tarmoqlarga mos keluvchi vazirliklar va idoralarning vazifasidir, “Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi esa faqat yerlardan oqilona foydalanishni nazorat qiladi hamda zaruriy ilmiy-uslubiy ta'minotni amalga oshiradi. Ular tomonidan yerlarni qayta tiklash bo'yicha loyiha echimlarini ishlab chiqish va tadbiriq qilish nazorat qilinadi hamda muvofiqlashtiradi. Shunday qilib, yerdan foydalanishni boshqarish bo'yicha vazifalar (yerlarni to'g'ridan-to'g'ri foydalanishdan tashqari) “Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasining funksiyalari hisoblanadi.

Yerdan foydalanish bo'yicha ilmiy-ishlab chiqarish muammolarining mavjudligi sharoitida “O'zdavyerloyiha” ilmiy-loyihalash instituti keyingi yillari o'zining haqiqiy maqomiga mos kelmaydigan, past malakali va kam samarali

ishlarni nihoyatda ko'p miqdorlarda bajarmoqda. Institutni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yerdan foydalanish maqsadlari uchun Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutida mutaxassislar tayyorlash sifati talabga unchalik javob beradi deb bo'lmaydi. "O'zdavyerloyiha" institutida, shuningdek "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining markaziy apparatida yerdan foydalanish muammolarini yuqori malakali darajada hal qiladigan ilmiy darajali mutaxassislar deyarli yo'q hisobida.

Tizimli yerdan foydalanish masalalari ilmiy adabiyotlarda deyarli qarab chiqilmagan, lekin yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning qator funksiyalari o'rganilgan. Yer tuzish yerdan foydalanishning tarkibiy qismi sifatida, yer kadastri masalalari, yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirishning alohida ko'rinishlari anchagina keng o'rganilgan. Tarmoqlararo yer taqsimoti, yer monitoringi masalalari kam darajada qarab chiqilgan, yer resurslarini qayta tiklash masalalari esa amaliy jihatdan o'zining zaruriy tadqiqini topgan emas.

Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida (arid mintaqasi) yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish muammosiga bag'ishlangan qator ilmiy-tadqiqotlar mavjud. Ularning asosiylariga quyidagilarni kiritish mumkin: S.A.Avezbaevning "Amudaryo etaklarida yerlardan oqilona foydalanish" monografiyasi [18], "O'zbekiston Respublikasining yer fondi va undan oqilona foydalanish" G'.A.Tolipov [31], "Sanoatning energetika tarmoqlarida yerdan foydalanish" A.K.Bozorov, "Turkmanistonda yer islohoti" I.M.Stanchin va Svilyermon [30]. "Yer bozori: bugungi kuni va istiqboli O.B.Karamatov , "Yer kadastri" A.R.Babajonov, Q.R.Rahmonov va G'ofirov A.J.[20], A.S.Chyertavitskiyning "Yer kadastri tizimining ilmiy-metodologik asoslari va yer-kadastr axborotlari aniqligini asoslash" mavzusidagi dissertatsiya ishi va qator boshqa tadqiqotlar shular jumlasidandir. Sanab o'tilgan ishlarda asosan qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishi qarab chiqilgan, mamlakat yer fondining boshqa toifalari amaliy jihatdan tadqiq qilinmagan, yer resurslarini qayta tiklash

masalalariga qo‘l urilmagan, yerdan foydalanishga tizimli yondashuv mavjud emas, bunday murakkab ijtimoiy voqeylikka qoida berilmagan.

Iqtisodiyotning agrar sektorini isloh qilish, shu jumladan yer-agrar munosabatlar masalalariga quyidagi ilmiy ishlar bag‘ishlangan: “Agrar islohot; tendensiyasi, amaliyoti, muammolari” R.X.Xusanov, “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi bozor iqtisodiyoti yo‘lida” U.X.Nigmatjonov, “O‘tish davrida qishloq xo‘jalik korxonalarini qayta tarkiblashning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari” O‘.P.Umirzoqov va K.A.Choriev, E.F.Trushinning “Yer-suv munosabatlarini isloh qilish iqtisodiy o‘shishning sharti sifatida (O‘zbekiston Respublikasi misolida)” mavzusidagi dissertatsiya ishi va boshqa qator tadqiqotlar shular jumlasidandir. Ularda yerdan foydalanish va yer munosabatlari masalalari asosan yer ishlab chiqarish resurslarining bir turi nuqtai nazardan qaraladi. Tizimli yerdan foydalanish nuqtai nazaridan hamda yerni to‘la qayta tiklash nuqtai nazaridan tadqiqotlar bu yerda ham mavjud emas.

Yerdan foydalanish va uni boshqarish muammolari bo‘yicha yirik tadqiqotlar MDH mamlakatlarida bajarilmoqda. Bu Yerda anchagina yirik ilmiy ishlarni ajratish zarur: “Yer islohoti sharoitida yer tuzish (Iqtisod, ekologiya, huquq)” S.N.Volkov, “Yer tuzishning ilmiy va metodik asoslari” M.A.Gendelman va boshq., “Yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish” A.A.Varlamov, S.N.Volkov, “Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish” A.A.Varlamov, V.S. Shamanaev, V.N.Xlistun, N.V.Komov, “Yer munosabatlari va yer tuzish” V.N.Xlistun, F.I.Palchikov, “Yerdan foydalanishni bozor mexanizmi” YA.M.Maul, V.V.Akimov, “Yer resurslarini boshqarish” A.A.Varlamov, S.A.Galchenko, “Yer resurslarini boshqarish” S.A.Tkachuk, “Rossiya Fedyeratsiya yer resurslarini boshqarishning zamonaviy tizimiga o‘tishni konseptual asoslari” P.F.Layko, “Aholi punktlari yerlari kadastri” V.V.Artyemenko va boshq., “Yer kadastri” I.V.Degtyarev va boshq. Yerdan foydalanish va yer munosabatlari sohasida sanab o‘tilgan va boshqa qator ishlar, so‘zsiz, nazariy nuqtai nazardan juda qimmatli hamda regional xususiyatlarga ega bo‘lgan (namlik etarli bo‘lmagan rayonlar, namlik ko‘p bo‘lgan rayonlar, uzoq

shimol rayonlar va boshq.) tadqiqotlar uchun nihoyatda zarurdir. Shu bilan birga, yerdan foydalanishga ijtimoiy voqeylik sifatida tizimli yondashuv muammolarini ular to‘la yoritmaydilar, uni to‘la qayta tiklash sikli nuqtai nazardan qaramaydilar, yerlardan ko‘p maqsadli foydalanish samaradorligini va umuman yerdan foydalanishning turli xillarini baholashning metodologik asoslarini o‘zida jamlamagan. Bularning barchasi tizimli yerdan foydalanish, shu jumladan uni regional xususiyatlarini hisobga olgan holdagi muammolarini keyingi tadqiq qilish zaruriyatini tug‘diradi.

O‘zbekistonda va umuman Markaziy Osiyodagi sug‘oriladigan yerlardan oqilona foydalanish muammolari shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan sharoitda tizimli yerdan foydalanish masalalari amaliy jihatdan o‘rganilmagan. Yerdan foydalanishni ijtimoiy voqeylik sifatida aniq qoidasi mavjud emas, yerlarni to‘la qayta tiklanish siklining bosqichlari tadqiq qilinmagan, yer resurslarini qayta tiklash muammolari bo‘yicha tadqiqotlar, birinchi galda, tuproq unumdorligini tadqiq qilish dolzarb hisoblanadi. Yerdan foydalanishning alohida turlari bo‘yicha va umuman mamlakat bo‘yicha ham samaradorlikni baholashning metodologik va metodik asoslarini ishlab chiqish zarur. Sanab o‘tilgan muammolarni tadqiq qilish bozor iqtisodiyoti rivojlangan sharoitda tizimli yerdan foydalanish konsensiyasini oldindan ishlab chiqishni talab qiladi.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

- 1.Respublikada yerdan foydalanishning qanday muammolari mavjud?
- 2.Yerdan foydalanish davlat Dasturining mavjudligi zaruriyatini qanday omillar aniqlaydi?
- 3.Yerdan foydalanish davlat Dasturining mazmuni qanday bo‘lishi zarur?
- 4.Yerdan foydalanishning zamonaviy bosqichlarida yer qonunchiligining vazifalari qanday?
- 5.Respublikada yer resurslarini tarmoqlararo taqsimlash (qayta taqsimoti) muammolarini mohiyati qanday?

6. Respublikada qishloq aholisining joylashtirishning asosiy muammolari nima?

7. Yer va suv munosabatlarini ularni organik birligida isloh qilishning obyektiv zaruriyatlari qanday?

8. Yerdan foydalanishning plan-karta materiallari bilan ta'minlashda qanday o'tkir muammolar mavjud?

9. Yerlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish zaruriyati nimani ko'zda tutadi?

10. Turli hududiy darajalarda boshqarish funksiyasini ajratishning mohiyati nima?

11. Yerdan foydalanish sohasidagi institutsional o'zgarishlarga zaruriyat qanday vujudga keladi?

2.5 Tizimli yerdan foydalanishning konseptual asoslari

Yuqorida e'tirof etildiki (6-mavzu), O'zbekistonning mavjud Yerdan foydalanishi quyidagi asosiy sabablarga ko'ra yer resurslaridan foydalanishda qator hal qilinmagan muammolarning mavjudligi oqibatida etarli samaraga ega emas: yer resurslaridan foydalanishni boshqarishda ma'lum tizimni mavjud bulmasligi, yerlardan oqilona foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish hamda yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirishning yo'qligi, yerdan foydalanishda bozor tamoyillarini faol tadbiq qilinishini etarli emasligi, yer resurslarini qayta tiklashga etarli diqqat-e'tiborni berilmaganligi, yerdan foydalanish samaradorligini baholash amaliyotini mavjud emasligi va boshqalar. Ularni hal qilish yerdan foydalanishni boshqarish hamda jamiyat rivojining bugungi bosqichida yer resurslaridan oqilona foydalanish muammolarigailmiy asoslangan holdagi yondoshuvni talab qiladi. Shu sababli respublikada bozor iqtisodiyotini vujudga keltirilishi sharoitida tizimli yerdan foydalanishning konseptual asoslarini ishlab chiqish talab qilinadi. Bu quyidagi muhim vazifalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

1. Quyidagi muammoli masalalarning echimi yerdan foydalanishga ijtimoiy-iqtisodiy voqeylik sifatida tizimli yondashuv zarurligini asoslashni talab qiladi. Yerdan foydalanish o'z ichiga abstrakt-moddiy xarakterdagi ikkita asosiy kichik

tizimni olgan yaxlit tizim sifatida qaralmog‘i zarur: mamlakat yer resurslari va yerdan foydalanishni integratsion boshqarish. Yerdan foydalanish tizimi ko‘p sonli tashkil etuvchi elementlarni o‘z ichiga olgan etarli darajadagi murakkab tizimdir. Yerdan foydalanish uchun nainki uning elementlari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlar xarakterlidir, balki atrof-muhit bilan uzviy bog‘liqlikda, o‘zaro munosabatda yerdan foydalanish o‘zining yaxlitligini namoyon qiladi. Shu jihatdan yerdan foydalanish tizimi tabiatdan foydalanishning kichik tizimi sifatida mavjud bo‘ladi va boshqariladi. Yerdan foydalanish-tabiat va jamiyatning mavjud qonunlaridan ongli ravishda foydalanish asosida obyektiv tarzda rivojlanayotgan jarayonlarni boshqarish uslublari hamda jamiyat tomonidan yerlardan doimiy, sikllik asosda va ko‘p maqsadli foydalanish tizimidir. Yerdan foydalanishning maqsadi- yer munosabatlarini muvofiqlashtirish asosida jamiyatdagi yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlash, yer resurslaridan foydalanishni tashkil etish hamda boshqarishning zamonaviy usullarini qo‘llash ekan, yerdan foydalanishga tizimsiz yondashuv zaruriy bo‘lgan manbalarni yarata olmaydi va uni amalga oshirishda samaradorlikni ta‘minlay olmaydi.

2. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlashning muhim qirrası-yerdan foydalanishning davriyligini hisobga olishdir. Tizimli yerdan foydalanish nuqtai nazaridan yer resurslaridan foydalanishning har bir to‘la qayta ishlab chiqarish davrida ulardan foydalanishning uchta asosiy bosqichlarini (etaplarini) ajratish zarur: yer resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash; ulardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish; yer resurslarini takroriy ishlab chiqarish (tiklash).

Yerlarni taqsimlash (qayta taqsimlash) yerdan foydalanishning maqsadli mohiyatini, shu jumladan jamiyat faoliyatining turli sohalarida, iqtisodiy tarmoqlarda, tarmoq ichida, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida yer maydonlarining taqsimotini aniqlovchi boshlang‘ich etap hisoblanadi. Bu yerda ichki iste‘mol hamda eksport maqsadlari uchun mahsulot ishlab chiqarishni hisobga olgan holda yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirishga manba yaratiladi. Yerlardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish bosqichi mahsulot ishlab chiqarish va iqtisodiy, ijtimoiy, rekreatsion, ekologik xarakterlardagi xizmat

ko'rsatish hamda texnologik, axborot, resurs, moliyaviy, tadbirkorlik va marketing ta'minoti bilan bog'liq. To'la davrning uchinchi bosqichi yerning sarflangan miqdori va sifatini tiklash bo'yicha turli maxsus tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq.

Yerdan foydalanishni to'la qayta tiklanish davrining bosqichlarini ko'rib chiqish yerdan foydalanishda ular har birining tutgan o'rnini aniqlash, yerlardan samarali foydalanish bo'yicha zaruriy tadbirlar majmuasini tabaqalashtirish, yerlardan foydalanishning umumiy samaradorligida har bir bosqichni qo'shgan ulushini aniqlash, har bir bosqichdagi yerdan foydalanishni boshqarish mazmuni hamda xarakterini o'rganish imkonini beradi. Busiz yerdan foydalanishni samarali boshqarish, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini rejalashtirish va baholash mumkin bo'lmaydi.

3. Mamlakat iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tishi yer munosabatlarini isloh qilishning obyektiv zaruriyatini tug'dirdi. Respublikada boshlangan yer islohoti yer uchastkalariga bo'lgan huquq turlarini kengaytirish, yerdan foydalanishning pulliligi, ijaraviy yer munosabatlari, yerda xo'jalik yuritishning turli-tuman tashkiliy-huquqiy shakllarini yaratish, xususiy yerdan foydalanish va hokazolar kabi yer munosabatlarining muhim tomonlarini qamrab oldi. Yer munosabatlarining amalga oshirilayotgan islohoti mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlarning oqimida ro'y bermoqda va u boshlang'ich davrida nisbatan agrar xo'jalikka ega edi. Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida yer munosabatlarini isloh qilish uning ancha chuqur mohiyatini-yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlarini qamrab oldi. Prezidentimiz Farmoni yuridik shaxslar va O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bino va inshootlari bilan band bo'lgan yerlari (2007yil 1.01dan)ni xususiylashtirishga asos soldi. Bunda xususiylashtirilgan yer uchastkalariga, bozor hatti-harakatlari bilan birgalikda ular oborotida hech bir chegara belgilanmagan. Ammo, bugungi kunga qadar bozor tamoyillari yerdan foydalanishda o'z aksini topgan emas. Aholi punktlari yerlarining kadastri to'la shakllanmagan, ushbu yerlarni sifat va qiymat baholash ishi haligacha boshlanmagan, yerlarni soliqqa tortish mexanizmi

takomillashtirishni talab qilmoqda, yer solig'i va ijara haqi stavkalarini asoslash zarur, fermer tomonidan yer uchastkalariga to'lanadigan ijara haki iqtisodiy mazmunga ega emas hamda bu kreditlar olish uchun garov sifatida garant vazifasini bajara olmaydi, bu esa o'z navbatida, ipoteka institutlarini rivojlanishini hamda yerlar sifatini yaxshilashga investitsiyalar tushumini kechiktirmoqda, tuproqlar unumdorligini qayta tiklash va qishloq xo'jaligida suvdan foydalanishda (sug'orish) bozor tamoyillarini tadbiiq qilishni moliyalash masalalari etarli darajada hal qilinmayapti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tizimli yerdan foydalanish yuqorida sanab o'tilgan masalalarni hal qilinishini talab qiladi.

4. Tizimli yerdan foydalanishning muhim muammolaridan biri-uning tarkibini maqbullashtirishdir. Maqbullashtirish deganda, jamiyat faoliyatining tarmoqlari o'rtasida yer resurslarini shunday taqsimoti tushuniladiki, bunda, bir tomondan, jamiyat to'la tarzda hamda yer munosabatlarining alohida subektlarini barcha zaruriy talablarini qondiradigan, ikkinchi tomondan esa mamlakat yer resurslaridan foydalanishning maksimal umumiy samaradorligiga erishiladigan tarmoqlararo yer resurslarini taqsimlashdir. Ushbu maqsadda jamiyat hayotining ijtimoiy sohasini, mamlakat iqtisodiyotini yer resurslariga bo'lgan talablari, rekreatsion hamda tabiatni muhofazalash yerlariga zaruriyatlari belgilanadi. Yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish mamlakat yer resurslaridan foydalanishni boshqarish va rejalashtirish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. U mamlakat iqtisodiyotini, jamiyatning iqtisodiy tarmoqlarini, tabiatni muhofaza qilish faoliyatini rivojlanishiga yirik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, sanoat tarmoqlari yoki qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish tarkibini maqbullashtirish, bir tomondan, mahsulotlarning zaruriy hajmini ishlab chiqarishga, ikkinchi tomondan, yerni resurs sifatida imkoni barcha kamroq ishlatishga ta'sir ko'rsatadi. Bu ishlab chiqarish harajatlarini kamaytiradi, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni raqobatbardosh qiladi va umuman yerlardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Bugungi kunda yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish muammosiga etarli e'tibor berilmayapti, bu hol bir necha sabablarga ko'ra ro'y bermoqda: qator hollarda ishlab chiqarish va noqishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning ilmiy

asoslangan me'yorlari mavjud emas, yer uchun to'lovlar mexanizmi takomillashmagan, qishloq xo'jaligida keyingi yillari qishloq xo'jalik ekinlarining rotatsiyasi(almashlab ekish) mavjud emas va boshqalar. Yerdan foydalanishning maqbul tarkibini mavjud emasligi yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga imkon bermayapti.

5.Yer resurslarini qayta tiklash ham tizimli yerdan foydalanishning muhim muammosidir. Iqtisodiyotda (qishloq va o'rmon xo'jaligi bundan mustasno) hamda ijtimoiy sohada yer ishlab chiqarish vositasi yoki kenglik operatsion asos vazifasini bajaradi, yerdan foydalanishning to'la qayta tiklanish davri bir necha yilni yoki o'n yillarni tashkil etadi. Shu sababli ham uni qayta tiklash muammosi bu yerda unchalik muhim emas. Shu bilan bir vaqtda bu muammo iqtisodiyotning agrar sohasida juda ham dolzarblashgan. Bu yerda, birinchidan, yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi va mahsulot ishlab chiqarish tuproqlar unumdorligini ishlab chiqarish iste'moli bilan bog'liq, ikkinchidan, keyingi ishlab chiqarishni yuritish oldin iste'mol qilingan tuproq unumdorligini tiklashni talab qiladi, uchinchidan, yerdan foydalanishni to'la qayta tiklanish davri bu Yerdan anchagina qisqa-qishloq xo'jaligi yoki kalendar yilini tashkil etadi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida qishloq xo'jaligining rolini e'tirof etgan xolda kayd kilish zarurki, qishloq xo'jaligi yerlarini qayta tiklanishi, birinchi navbatda, o'zini tezlik bilan tiklanishini talab qilinadigan tizim, yerdan foydalanishning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bugungi kunda respublikada ushbu muammoga etarli e'tibor berilmagan. Keyingi 15-20 yil ichida tuproq unumdorligi keskin pasayib ketdi, sug'oriladigan yerlarning yirik maydonlari turli darajalardagi sho'rlanishga (60% gacha) va eroziyaga uchragan, Yerlarni botqoqlashganlik holatlari mavjud, 400 ming gektarga yaqin sug'oriladigan yerlar qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketgan. Bularning barchasi yerdan foydalanishni tizimsizligi to'g'risida, yerdan foydalanishni to'la qayta tiklanish davrining uchinchi bosqichi-ularni takror ishlab chiqarish (tiklanish)ga e'tiborni etarli bo'lmaganligi to'g'risida guvohlik beradi.

6.Tizimli yerdan foydalanishning muhim muammolaridan biriuning samaradorligini baholashdir. Bugungi kunga qadar u respublikada o'zining amaliy

echimini topmagan. Jamiyatda yerdan foydalanishning ko‘p maqsadli xarakteri o‘z ichiga iqtisodiy, ijtimoiy, rekreatsion, ekologik kabi Yerdan foydalanish turlarining jamlangan samaradorligi bilan bog‘liqdir. Samaradorlikni baholashning mavjud emasligi mamlakat yerdan foydalanishini samaradorligi to‘g‘risida fikr yuritishga, yer resurslaridan foydalanishda to‘la qayta tiklanish davrini samaradorligini qiyosiy baholashni amalga oshirishga, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishga, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni bashoratlash va rejalashtirishni o‘tkazishga imkon bermaydi. Demak, bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda tizimli Yerdan foydalanish mamlakat yer resurslaridan foydalanish samaradorligini alohida turlarini hamda jamlangan tarzda har yilgi baholashni amalga oshirishni ko‘zda tutadi.

Yerdan foydalanishning barcha yuqorida sanab o‘tilgan konseptual asoslari shunday amalga oshirilsagina yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlaydi. Shu munosabat bilan bozor sharoitida zamonaviy Yerdan foydalanishning quyidagi konsepsiyasi shakllantiriladi: Yerdan foydalanish rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotini hisobga olgan holda yer resurslaridan foydalanish usullariga hamda ularni to‘la qayta tiklanish davrini boshqarish uslublariga tizimli yondoshuv asosida amalga oshirishi zarur.

Bilimni tekshirish uchun savollar:

1. Bugungi kunda yerdan foydalanishni boshqarishda qanday asosiy kamchiliklar mavjud?
2. Yerdan foydalanish muammosini hal qilishga tizimli yondoshuv deganda nimani tushunasiz?
3. Yerdan foydalanish jarayonida nima uchun to‘la qayta tiklanish davri hisobga olinishi zarur?
4. Yerdan foydalanish jarayonida yerni qayta tiklanish davri qanday tartibda hisobga olinishi zarur?
5. Yerdan foydalanishda bozor tamoyillari qanday tadbiriq qilinishi zarur?
6. Yerga to‘lovlar mexanizmi qay tartibda takomilashtirilishi zarur?

7.Yerdan foydalanishni maqbullashtirish muammosi nima uchun va qanday hal qilinishi zarur?

8.Tizimli yerdan foydalanishda tuproq unumdorliginitiklashga qanday rol ajratilgan?

9.Tizimli yerdan foydalanishda uni jamlanma samaradorligini baholashga qanday rol ajratilgan?

10.Tizimli yerdan foydalanish Konsepsiyasini ishlab chiqishga zaruriyat qanday omillar bilan aniqlangan?

11.Tizimli yerdan foydalanish Konsepsiyasining asosiy mazmunini shakllantiring?

2.6 Mamlakatda yerdan foydalanishni boshqarishning holati

Respublikada yer resurslaridan foydalanish 1998 yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi qoshidagi yerdan foydalanish va yer tuzish Bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan. Boshqarma tarkibida 4 bo‘lim faoliyat ko‘rsatgan: yerlarni davlat hisobi, yerlarni baholash, huquq bo‘limi va moliya bo‘limi. Barcha oldingi yillar, ya’ni iqtisodiyotni sotsialistik rejaliligi hamda yerga davlat mulkchiligi sharoitida, boshqarmaning yer oid siyosati asosan qishloq xo‘jalik yerlarini tashkil etish va ulardan foydalanishga bo‘ysundirilgan edi. Boshqa toifa yerlari, qoidaga binoan, yer resurslaridan foydalanishni integratsion boshqarishda yirik rol o‘ynamagan. Ishlab chiqilgan respublika yerdan foydalanishining Bosh sxemasi hamda viloyatlar va tumanlar yer tuzish sxemalari qishloq hududlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan hamda, asosan, qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha tadbirlarni ko‘zda tutgan. Yer tuzish ishlari faqat qishloq xo‘jaligi uchun hamda faqat qishloq xo‘jalik korxonalarida yuritilgan. Respublika yerlarini davlat hisobi bo‘yicha har yili tuziladigan ma’lumotlar (mamlakat yer fondi) hamda besh yilda bir marotaba o‘tkaziladigan baholash turlari (tuproq bonitirovkasi) faqatgina qishloq xo‘jalik yerlariga tegishli bo‘lgan va bu ishlab chiqarish talablarini hamda qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi manfaatlarini qondirgan. Ushbu davrda yer fondini boshqarish muammolarini shunday tarzda qo‘yilishi mamlakatda o‘tkazilayotgan yer

siyosatining talablariga, balki, javob bergan bo'lsa kerak, negaki boshqa toifalar yerlari to'g'risidagi axborotlar xalq xo'jaligi uchun kerak bo'lmagan, ammo, umuman, u jami yer fondini, barcha yer toifalarini qamrab olmagan, yer resurslaridan foydalanish samaradorligiga baho bermagan.

1998 yili O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Davlat yer kadastri to'g'risida"gi qonunlarini o'z ichiga olgan holda mamlakatda yer qonunchiligining bazasi yaratildi, Yerdan foydalanishga bozor tamoyillari qo'llanila boshlandi, shu jumladan: Yerdan foydalanishning pulliligi, xususiy yerdan foydalanish, bozor yer munosabatlari va boshq. yer resurslarini bozor munosabatlariga tortilishi hamda o'tish davrida ulardan foydalanish samaradorligiga talabni oshirilishi sababli 1998 yili hukumat tomonidan O'zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi (Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi 114-sonli "O'zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo'mitasi Faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risidan"gi Qarori).

Yer resurslari Davlat qo'mitasini tashkil etishdan asosiy maqsad-bozor sharoitida mamlakat yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash zaruriyatidir. U quyidagi tarkibdan iborat bo'lgan:

-qo'mita raisining ikkita o'rinbosari;

-davlat kadastri boshqarmasi, shu jumladan, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish va yer hisobi bo'limi, yer monitoringi 1-chi o'rinbosarning tasarrufida bo'lgan;

-yerdan foydalanish va yerlarni muhofaza qilish Inspeksiyasi, yerdan foydalanish va yer tuzish Boshqarmasi, "O'zdaverloyiha" ilmiy-loyihalash instituti, "Tuproqshunoslik va agrokimyoy" ilmiy-tadqiqot instituti o'rinbosar (ikkinchi)ning tasarrufida bo'lgan.

Yer resurslar Davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy funksiyalari quydagilar bilan belgilangan edi: mamlakat yer resurslaridan oqilona va samarali

foydalanishni ta'minlash; tuproq unumdorligini qayta tiklash, Eroziyaga qarshi ishlar, sug'oriladigan yerlarni meliorativ tayyorgarlik va qator boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003yil 9 dekabridagi PF-3358-sonli "Davlat boshqaruvining respublika organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq hamda yerdan foydalanish, geodeziya va kartografiya sohalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda oqilona yerdan foydalanishni ta'minlash, davlat kadastrining yagona tizimini yuritish maqsadlarida 2004 yili tugatilayotgan O'zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari Bosh boshqarmasi negizida O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari Davlat qo'mitasi (Yergeodezkadastr) tashkil etilgan.

"Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasining asosiy vazifalari, mamlakat Prezidentining farmonida e'tirof etilgandek, quyidagilar qilib belgilangan:

- yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta'minlash;
- yerlardan foydalanish va muhofaza qilishda davlat nazoratini amalga oshirish;
- tuproq unumdorligini oshirish, Yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- geodezik va xaritashunoslik faoliyatini boshqarish;
- davlat geodezik nazoratini tashkil etish;
- davlat kadastrini yuritish sohasida joylardagi davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish;
- davlat yer kadastrini, kartografiya-geodeziya davlat kadastrini, bino va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek davlat kadastrining yagona tizimini rivojlantirish.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomida e‘tirof etiladiki, “Yergeodezkadastr” davlat boshqaruv organi hisoblanadi hamda u o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisob beradi. Uning hududiy bo‘linmalari “Yergeodezkadastr”ga idoraviy bo‘ysunadilar hamda joylardagi o‘zlariga mos davlat hokimiyati organlariga hisob beradilar, ya’ni metodik jihatdan hududiy organlar idoraviy bo‘ysunuvda bo‘ladilar, hududiy jihatdan esa-mahalliy hokimiyat organlariga bo‘ysunadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlariga muvofiq Yergeodezkadastr tarkibiga quyidagi korxonalar va tashkilotlar kiritilgan:

- 1.Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari Boshqarmalari;
- 2.tumanlar (shaharlar) yer resurslari va davlat kadastr bo‘limlari;
- 3.davlat geodezik nazorat Inspeksiyasi;
- 4.Markaziy aerogeodezik korxonasi;
- 5.Samarqand aerogeodezik korxonasi;
- 6.“Kartografiya” Davlat ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi;
- 7.Geodeziya va kartografiya Milliy markazi;
- 8.Tuproqshunoslik va agrokimyo Davlat ilmiy-tadqiqot instituti;
- 9.“O‘zdavyerloyiha” yer tuzish bo‘yicha Davlat ilmiy-loyihalash instituti;
- 10.“Geomnformkadastr” Davlat unitar korxonasi (bugungi kunda bu tashkilot “O‘zdavyerloyiha” instituti tarkibida bo‘lim sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda).

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasining asosiy vazifalari quyidagilar qilib belgilangan:

-yer resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirilishini ta’minlash, yer munosabatlarini muvofiqlashtirishni, yer tuzish va yer monitoringini, tuproqlar unumdorligini saqlanishi, oshirilishi hamda qayta tiklanishini ta’minlash;

-tuproqlar unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturini ishlab chiqish va tadbiriq qilish;

-yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

-geodezik va xaritashunoslik faoliyatlarini boshqarish;

-davlat geodezik nazoratni tashkil etish;

-davlat kadastrlarini yuritish sohasida joylardagi davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruv organlari faoliyatlarini muvofiqlashtirish;

-davlat yer kadastrini, davlat kartografiya-geodeziya kadastrini, bino va inshootlar davlat kadastrini, shuningdek davlat kadastrlarini yagona tizimini yuritish.

“Yergeodezkadastr” Davlat qo‘mitasining funksiyasi yo‘nalishlari bo‘yicha, qo‘mita to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, quyidagicha tabaqalashtirilgan.

1.Yerdan foydalanish sohasida:

-yer munosabatlarini muvofiqlashtirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish tizimlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirishini ta‘minlash;

-yerlardan foydalanish, tuproq unumdorligini saqlanishi va oshirilishini ta‘minlash sohasida yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari faoliyatini koordinatsiyalash;

-yer tuzishni tashkil etish, Yerdan foydalanish va muhofaza qilish, yer resurslarini hisobini yuritish va baholashni takomillashtirishga yo‘naltirilgan majmualiy tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

-yuridik va jismoniy shaxslar, davlat boshqaruv organlari, joylardagi mahalliy hokimiyat organlari tomonidan yer qonunchiligi talablariga rioya qilinishini,

Yerdan foydalanish va muhofaza qilinishini davlat nazoratini tashkil etish va amalga oshirish hamda yo‘l qo‘yilgan qonun buzilishlarni tugatish bo‘yicha o‘z vaqtida chora-tadbirlar qabul qilinishini ta‘minlash va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish;

-yer fondining holati bo‘yicha yer monitoringini amalga oshirish, o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, salbiy jarayonlar oqibatlaridan ogohlantirish hamda tugatish;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda tuproqlar unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish va tadbiq qilish;

-yer resurslarining holati to'g'risida har yilga Milliy hisobotni tuzish.

2. Geodeziya va kartografiya sohasida:

-davlat geodezik tarmoqlarni yaratish, rivojlantirish hamda ishchi holatda ushlab turish;

-grafik, raqamli, fotografik va boshqa shakllarda davlat va mahsus mohiyatli topografik karta va planlarni yaratish, yangilab turish hamda nashr qilish;

-yerni masofadan zondlash va geodinamik kuzatuvlarni amalga oshirish;

-tarmoqlararo mohiyatli umumgeografik, siyosiy-ma'muriy, ilmiy-ma'lumotnomali va boshqa mavzuli xaritalar va atlaslar, o'quv kartografik qo'llanmalar yaratish va nashr qilish;

-davlat va maxsus mohiyatli geografik axborotli tizimlarni yaratish hamda yuritish;

-O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasining delimitatsiyasi, demarkatsiyasini geodezik, kartografik va gidrografik ta'minoti;

-geodezik, kartografik hamda kadastr ishlarini metrologik ta'minotini tashkil etish;

-geodezik va kartografik faoliyatni koordinatsiyalash hamda muvofiqlashtirish;

-davlat geodezik nazoratini amalga oshirish;

-davlat kartografik-geodezik fondini shakllantirish va yangilab turish;

-geografik nomlarni standartlash, hisobga olish va tartibga solishni ta'minlash;

-ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlarini bajarish, me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish, geodezik va xaritashunoslik asbob-uskunalarini ishlab chiqishni tashkil etish;

-iqtisodiyot tarmoqlarini, fan, mudofaa hamda aholini geodezik, kartografik axborotlar bilan ta'minlash;

-geodezik va xaritashunoslik faoliyatlarini litsenziyalashni tashkil etish.

3. Davlat kadastrlari sohasida:

-mahalliy davlat boshqaruv organlarini va mahalliy davlat hokimiyati organlarini davlat kadastrlarini yuritishlari sohasidagi faoliyatlarini koordinatsiyalash;

-davlat kadastrining yagona tizimiga kiritiladigan tarmoqli kadastr axborotlarini to'plash, tahlil qilish, bir tizimga keltirish, saqlash va yangilab turish;

-davlat yer kadastrini yuritish;

-bino va inshootlar davlat kadastrini yuritish;

-kartografo-geodezik davlat kadastrini yuritish;

-ilmiy-tadqiqot, tajriba-texnologik ishlarini bajarish, me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

-viloyat va tumanlar, shuningdek aholi punktlarining ma'muriy chegaralarini to'g'rilash;

-foydalanuvchilarni kadastr axborotlari bilan ta'minlash;

4. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxati sohasida:

-ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni hamda ko'chmas mulklar bilan bo'ladigan harakatlarni davlat ro'yxatini amalga oshirish;

-ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar, ularni bir huquq egasidan boshqasiga o'tishi to'g'risidagi, huquqlarni cheklanish hamda ko'chmas mulk bilan bo'ladigan boshqa hatti-harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini yaratish;

“Yergeodezkadastr” Davlat qo'mitasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq, qo'mita quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

-kadastr ma'lumotlariga mosligini aniqlash uchun tuproqlar analizini o'tkazish;

-yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish masalalari bo'yicha belgilangan tartibda tekshirishlarni amalga oshirish, yer qonunchiligini buzilishining sabab va oqibatlarini tugatishga yo'naltirilgan, davlat boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

-aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolarni belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortish, yer qonunchiligini buzganligi oqibatida etkazilgan zararni undirishini talab qilish; yer qonunchiligini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadida tegishli korxonalar, muassasa va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish;

-yer qonunchiligida belgilangan hollarda yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni to'htatilishi to'g'risidagi taklifni joylardagi davlat hokimiyati organlariga kiritish;

-belgilangan tartibda subektlarning geodezik va xaritashunoslik faoliyatlarini tekshirishni amalga oshirish;

-xalqaro tashkilotlarda yerdan foydalanish, geodeziya, xaritashunoslik va kadastr masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish;

-yerlardan foydalanish va muhofaza qilish, shuningdek davlat kadastrlarining yagona tizimini yuritish bilan bog'liq masalalarni birgalikda ishlab chiqish uchun boshqa vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, muassasa va tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb qilish;


“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasini rais boshqaradi hamda u bir vaqtning o'zida yerdan foydalanish va muhofaza qilishni nazorati bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh davlat inspektoridir, u 3 nafar o'rinbosarga ega.

“Yergeodezkadastr” davlat qo'mitasi tarkibida 4 boshqarma mavjud, shu jumladan Yerdan foydalanish bo'yicha, geodeziya va xaritashunoslik, davlat kadastr va moliya boshqarmasi (10-rasm). Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari bo'yicha boshqarma boshliqlari bir vaqtning o'zida ushbu hududlarda yerdan foydalanish va muhofaza qilishni nazorati bo'yicha davlat inspektorlari hisoblanadilar. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastrlari bo'yicha boshqarmalar tarkibi 11-rasmda keltirilgan. Yer resurslari va davlat kadastrlari bo'yicha tumanlar (shaharlar) bo'limlari o'z faoliyatlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yer resurslari va davlat kadastrlari boshqarmalari tomonidan tasdiqlangan Nizomga asosan tuman hokimlari bilan kelishilgan holda amalga oshiradilar. Tumanlar (shaharlar) yer


resurslari va davlat kadastrlari bo'yicha hududiy xizmatlar tarkibi 12-rasmda keltirilgan.

O'zining faoliyati davrida "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi tomonidan yerdan foydalanish sohasida quyidagi yirik tadbirlar amalga oshirilgan: qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlar)ni qayta tashkil etish asosida fermer xo'jaliklarini tashkil etish, ijara asosidagi yer munosabatlarini tadbiriq qilish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish maqsadida kadastr xizmatlarida ro'yxatga olish ofislarini yaratish, yerdan foydalanishning pullilik tamoyilini tadbiriq qilinishini ta'minlash, an'anaviy hamda elektron variantlarda yer uchastkalarining kadastr planlarini tuzish, qishloq xo'jalik yerlarini sifat baholash (tuproq bonitirovkasi), qishloq xo'jalik yerlarini kadastrli me'yoriy qiymat baholash, davlat chegaralarini demarkatsiya qilish, yer monitoringini yuritish va qator boshqalar. Shu bilan birga, amaliyot ko'rsatadiki, xo'jaliklar yerlarining sifati hamda ulardan foydalanish samaradorligi nihoyatda past bo'lib qolmoqda, yer turlari va ekin maydonlarini tarkibini maqbullashtirishga etarli e'tibor berilmayapti, chorvachilikning yem-xashak bazasi yomonlashdi, noqishloq xo'jalik yerlarini kadastrli qiymat baholash mavjud emas, yerdan foydalanishning samaradorligini, ayniqsa aholi punktlari, sanoat, transport va boshqa toifalar yerlardan foydalanish samaradorligini baholash amalga oshirilyapti. Tuproq unumdorligini qayta tiklash muammosi o'tkir bo'lib qolmoqda, respublika bo'yicha yagona yer siyosatini yuritishga yo'naltirilgan davlat Dasturi mavjud emas, yer resurslarini qayta tiklash Dasturi mavjud emas, yer bozori va yerga ijara huquqining bozori mavjud emas, sug'oriladigan yerdan foydalanishda bozor tamoyillari etarli darajada tadbiriq qilinmagan.


O'zimizning hamda chet el mutaxassislar va olimlarning fikrlariga qaraganda, yerlardan foydalanishning samaradorlik darajasini pasayishiga hamda ularni degradatsiyaga uchrashiga asosiy sabab-meliorativ ishlarni etarli darajada moliyalanmaganligi hamda Respublikada yer resurslaridan foydalanishni past samarali boshqarishdan iborat [50.60 va boshq]. Ma'lumki,



9-расм. Yergeodezkadastr davlat qomitasi markaziy apparati tuzilmasi tarkibi



10-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar YER resurslari va davlat kadastrlari boshqarmalarining tarkibi



11- rasm. Yer resurslari va davlat kadastr bo'yicha tuman (shahar) bo'limining tarkibi

boshqarish obyekti qanchalik murakkab bo'lsa undan foydalanishni boshqarish usullari va uslublari shunchalik murakkablashadi. Mamlakatdagi iqtisodiy o'zgarishlar, yer islohatini amalga oshirilishi, yerdan foydalanish va suvdan foydalanishda bozor munosabatlarini qo'llanilishi hamda boshqa innovatsiyalarni kiritilishi sharoitida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida yerdan foydalanishni boshqarish muammosi murakkablashadi. Shuning uchun ushbu muammoni hal qilishning mumkin

bo'ladigan imkoniyatlaridan biri-bu boshqarishni o'zining tizimli tashkil etishini talab qiladigan yerdan foydalanishni murakkab tizim sifatida qarashdir.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanish sohasida keyingi yillari qanday institutsional o'zgarishlar yuz beradi?

2. 1998 yilga qadar yerdan foydalanishni boshqarish qaysi idora tomonidan amalga oshirilgan?

3. Nima uchun 1998 yilga qadar yerdan foydalanish va yer tuzish Boshqarmasi O'zbekiston respublikasi QSXV tasarrufida bo'lgan?

4. O'zbekiston respublikasi yer resurslari Davlat qo'mitasi qachon tashkil etilgan?

5. Qanday omillar yer resurslari Davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risidagi qarorni qabul qilinishida muhim rol o'ynagan?

6. Yer resurslari Davlat qo'mitasining tarkibi qanday bo'lgan?

7. Yer resurslari Davlat qo'mitasi oldiga qanday vazifalar qo'yilgan?

8. "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi qachon tashkil etilgan?

9. "Yergeodezkadastr"ning asosiy funksiyasi nimadan iborat?

10. Turli hududiy darajalarda boshqarish funksiyasini ajratishning mohiyati nima?

11. Mintaqal darajasida "Yergeodezkadastr" qanday tarkibga ega?

12. "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasining hududiy tarkibi kimning bo'ysunuvida bo'ladi?

2.7 Jamiyatdagi yerni mavjud bo'lish shakllari hamda undan foydalanish usullari

Yer resurslari jamiyat faoliyatining barcha sohalarida foydalaniladi, u hattoki yerdan foydalanishni vaqtinchalik ham to'htata olmaydi. Ammo yer resurslaridan oqilona foydalanish muammosi bugungi kunga qadar dolzarb bo'lib qolavergan. Yerdan foydalanishni boshqarishdagi kamchiliklar va ulardan samarali foydalanish hamda qayta tiklash bo'yicha zaruriy moliyalash resurslarini

bo'lmaganligi sababli keyingi yillari yerlardan ma'lum darajada tizimsiz foydalanish yerlarni, ayniqsa qishloq xo'jalik yerlarini yirik miqdorlarda buzilib ketishiga olib keldi. Yer islohoti doirasida amalga oshirilgan kichik-kichik tadbirlar zaruriy natijalarni ta'minlay olmadi, shu sababli xam uni to'la yopiq takror ishlab chiqarish davri hamda barqaror boshqarish nuqtai nazardan Yerdan foydalanishga tizimli yondoshuv zarur.

Yerdan foydalanish bir vaqtning o'zida tabiatdan foydalanishning kichik tizimi hamda jamiyat tomonidan yer resurslaridan foydalanish jarayoni hisoblanadi. Bu hol uni ijtimoiy ahamiyatini hamda yerdan foydalanish muammosini doimiy dolzarbligini ko'rsatadi. Ushbu muammoning dolzarbligi iqtisodiy islohotlar sharoitida, yer munosabatlarini isloh qilish, yerlardan oqilona va samarali foydalanish mexanizmlariga iqtisodiy, ijtimoiy, va eklogik xarakterlardagi yangi omillarni qo'shish sharoitida yanada kuchayadi.

Bugungi kunda yerdan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatida, yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy ahamiyatli jarayon sifatida etarli o'rganilgan emas, uning mohiyati, tizimli tashkil etish va boshqarish to'la ochilgan emas, ushbu tushunchaga to'la aniqlik kiritilgan emas. Masalan, O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida yerdan foydalanish tushunchasi keltirilmagan. Ensiklopedik lug'atlarda u odatda belgilangan tartibda yerdan foydalanish, ya'ni uni iqtisodiy-huquqiy qirralariga urg'u berilgan holda e'tirof etiladi. Maxsus adabiyotlarda hamda amaliyotda yerdan foydalanish tushunchasida ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatidagi tushunchadan farq qiladigan qoidalar uchraydi. Ba'zan yerdan foydalanish joyda aniq bir chegaralarga ega bo'lgan hamda foydalanish uchun ma'lum bir yuridik va jismoniy shaxsga berilgan obyektning yer uchastkasi sifatida e'tirof etiladi. Yer kadastrida yerdan foydalanish deganda asosiy yer-kadastr birligi tushuniladi. Boshqa holatlarda ba'zan "yerdan foydalanish" termini yerlardan xo'jalik nuqtai nazardan foydalanishning texnologik jarayoni tushuniladi. Bu tushunchalarning barchasi ijtimoiy ahamiyatli voqeilik sifatidagi "yerdan foydalanish" tushunchasi bilan hech bir umumiylikka ega emas, ular nihoyatda chegaralangan, tor, bugungi

jarayonda va tabiiy majmuada yerning to‘laqonli o‘rniga javob beraolmaydigan tushunchalardir.

Fikrimizcha, yerdan foydalanish tushunchasiga S.A.Tkachuk tomonidan anchagina to‘laqonli va ravshanroq tushuncha berilgan: “Yerdan foydalanish-bu tabiat qonunlarini iqtisodiy qonunlar bilan bog‘liqligini hisobga olgan xolda ushbu iqtisodiy qonunlardan ongli tarzda foydalanish asosida obyektiv rivojlangan yer resurslaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy shakllari hamda ishlab chiqarish usullarining to‘plamidir” [32]. Yerdan foydalanish- bu jamiyat rivojlanishining ushbu darajasiga mos keluvchi Yerda xo‘jalik yuritishning iqtisodiy-ijtimoiy shakllari hamda yerdan foydalanishning ishlab chiqarish usullarini to‘plami sifatida e’tirof etiladi. Bir vaqtning o‘zida yerdan foydalanish tabiat va jamiyatning harakatdagi qonunlaridan foydalanish asosida rivojlanadigan dialektik nuqtai nazardan qaraladi. Ammo bugungi kunda bunday qoida etarli emas, negaki u zamonaviy yerdan foydalanishning barcha tomonlarini qamrab olmaydi: yerdan foydalanishning faqatgina ishlab chiqarish usullari yoritilgan; jamiyat tomonidan yerdan foydalanishning boshqa sohalari, shuningdek yerdan foydalanishning bozor qirralari hisobga olinmagan; yerdan foydalanishni boshqarishga urg‘u berilmaydi va hak. Bularning barchasi tizimli yerdan foydalanish muammosining dolzarbligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Yerdan foydalanishning mohiyati uni mazmuni bilan aniqlanadi hamda yerdan foydalanish qirralarida ma’lum bo‘ladi. U jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa aloqalar orqali yuz beradi. Ushbu aloqalar aks etishining tashqi shakllari jamiyatda yerning funksional roli vositasida amalga oshiriladi: ishlab chiqarish, fiskal, bozor, ijtimoiy, rekreatsion-sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofazalash. Barcha davrlarda odamlar yerdan, eng avvalo, moddiy boyliklarga bo‘lgan o‘zlarining talablarini qondirish va yashash joylari uchun foydalangan. yer insonning yashash joyi va hayot faoliyatining o‘rni, ishlab chiqarish vositasi hamda kenglik operatsion asos sifatida mavjuddir, o‘ziga yarasha yer osti “ombori”, hayvonot va o‘simlik dunyosini rivojlanishi uchun tabiiy asos hisoblanadi. Darhaqiqat, yerdan foydalanish, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy

mohiyatga egadir. Yerdan foydalanishning rivojlanishi va takomillashuvi qonunchilik yordamida uni muvofiqlashtirishga zaruriyat tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, yerdan foydalanishni huquqiy qirrasini ta'minlash hamda uni hususiy mohiyatini vujudga keltiradi. Yerlardan rekreatsion hamda sog'lomlashtirish maqsadlarida foydalanishga bo'lgan zaruriyat foydalanishga rekreatsion-sog'lomlashtirish mohiyatini beradi. Planeta miqyosida yerdan foydalanishni rivojlanishining doimiylik xarakteri, yer resurslaridan tizimsiz hamda nooqilona foydalanish tabiiy majmualarning sifat holatini ma'lum darajada yomonlashuviga olib keldi, negaki yerdan foydalanish tabiatdan foydalanishning kichik tizimlaridan biridir. Yerdan foydalanish jarayonida tabiatni muhofazalash talablarini hisobga olish talablari vujudga keldi. Bu yerdan foydalanishning ekologik mohiyatini paydo kildi. Darhaqiqat, Yerdan foydalanish ijtimoiy, rekreatsion va ekologik mohiyatlarga egadir.


Bozor iqtisodiyotini rivojlanishi yerdan foydalanishga fiksial hamda bozor xarakterini berdi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari va munosabatlarining muhim obykti sifatidagi yerning rolini yanada oshirib yubordi. Bularning barchasi yerdan foydalanishni jamiyat rivojining obyektiv zaruriyati sifatida tavsiflaydi. O'z navbatida, jamiyat rivojlanishi bilan yerdan foydalanishning ko'p maqsadli xarakteriga bo'lgan talab murakkablashdi, yerdan foydalanish shakllari va xarakteri o'zgardi, bu esa yerdan foydalanishning dialektik mohiyatini aniqlaydi, uni dinamik, doimiy rivojlanuvchi jarayon sifatida tavsiflaydi.

Yerdan foydalanishning maqsadi- ulardan oqilonalik va samaralilik asosida jamiyatni moddiy va boshqa turdagi boyliklariga o'sib borayotgan talablarini to'laroq qondirishdan iborat. Uning obykti umuman jamiyatdagi yer resurslari, yer toifalari, subektlarning yer uchastkalari hisoblanadi. Yerdan foydalanish subektlari bo'lib jamiyatdagi yerdan foydalanishni boshqarishni amalga oshiruvchi davlat, yer uchastkalarini asosiy maqsadlariga muvofiq foydalanayotgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Bilimlarning ilmiy tarmog'i sifatida yerdan foydalanishni o'rganish predmeti bo'lib jamiyatni dialektik rivojlanishi jarayonida ushbu jamiyatdagi yerni mavjud bo'lish qonuniyatlarini, jamiyatni garmonik tarzda rivojlanishi jarayonida uning rolini, yer resurslarini ko'p maqsadli foydalanish usullarini, Yerdan foydalanishni, hamda, birinchi galda, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish usullarini aniqlash va tadqiq qilish hisoblanadi. Yerdan foydalanish mohiyatini, tabiat va jamiyatni iqtisodiy qonunlari ta'sirini hisobga olgan holda uning chuqur asoslarini aniqlash yerdan foydalanish nazariyasini rivojlantirish hisoblanadi. Yerdan foydalanishning ilmiy asoslarini egallash tabiat va jamiyatni garmonik rivojlanishiga hamda jamiyatni doimiy o'sib borayotgan talablariga uni ta'minlanishini bo'ysundirgan holda yerdan ko'p maqsadli foydalanishning asosiy qirralari va jarayonlariga maqsadli hamda faol ta'sir ko'rsatishga imkon beradi.

Yer resurslaridan foydalanishga, jamiyatni doimiy o'zgarayotgan talablariga mos tarzda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish, yer fondini maqsadli mohiyati bo'yicha maqbul taqsimlash (uni tarkibini maqbullashtirish), yer resurslarini ko'p maqsadli foydalanish usullari va uslublarini takomillashtirish, yerlardan foydalanishda mumkin bo'ladigan maksimal ijtimoiy, iqtisodiy va rekreatsion samaradorlikni, yer resurslaridan kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni, yerlar muhofazasini ta'minlaydigan yerlarning sifat holatini zaruriy darajada ushlab turish yerlardan foydalanishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Ammo, yerlardan foydalanishni boshqarishning iqtisodiy asoslarini buzilganligi hamda boshqaruvni takomillashmaganligi sababli mamlakatning mavjud yerdan foydalanishi etarli samaraga ega emas. Bu hol yerlarni buzilishiga, aholi daromadlarini qisqarishiga olib keldi. Eng avvalo, bugungi kunda, yerdan foydalanishda asosiy diqqat-e'tibor faqatgina yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishga qaratilgan. Yerdan foydalanishni maqbullashtirish va yer mahsuldorligini qayta tiklashga zaruriy e'tibor berilmayapti, buning oqibatida uzoq vaqt davomida yerni qayta tiklanish davri ochiq holatda qolmoqda.



11-rasm. Yerdan foydalanishga tasir ko'rsatayotgan iqtisodiy va boshqaruv muammolari

Mavjud yerdan foydalanish jamiyatni moddiy boyliklarga bo'lgan doimiy o'sib boruvchi talablari hamda tuproq unumdorligini qayta tiklashga bo'lgan obyektiv zaruriyat singari iqtisodiy qonunlarga asoslanmagan.

Nainki tuproq unumdorligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, balki, oddiy takror ishlab chiqarish ham mavjud emas, bu esa qishloq xo'jalik yerlarini buzilishiga olib keldi. Sanab o'tilgan iqtisodiy va boshqaruv muammolari ilmiy bilimlarning alohida sohasi sifatida qaralmaydigan yerdan foydalanishning tizimsizligidan guvohlik beradi.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan oqilona va samarali yerdan foydalanish muammosi qator qirralarni, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, rekreatsion-sogʻlomlashtirish, tabiatni muhofazalash, tashkiliy-hududiy, axborotli, texnologik, tadbirkorlikni oʻz ichiga olgan kompleks echimdan iboratdir. Oqilona yerdan foydalanish koʻp jihatdan tizim sifatidagi yerdan foydalanishni toʻgʻri tashkil etish va boshqarishga bogʻliqdir hamda ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion, ekologik samaradorliklarning toʻplami sifatida gavdalanadi. Shuning uchun murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hamda tabiiy voqeilik sifatidagi yerdan foydalanishga konseptual iqtisodiy asosga tayangan tizimli yondashuv zarur.

Yuqorida qayd qilib oʻtilganlar asosida yerdan foydalanishga quydagicha taʼrif beriladi. Yerdan foydalanish-bu tabiat va jamiyatning rivojlanish qonunlaridan ongli ravishda foydalanish asosida rivojlanayotgan jamiyat tomonidan yer resurslaridan doimiy, davriy, koʻp maqsadli foydalanish usullari hamda ushbu jarayonni boshqarish uslublarining majmuasidir.

Yerdan foydalanish tizim sifatida yaxlitlik, elementlilik, kichik tizimlar, aloqalar, munosabatlar, tarkiblar va boshqa tushunchalar bilan organik bogʻliqdir. Uning uchun tizim sifatida nainki uni tashkil etuvchi elementlari oʻrtasidagi, balki yerdan foydalanish oʻzining yaxlitligini aks ettiruvchi muhit bilan birlikda va oʻzaro munosabatlardagi aloqalar va munosabatlarning mavjudligi xarakterlidir. Har qanday tizim ancha yuqori tartibdagi tizimning elementi sifatida qaralishi mumkin. Shu jihatdan yerdan foydalanish tizimi tabiatdan foydalanishning kichik tizimi sifatida mavjud boʻladi hamda boshqariladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik aloqalar va munosabatlar orqali aks etadigan Yerdan foydalanishning mohiyati boshqa tizimlardan uni moddiy-abstrakt tizim sifatida farqlaydi hamda oʻziga xos yagona sifatda tavsiflaydi.

Tadqiqotlarda tizimli tahlil va yondashuvni qoʻllanish murakkab tashkiliy tizimlarni, shu jumladan sugʻoriladigan yerdan foydalanishni tadqiq qilishda maqsadga muvofiq hamda anchagina samarali uslub hisoblanadi. Tizimli yerdan foydalanishning iqtisodiy asoslari qatorida yer resurslarini qayta ishlab chiqarish


davri, yerdan foydalanish qirralari hamda iqtisodiy qirraning ustunligi, yerdan foydalanishni iqtisodiy mexanizmi va boshqalar o'rganilgan [66].

Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan foydalanish ikkinchi darajadagi ikkita kichik tizimni o'z ichiga olgan tizim sifatida qaraladi (13-rasm). Birinchi kichik tizim o'z ichiga quyidagi uchinchi darajali tizimni oladi: jamiyat tomonidan yerdan funksional foydalanish turlari (shu jumladan, asosiy ishlab chiqarish vositasi, kenglik-operatsion asos, yer-tovar-4-chi darajadagi kichik tizim), Yerdan foydalanish qirralari (shu jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion-sog'lomlashtirish, ekologik-4-chi darajadagi kichik tizim), yerdan oqilona va samarali foydalanish ta'minotining asosiy qirralari (shu jumladan, huquqiy, axborotli, tashkiliy-hududiy, texnologik, resursli, tadbirkorlik-4-chi darajali kichik tizim), yerni qayta tiklash davri (shu jumladan, qishloq xo'jalik yerlari, o'rmon, sanoat va transport, aholi punktlari, suv xo'jaligi, tarixiy-madaniy ahamiyatdagi, rekreatsion va tabiatni muhofaza qilish ahamiyatidagi yerlar-4-chi darajali kichik tizim).

Ikkinchi kichik tizim quyidagi uchinchi darajali kichik tizimlarni o'z ichiga oladi: jamiyatda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish (yer qonunchiligi, yerga mulkchilik shakllari va huquq turlari, yerda xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllari, yerdan foydalanish subektlarining huquqiy holati, yerdan foydalanish sohasidagi me'yoriy hujjatlar-4-chi darajali kichik tizim) va Yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishni boshqarish (boshqarish funksiyalari-kadastr-axborotli ta'minot, yerlardan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish, tarmoqlararo yer taqsimoti, yer tuzish, yer monitoringi va yerdan foydalanish hamda muhofazalashni nazorat, yer munozaralarini hal qilish, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish, yer resurslarini qayta tiklash-4-chi darajali kichik tizim).

Yerdan foydalanishning ushbu ikkala kichik tizimi nisbatan avtonom tizimlardir, ular o'zlarining mazmuniga ega hamda shu bilan bir vaqtda o'zaro uzviy bog'liqdir. Birinchi kichik tizim doimiy xarakterga ega bo'lib jamiyat tomonidan yer resurslaridan foydalanishning obyektiv jarayonini yoritadi, negaki

moddiy va boshqa turdagi boyliklarga bo'lgan o'zining doimiy o'sib borayotgan talablarini qondirish uchun jamiyat Yerdan foydalanishni bir zum bo'lsa-da to'xtata olmaydi, bu jarayon davriy qayta ishlab chiqarish jarayonidir, negaki foydalanilayotgan yer resurslari rivojlanayotgan jamiyatni zaruriy boyliklar bilan doimiy ravishda ta'minlashi uchun o'zini qayta tiklanib turishini talab qiladi, davlat o'zining moddiy va boshqa turlardagi talablarini qondirishni ko'zda tutgan ko'p maqsadli xarakterga egadir. Jamiyatni doimiy ravishda o'sib borayotgan va murakkablashayotgan talablarini qondirish hamda tabiiy majmualar bilanganmonik rivojlanishini ta'minlash maqsadida yer resurslaridan foydalanishning ushbu jarayoni qandaydir stixiyalitarzda emas, balki tabiat va jamiyat rivojlanishining harakatdagi qonunlaridan ongli tarzda foydalanish asosida amalga oshirilishi zarur, ya'ni bu jarayon etarli darajada boshqariladigan bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan yer resurslaridan imkon boricha to'la, oqilona va samarali foydalanishga bo'lgan obyektiv zaruriyat jamiyat tomonidan yerdan foydalanishni boshqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik xarakterlardagi manbani, ya'ni ikkinchi kichik tizimni ishlashi uchun zarur manbani yaratadi. O'z navbatida, ikkinchi kichik tizimni tadbiq qilish, ya'ni yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish hamda jamiyatda Yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishni davlat boshqaruvini amalga oshirish jamiyat manfaatlari uchun yer resurslaridan imkon boricha to'laroq foydalanishni amalga oshirishning obyektiv zaruriyati hisoblanadi. Yer resurslaridan foydalanishda ma'lum bir darajaga erishishda jamiyatni turli boyliklarga o'sib borayotgan talabi yerdan foydalanishni sifat jihatidan yangi, ancha yuqori darajaga erishishini talab



13-rasm. Yerdan foydalanishni tizimli va kichik tizimlari

qiladi. Bu o'z navbatida yer munosabatlari hamda yerdan foydalanishni boshqarishni yanada takomillashtirish zaruriyatini tug'diradi.

Ikkinchi kichik tizimning mavjud bo'lmashligi ma'lum bir stixiyalik bilan, jamiyat tomonidan yer resurslaridan to'la bo'lmagan, nooqilona va samarasiz foydalanish bilan belgilanadi. Bu so'zsiz jamiyatni normal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchi kichik tizimning mavjud bo'lmashligi ikkinchi kichik tizim mavjudligini hamda faoliyat ko'rsatishini ma'nosiz qiladi.

Shunday qilib, birinchi kichik tizimning faoliyat ko'rsatishi ikkinchi kichik tizimni faoliyat ko'rsatishini obyektiv tarzda talab qiladi va aksincha. Bunday o'zaro bog'liqliklar organik yaxlitlikni hamda yerdan foydalanish tizimini tashkil etadi. Yerdan foydalanish tizimining boshqa barcha tashkil etuvchilari (qismlari, elementlari) ushbu kichik tizimlarga mos ikkinchi, uchinchi va keyingi darajadagi blokni (qismlari, elementlar) vujudga keltiradi. Masalan, yerdan foydalanish iqtisodiy-ijtimoiy, rekreatsion va ekologik qirralarining bir qismi (elementlar) birinchi kichik tizim blokining mazmuni hisoblanadi. Jamiyatdagi yer munosabatlarini muvofiqlashtirish va yer resurslaridan foydalanishni boshqarish muammosi ikkinchi kichik tizim blokining mazmuni hisoblanadi.

E'tirof etilgan asosda tizimli yerdan foydalanishga quyidagicha ta'rif beriladi: ya'ni ***birinchidan***, bu-jamiyat va tabiat rivojlanishining qonunlaridan ongli ravishda foydalanish asosida rivojlanayotgan yerdan foydalanishni boshqarishning bozor uslublari hamda jamiyat tomonidan yer resurslaridandoimiy, davriy, ko'p maqsadli foydalanish usullarining to'plamidir. Tizimli yerdan foydalanish, birinchidan, yer resurslaridan ancha samarali foydalanishni tavsiflaydigan yopiq to'la takror ishlab chiqarish davrini, yerdan foydalanishni davriylik xarakterini ko'zda tutadi. ***Ikkinchidan***, iqtisodiy hamda yer munosabatlari sohalaridagi qonunlarni (jamiyatni doimiy o'sib boruvchi talablari, yer resurslarini qayta tiklash) hisobga olgan tarzda davrning butun fazalarida amalga oshirishni ketma ketligini hamda organik o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi. Bu yerdan foydalanishni maqbullashtirishni, yerdan foydalanishni maksimal samaradorligini, yerning (tuproqning) kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta'minlaydi. Bularning barchasi yer resurslaridan oqilona va

samarali foydalanishning zaruriy shartidir. *Uchinchidan*, yerni to'la qayta tiklash davrining eng yuqori jamlanma samaradorligiga erishish yerdan foydalanishda bozor iqtisodiyoti tamoyillarini tadbiq qilish uchun manbaa talab qiladi va yaratadi (yer-suv munosabatlari). *To'rtinchidan*, tizimli yerdan foydalanish yerdan foydalanishda bozor tamoyillarini tadbiq qilinishini hisobga olgan tarzda davlat (boshqarish strategiyasi-yer munosabatlarini muvofiqlashtirish), regional (operativ-texnik) hamda mahalliy (operativ) darajalaridagi funksiyalarni bir-biridan chegaralashni o'z ichiga olgan bozor sharoitidagi ularni tizimli boshqarishni ko'zda tutadi. Tizimli yerdan foydalanishni yuqorida ko'rib o'tilgan asosiy iqtisodiy ta'riflari va qoidalarini amalga oshirish, keyingi tadqiqotlar natijalari ko'rsatadiki, mavjud yerdan foydalanishga nisbatan ancha samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Keltirilgan qoida iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega bo'lgan tabiat va jamiyat rivojlanishining harakatdagi qonunlariga mos tarzda tadbiq qilinayotgan faoliyatning barcha sohalaridan foydalanishning obyektiv ijtimoiy jarayoni sifatida yerdan foydalanishni etarli to'la tavsiflaymiz: u yerdan foydalanishning yuqorida keltirilgan chegaralanishlaridan va tor ma'nolaridan tubdan farq qiladi. Shu bilan birga, maxsus adabiyotlarda va amaliyotda foydalanib kelinayotgan "yer resurslaridan yoki yerdan foydalanish" hamda "to'g'ridan-to'g'ri yerdan foydalanish" singari terminlarni bir-birlaridan ajrata bilish zarur. Birinchi holatda ushbu termin keng ma'noda, iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik mohiyatga ega bo'lgan obyektiv jarayon sifatida jamiyat miqiyosida, ikkinchi holatda-aniq bir uslublar yordamida aniq bir sohada foydalanish tushuniladi. Shunga o'xshash farqlar "Yerdan foydalanishni boshqarish" hamda "Yerdan foydalanishlarni boshqarish" terminlarida ham mavjud. Birinchi holatda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish vositasida jamiyatni yerdan foydalanish tizimini boshqarish, ikkinchi holatda esa to'g'ridan-to'g'ri yerdan foydalanishni boshqarish tushuniladi.

Tizimli foydalanish hamda yerdan foydalanishni boshqarish nuqtai nazaridan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning mazmunini o'rganish muhimdir. Mamlakatda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish davlat darajasida amalga oshiriladi hamda bu Oliy


Majlis, mamlakat Prezidenti hamda hukumatning vakolatidir. Uning asosiy mazmuni o‘tish davri uchun yerdan foydalanish tizimini yaratish (shakllantirish) va zaruriyatga qarab tuzatish asosida maqbullashtirishdir. **Birinchi**dan, o‘tish davrida jamiyatning talablariga ancha samarali javob beradigan tizimga mavjud harakatdagi tizimni ko‘chirib o‘tkazish tavsiya qilinadi. Ushbu maqsadga erishish yerdan foydalanish va suvdan foydalanish sohasida shularga mos huquqiy bazani yaratish hamda yerdan foydalanish va suvdan foydalanish tizimlarini boshqarishga bozor tamoyillarini bosqichma-bosqich qo‘shish yo‘li bilan amalga oshiriladi. **Ikkinchi**dan, tizim yerlarni buzilishini oldi olinishini ta‘minlashi, oldin chiqib ketgan past sifatli yerlarni xo‘jalik oborotiga kiritilishini, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorliklarini va asosiy ekinlar (paxta,don) mahsulotlarini etishtirishni oshirishni, yem-xashak ekinlarini etishtirish va chorvachilik yem-xashak bazasini mustahkamlanishning, ekin maydonlarini taqsimlanishiga (maqbullashtirish) tizimli yondashuv asosida tuproq unumdorligini oshirilishini, sug‘oriladigan ekin yerlaridan foydalanish va takror ishlab chiqarishni, va oxir-oqibatda, qishloq mehnatkashlarining daromadlari oshirishini ta‘minlashi zarur. Ishlab chiqarilgan yerdan foydalanish tizimi noinki qishloq xo‘jalik mahsulotlari va sanoat uchun xom-ashyoni etishtirish bo‘yicha iqtisodiy muammolarning echimini, balki shu bilan bir vaqtda tuproq unumdorligini oddiy hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan ekologik muammolarining ham echimini ta‘minlaydi.

Ikkinchi kichik tizimning vazifasi-yerdan foydalanishdagi ma‘muriy boshqaruv- ishlab chiqarilgan tizimning amaliyotiga moslashtirish aniq amaliy natijalar olishdan iboratdir. Yerdan foydalanishning ma‘muriy boshqaruvi viloyat davlat hokimiyati organlari (taktik boshqaruv) hamda tuman davlat hokimiyatining organlari (operativ)ning vakolatlari hisoblanadi. Bu vakolatlar qat‘iy asoslangan nisbatlarda, hajmlarda va ketma-ketliklarda agrotexnik, o‘rmon meliorativ, eroziyaga qaratish, gidrotexnik meliorativ tadbirlar muammosini bajarish vositasi amalga oshiriladi. Boshqarishda jamoa tashkilotlarining (qishloq fuqarolar yig‘inlari, mahalla qo‘mitalari va boshq.) ishtiroki faollashmoqda. Yerlardan foydalanish

samaradorligini baholash bir vaqtning o'zida tavsiya qilingan tizimning barqarorligi hamda samaradorligini baholash ham hisoblanadi.

Tizimli yerdan foydalanish o'zining asosiy momentlari, asosiy boshlang'ich qoidalari-tamoyillariga mos tarzda amalga oshiriladi. Yerdan foydalanish tizimining barcha asosiy tamoyillarini to'la tabdiq etish asosidagina yerlardan oqilona va samarali foydalanishga erishiladi.

Yerdan foydalanish tizimi murakkab tizim sifatida tashqi muhit bilan aloqaga egadir. U tabiatdan foydalanish tizimi bilan uzviy bog'langan hamda uning kichik tizimlaridan biridir (14-rasm). Tabiatdan foydalanishning barcha kichik tizimlari yerdan foydalanish xarakteri va samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Sug'oriladigan yerdan foydalanishga kelsak, unga tabiatdan foydalanish barcha tizimlarining umumiy ta'siridan tashqari suvdan foydalanish va iqlim omillari singari uning kichik tizimlari ham kuchli ta'sir o'tkazadilar.



14-rasm. Tabiatdan foydalanish tizimi hamda uni yerdan foydalanish kichik tizimiga ta'siri (yerdan foydalanishning tashqi muhitining ta'siri).

Sugʻogiladigan mintaqa dehqonchiligida yerdan foydalanishga suvdan foydalanish kichik tizimining taʼsiri yer va suv resurslaridan foydalanishning oʻzaro bogʻliqligini aniqlaydi. Ushbu mintaqa ushbu ikkita turdagi resurslar qishloq xoʻjaligining ishlab chiqarish vositalaridirlar hamda bir vaqtning oʻzida cheklangan omillardir. Shuning uchun sugʻoriladigan yerdan foydalanish tizimini ishlab chiqishda yerdan va sugʻorish suvidan bir vaqtning oʻzida oqilona va samarali foydalanish sharti hisobga olinadi. Ushbu shart yer-suv munosabatlarini birgalikda, organik birlikda muvofiqlashtirish zaruriyatining hamda yerdan foydalanish va suvdan foydalanishni boshqarishning bir butun tizimini yaratishga erishishning asosiy talabidir.

Suvdan foydalanish kichik tizimi oʻz navbatida ichimlik suvi taʼminoti, kommunal-maishiy suv taʼminoti, sanoat suv taʼminoti, qishloq xoʻjaligi suvidan foydalanish kabi (2-chi darajadagi) kichik tizimlarni oʻz ichiga oladi. Qishloq xoʻjaligi suvidan foydalanishi tarkibiy hamda boshqarilish jihatlaridan ancha murakkab hisoblanadi. U esa oʻz navbatida sugʻoriladigan suvdan foydalanish va melioratsiya (3-chi darajadagi) kabi kichik tizimlarga boʻlinadi. Arid mintaqasidagi ushbu ikkala kichik tizimlar yerdan foydalanish chizimiga, shu jumladan qishloq xoʻjalik yerlariga, ulardan foydalanish samaradorligiga hamda tuproqlar unumdorligini qayta tiklashga nihoyatda yirik taʼsir oʻtkazadilar va sugʻoriladigan yerlardan foydalanishni boshqarishga oʻzlarining taʼsirini majburiy tarzda hisobga olishni talab qiladilar.

“Atmosfera. Iqlim omillari” kichik tizimi ham u yoki bu tizimining tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olish zaruriyati nuqtai nazardan yerdan foydalanishga yirik taʼsir etadilar. Yerdan foydalanishni boshqarishda ularni hisobga olish iqtisodiy mintaqalarda qishloq xoʻjalik ekinlari turlarini joylashtirish va etishtirish hududlarini tabiiy-iqlimiy rayonlashtirish vositasida amalga oshiriladi.

Yerdan foydalanish tizimiga taʼsir koʻrsatuvchi tashqi muhit omillariga mehnat resurslarining, moliyaviy resurslarning (kapital) mavjudligi singari jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tizimli yerdan foydalanish o'zining asosiy qoidalariga-tamoyillariga mos tarzda amalga oshiriladi, bu esa yerdan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

- 1.Yerdan foydalanishga qanday ta'rif beriladi?
- 2.Yerdan foydalanish qanday mohiyatga ega?
- 3.Yerdan foydalanishning ijtimoiy mohiyati nimadan iborat?
- 4.Yerdan foydalanishning iqtisodiy mohiyati nimadan iborat?
- 5.Yerdan foydalanishning ekologik mohiyati nimadan iborat?
- 6.Yerdan foydalanishning asosiy vazifalarini sanab bering?
- 7.Yerdan foydalanish tizimi deganda nimani tushunasiz?
- 8.Tabiatdan foydalanishning umumiy tizimidan Yerdan foydalanish tizimiga qanday rol va joy ajratiladi?
- 9.Yerdan foydalanish tizimining birinchi kichik tizimi o'z ichiga nimani oladi?
10. Yerdan foydalanish tizimining ikkinchi kichik tizimi o'z ichiga nimani oladi?
- 11.Yerdan foydalanish tizimi va xarakteri bo'yicha qanday tizimlarga kiradi?
12. Yerdan foydalanish tizimi qanday tashqi aloqalarga ega?

2.7 Jamiyatdagi yerni mavjud bo'lish shakllari hamda undan foydalanish usullari

Planetamizda hayotni paydo bo'lgan kundan boshlab yer insonning yashash o'rni hamda hayot faoliyatining manbasi hisoblanadi, hech bir jamiyat yerdan foydalanmay turib mavjud bo'la olmaydi. Ibtidoiy jamoa tuzimining boshida inson o'simliklar mevalaridan foydalangan, yashash uyini qurish uchun tog' ichidagi g'orlarni, daraxtlarni moslashtirgan. Jamiyat rivojining ushbu davrida yer inson hayotida va faoliyatida passiv rol o'ynagan. Dehqonchilikni chorvachilikdan ajratilishi hamda dehqonchilik madaniyatini rivojlanishi bilan yer insonlar xo'jalik faoliyatining faol jarayoniga qo'shildi. U har qanday ishlab chiqarishning zaruriy

sharti, kenglik-operatsion asosga aylandi, qishloq xo'jaligida eng muhim rolni o'ynay boshladi. Bularning barchasi jamiyatda yerlarga egalik qilish, tasarruf qilish va foydalanish bo'yicha vujudga kelgan iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar va munosabatlarda yerdan foydalanishning rolini tubdan kuchaytirdi. Ekologik tanglikning kuchayganligi sharoitida tabiiy resurslar majmuasi hamda jamiyatning o'zaro garmonik rivojlanishiga zaruriyat, yerlarni ekologlashtirish yerdan foydalanishni muhim tomoniga aylanadi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi yerdan foydalanishga fiskal va bozor xarakterini berdi, yer tovar-pul munosabatlariga jalb qilindi. Bu esa, o'z navbatida, yerni jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar va munosabatlardagi rolini tubdan oshirdi. Bularning barchasi yerdan foydalanishni har qanday jamiyatni rivojlantirishning obyektiv, zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi.

Jamiyat rivojlanishi bilan o'z navbatida yerdan foydalanishning ko'p qirraligi kuchayadi, u ko'p funksional, ko'p maqsadli xarakterni oladi. Yerdan foydalanish xarakteri takomillashadi. Bu hol undan foydalanish jarayonining dialogik mohiyatini ko'zda tutadi, uni dinamik va doimiy rivojlanuvchi sifatida tavsiflaydi. Jamiyatning rivojlanishida yerning roli va undan foydalanish xarakteri etarli darajada to'la o'rganilgan hamda iqtisodiyot nazariyasining klassiklari tomonidan asosli tarzda yoritilgan.

Moddiy ishlab chiqarishning omili sifatida yerdan foydalanishga, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida undan samarali foydalanish muammolariga ko'p sonli tadqiqotlar bag'ishlangan bo'lsa-da, noqishloq xo'jalik ishlab chiqarishda yerlardan iqtisodiy foydalanish mexanizmi etarli darajada o'rganilgan emas. ushbu yerlarni qiymat baholash uslubiyati ishlab chiqilmagan va qiymat baholash o'tkazilmagan, ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri sifatidagi yerga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish daromadining miqdori belgilanmagan, yer uchastkasini ijara huquqining qiymati mavjud emas, yer solig'ining ilmiy asoslangan miqdorlari va boshqalar mavjud emas. Jamiyat tomonidan yerlarning ijtimoiy va rekreatsion qirralaridan foydalanish masalasiga kelsak, ular amaliy jihatdan umuman o'rganilmagan. Yer bu tarmoqda kenglik-operatsion asos sifatida foydalaniladi degan fakti e'tirof etishdan o'zga biron-bir aniq tadqiqot mavjud emas. bundan tashqari,

ijtimoiy va rekreatsion samaradorlikni aniqlash va baholash, ularni qiymat jihatidan yoritish, ushbu yerdan foydalanish samaradorligini baholash va boshqalar ham mavjud emas, yerdan foydalanishning ekologik qirrasini ham etarli darajada o'rganilmagan. Ushbu muammolarning barchasi amalda mamlakat iqtisodiyotini, jumladan yerdan foydalanishni bozor munosabatlariga o'tishi bilan dolzarblashib ketdi.

Jamiyatda yerni resurs sifatida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish hamda noqishloq xo'jalik ishlab chiqarish (ijtimoiy, rekreatsion, tabiatni muhofazalash) iste'moli mavjuddir. Shu munosabat bilan yerdan foydalanish usullarini ham uni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish iste'mollari nuqtai nazaridan qaramoq lozim. Bu hol yerdan foydalanish usullarini ishlab chiqarish va noishlab chiqarish mohiyatlariga ajratishga imkon beradi.

Birinchi, qoidaga binoan, yerdan foydalanishga iqtisodiy samaradorlikni olish bilan, ikkinchisi-asosan ijtimoiy va rekreatsion samaradorlikni olish bilan bog'liqdir. Birinchiga agro xo'jalik va sanoat ishlab chiqarish usullarini kiritish mumkin. Agroxo'jalik usuli yerni haydash vositasi bilan yerning ustki qatlamidan (tuproq) foydalanishni hamda qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish uchun zarur bo'lgan tuproq bilan texnologik operatsiyalarni o'tkazishni ko'zda tutadi. Bu holatda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida gavdalanadi. O'z navbatida ushbu usulni uni ishlash texnologiyalarining turlari bilan bog'liq (qishloq xo'jalik ekinlarining maydonlari, ko'p yillik daraxtzorlar), hamda ishlovsiz (ammo yaylovlar almashishini kiritgan holda) texnologiyalarning turlari bilan bog'liq yerdan foydalanish usullariga ajratish mumkin.

Sanoat-ishlab chiqarish usuli sanoat, transport, shuningdek xizmat ko'rsatish sohasi hamda savdo obyektlarini joylashtirish va turgun tarzda mavjud bo'lishi uchun yer uchastkalarini kenglik jihatdan moslashuvi bilan bog'liq. Yerdan foydalanmasdan turib obyektlarni ishlash jarayonidam, demak, mahsulot ishlab chiqarish ham mumkin bo'lmaydi. Yer bu joyda ishlab chiqarishning zaruriy sharti, ishlab chiqarish omili sifatida gavdalanadi. Ikkala usulda ham yerdan foydalanish natijasi bo'lib iqtisodiy mahsulot olish (iqtisodiy samaradorlik, shu jumladan pullik xizmatlar ham) xizmat

qiladi. Masalan, zavod va fabrikalar, energetika va boshqa sanoat obyektlarini qurish ishlab chiqarish binolarini, maxsus qurilmalarni, injenerli tarmoqlarni, kirish yo'llarini va boshqalarni jamlashtirish uchun yer uchastkalarini rejali-balandli moslashtirish bilan bog'liqdir. Qurilish ustki qatlamni buzilishiga, qurilish davrida tuproq qatlamini bir joyga to'plashga yoki uni qishloq xo'jalik yerlariga ko'chirishga ularni keyinchalik rekultivatsiya qilish tartibi bilan mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish uchun kareralar yaratishga zaruriyat tug'iladi. Transport obyektlarida yer uchastkalarini qurishga tayyorlash avtomobil yo'llari asosini, temir yo'l polotnosini yaratish, metropoliteni qurishda va foydalanishda gruntlarni ishlash yordamida yer osti yo'llarini yaratishdan iborat. Yopiq usulda yer osti qazilma boyliklarini qazib olishmaqsadida yer uchastkasini tayyorlash gorizonta va vertika, etarli darajada keng yer osti yo'llarini yaratish hamda qazib olish davrida ulardan foydalanishdan iborat. Ochiq usulda qazib olishda ushbu maydonlarda keyinchalik (ishlar tugaganidan so'ng) rekultivatsiya ishlarini o'tkazish bilan nisbatan yirik maydonlardagi yerning ustki qatlamini sidirib olish amalga oshiriladi. Sanoat va transport obyektlari aksariyat hollarda maxsus rejim tashkil etishni, ya'ni ulardan normal foydalanish ta'qiqlanadigan, qo'riqlanadigan, sanitariya-himoya, qirg'oqlarni qo'riqlash mintaqasi singari maxsus mintaqalarni yaratishni talab qiladi.

Noishlab chiqarish usullari faqatgina kenglik-operatsion asos sifatida yerlardan foydalanishdagina mavjud bo'ladi hamdaiqtisodiy mahsulot olish bilan bog'liq emas. bunday yerdan foydalanish faoliyatning ijtimoiy, reaksiya va tabiatni qo'riqlash sohalari uchun xarakterlidir. Ijtimoiy sohada yer uchastkalari uy-joylar qurish hamda ijtimoiy ahamiyatdagi obyektlarni joylashtirish uchun foydalaniladi. Yer bu joydan kenglik-operatsion asos rolini bajaradi va undan foydalanish usuli yer uchastkalarining ustki qismining obyektlarini qurish (bino va inshootlarni) va foydalanishga moslashtirish hamda aksariyat ijtimoiy samara olish bilan bog'liqdir. Rekreatsion sohada yerdan foydalanish xarakteri yoppasiga dam olish mintaqalarini (suvga to'lish joylari, ko'llar, dam olish parklari, kyema stansiyalari va boshq.) tashkil etish uchun moslashtiriladi. Yer bu joyda kenglik asosi rolini bajaradi. Sog'lomlashtirish mohiyatidagi yerlarga kelsak, aynan ushbu holatda ularning tabiiy

xususiyatlaridan (davolovchi loylar, minerallangan suv, iqlim xususiyatlari) foydalaniladi. Bunday hollarda yerdan foydalanish rekreatsion (sogʻlomlashtiruvchi) samaradorlikni olish bilan bogʻliqdir.

Tabiatni qoʻriqlash sohasi uchun (qoʻriqxonalar, buyurtma bogʻlar) ularga hech qanday texnogen taʼsir oʻtkazmasdan oʻsimlik va hayvonot dunyosi yordamida yerdan foydalanishning “tabiiy” usuli xarakterlidir. Yerdan foydalanish ushbu usulining natijalari ekologik samaradorlikdir (oʻsimlik va hayvonot dunyosining oʻziga xos turlarini saqlash-mahsulot).

Eʼtirof etish joizki, yerdan foydalanishning sanoat-ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish usullari bugungi kunda etarli oʻrganilgan emas. Ayniqsa yerdan foydalanishning ijtimoiy, rekreatsion va ekologik samaradorliklarini oʻrnatish masalalari tadqiq qilinmagan. Koʻrib chiqilayotgan barcha usullar uchun yerdan foydalanishning ekstensiv hamda intensiv usullari xarakterlidir.

Yerni erkin bozor sharoitida iqtisodiy foyda (iqtisodiy samaradorlik) olish nuqtai nazardan foydalanish usullari sifatida-tijorat usuli alohida ajratiladi. Yer uchastkasining oldi-sotdi operatsiyalari harakatda qatnashmayotgan tomonlari maʼlum iqtisodiy foyda olish bilan, shuningdek yer uchastkalariga (koʻchmas mulk obyektlari) boʻlgan huquqlarni davlat roʻyxati uchun bojni yoʻllanishi bilan bogʻliqdir. Shu bilan birga ushbu usul yerga qandaydir texnik-texnologik taʼsir etish bilan bogʻliq emas, natijada uni faqatgina yerdan foydalanishning “muvaqqat oʻtish” usuli sifatida qarash ancha toʻgʻri boʻladi, negaki u yer uchastkasi bilan xarakatlar davriga-qisqa muddatli xarakterga egadir. Undan yangi egasi tomonidan keyingi foydalanish (yangi xarakatlarga qodir) yuqorida koʻrib oʻtilgan usullardan bittasi yordamida amalga oshiriladi.

Tabiiy resurs sifatida yerdan foydalanish uni asosiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bogʻliq. Jamiyat faoliyatining turli sohalarida foydalaniladigan tabiiy rusurs sifatidagi yer faqat uning oʻzigagina xos, hamda boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farq qiluvchi oʻziga xos xususiyatlarga egadir. Maxsus adabiyotlarda odatda uning quyidagi xususiyatlari keltiriladi.

1. Ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalaniladigan, o'zining tuproq qatlami bilan tabiiy-tarixiy tanasifatidagi yer tabiat mahsuli hisoblanadi, shu bilan bir qatorda ishlab chiqarish vositalari singari inson mehnatining natijasidir.

2. Ishlab chiqarish jarayonida yer amaliy jihatdan o'z joyini o'zgartirmaydi, uni joylashgan o'rnini o'zgarimasdan qoladi. Undan farqli o'laroq ko'pgina ishlab chiqarish vositalari harakatchandir va zaruriy hollarda kenglikda o'z o'rnini o'zgartirishi mumkin. Shu munosabat bilan harakatlar maydonlarini tashkil etishda ishlab chiqarish vositasi sifatida yerdan ancha to'la va oqilona foydalanishga erishish maqsadida ishlab chiqarishning barcha elementlarini to'g'ri joylashtirishni ko'zda tutish mumkin.

3. Ishlab chiqarish jarayonida barcha ishlab chiqarish vositalarining jismoniy va ma'naviy eskirishi yuz beradi. Buning natijasida ulardan foydalanish samaradorligi pasayadi yoki to'la yo'qoladi hamda oxir-oqibatda ishlab chiqarish sohasidan chiqib ketadilar. Qishloq va o'rmon xo'jaliklarida asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yer undan to'g'ri foydalanishda noinki yemirilishga uchraydi, balki aksincha yaxshilanadi-unumdorligi oshadi.

4. Tabiiy-tarixiy tana sifatidagi yerning ustki qismi yer sharining quruqlik qismi bilan chegaralangan va miqdoriy o'zgarimasdi. Yer ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa hech bir ishlab chiqarish vositalari bilan almashtirilishi mumkin emas. Shu bilan bir vaqtda boshqa ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish jarayonida doimo o'zgaradilar hamda aksariyat hollarda ular boshqalari bilan almashtirilishi mumkin.

5. Yer – ishlab chiqarish vositasi sifatida uni faoliyatini ta'minlaydigan barcha tabiiy resurslar va iqtisodiy muhit elementlarini, inson bilan birgalikda, planetadagi barcha yirik mavjudodlarni saqlash asosidir.

6. Qishloq xo'jaligida yer bilan sug'orish kanallari, yo'llar, kollektor-zovur tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar, dalalar shiyponlari kabi ishlab chiqarish vositalari uzviy bog'liqdirlar.

7. Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida boshqa tabiiy olimlar (yorug'lik, suv, havo, issiqlik) majmuasidan foydalanadi. Ushbu xususiyatni

hisobga olish texnologiyalarning mintaqaviy xususiyatlariga, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini to‘g‘ri joylashtirishga, alohida regionalar, tumanlar, korxonalar ixtisosliklariga yirik ta‘sir ko‘rsatadi.

8. Barcha ishlab chiqarish vositalari mehnat taqsimoti uchun manbaa yaratadi, shu bilan bir vaqtda yerlardan oqilona foydalanish qishloq xo‘jalik ekinlarini almashishini va tarmoqlarni qo‘shilishini ko‘zda tutadi. Bu xususiyat ayniqsa keng tarkalgan ixtisoslikdagi qishloq xo‘jalik korxonalarini tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.


9. Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida faqatgina ekinlar vegetatsiya davridagina foydalaniladi, shu bilan bir vaqtda boshqa ishlab chiqarish vositalari vaqt bo‘yicha hech qanday bo‘linmagan tarzda yil davomida foydalaniladi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish iste‘molining umumiy sharti sifatidagi Yerning sanab o‘tilgan belgilari va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish umuman yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatni xom-ashyoga va oziq-ovqat mahsulotlariga doim o‘sib boruvchi talabi dehqonchilik oldiga mavjud ekin yerlaridan oqilona va samarali foydalanish, ular maydonlarini unumdorligi ancha past boshqa yer turlari hisobiga kengaytirish vazifasini qo‘yadi. Ammo qishloq xo‘jaligini ekstensiv rivojlanishi yer resurslari maydonlarining chegaralanganligi bilan cheklanadi, shuning uchun tuproq unumdorligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish o‘ta muhim muammo hisoblanadi. Yerlarni chegaralanmaganlik sharti uni yerning ishlab chiqarish kuchlarini chegaralanganligi bilan qo‘shilib ketishga, yer shari aholisini yerlarni ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishiga nisbatan yirik miqdorlarda o‘sib ketayotganligi to‘g‘risidagi “nazariya”ni hamda shu nazariya bilan bog‘liq “tuproqlar unumdorligini pasayish qonuni” deb nom olgan qonuni qabul qilishga asos bermaydi. Dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarida qishloq xo‘jaligini yuritish amaliyoti (masalan, Shvetsiya, Gollandiya, SSHA, Germaniya) ushbu nazariyani qat‘iy rad etdi. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashganligi sharoitida yuqoriga aytib o‘tilgan

“qonun” hech qanday logik mazmunga ega bo‘lmaydi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblangan qishloq xo‘jaligidagi ilmiy-texnik rivojlanish ushbu qoidani yana bir karra tasdiqlaydi.

Har qanday iqtisodiy mahsulotning takror ishlab chiqarish jarayonida yer ishlab chiqarishning o‘ta muhim va almashtirib bo‘lmas moddiy omili sifatida gavdalanadi. Asosiy ishlab chiqarish vositasida qishloq xo‘jaligida unga ishlab chiqarishning yangi omillarining eng asosiy o‘rni beriladi, negaki keyingisining iste‘moli foydalanilmaydigan Yerning miqdoriy va sifat tavsiflari bilan bog‘liq. Sanoatda, transportda, ijtimoiy sohalarda yer ishlab chiqarish vositasi, kenglik-operatsion asos sifatida gavdalanadi. Ijtimoiy ishlab chiqarishda yerni tabiiy resurs sifatida gavdalanishi muammolariga etarli miqdorlarda tadqiqotlar bag‘ishlangan bo‘lishiga qaramasdan, yerlardan foydalanishning mavjud holati undan ko‘p sonli hal qilinmagan quyidagi masalalarning mavjudligi to‘g‘risida guvohlik beradi.



15-rasm. Yerlardan foydalanishning mavjud holati hal qilinmagan masalalar


Yerdan foydalanishning sanab o‘tilgan va qator boshqa kamchiliklari qishloq va o‘rmon xo‘jaligi, sanoat, transport va undan foydalanishning boshqa sohalarini uchun amaliy jihatdan to‘la haqqoniydir. Shu munosabat bilan iqtisodiy mahsulotni qayta ishlab chiqarish davrida yerning roli, tabiiy resurs sifatidagi yerning o‘zini qayta ishlab chiqarish siklidagi mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarishning boshqa omillari bilan uni o‘zaro aloqalar xarakteri yo‘nalishlarida tadqiqotlarni davom ettirish zarur bo‘ladi.

Yerning o‘zini to‘la qayta ishlab chiqarishini (yer resurslarini) oldindan ko‘rib chiqamiz. O‘zining to‘la takror ishlab chiqarish davrida yer uchta bosqichdan o‘tadi: yer resurslarini taqsimlash yoki qayta taqsimlash (foydalanish uchun yer berish); jamiyat faoliyatining barcha sohalarida yerdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish; yer resurslarini qayta ishlab chiqarish (tiklash) (15-rasm) [66].

Bosqichlarning barcha sikllari (davrlari) nisbatan alohidadirlar, o‘zlarining aniq ichki mazmuniga va turli mohiyatga egadirlar, ammo bunda o‘zaro bog‘liq va o‘zaro aloqadadirlar. Birinchi fazani oshirish yerdan foydalanish xarakteri va maqsadli mohiyatini belgilagan tarzda jamiyatdagi yerdan foydalanish sohalarini hamda iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan yer resurslarini taqsimlashni o‘z ichiga oladi, qaysiki bu ikkinchi bosqichni amalga oshirishga manba yaratadi. Iqtisodiyotni doimiy rivojlanishi sharoitida ikkinchi bosqichni amalga oshirish yer resurslarini keyingi taqsimlash va yangidan qayta taqsimlash usun obyektiv holda manba yaratadi, yani ikkinchi bosqichni amalga oshirishi birinchi bosqich amalga oshirish zarurligini muhim obyektiv shartidir.

Ikkinchi tomondan, siklning ikkinchi bosqichini amalga oshirish yer resurslarini ishlab chiqarish iste‘mol bilan bog‘liq va keyingi har bir, yangi ishlab chiqarish sikl ularni qayta ishlab chiqarish obyektiv tarzda talab qilinadi, ya‘ni siklni ikkinchi bosqichini amalga oshirishi uchinchi bosqichni mavjud bo‘lishining asosiy shartidir. Shu bilan bir vaqtda, yer resurslarini qayta ishlab chiqarish (uchinchi bosqich) siklning ikkinchi bosqichida ulardan samarali foydalanishning (iste‘mol) obyektiv zaruriyati hisoblanadi. Vanihojat, uchinchi bosqichni amalga oshirish yer resurslarini navbatdagi qayta ishlab chiqarish sikli uchun yer resurslarini taqsimlash va qayta

taqsimlash zaruriyatini ko'zda tutadi. O'z navbatida yangidan taqsimlanishi (qayta taqsimlanishi) hamda ularni navbatdagi siklda keyingi foydalanishi vositasida siklning birinchi bosqichini amalga oshirish ularni oldindan qayta ishlab chiqarish (tiklanish) zaruriyatini ko'zda tutadi. Bunday o'zaro aloqalar va o'zaro bog'liqliklar to'la qayta ishlab chiqarish siklining birligi va yaxshiligini tashkil etadi. Qayd qilish zarurki, o'zaro aloqalar qishloq xo'jaligida yerlardan to'g'ri foydalanishda yer resurslarini qayta ishlab chiqarish (tiklash) ma'lum miqdorda to'g'ridan-to'g'ri hamda ulardan foydalanish bosqichida amalga oshiriladi, kabi ichki tuyg'u bilan amalga oshiriladi.



15-rasm. Yer resurslarini to'la takror ishlab chiqarish [33].

Qishloq xo'jaligida yerlarni qayta tiklash sikli (tuproq unumdorligi) bitta kalendar yoki qishloq xo'jalik yiliga teng, keyin yangi qayta tiklash siklining birinchi va ikkinchi bosqichlarini amalga oshirish zaruriyati vujudga keladi. Bundan uchinchi bosqich (tuproq unumdorligini qayta tiklash) aniq muvoqqat chegaraga ega emas,


tuproq unumdorligini tiklash bo'yicha oldingi qayta tiklash siklida o'tkazilgan tadbirlar samaradorligi ikkinchi, uchinchi sikllar va keyingi sikllar vaqtida ham amalga oshirishi mumkin. Bu qishloq xo'jalik yerlari qayta tiklashning o'ziga xos xususiyatidir. Prof.S.A.Tkachuk tomonidan yer resurslarini qayta tiklash siklining to'rtta bosqichi qarab chiqilganligini haqqoniy ravishda e'tirof etamiz: ishlab chiqarish (foydalanish), taqsimlash (qayta taqsimlash), almashish (faoliyat bilan, texnologiyalar, axborotlar bilan), iste'mol (tiklash, qayta tiklash), ammo shu bilan bir vaqtda ishlab chiqarish va almashishni birgalikda, jamlagan holda ko'rib chiqish zarur, deb e'tirof etiladi [32].

Sanoat va noishlab chiqarish (ijtimoiy, rekreatsion, tabiatni qo'riqlash sohalari) mohiyatidagi yerlarni qayta tiklash sikli, qoidaga binoan vaqt bo'yicha qishloq xo'jaligi yerlari siklidanyirik va bir necha yildan bir necha o'ng yilgachani tashkil etadi. Masalan sanoat obyektlari yerlarini qayta tiklash ushbu yer uchastkasida aynan shuncha miqdordagi, ammo ancha kuchli agregatlar o'rnatish vositasida yoki bo'lmasa, masalan, GESlardagi gorizontal joylashgan energiya bloklarni vertikalga aylantirish natijasida amalga oshiriladi, natijada obyekt tagidagi yerlar maydoni qisqaradi va hak. Ijtimoiy sohada yer resurslarini qayta tiklash kam qavatli binolarni (shu jumladan uy-joylarni) ko'p qavatli uylar bilan almashtirish, ijtimoiy obyektlargaxizmat ko'rsatish uchun yer uchastkalarini ilmiy asoslangan tarzda ajratish va hak.

Iqtisodiy maxsulotni qayta ishlab chiqarish siklida ishlab chiqarish omili sifatidagi yerning ishtirokini qarab chiqamiz. Oldiniga buni sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida qishloq xo'jalik ishlab chiqarish misolida ko'rib chiqamiz (16-rasm). Ishlab chiqarishning asosiy omillariga kiradilar: yer, kapital, mehnat, suv, tadbirkorlik, axborotli ta'minot va texnologiyalar (rasm juda murakkab bo'lib ketmasligi uchun ohirgi ikkita omil ko'rsatilmaydi). Bunda foydalaniladigan resurslarning qayta ishlab chiqarish sikllari uchta bosqichni o'z ichiga oladilar: resursni taqsimlashni (qayta taqsimlanish), uni to'g'ridan-to'g'ri foydalanish, resursni qayta ishlab chiqarish va bularrasmda ellipslar yordamida ko'rsatilgan. Iqtisodiy mahsulotning qayta ishlab chiqarish sikli (qishloq xo'jalik mahsuloti) to'rtta

bosqichni o‘z ichiga oladi: ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste‘mol va bular rasmda kvadratlar yordamida ko‘rsatilgan.

Iqtisodiy mahsulot



16-rasm. Iqtisodiy mahsulotni qayta ishlab chiqarish siklida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish.

Bunda quyidagi belgilar qabul qilinadi:

Pr-mahsulot ishlab chiqarish (hosil)hamda mos ravishda ishlab chiqarish omillarining iste‘moli.

R- mahsulot va ishlab chiqarish omillarining taqsimlanishi.

P- mahsulot iste‘moli.

V-ishlab chiqarish omillariniqayta ishlab chiqarish.

Mahsulotni (Pr) “ishlab chiqarish”rasmda ko‘rinadiki, resurslarni “iste‘moli”bosqichi bilan mos tushadi. Bunda barcha turdagi resurslar uchun, yer

resurslari bundan mustasno (tuproqlar unumdorligining biologik xususiyatlari), ularni to'la iste'moli harakterlidir (qayta ishlab chiqarish siklining boshlanishidagi to'g'ri taqsimlanishda). Ushbu bosqichda Yerni mavjud bo'lishining muxim masalalari quyidagilar: tuproq unumdorligi iste'molining xarakteri va miqdori, yer resursiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulotning ulushini belgilash.

Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida tuproq unumdorligi to'la iste'mol qilinmaydi (tuproqdan chiqarilmaydi). Agarda yer sifatining miqdori ishlab chiqarish vaqtida B_1 deb qabul qilinsa, ishlab chiqarish jarayoning ohirida B_2 bo'lsa, tuproq unumdorligining iste'mollik miqdori $B_{pot} = B_1 - B_2$, bunda B -tuproqning bonitet balli. Tuproq unumdorligining iste'mollik qiymati bilan qoldiq qiymati orasidagi nisbat tuproq unumdorligining boshlang'ich darajasiga, ozuqa moddalarining o'simliklar tomonidan o'zlashtirishiga, ishlab chiqarish jarayonida yerdan foydalanish intensivligiga va qator boshqa omillarga bog'liqdir. Shulardan kelib chiqqan holda yaratilgan mahsulot miqdori bilan (bir birlik maydonga, ya'ni hosildorlik) iste'mol qilingan tuproq unumdorligining miqdori, ya'ni $U_r = F(B_{pot})$ o'rtasidagi korrelyasion bog'liqliqni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bir vaqtda sarflangan tuproq unumdorligiga iqtisodiy ekvivalent sifatida qarshi qonuniy bo'ladigan, yaratilgan mahsulotda yer resurslarining ulushini belgilash ham maqsadga muvofiqdir. Bunday natijalar aniqligini ta'minlaydigan, takomillashgan uslublar asosida yer sifatining monitoringini hamda tuproq bonitirovkasini o'tkazish talabi kelib chiqadi.

Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan resurslarni qayta ishlab chiqarish yaratilgan iqtisodiy mahsulotni bir qismini iste'mol qilish bilan bog'liqdir (rasmda uzluksiz chiziqlar). Barcha resurslarni qayta ishlab chiqarish (yer resursi bundan mustasno) muammoli masala emas (mehnatga haq to'lash, amortizatsiya ajratmalari va boshq.), iqtisodiy va texnologik jihatlaridan ancha murakkab masala—bu yer resurslarini qayta tiklash—tuproq unumdorligini qayta tiklashdir. U quyidagicha qayta tiklanishi mumkin:

-iste'mol qilingan miqdoriga nisbatan oshiqcha tarzda (kengaytirilgan takror ishlab chiqarish).

-iste'mol qilingan miqdoriga teng nisbatda (oddiy takror ishlab chiqarish).

-iste'mol qilinganidan kam miqdorlarda (oddiy ishlab chiqarish darajasidan past).

-umuman qayta ishlab chiqarilmagan.

Respublika qishloq ho'jaligi uchun keyingi yillari keyingi ikkita variant xarakterlidir. Savol tug'iladi: mahsulotni navbatdagi qayta ishlab chiqarish sikli uchun nimaga barcha omillarni qayta ishlab chiqarish majburiy, yer resursi uchun esa-yo'q?

Birinchidan, boshqa turlardagi resurslarniqayta ishlab chiqarmasdan mahsulotni navbatdagi qayta ishlab chiqarish sikli mumkin emas, yer resurslarini qayta ishlab chiqarmasdanturib esa mumkin (bir qadar kamaygan hajmda), negaki tuproq absolyut emas, balki nisbatan charchashi mavjuddir. Mahsulotqayta ishlab chiqarish siklining nihoyasiga etishi bilan, agarda yer resurslarini qayta ishlab chiqarish ro'y bermagan bo'lsa yoki u etarli miqdorda amalga oshmagan bo'lsa, tuproqda,shunga qaramasdan unumdorlik mavjud bo'ladi (qoladi). Bu unumdorlik iqtisodiy mahsulotning keyingi qayta ishlash siklida foydalaniladi. Bu holat tuproq unumdorligini qayta tiklashni inkor etish mumkin bo'ladigan fikrni tug'dirishi,yerdan uzoq vaqt davomida sifatini pasayib borishiga qaramasdan,foydalanish mumkin,yer boshqa omillardanfarqli o'laroq barchasiga "dosh beradi", "chidaydi"degan noto'g'ri hulosalarni tug'diradi.

Ikkinchidan, o'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari natijasida oldingi yillardagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar etarlicha moliyalanmadi. Yerlarni meliorativ tayyorgarligi uchun undiriladigan yer solig'ining ma'lum bir qismi yo'naltiriladi,deb hisoblanadi. Ammo sug'oriladigan yerlarning sifat holati buni etarli emasligini ko'rsatadi. yer (tuproq unumdorligi) ishlab chiqarishning boshqa omillari singari "yemiriladi" hamda o'zini qayta tiklanishiga zaruriyat tug'diradi. Shuning uchun oldindan belgilangan miqdorlarda uni majburiy qayta tiklashga ketadigan harajatlar qayta ishlab chiqarish siklida ko'zda tutilishi hamda mahsulotning ishlab chiqarishning to'la xarajatlariga kiritilishi zarur. Darhaqiqat, ular yer resurslariga to'g'ri keladigan yaratilgan mahsulot bir qismini sotishdan olinadigan sof daromad qiymatidan oshib ketmasligi zarur,ya'ni $3_v < 4_v$. Ushbu shartdan kelib chiqqan holda shunday meliorativ

tadbirlarni amalga oshirish zarurki, ular belgilangan miqdordagi (yoki eng kam zaruriy) xarajatlar evaziga tuproq unumdorligini qayta tiklashni ta'minlashi zarur. Sug'oriladigan Yerlarning mavjud sifat holatiga kelsak, ularning mavjud pasayib ketgan unumdorligini tiklash uchun yirik miqdordagi bir vaqtning o'zida sarflanadigan harajatlar zarur. Ularning miqdori ishlab chiqarish omili sifatidagi yer resurslariga to'g'ri keluvchi daromadning bir qismi miqdoriga teng bo'lishi kerak.

Harajatlar qaysi muddatga-bir yoki bir necha qayta ishlab chiqarish sikliga to'g'ri kelishi zarur bo'ladigan muddatlarni belgilash muhim masaladir. O'tkaziladigan tadbirdan samara birdaniga ro'y bermaydi, hamda u vaqt bo'yicha teng emas. Bu ham ular samaradorligining darajasi hamda yerlarni qayta tiklash bo'yicha samaraning ta'sir etish muddatini belgilash masalalari bo'yicha tadqiqotlarni talab qiladi. Bu holatni qayta tiklash siklida yerdan foydalanish samaradorligini baholashda ham hisobga olish zarur.

Uchinchidan, qishloq xo'jaligini yuritishda oqilona va samarali yerdan foydalanish qoidalariga ko'pincha rioya qilinmaydi. Keyingi yillarda qishloq xo'jaligida dehqonchilikning ilmiy tizimi deyarli mavjud emas, qishloq xo'jalik ekinlarining rotatsiyasi (almashlab ekishlar) yo'q, paxta va kuzgi don ekinlari asosiy maydonlarni tashkil etadi. Irrigatsiya va meliorativ tarmoqlar yirik hajmlardagi rekonstruksiyaning talab qiladi, ularning FIK (foydali ish koeffitsienti) yuqori emas, sug'orish suvining yo'qotilishi yirik, yer osti suvlari ancha ko'tarilgan. Yer resurslarini qayta tiklash zaruriyatini tan olmagan asosiy sanab o'tilgan sabablarini tuproqlar unumdorligini keskin pasayishiga, 60% ga yaqin yerlarni sho'rlanishiga, yirik maydonlardagi yer ustuni tekislash ishlarini o'tkazilishini zarurligiga, asosiy qishloq xo'jalik ekini hisoblangan paxta hosildorligini yirik miqdordagi pasayishiga, sifat holati yomonlashib ketgan yirik sug'oriladigan yer maydonlarini qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketishiga olib keladi.

Resurslarni taqsimlanish bosqichida yer qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning butun omillari majmuasida ancha faol rol o'ynaydi, negaki boshqa omillarni taqsimlanishi (zaruriy xajmlarni rejalashtirish) mahsulotni yangidan qayta ishlab chiqarish sikliga tortiladigan qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish intensivligi,

miqdori va sifatiga qarab amalga oshiriladi (rasmda punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan).

Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasida sug'orish suvi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning muhim omili hisoblanadi. Suv resurslari suvdan farqli o'laroq iqtisodiy mahsulotni qayta ishlab chiqarish siklida uncha murakkab bo'lmagan rolni o'ynaydilar, negaki sug'orish suvi qayta tiklanadigan tabiiy resursdir. Shunga qaramasdan sug'orish suvi ishlab chiqarishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy mexanizimida, shu jumladan sug'oriladigan yerlardan foydalanishda ham yirik rol o'ynaydi. Shu sababli sug'orish suvidan foydalanishning iqtisodiy qirrasini hamda uni sug'oriladigan yerlardan foydalanishning iqtisodiy mexanizimidagi rolini ancha chuqur o'rganish zarurdir. Sanab o'tilgan masalalar tabiiy resurs sifatidagi sug'orish suvining bahosi to'g'risidagi masala ancha muhim deb hisoblaymiz.

Tiklanadigan tabiiy resurs sifatidagi sug'orish suvining bahosi irratsional tushunchadir, ammo bozor munosabatlariga tortilgan suv qiymat baholashni talab qiladi. Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqasidagi suvni baholash shu bilan murakkablashadiki, bu yerdan uning amaliy qiymati yoki qiymatligi yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish bilan uzviy bog'liqdir. Bu hol "sug'oriladigan yerlar" yoki "sug'oriladigan ekin yerlari" tushunchalarini oldindan ko'rib chiqishni talab qiladi. Arid mintaqasi dehqonchiligida tarkibiy va sifat jihatidan bir-birlaridan keskin farq qiluvchi namli va sug'oriladigan (ba'za shartli sug'oriladigan ham) ekin yerlari ajratiladi. Sug'oriladigan ekin yerlari-bu namli ekinzor, sug'oriladigan ekin yerlari esa-bu sug'orilmaydigan(namli) ekin yerlari va sug'orish suvining birikishidir, tuproqni sifat jihatidan yangi holatidir. Suv sug'oriladigan qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish uchun zarur bo'ladigan yangi tavsiflarni tuproq tomonidan o'zlashtirishga imkon beradi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quydagicha ta'rifni keltirish mumkin: sug'oriladigan ekin yeri-dehqonchilikni arid mintaqasida qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish uchun sug'orish suvi hisobiga iste'mol suvi hamdasuv ozuqa muxitini (organik va mineral moddalar bilan birikkan holda) ta'minlovchi tuproqning holatidir. Boshqacha qilib aytganda,

sugʻoriladigan ekin Yerlarining asosiy komponenti suv hisoblanadi. Bu prinsipial qoida quyidagilarni hulosa qilishga imkon beradi:

a) sugʻorish suvisiz sugʻoriladigan ekin Yarlari mavjud boʻlmaydi, “sugʻoriladigan ekin yarlari” tushunchasi namli ekinzorni (tuproqni) sugʻorish suvi bilan organik birikishidir;


b) sugʻoriladigan ekin yerlarning qiymati bir vaqtning oʻzida namli ekinzor va suvning qiymatini oʻz ichiga oladi;

v) sugʻoriladigan yerlar uchun barcha turdagi toʻlovlar bir vaqtning oʻzida sugʻorish suvi uchun ham toʻlovlarni oʻz ichiga oladi. Ushbu hulosalar qishloq xoʻjalik suvidan foydalanishda bozor tamoyillarini ishlab chiqish va tadbiiq etish asosida yotishi zarur deb hisoblaymiz.

Yer resurslarinitorla qayta ishlab chiqarish siklining masalalarini tadqiq qilish yuqorida qayd qilinganlarga qoʻshimcha sifatida Yerning quyidagi xususiyatlarini ajratishga imkon beradi (17-rasm):

-boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli oʻlaroq,yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida qayta tiklash (tuproq unumdorligi)nisbatan murakkab biologik jarayondir hamda vaqt boʻyicha, qoidaga binoan, boshqa ishlab chiqarish vositalarining qayta ishlab chiqarish sikllari bilan bir xil emas (masalan, kapital, mehnat, suv). Bu xususiyatni hisobga olish qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishni rejalashtirishda hamda yerdan foydalanish samaradorligini baholashda muhimdir.

-asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerni qayta ishlab chiqarishni (tuproq unumdorligi) uni toʻgʻridan–toʻgʻri foydalanish jarayonida ham (mahsulot oshirish jarayonida), ishlab chiqarish jarayoni tugaganidan soʻng ham (vegetatsiya davri) amalga oshirish mumkin. Bu bilan u boshqa ishlab chiqarish vositalarini qayta ishlab chiqarish xarakteridan tubdan farq qiladi. Ushbu xususiyatni hisobga olish qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini rejalashtirishda yerlardan foydalanish samaradorligini baholashda ham muhimdir.



17-rasm. Tabiiy resurs sifatidagi yer xususiyatlarining turlari.

-qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishning yangi sikli (yangi vegetatsiya davri) qishloq xo‘jalik yili tugaganidan so‘ng tuproq unumdorligini qayta tiklamasdan ham (ishlab chiqarishning to‘la sikli tugaganda) amalga oshirish mumkin, shu bilan bir vaqtda boshqa ishlab chiqarish vositalarini qayta ishlab chiqarmasdan turib uni amalga oshirish mumkin emas, bu ham yerning asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi xususiyati (biologik) hisoblanadi. Bunday holatda yerni to‘la qayta ishlab chiqarish sikli (asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida) iqtisodiy mahsulotni to‘la qayta ishlab chiqarish sikli bilan to‘g‘ri kelmaydi (boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli o‘laroq);

-sug‘oriladigan dehqonchilik regionlarida tuproq substansiya sifatida yerning usti qatlami va sug‘orish suvining organik yaxlit holati sifatida gavdalanadi hamda faqat shu sifatda asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘ladi. Ushbu xususiyatni yer va suv resurslarini qiymat baholashda, yer va suvni soliqqa tortishda, qishloq xo‘jalik


mahsulotlarini ishlab chiqarishga sarf-harajatlarni hisoblashda va qator boshqa masalalarni hal qilish hisobga olish zarur;

-yerni tabiiy resurs sifatida bozor munosabatlariga tortish unga tovar xususiyatini beradi, buni yerga bozor bahosini belgilashda va yer bilan turli harakatlar sodir etishda hisobga olish zarur;

-qishloq va o'rmon xo'jaligida, sanoatda va transportda, ijtimoiy va rekreatsion sohalarda yer resurslarining to'la qayta tiklash sikllari o'zlarining muddatlari bo'yicha tubdan farq qiladilar.

Sanoat mohiyatidagi yerning iqtisodiy mahsulotni qayta ishlab chiqarish siklidagi rolini ko'rib chiqamiz. Birinchi asosiy xususiyati shundan iboratki, bu joyda yer faol rol o'ynamaydi (qishloq xo'jalik yerlariga nisbatan), ishlab chiqarishning asosiy omillaridan (ammo bosh omili emas) biri hisoblanadi (18-rasm).

Sanoat obyektini qurish rejalashtirilganda ma'lum miqdordagi yer uchastkasi ajratib beriladi (yer taqsimlash bosqichi R). Yer ishlarining boshlanishi bilan obyektida bino va inshootlarning poydevori uchun chuqurlar qaziladi, zaruriy hollarda uchastkada yer osti suvlari chiqarib tashlanadi, tuproqlarni mahkamlash ishlari bajariladi va hok, ya'ni ishlab chiqarish binolari va inshootlari uchun yer uchastkasining ustki qismini moslashtirish amalga oshiriladi, bu joyda yer ishlab chiqarish binolari, qurilmalari va inshootlarini joylashtirish uchun kenglik asosi rolini o'ynaydi. Mahsulot ishlab chiqarish boshlanishi bilan (iqtisodiy mahsulot) yer ishlab chiqarish vositasi rolini, moddiy ishlab chiqarish uchun zaruriy shartni bajaradi, mahsulot ishlab chiqarish bosqichida (P_r) yerni resurs sifatidagi ishlab chiqarish iste'moli ro'y beradi (shuningdek boshqa resurs turlari). Keyin mahsulotni taqsimlash va almashtirish



18-rasm. Iqtisodiy mahsulotni qayta ishlab chiqarish siklida sanoat ishlab chiqarishning asosiy omillari [66].

bosqichi ro‘y beradi, uni qayta ishlabchiqarish sikli iste‘mol bosqichini yakunlaydi. Mahsulotni iste‘moli bosqichida aylanma kapitalning qayta tiklanishi hamda Yerdan tashqari ishlab chiqarishning barcha asosiy omillarini qayta tiklash ro‘y beradi. Keyin kapital taqsimlanishi ro‘y beradi va shunga mos tarzda-yerdan tashqari barcha turdagi resurslarning taqsimlanishi ro‘y beradi. Shunday qilib,sanoatda iqtisodiy mahsulotlarning har bir yangi qayta ishlab chiqarish siklida yerni resurs sifatida yangidan qayta tiklash va taqsimlanishi ro‘y beradi. Yerni yangidan qayta tiklanishiga hamda uni taqsimlanishiga talab (ya’ni yer resurslarini yangidan qayta tiklash siklida) ushbu obyekt faoliyatini tugatish hamda mahsulot ishlab chiqarishni

nihoyasiga etishi bilan boshlanadi. Shunday qilib, sanoatda yer resurslarini to'la qayta tiklash sikli obyektini butun faoliyati davridagi iqtisodiy mahsulotni to'la qayta ishlab chiqarish (S_{pr}) jarayonining summasiga teng, ya'ni

$$S_{vos.3} = N \cdot S_{pr} = n \cdot t \cdot S_{pr} \quad (1)$$

bu yerda; $S_{vos.3}$ -yer resurslarini to'la qayta tiklanish sikli:

S_{pr} -iqtisodiy mahsulotni to'la qayta ishlab chiqarish sikli:

N -iqtisodiy mahsulotni jami qayta ishlab chiqarish sikli:

n -yil davomida mahsulot ishlab chiqarish sikllarining soni:

t - obyektini faoliyat ko'rsatish yillarining soni.

Yer resurslarini yangidan qayta tiklash sikli ishlab chiqarish shartining o'zgarishi bilan, ya'ni obyektini rekonstruksiyasidan keyin yoki bo'lmasa ushbu korxonaga to'la tugatilganidan hamda yer uchastkasida yangi obyekt qurilishi bilan boshlanadi. Rekonstruksiya qilingan holda (yangi texnologiyalarni hisobga olish asosida) oldingi yer uchastkasida ancha yuqori quvvatli qurilmalar joylashtiriladi, qaysiki ular oldingi yer uchastkasidan ancha samarali foydalanishni ta'minlaydi yoki bo'lmasa oldingi quvvatdagi qurilmalarga yer iste'moli (maydoni) qisqartiriladi. Shunday qilib, siklning uchinchi bosqichi–yerni qayta tiklash–yangi obyektini qurish yoki mavjud o'ektni rekonstruksiya qilish jarayonida amalga oshiriladi hamda u yer uchastkalarini gorizontaal va vertikal tekislash, tuproq-gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlarini yaxshilash va hokazo maqsadlar uchun tayyorlashni oladi. Bundan ushbu ishlarni amalga oshirish sarf-harajatlari yerni qayta tiklash qiymatini aniqlaydi. Tog'-kon mahsuldorlik iste'moli vaqt bo'yicha to'la tog' jinslarini qayta ishlash qayta tiklash siklining summasiga teng bo'ladi (yoki loyihada ko'zda tutilgan bosqichlar bo'yicha), Yerni qayta tiklash bosqichi esa buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilishga mos bo'ladi (karerlar,shaxtalar va hok.). Transport obyektida yer uchastkalarini qurishga tayyorlash avtomobil yo'llarini profilini yaratish,metropolitenni qurish va undan foydalanishda gruntlarni ishlash vositasida temir yo'l polotnalarini, tunnellarni yaratishdan iborat bo'ladi. Yerlarni taqsimlash bosqichi transport obyektlarini qurish uchun yer uchastkalarini ajratib berishni o'z

ichiga oladi, vaqt bo'yicha yerdan foydalanish bosqichi obyektning rekonstruksiya qilishganiga qadar yoki o'z faoliyatini to'la tugatguniga qadar iqtisodiy mahsulotni barcha to'la qaytatiklash sikllarining summasidan iborat bo'ladi. Yerni qayta tiklash bosqichi uni qaytadan loyihalash yoki qandaydir boshqa bir obyektga moslashtirish asosida oldingi yer uchastkasini qisqartirish yoki kengaytirishni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish mahsulotlari uchun aksariyat hollarda yerlardan foydalanishning rejimli mintaqalarini o'rnatish xarakterlidir. Ishlab chiqarish obyektlarini ishlash muddatlari, qoidaga binoan yirik bo'lganligi sababli (bir necha yildan bir necha o'n yillargacha), iqtisodiyotning bu tarmoqlarida yer resurslarining qayta tiklash sikli ham uzoq muddatlidir (qishloq xo'jaligidan farqli o'laroq).

Ijtimoiy sohada (uy-joy qurishlari, maktabgacha, maktab, davolash, madaniy-ma'rifiy va boshqa obyektlar) Yerlardan foydalanish asosan, obyektlarni qurish, obodonlashtirish va ularni kenglik-operatsion asos sifatida keyingi foydalanish yer uchastkalarini loyihalash bilan bog'liq. Yer uchastkalarini qayta tiklash sikli bu sohada ham yirikdir.

Demak, iqtisodiy mahsulotni qayta ishlab chiqarish siklida yer turlicha rol o'ynasa-da, ishlab chiqarishning almashtirib bo'lmaydigan omili hisoblanadi. Yer resurslaridan foydalanish sikllik xarakteriga ega, har bir sikl resurs holatining uchta fazasini o'z ichiga oladi. Ular yerni to'la qayta tiklanish siklini yaratadilar. Barcha uchta faza yerdan foydalanish samaradorligini yaratish manbaasi hisoblanadi, buni yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash uchun hisobga olish zarur. Mamlakatning mavjud Yerdan foydalanishi uchun yerni qayta tiklanishining ochiq sikli xarakterlidir.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Jamiyatning rivojlanishida yer-planetada qanday rol o'ynaydi?
2. Yerni jamiyatdagi ko'p maqsadli roli nima bilan tushuntiriladi?
3. Yerni resurs sifatida umumli va unumsiz iste'moli nima?
4. Inson tomonidan yerdan foydalanishning qanday usullari ma'lum?
5. Yerni asosiy ishlab chiqarish vositasi mavjud bo'lishi nima?
6. Yerni ishlab chiqarish vositasi sifatida mavjud bo'lishi nima?

- 7.Yerni kenglik-operatsion asos sifatida mavjud bo'lishi nima?
- 8.Yerni tovar sifatida mavjud bo'lishini qanday tushunasiz?
- 9.Yerni tabiiy resurs sifatidagi xususiyatlarini aytib bering?
- 10.Yerni takror ishlab chiqarish sikli nima?
- 11.Yerni to'la takror ishlab chiqarish sikli o'z ichiga nimalarni oladi?
- 12.Iqtisodiy qishloq xo'jalik mahsulotini takror ishlab chiqarish siklida yer qanday rol o'ynaydi?
- 13.Iqtisodiy noqishloq xo'jalik mahsulotini takror ishlab chiqarish siklida yer qanday rol o'ynaydi?

2.8 Yer resurslaridan foydalanish qirralari

Yerdan foydalanish qirradi-bu yerdan maqsadli foydalanish yoki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zaruriy sharoitni ta'minlashning ijtimoiy ahamiyatli yo'nalishidir. Shu munosabat bilan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish qirralari (ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion, egalik) hamda ushbu jarayonni amalga oshirish uchun manbalarni ta'minlaydigan qirralari (huquqiy, axborotli, tashkiliy, hududiy, texnologik, tadbirkorli) ajratiladi (19-rasm). Yerdan foydalanishning yuqorida sanab o'tilgan qirralarini quyida birin-ketin qarab chiqamiz.

Yerdan foydalanishning *ijtimoiy qirradi* o'zining natijasi sifatida ijtimoiy samaradorlikka ega bo'ladi. U jamiyat faoliyatining shunday sohalarida vujudga keladiki, bunda yer odamlarni yashash joyi hamda ular hayot faoliyati uchun zarur sharoitni ta'minlovchi sifatida foydalaniladi. Faoliyatning bunday sohalariga sog'liqni saqlash, bolalarni tarbiyalash muassasalari, ta'lim, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va sport, shuningdek uy-joy sohasi kiradi. Ijtimoiy sohada Yerdan foydalanishdan jamiyat aholini qayta tiklashni ta'minlash, tarbiya va ta'lim, sog'liqni saqlash va tiklash xamda boshqa xizmatlarning muhim turlarini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi, qaysiki ular yerdan foydalanishning ijtimoiy mohiyatini aniqlaydilar. Umumiy ko'rinishda yerdan foydalanishning ijtimoiy ahamiyati yoki

yerdan foydalanishning ijtimoiy samaradorligi quyidagi ko‘rinishda yaratilishi mumkin:

$$E_{sots} = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m E_{ij} \quad (2)$$

bu yerda: **i**- yer uchastkalarining indeksi (i-1,2.....n)

j- ijtimoiy faoliyatlar sohasida yer uchastkalarining maqsadli mohiyatining indeksi (j-1,2... m)

E_{ij}- j maqsadli mohiyatdagi j-yer uchastkasidan foydalanishning ijtimoiy samaradorligi

Yerdan foydalanishning ijtimoiy qirrasiga nazariy hamda amaliy jihatlardan unchalik etarli darajada e‘tibor berilmaydi; yerlardan foydalanishning ijtimoiy samaradorligini baholash masalalari o‘rganilmagan; baholash ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilmagan; ijtimoiy samaradorlikni qiymat baholash mavjud emas. Ijtimoiy qirrasini ko‘p jihatdan yerdan foydalanishning boshqa qirralari bilan xususan, iqtisodiy, rekreatsion hamda ekologik qirralari bilan uzviy bog‘liqdir, negaki yerlardan foydalanishda ularning natijalari kishilarning turmush tarzida yoritiladi.


Iqtisodiy qirrasini - yer ishlab chiqarish vositasi (ishlab chiqarish mohiyati), yer osti “ombori”, mulkchilik obyekti (bozor munosabatlari), soliqqa tortish obyekti (fiskal mohiyati) sifatlarda foydalanishni tavsiflaydi, hamda jamiyat farovonligini moddiy asosi bo‘lgani holda kenglik jihatidan chegaralangan va miqdor jihatidan qayta tiklanmaydi, qaysiki bular ushbu muhim tabiiy resursdan oqilona va samarali foydalanishni obyektiv tarzda ko‘zda tutilgan. Bularning barchasi yerdan foydalanishning iqtisodiy mohiyatini, yagona davlat yer fondidan samarali foydalanish zaruriyatini, ushbu qirraning muhim ekanligini anglatadi.

Jamiyat faoliyatining turli sohalarida va iqtisodiyot tarmoqlarida yerdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi turlichadir, negaki u bir holatda “kenglik-operatsion asos” sifatida, ikkinchi holatda-ishlab chiqarish vositasi sifatida, uchinchi holatda esa asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida va nihoyat boshqa holatda tovar

sifatida gavdalanadi. Yerdan foydalanishning iqtisodiy qirrasini asosiy tashkil etuvchilariga quyidagilarni kiritish zarur:

- yerlarni qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanish;
- yerlarni noqishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda foydalanish;
- yerni ijara haqi;
- yerdan foydalanishning fiskal tomoni;
- yerdan foydalanishning bozor (oldi-sotdi) sohasi;
- yer uchastkalarini ajratib olishda zararlar va yo‘qotishlarning o‘rnini qoplash;
- yerni qayta tiklash samaradorligi;
- yerlarni muhofaza qilish;
- yerlardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish (shu jumladan jarima to‘lovlar).

Birinchi beshta holat iqtisodiy natija (daromad) bilan bog‘liq yerlardan foydalanishni tavsiflaydi, ikkinchi guruh (6-9) esa yerlardan kelgusida samarali foydalanish uchun potensial sharoitni ta‘minlash harakatlarini tavsiflaydi.



19-rasm. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligining turlari va qirralari

Shu sababli yagona davlat yer fondidan (zaxira yerlaridan tashqari barcha yer toifalari bo'yicha) foydalanishning iqtisodiy samaradorligini iqtisodiy-matyematik modelning maqsadli funksiyasi umumiy tarzda quyidagi ko'rinishda aks etilishi mumkin:

$$Z_{\text{opt}} = \sum_{i=1}^7 \sum_{j=1}^9 D_{ij} - \sum_{i=1}^7 \sum_{j=1}^9 N_{ij} \rightarrow \text{tax} \quad (3)$$

bu yerda: D-yerdan foydalanishdan iqtisodiy natija (daromad);

Z-yerdan foydalanishdan daromadni ta'minlashga xarajatlar;

I-yagona yer fondi kategoriyasining indeksi;

j-yerlardan foydalanish bo'yicha tadbirlar turlarining indeksi.

bu yerda **birinchi** umumlashma-barcha toifa yerlaridan foydalanishdan daromad summasi, **ikkinchi**–yerlarni qayta tiklashga sarf-harajatlar. Tabiiyki, oqilona va samarali yerdan foydalanishda maqsadli funktsiya har doim ijobiydir.

1. Ishlab chiqarish sohasida yerlardan foydalanish insonning xo'jalik faoliyatidan iqtisodiy samara (daromad) olish bilan bog'liq. Yer ishlab chiqarish vositasi sifatida gavdalanadigan ishlab chiqarishning noqishloq xo'jalik tarmoqlarida iqtisodiy samara yerni ishlab chiqarish vositasi sifatiga to'g'ri keladigan foydani bir qismi, shuningdek obyektlarni qurishda yer sarfini iqtisod qilish hisobiga hamda yerdan foydalanishning boshqa subekti tomonidan qisqartirilgan yer uchastka qismidan foydalanish evaziga olinadigan qo'shimcha daromadlar ko'rinishida aks etadi. Yerning ancha faol roli qishloq xo'jaligida aks etadi, negaki bu Yerda u ishlab chiqarish jarayonining eng muhim omili sifatida gavdalanadi. Bu joyda yerdan foydalanish ma'lum miqdorlardagi yer, suv, mehnat, moddiy, moliya resurslari hisobiga moddiy boyliklarni olish bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu qirraning eng muhim muammolalari quydagilardir:

- zamonaviy uslubiyatlar asosida qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jalik yerlari sifatini ishonchli tarzda baholash (tuproq bonitirovkasi, yerni iqtisodiy va qiymat baholash);

- tabiiy-iqtisodiy omillar yordamida hududlarni qishloq xo'jalik rayonlashtirish hamda undan amaliyotda foydalanish;

- ma'lum yer birligidan maksimal foydani ta'minlovchi yer turlari hamda ekin turlari tarkibini maqbullashtirish;

- yer uchastkalari hududini samarali tashkillashtirish;

- dehqonchilikning zamonaviy tizimlarini hamda qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish va tadbiiq etish;

- yer resurslarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishini ta'mirlaydigan, yangidan yaratilgan mahsulotni obyektiv taqsimlash, ekvivalent almashish va iste'moli;

- axolini ishlab chiqarish va boshqa (ijtimoiy, rekreatsion, ekologik) sharoitlari va talablarini qondirishda yer maydonlarini imkoni boricha kamroq talab qilinishini ta'minlovchi sanoat va boshqa obyektlar loyihalarini YER iste'moli nuqtai nazardan takomillashtirish;

- noqishloq xo'jalik yerlarining sifati (yer bonitirovkasi) hamda qiymat baholash;

- yer solig'i va yer ijarasi haqlari miqdorini asoslash;

- yerdan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish;

- yer resurslarini muxofaza qilish va qayta tiklash.

2. Yerdan foydalanishga bozor munosabatlarini tadbiq qilish yer uchastkalari bilan yoki bo'lmasa ularga bo'ladigan huquqlar bilan bozor harakatlarini (oldi-sotdi, ijara, sovg'a qilish, garov, meros,), shuningdek yerdan foydalanishga to'lovlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Birinchi holatda yerning bozor bahosini hamda ijara haqini o'rnatish muhim masalalar hisoblanadi. Yerning bahosi irratsional tushuncha bo'lsa-da, shunga qaramasdan bozor harakatlarini amalga oshirishda ular yer uchastkalarini oldi-sotdisi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar asosida belgilanadi va amalda kapitallashtirilgan renta sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni renta qiymati kapitalga bank foizini me'yori sifatidadir. Davlat mulkchiligida saqlab qolingan yer uchastkalari uchun ruxsat etiladigan harakatlar quyidagilardir: yer ijarasi, uy-joy qurilishi uchun yer uchastkalarini umrbod egalik huquqi asosida realizatsiya qilish, umrbod merosiy egalikdagi yerlarni meros qilish, yer uchastkalariga ijara huquqini garovga berish. Qayd qilish zarurki, bu shartlarda yerning kadastrli me'yoriy qiymati hamda ijara haqining miqdori belgilanadi. Agarda qishloq xo'jalik yerlarining kadastrli me'yoriy qiymati respublikada o'rnatilgan bo'lsa, noqishloq xo'jalik erlari uchun bunday

uslubiyat bugungi kunda ishlab chiqilmagan. Syu jumladan ijara xaqini hisoblab chiqish uchun ham shunday uslubiyat mavjud emas.

Soliq siyosatining umumiy tizimida davlat byudjetini shakllantirish maqsadida yer solig'ini kiritish, jamiyatda vujudga kelgan daromadni qayta taqsimlash, yerlardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini qayta tiklash bo'yicha ishlarni moliyalash va boshqalar davlat vakolatidagi masalalardir. Bu holat yerga solinadigshan soliqni ijara haqidan farq qiluvchi alohida manba, yer uchun to'lovlarning tarkibiy qismi sifatida qarash zarurligi tushunchasiga olib keladi.

Yer solig'i yer resurslaridan foydalanishning fiskal tomonini tashkil etadi. Ma'lumki, mulk va jismoniy hamda yuridik shaxslarning daromadlari soliqqa tortish obyektlari hisoblanadilar. Yerga davlat mulkchiligi sharoitida yerdan foydalanuvchilar (ijarachilar) yer uchastkasidan foydalanganliklari uchun ijara haqini to'lashlari zarur. Bugungi kunga qadar yerga ijara haqi miqdorlarini belgilash masalasi kam o'rganilganligi sababli, u amaliyotda yer solig'i (qishloq xo'jaligi yerlari uchun, boshqa yerlar uchun ijara haqining miqdori yer solig'i miqdorining 1-3 barobariga teng deb qabul qilingan) miqdoriga tenglashtirilgan. Shu bilan birga yer solig'ining miqdori ham hozirgi kunga qadar zaruriy ilmiy asosga ega emas.

Maxsus imtiyozlarga ega bo'lganlardan tashqari (yerlarni soliqqa tortish bo'yicha yo'riqnomada aniqlangan) barcha yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalari yersolig'iga tortiladi. yer solig'idan, ijtimoiy mohiyatdagi va tabiatni muhofaza qilish obyektlari ozod qilinganlar. Imtiyozga ega bo'lganlar tomonidan to'lanadigan yer to'lovlarining mexanizmi, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida anchagini takomillashgan bo'lishi zarur.

3. Qishloq xo'jaligi oborotidan yerlarni ajratib olinishida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ko'radigan zarar va yo'qotishlarni o'rnini qoplash mexanizmi bir necha elementlarni o'z ichiga oladi: yerlarni sug'orishga tayyorlash va o'zlashtirish, ularni madaniylashtirish harajatlari; hududni tuzilishini buzganlik, shuningdek ko'p yillik daraxtzorlarni yo'q qilinganlik zararlari; joriy qishloq xo'jalik yilida hamda istiqboldagi qator yillar uchun boy berilgan foyda. Yerlarni o'zlashtirish harajatlarini o'rnini qoplash yerlarning qiymat baholashga, shuningdek yangi o'zlashtirilgan

yerlarda tuproqlarni zaruriy bonitet balliga erishishini hisobga olgan holda boy berilgan foydani hisoblashga asoslanishi zarur.

Xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida yerdan foydalanuvchilardan yerlarni ajratib olishda zararni o'rnini qoplash teng hisoblangan maydonli yangi yer uchastkasini berishni, shuningdek hududni tuzilishi buzganligi sababli keltiriladigan zararni o'rnini qoplashni o'z ichiga oladi. Davlat va jamoat maqsadlari uchun yer egasidan yerni ajratib olishda o'rnini qoplash miqdorlari yer ajratilayotgan regionda yerni mavjud bozor qiymati asosida hisoblanadi.

4. Yer resurslarini qayta tiklash yerdan foydalanishda ikki tomonlama iqtisodiy mohiyatga ega. **Birinchidan**, yer resurslarini qayta tiklashga vositalarni sarflash hamda qayta tiklash jarayonining o'zini samaradorligi bilan bog'liq. Masalan, qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligini qayta tiklash doimiy ravishdagi yoki tez-tez takrorlanib turadigan rang-barang turlardagi maxsus tadbirlarni o'tkazishni talab qiladi. Bu esa yirik miqdordagi sarf-harajatlar bilan hamda samaradorlikni baholash zaruriyati bilan bog'liq. Yangi yerlarni o'zlashtirish ham yirik kapital mablag'larni talab qiladi. Ishlab chiqarishning noqishloq xo'jalik sohasida yerlarni qayta tiklash anchagina qisqa muddatli bo'lsa-da, shunga qaramasdan yirik sarf-harajatlarni talab qiladi (kam qavatli binolarni buzib tashlash, avtomobil va temir yo'llarni kengaytirish, kareralar natijasida buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish va boshq.).

Ikkinchidan, qayta tiklangan yer resurslarining miqdori ko'p jihatdan qayta tiklangan yerning tiklanish darajasi va miqdoriga bog'liq bo'lgan iqtisodiy mahsulotni yangidan qayta ishlab chiqarish jarayonining potensial iqtisodiy asosi hisoblanadi (qishloq xo'jaligida tuproqlar unumdorligini qayta tiklashning miqdoriy o'lchamidan, ishlab chiqarishning noqishloq xo'jalik sohasida-qayta tiklangan yer uchastkalari maydonining o'lchamlaridan va ularni bo'lg'usi foydalanish xarakteridan).

Yerdan foydalanishning **rekreatsion qirrasini** alohida muhofaza qilinadigan hududlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsion, tarixiy-madaniy mohiyatlardagi yerlardan foydalanish masalalarini o'z ichiga oladi. Rekreatsion mohiyat aholini yoppasiga dam olishlari, madaniy-sog'lomlashtirish va jamoat-o'yin

maqsadlarida yerlardan foydalanishni ko'zda tutadi. Ulardan foydalanish ijtimoiy, iqtisodiy hamda ekologik samaradorlikni baravariga olish bilan bog'liq.

Yerdan foydalanishning *ekologik qirras*i undan foydalanish jarayonida tabiiy majmuaning bosh komponenti sifatidagi yerlarni sifat holatini (yaxshilanishi yoki yomonlashuvi) aniqlaydi. Yerdan foydalanishning ushbu qirras tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirini namoyon qiladi. Materiya harakatining eng oliy shakli sifatidagi jamiyat tabiatning organik qismi hisoblanadi hamda u bilan doimiy o'zaro harakatdadir. Agarda tirik organizmlar tabiatga o'zlarini biologik tur sifatida qatnashishlari hisobiga ta'sir ko'rsatishsa, insonlar o'zlarini mehnati bilan tabiatga ta'sir ko'rsatadilar. Jamiyat o'zining rivojlanish jarayonida o'z zaruriyatlari uchun rang-barang takomillashgan predmetlarni, shu bilan bir qatorda tabiat uchun umuman yangi bo'lgan predmetlarni yaratib, asta-sekin uning to'g'ri bog'lanishidan ozod bo'lgani holda mehnat qurollarini takomillashtirish asosida tabiatga kuchli ta'sir ko'rsata boshlaydi.

Tabiiy resurslarni iste'mol qilish yoki ajratib olish hamda ishlab chiqarish chiqindilarini tabiatga chiqarib tashlash jamiyat rivojlanishining obyektiv jarayonidir. Tabiiy resurslar o'z ichiga o'zlarining moddiy, ilmiy va madaniy talablarini qondirish maqsadida o'z ishlab chiqarish faoliyatlarida kishilar foydalaniladigan tabiiy obyektlar, sharoitlar va jarayonlarni oladilar. Tabiiy resurslardan doimiy o'sib borish tarzida foydalanish ularni miqdoriy jihatidan hisob qilishni, sifat holatini o'rganishni va baholashni talab qiladi. Ammo odamni tabiatga aqlsiz, iste'molli hamda samarasiz munosabati atrof muhitga yirik salbiy oqibatlar bilan xavflidir.

Tabiatni birinchi marta yirik miqyoslarda buzilishini (tuproqlarni buzilishi, hamda hayvonlarni tartibsiz o'tlash natijasida o'simlik resurslarini yo'q qilishi, o'rmonlarni kesish va yerlarni haydash) yer massivlarini, xavzalarini, o'rmonlarni, tuproqlarni himoya qilish bo'yicha qonunlarni kiritish zaruriyatiga olib keldi. Fan va texnikani keyingi rivojlanishi insonni tabiatga ta'sir ko'rsatish darajasini oshirdi-hayvonot dunyosi, landshaftlar yer yuzidan yo'qola boshladi. SHu munosabat bilan XIX asrning oxiri-XX asirning boshlarida "tabiatni muhofaza qilish" tushunchasi,

30-yillarda-tabiiy resurslarni navbatdagi charchashi va izdan chiqishi natijasida-“tabiiy resurslarni muhofaza qilish” tushunchasi, 50-60 yillarda esa yer biosferasini radioaktiv yog‘ingarchiliklar bilan yirik miqdorlarda ifloslanishi munosabatlari bilan-“atrof-muhit muhofazasi” tushunchasi paydo bo‘ldi. Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish tushunchasining asosiga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhitni isroflanishidan himoya qilish, biosferani o‘zini yo‘q bo‘lib ketishidan saqlash muammolari qo‘yilgan. Tabiatni muhofaza qilish muammosi murakkabdir hamda o‘z ichiga iqtisodiy, sog‘lomlashtirish - gigiena, estetik, tarbiyaviy, ilmiy xarakterdagi qator qirralarni oladi, ularni hal qilishda tabiat va jamiyatni o‘zaro munosabatda ekanlik tamoyiliga asoslangan ekologik yondoshuv yirik ahamiyatga egadir.

Tabiatni muhofaza qilish nazariyasiga V.I.Vernadskiyning biosfera to‘g‘risidagi ta‘limoti yirik hissa qo‘shgan. Ushbu ta‘limotga binoan insonning kuch-qudrati materiya (biomassa)da emas, aksincha miyasi, aqli va maqsadli mexnatidadir. Inson faoliyatining natijasi sifatidagi antropogen almashish ekologik nuqtai nazardan takomillashmagan jarayondir. Biosferaning “hayotni aylanishi”dan farqli o‘laroq, u yopilmagan, achiqdir, qaysiki unda tabiiy resurslar kirish holatida, ishlab chiqarish va maishiy chiqindilar-chiqish holatida bo‘ladilar. Agarda kirish holatida o‘ziga xos, yirik xavf-xatar bo‘lmasa bir tabiiy resurslar amaliy jihatdan tugamaydigan, boshqalari esa, ohir-oqibatda almashtirilishi mumkin, chiqishda esa inson ishlab chiqarish faoliyati davomida tabiatga ta’sir etish natijalari jiddiy salbiy oqibatlar bilan bog‘liq.

Yer resurslaridan foydalanish va umuman boshqa tabiiy resurslardan foydalanish masalasiga ilmiy asoslangan yondoshuv zarur, bunda yer resurslarini va umuman tabiatni muhofaza qilish ulardan foydalanish jarayonida amalga oshirishi zarur. Mamlakatda yer resurslarining miqdori anchagina, ammo shu bilan bir vaqtda ular chegarasiz emas, albatta. Masalan, agarda 1940 yilda mamlakatning bir kishisiga 0,31ga sug‘oriladigan ekin yeri to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1960 yili-0,26ga, 1970 yili-0,20ga, 1980 yili-0,19ga, 1990 yili-0,17ga, 2000 yili esa-0,17ga, 2014 yilda-0,14 gadan kamroqni tashkil etgan [36]. Sug‘oriladigan ekin maydonlarining miqdorlarini

qisqarishi noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun qishloq xo'jalik yerlarini, shu jumladan ekin yerlarini ajratish natijasida, shuningdek aholini o'sishi natijasida ro'y beradi. Bunday holat yerni muhofaza qilishga juda jiddiy munosabatda bo'lishni talab qiladi. Suv hamda shamol eroziyalari tuproqqa yirik zarar etkazadilar, ushbular jarayonida tuproqning ustki unumdor qatlami yuvilib ketadi. Sug'oriladigan dehqonchilik rayonlarida sug'orish eroziyasi kuzatiladi. Shamol eroziyasi o'rtacha va kuchli shamol esadigan mintaqalar uchun xarakterlidir. Agarda tabiiy sharoitda 1-3sm unumdor qatlamli tuproq yaratishi uchun 200dan 1000yilgacha muddat talab qilinsa, eroziya jarayonida uni buzilishi 20-30 yilda ro'y berishi mumkin. Dunyo bo'yicha har yili eroziya jarayonlarining oqibatida 3,0mln.ga ekin yerlari qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketadi. O'zbekistonda 1,5mln. gektarga yaqin ekinzorlar suv va shamol eroziyalariga uchragan, ularning yarmi ushbu jarayonlarga qarshi tizimli kurash olib borishni talab qiladi. Eroziya jarayonlariga uchragan yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi, qoidaga binoan, 20-40%ga pasayadi, bu yerlarda mexanizimlarni ishlashi qiyinlashadi. Qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirishning ishlab chiqarish-iqtisodiy shartlarini yomonlashuvidan tashqari biogeotsenozlarni yemirilishi ro'y beradi, natijada tabiatda biologik barqarorlik buziladi.

Yerlarni sho'rlanishi ulardan foydalanish samaradorligini pasayishiga olib kelishi bilan birga tabiiy sharoitlarga salbiy ta'sir ko'rsatgani xolda biogeotsenozlarni buzilishiga olib keladi. Tuproqning ushbu kamchiligiga qarshi samaradorli kurashlardan biri-bu turli melioratsiyalarni o'tkazishdir. Qishloq xo'jalik ekinlarini asosli sug'orish rejalari, sug'orish kanallarini filtratsiyasi bilan kurashish, yomg'irlatib sug'orish, tuproq ostidan sug'orish, tomchilatib sug'orish, drenajlar tizimi yordamida minerallashgan yer osti suvlarini olib chiqib ketish, tuzlarni yo'qotish maqsadida yerlarni sho'rini yuvish va boshqalar sho'rlanishga qarshi samarali kurash choralari hisoblanadi.

Tuproqlarni va umuman atrof-muhitni ifloslanishi tabiatni muhofaza qilish talablariga unchalik to'la javob bermaydigan inson ishlab chiqarish faoliyatining oqibatidir. Tuproq sanoat chiqindilari bilan, issiqlik elektrostanitsiyalarining kullari,

qurilish ahlatlari, neft oqishi natijasida, qishloq xo‘jaligida mineral o‘g‘itlardan va yadroximikatlardan noo‘rin foydalanishi natijasida, xo‘jalik-maishiy oqava suvlar bilan, shahar axlatlari va boshqa chiqindilar bilan ifloslanadi. Atmosfera sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi ham oxir-oqibatda ularni cho‘kishi oqibatida tuproqni kimyoviy ifloslanishiga olib keladi. Yadroximikatlardan, barqaror gerbitsidlar va sintezlanadigan kimyoviy moddalar tuproqda to‘planganlari holda tuproq mikroorganizmlarini halok bo‘lishiga olib keladi, o‘simlik tanasiga kiradi va ularga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu holat tuproq paydo bo‘lish jarayonini buzilishiga olib keladi, tuproq unumdorligini pasaytiradi va umuman biosferada moddalarni biologik aylanishini buzadi.

Tuproqlarni eroziyadan, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan zararlanishidan muhofaza qilish, yer resurslarini qayta tiklash, qishloq xo‘jaligi oborotidan yer ajratishni minimum miqdorlargacha qisqartirish yoki umuman to‘xtatish, asoslangan chegaralarda yangi yerlarni o‘zlashtirish, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarni rag‘batlantirish mexanizimlarini ishlab chiqish, yerlardan foydalanishni ekologik qirralarini ayniqsa muhim masalalari hisoblanadi. Qaralayotgan qirrada yerlardan oqilona foydalanish bo‘yicha asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: tuproqlarni suv va shamol eroziyalaridan muhofaza qilish, yerlarni sho‘rlanishidan va botqoqlanishidan, ifloslanish va zaharlanishidan, ko‘chib yuruvchi qumlardan himoya qilish, shuningdek yerlarni rekultivatsiyalash. Bunda yerdan foydalanish samaradorligi yerlarni sifat holatini bo‘lishi mumkin bo‘lgan yomonlashishini bartaraf qilish va tabiat kuchlarini hamda inson faoliyatini salbiy ta‘sirlari oqibatida kamroq qimmatli yer turlariga o‘tishi, qishloq xo‘jalik oborotidan yerlarni chiqib ketishini bartaraf etish va tuproq unumdorligini pasayishini to‘xtatish, tuproq qatlamini saqlash, rekultivatsiyalash natijasida tiklangan yerlarning hamda qishloq xo‘jalik oborotiga jalb qilingan yerlarni miqdorlari bilan aniqlanadi ya’ni:

$$E_{\text{ekol}} = S_{\text{dox}} - Z_{\text{ekol}} - S_{\text{dox}} - P_{\text{dox}} \quad (4)$$

bu Yerdan: S_{dox} - ekologik holati yaxshilanish oqibatida yerlardan foydalanish samaradorligini oshirish;

Z_{ekol} - ekologik holati yaxshilanishiga sarflangan harajatlar;

S_{dox} - yerlar ekologik holatini yomonlashuvi va oqibatida yerdan olinadigan foydaning kamayishi;

P_{dox} - ekologik holati bo'yicha xo'jalik oborotidan chiqib ketadigan yerlardan yo'qotilgan daromad

Yerdan foydalanishni ta'minlashning *huquqiy qirras*i yerdan oqilona foydalanishni ta'minlashning manbasi, o'ta muhim sharti hisoblanadi. U zamonaviy yer munosabatlari hamda ularni qayta tiklash nuqtai nazardan yerlarni berish (tarmoqlararo yer taqsimoti, yerdan foydalanishni tarkiblash), yerdan foydalanishni tashkil etishni ko'zda tutadi. Shu sababli, huquqiy qirraning asosiy mazmuni mamlakatning yagona fondidan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida zamonaviy yer munosabatlarini rivojlantirish, ularni muvofiqlashtirish va faol ta'sirining xususiyatlari hamda xarakterini keyingi o'rganishdan iboratdir.

Yer munosabatlari ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga xos muhim sohadir. yer munosabatlari-bu umumiy mehnat sharti va ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerlarga egalik qilish hamda foydalanish bo'yicha turli jamiyat qatlamlari, ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslar o'rtasida vujudga keladigan jamiyat ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos sohasidir. Uning o'ziga xos xususiyati boshqa turdagi ishlab chiqarish vositalariga nisbatan yerni ishlab chiqarish vositasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek jamiyatning iqtisodiy munosabatlari tizimida uning o'ziga xos roli bilan tushuntiriladi. Bunday o'ziga xoslik ikki tomonli xarakterga ega: siyosiy va iqtisodiy.

O'zbekiston Respublikasida yer munosabatlarining asosi bugungi kunga qadar yerga davlat mulkchiligi hisoblangan, 2007 yildan boshlab qonunchilik hujjatlarida yerga mulkchilikning ikkinchi shakli-xususiy mulkchilik kiritildi. Mulchilik shakli yer munosabatlarini ijtimoiy xarakterini belgilaydi hamda butun jamiyatning manfaatlari uchun yerdan foydalanishni ko'zda tutadi. Yangi sharoitda yer munosabatlarining eng muhim afzalligi shundan iboratki, bunda yerlardan foydalanish qayta tiklashga yirik miqdorlarda investitsiyalar jalb qilish yo'li bilan

yaxlit jamiyat manfaatlarida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish uchun zaruriy manbaa yaratadi.

Yerga mulkchilik huquqi birinchidan, yerga mulkchilik vakolatlari va hajmini, hamda ikkinchidan, undan foydalanishni boshqarish tartibini aniqlovchi me'yorlar vositasida yerning huquqiy rejimiga ta'sir ko'rsatadi. Yerdan foydalanishning huquqiy rejimi vositasida huquq ikkita funksiyani bajaradi: muvofiqlashtiruvchi va muhofaza qiluvchi. Birinchi holda huquq me'yorlari yer munosabatlari jarayonida vujudga keladigan yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlarining mazmunini, yer munosabatlarini o'zgarish sabablarini, ularni muvofiqlashtirish yoki to'xtatish yo'llarini aniqlash. Qaysi bir tomondan noqonuniy harakatlar evaziga egaliklari yoki yerdan foydalanuvchilarning huquqlari buzilgan hollarda ular huquqlari davlat tomondan kafolatlanadi, ya'ni huquqni muhofaza qilish funksiyasini o'taydi.

Mamlakatda yer munosabatlarini muvofiqlash bo'yicha yer qonunchiligining vazifasi O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi bilan aniqlanadi. Uning birinchi moddasida aytiladiki, "Yer qonunchiligining asosiy vazifalari bugungi hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini muvofiqlashtirish, yerlardan ilmiy asoslangan, oqilona foydalanish va muhofaza qilish, tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirish, xo'jalik yuritishning barcha shakllarining huquqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, yer uchastkalariga yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlarini muhofaza qilish, shuningdek ushbu sohada qonunchilikni mustahkamlashdir" [2,1b]. Yerlarni huquqiy muhofaza qilish, birinchidan, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini, ikkinchidan esa yerlardan oqilona foydalanish bo'yicha qonuniy belgilangan talablarga qat'iy rivoya qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan, ya'ni huquqiy rejimni muhofazalash yer egalari va Yerdan foydalanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilishga, shu bilan birga yer egalari va Yerdan foydalanuvchilarning o'z majburiyatlarini bajarishlari uchun sharoit yaratishini ko'zda tutadi.

Davlat tomonidan yerni egalik, foydalanish, ijara va mulk asoslarida berish O'zbekiston Respublikasining yer qonunchiligiga mos tarzda amalga oshiriladi.

Davlat jamiyatdagi bosh iqtisodiy islohotchi sifatida, shu jumladagi munosabatlarda yer uchastkasi bo'yicha yuzaga keladigan har qanday huquq turiga vakolatlidir. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida mamlakatda yer uchastkalarini yuridik va jismoniy shaxslarga berish tartibi va shartlari, ularning huquqiy va majburiyatlari, yer uchastkalariga huquqiy kafolatlari, Yerdan xo'jalik yuritishning rang-barang tashkiliy-huquqiy shakllarini yaratish shakllari aniqlangan. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining 90-moddasida yer qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan.

Yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashning *axborotli qirrasini* o'z ichiga yerdan foydalanishni tashkil etish va oqilona yuritishga mo'ljallangan yagona davlat yer fondining holati va foydalanish to'g'risidagi maxsus ahborotlarni ishlab chiqarish hamda bir tizimga keltirish masalalarini oladi.

Yer resurslarining holati hamda ulardan foydalanish to'g'risida sifatli axborotlarni ishlab chiqish yerdan foydalanishni boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri sifatida yer kadastrining vazifasidir. Jamiyatdagi yer resurslarini bashoratlash va tarmoqlararo taqsimlash, ularni oqilona va samarali foydalanishni boshqarish uchun zaruriy sifatli axborotlar yer tuzish loyihalarini tuzilganligini to'g'riligiga, yuzaga keladigan yer munozaralarini hal qilinishiga, yer uchun to'lovlarni hisoblash aniqligiga, hududlar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish hamda davlat tomonidan qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotib olish hajmlarini o'rnatishni qonuniyligiga, tuproqlar unumdorligini qayta tiklash bo'yicha tadbirlarni sifatli o'tkazishiga hamda yer resurslaridan foydalanish bilan bog'liq ko'pgina boshqa amaliy masalalarni hal qilishga kafolat beradi.

Ammo ro'yxatga olish, yerning holati va foydalanishi to'g'risidagi hisob-kitob va baholash ma'lumotlarini o'z ichiga olgan yer kadastr axborotlari yer axborotlarini tashkil etish va oqilona yerdan foydalanish uchun zarur bo'lgan barcha axborotlarni to'la qamrab oladi. Kadastr axborotlari yerdan foydalanish samaradorligini baholash to'g'risidagi axborotlarni, loyihaviy yer tuzish ahborotlarini o'z ichiga olmaydi. Bundan tashqari, zamonaviy yerdan foydalanishni tashkil etish uchun yer resurslaridan foydalanishning chet el ilg'or tajribalari to'g'risida ham axborot zarur.

Shunday qilib, yagona yer axborot bazasini, yer axborotlar bankini yaratish zaruriyati vujudga keladi. Yer kadastr axborotlarini zamon talabi darajasida ushlab turish, mavjud axborotlarni yangilash eng muhim muammoga aylanadi, negaki bu ulardan foydalanishda amaliy natijalarni ma'lum darajada buzilishiga olib keladi.

Shu bilan birga, noqishloq xo'jalik ahamiyatidagi Yerlardan oqilona va samarali foydalanishini tashkil etishda yer kadastr axborotlari bilan bir qatorda bino va inshootlar kadastr hamda shaharsozlik kadastrining axborotlari ham zarur. Axborotning ushbu turi shahar va posyolkalar yerlarini baholash, sanoat va tadbirkorlik yerlarini baholash, yer uchastkalarini xususiylashtirish, ko'chmas mulk obyektlarini shakllantirish, yer va ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish, ipoteka instituti uchun zarurdir. Qayd qilish zarurki, bugungi kunda mamlakatda yer egalari va yerdan foydalanuvchilar bo'lgan 4,5 mln.ga yaqin yuridik va jismoniy shaxslar mavjud. Yerning miqdori va sifat holati to'g'risidagi yirik xajmlardagi axborotlarni to'plash va qayta ishlash ancha yirik mehnat sarfini talab qiladi. "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasining barcha bo'linmalari bo'yicha axborotlarni tezkor ravishda to'plash, ularni qayta ishlash, tizimlash, saqlanishini tashkil etish, manfaatdor foydalanuvchilarga berish va o'z vaqtida yangilab turish maqsadida yer axborotlarini respublika avtomatlashtirilgan tizimini yaratish talab qilinadi.

Yerlardan oqilona foydalanishning *texnologik qirradi* yer resurslaridan samarali foydalanish va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'mirlaydigan ilmiy-texnik jadallashtirishni rivojlantirish sharoitida undan foydalanish texnologiyalaridamda yerga ta'sir ko'rsatish usullari va usullarni qo'llashni ko'zda tutadi. yerga texnogen ta'sir ko'rsatishining usullari va uslublari jamiyat ilmiy-texnik jadallashtirishning funksiyasi hisoblanadi hamda uni rivojlantirishning turli bosqichlarida ular takomillashadilar va o'zgaradilar. Yerdan oqilona foydalanishning ushbu qirradi asosan qishloq xo'jaligi uchun nihoyatda muhimdir.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish dehqonchilik tizimi (yerlarni ishlash usullari), almashlab ekish tizimi bilan (tuproqlar unumdorligini qayta tiklash va ekinlar kasalligi bilan kurash), qishloq xo'jaligini industriyallashtirish bilan (ekinlarni o'stirish bo'yicha texnologik operatsiyalarni mexanizatsiyalash), yerlarni

sugʻorish usullari, yerlarni melioratsiyalash bilan bogʻliqdir. Tuproqni unumdorligini oshirish boʻyicha asosiy tadbirlarga tuproqlarni bonitirovkasi boʻyicha tasniflash, regional tabiiy-iqlimiy sharoitlarni hisobga olish, oʻgʻitlar tizimi, yerlarni kimyoviy va boshqa turlaridagi melioratsiyasi kiradi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish oʻsimliklar biologiyasi, tuproqlar va tuproq paydo qiluvchi omillar hamda jarayonlar, ular unumdorligi, dehqonchilik qonunlari, tuproqlarni ishlash usullari, tuproqlar unumdorligini qayta tiklash usullari sohalarida zaruriy bilimlarni talab qiladi.

Qishloq xoʻjalik yerlaridan oqilona foydalanishni texnologik taʼminlash obyektning maʼlum bir birlik ishlab chiqarish quvvatiga yoki u tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotiga eng kam maydonini taʼminlovchi ishlab chiqarish va boshqa obyektlarni loyihalashni yangi usullarini qoʻllash vositasida amalga oshiriladi. Bunda yer resurslariga va atrof muhitga salbiy taʼsirlarni mumkin qadar kamaytirish zarur. Turli maqsadli obyektlarni qurishda yerni unumdor qatlamini saqlash, buzilgan yerlarini navbatdagi rekultivatsiyasi majburiy shart hisoblanadi.

Yerlardan oqilona foydalanishning *tashkiliy-hududiy qirrasini* taʼminlash ularni mavjud boʻlishi, ular hududini tashkil etishi uchun tabiiy-iqlimiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda obyektlarni maqbul tarzda hududiy joylashtirishni koʻzda tutadi. Qarab chiqilayotgan qirra koʻp darajali xarakterga egadir hamda u mamlakat, region, tuman, alohida korxonalar darajalarini oʻz ichiga oladi. yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va tashkil etish masalalari yer tuzish sxemalari va loyihalarida (respublika yerdan foydalanish Bosh sxemasi, viloyatlar va tumanlar sxemalari, xoʻjaliklararo va ichki xoʻjalik yer tuzish loyihalari) koʻrib chiqiladi.

Noqishloq xoʻjalik korxonalarini hududini tashkil etish qurilishlarning bosh va batafsil rejalashtirish loyihalariga mos amalga oshiriladi. Qishloq xoʻjalik korxonalarini hududini joylashtirish va tashkil etish jarayoni anchagina murakkabdir, negaki bu yerni qishloq xoʻjaligida ishlatish xususiyatlarini hisobga olish zaruriyati bilan bogʻliqdir. Qishloq xoʻjalik korxonalarida hududiy tashkil etish transport harajatlarining miqdoriga, sugʻorish suvidan foydalanish samaradorligiga, mehnatni tashkil etish samaradorligiga va ishlab chiqarishning boshqa omillariga taʼsir etadi.

Bularning barchasi oxir-oqibatda moddiy, mehnat, sugʻorish suvi, moliya, shuningdek yer resurslaridan foydalanish samaradorligida yoritiladi. Shu sababli qishloq xoʻjalik korxonalari hududini tashkil etish yerni asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida oqilona va samarali foydalanish maqsadida ishlab chiqarishning barcha elementlarini joylashtirishni maqbul variantini tanlashni amalga oshirishga imkon beruvchi echimga ega koʻp variantli masala sifatida qarash zarur.

Bilim aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanish qirralari turlarini sanab bering.
2. Yerdan foydalanishning ijtimoiy qirrasini mazmuni nimadan iborat?
3. Yerdan foydalanishning iqtisodiy qirrasining mazmuni nimadan iborat?
4. Yerdan foydalanishning rekreatsion qirrasining mazmuni qanday?
5. Yerdan foydalanishning ekologik qirrasining mazmuni qanday?
6. Yerdan foydalanishning huquqiy qirrasini qanday mazmunga ega?
7. Yerdan foydalanishning axborotli qirrasini qanday mazmunga ega?
8. Yerdan foydalanishning texnologik qirrasini qanday mazmunga ega?
9. Yerdan foydalanishning hududiy qirrasini deganda nimani tushunasiz?
10. Yerdan foydalanishning tashkiliy qirrasini deganda nimani tushunasiz?

2.9 Yerdan oqilona va samarali foydalanish

Yerdan oqilona va samarali foydalanish zaruriyati, eng avvalo, uni tabiiy resurs sifatidagi oʻziga xos xususiyatlari bilan asoslanadi: foydalanishning koʻpmaqsadlilik, oʻlchamlarning chegaralanganligi, boshqa resurslar bilan almashtirib boʻlmazligi, uni bir joydan boshqasiga koʻchirib boʻlmazligi, tuproq unumdorligi, oʻz xususiyatlarini yemirmazligi, aksincha ularni yaxshilash xususiyati shular jumlasidandir. Yerni qishloq xoʻjaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish boshqa tabiiy resurslar bilan birgalikda, ularni maʼlum bir maqbul nisbatlaridagina mumkindir. Bundan tashqari, jamiyatning moddiy hamda boshqa turdagi boyliklarga doimo oʻsib borayotgan talabi yer resurslaridan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishga extiyotkorlik munosabatida boʻlishni talab qiladi.

Yerdan oqilona va samarali foydalanish aynan ushbu turdagi resursdan foydalanish darajasini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishidan qat'iy nazar, ularning mohiyati va metodologiyasi turlichadir. Shu bilan bir qatorda, maxsus adabiyotlarda shu kunga qadar ushbu tushunchalar to'g'risida etarli darajadagi qoidalar mavjud emas. Ko'pincha bu terminlar ostida turlicha tushunchalar beriladi, natijada bu yerlardan foydalanishning amaliy masalalarini hal qilishda hamda nazariy tadqiqotlarda ma'lum tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu tushunchalar mazmunini quyida anchagina kengroq ko'rib chiqamiz.

“Oqilona yerdan foydalanish”ning mazmuni anchagina murakkab va majmualiy tushinchadir. Yerlardan oqilona foydalanish deganda, odatda ma'lum bir maqsadni ko'zlagan xolda insonni yerga nisbatan ma'lum maqsadli, oqilona harakati tushuniladi. Bunda qo'yilgan maqsadga erishish uchun tanlanadigan usullar hamda vositalar turlicha bo'lishi mumkin, ya'ni ushbu tushunchani hayotga tadbiq qilishda turlicha usullardan foydalanish mumkin. Demak, u stixiyali jarayon bo'lmasdan, balki oldindan o'rganilgan, rejalashtirilgan va tashkil etilgan jarayondir. Shuning uchun, davlat miqiyosida yerlardan oqilona foydalanishning mazmuni to'g'risida so'z yuritilganda, ushbu tushunchani tadbiq qilish vositalari va uslublari jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy qonunlariga asoslangan, ushbu jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlar obyektiga sifatidagi yerlarni mavjud bo'lish qonuniyatlarini hisobga olishni albatta o'z ichiga oladi. Bunda yerlardan foydalanish, qoidaga binoan, qabul qilingan mezonlar, shartlar nuqtai nazaridan belgilanadigan “oqilonalik” jarayoni u yoki bu cheklashlar bilan aniqlanadi (saqlanadi). Masalan, yerlardan foydalanish iqtisodiy samaradorlik uchun ma'lum bir zaruriy jarayonlar bilan oldindan aniqlangan bo'lishi mumkin.

Yerlardan oqilona foydalanish iqtisodning barcha tarmoqlarida va noishlab chiqarish sohalarida yer resurslaridan ilmiy asoslangan, ma'lum bir maqsadli foydalanishni ko'zda tutadi. U mamlakat yer fondini maqsadli mohiyati bo'yicha taqsimlanishini (tarkibini belgilashni) hamda ulardan imkon boricha yuqori samaradorlik bilan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunda noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun iqtisodli yer ajratishga, tuproq unumdorligini oshirish bilan bir

vaqtda yerning unumdorlik xususiyatini iqtisodli sarflanishiga rioya qilinishiga hamda yerlardan oqilona foydalanishni ekologik ta'minlanishiga erishish zarur. Xususan, prof. V.S.Shamanaevning e'tirof etishicha, "Noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun Yerni iqtisodli ajratilishi tuproq unumorigini doimiy ravishda oshirib borish orqali jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini yerga bo'lgan ilmiy asoslangan talablarining to'plami yer resurslaridan oqilona foydalanish mezonini deyiladi". Prof.S.A.Tkachukning ilmiy tadqiqotlarida e'tirof etiladiki, "Yerlardan oqilona foydalanish deganda, tabiat va jamiyatni o'zaro ta'sirining obyektiv mavjud tamonlari bilan mos keluvchi aniq bir vaqt va makonning aniq sharoitidagi usulda ancha samarali tashkil etilgan, jamiyat talablarini qondirish nuqtai nazardan ancha samarali foydalanish tushuniladi"[32].

Yerlardan oqilona foydalanish muammosining bosh mazmuni prof. M.A.Gendelman va P.S.Shevchenkolar yer resursini halq xo'jalik ishlab chiqarishiga mumkin qadar ko'proq jalb qilish hamda ulardan yaxshiroq foydalanish, resursni qayta tiklash hamda muhofaza qilish, deb tushuntiradilar. Ushbu mualliflar fikricha, "Yerlardan oqilona foydalanish-bu, eng avvalo, davlat tomonidan belgilangan maqsadga muvofiq ijtimoiy ishlab chiqarishda undan foydalanish samaradorligini ta'minlashdir". Bunda yerlardan oqilona foydalanish vazifasi ular tomonidan shunday aniqlanadi: "har qanday faoliyatning o'ziga xos sharti hamda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerdan foydalanish jarayonida yerni boshqa tabiiy omillar bilan o'zaro ta'sirining foydaligini hisobga olgan holda va yerlarni muhofaza qilishda mumkin qadar yuqori samaraga erishishdir". Prof.V.S.Shamanaev, yerdan foydalanish darajasining ko'rsatkichlari nainki iqtisodiy natijalarni, balki shu bilan bir qatorda, undan foydalanishning oqilonaligini ham yoritishi zarur, deb hisoblaydi. Oqilonalik tushunchasi har doim maqsadga muvofiqlik bilan bir xil bo'lganligi sababli yerdan foydalanishning oqilonaligi yerdan ishlab chiqarishda va noishlab chiqarishda foydalanishning maqsadga muvofiqligini bildiradi. Bunda yerlardan oqilona foydalanish quyidagicha aniqlanadi: "Yerlardan oqilona foydalanish mezonini-bu noqishloq xo'jalik maqsadlari uchun yerlarni iqtisodli ajratish

hamda tuproq unumdorligini doimo oshirib borish asosida jamiyatni yerga bo‘lgan ilmiy asoslangan ishlab chiqarish va noishlab chiqarish talablarining majmuasidir”.

“Oqilona” tushunchasi amalda yerlardan foydalanish jarayonida ishlatiladi, shu bilan bir vaqtda, “samaradorlik”-bu ushbu jarayon natijasi, ya’ni olingan samara (natija) nuqtai nazardan uning oqibatidir. Vaqt belgisi bo‘yicha, “oqilona” tushunchaning boshlang‘ich bo‘g‘inini tashkil etadi, ya’ni birlamchi hisoblanadi, degan hulosa kelib chiqadi. Ammo yerdan “oqilona” foydalanish faqatgina jamiyatning ko‘p qirrali manfaatlariga javob beruvchi ushbu jarayonni amalga oshirishning to‘la samaradorligini berilgan parametrlari nuqtai nazardan mumkin bo‘ladi. Demak, yerdan foydalanish “samaradorligi” jamiyatning ko‘p qirrali manfaatlarini amalga oshirish zaruriyatlaridan kelib chiqadigan boshlang‘ich daqiqasidir, unga erishish esa shunga mos sharoitlar, mezonlarni belgilash yo‘li bilan ushbu jarayonni “oqilonalashtirish” hisobiga erishiladi (maqsadli mohiyati bo‘yicha yerlardan foydalanish tarkibini maqbullashtirish) (20-rasm).

Qarab chiqilayotgan tushuncha bitta muammoning o‘zaro bog‘liq ikki tomonini tashkil etadi, ular alohida-alohida tarzda mavjud bo‘lishi va bittasi ikkinchisiz qarab chiqilishi mumkin emas, yerdan foydalanish nuqtai nazaridan ular uzviy o‘zaro bog‘liqdirlar. Yerlardan ko‘p maqsadli foydalanish nuqtai nazardan “oqilonalik”siz yerlardan foydalanishning to‘plangan “samaradorligi” mavjud emas, oldindan asoslangan to‘liq samaradorliksiz yerlardan oqilona foydalanish mavjud emas. Shu bilan bir vaqtda, jamiyat yerdan foydalanish natijalariga, ya’ni uning samaradorligiga befarq emas, albatta. Birinchi omilsiz to‘liq samaradorlikka erishish uchun manba mavjud emas, ikkinchi omilsiz esa yerdan foydalanish o‘z mazmunini yo‘qotadi. Ushbu ikkita tushuncha bir-birlaridan farq qiluvchi alohida mazmunlarga egadir. **Birinchi** tushuncha qanday shartlar asosida, o‘lchamlar, chegaralanishlar hamda qanday talablar bilan yerlardan foydalanish amalga oshirilishini aniqlaydi. **Ikkinchisi** esa bunday shartda qanday to‘liq samara olinishini aniqlaydi. Boshqacha qilib aytganda, yerdan foydalanish “samaradorligi” ushbu jarayoni amalga oshirish uchun aniq shartlarni oldindan belgilash asosida erishiladi, “oqilonalik” esa yerdan foydalanishda amalga oshiriladi hamda samaradorlik ko‘rinishida namayon bo‘ladi.

Shunday hulosa S.A.Tkachukning ishida ham qilingan. U yerda qayd qilinadiki,yerlardan oqilona foydalanish mohiyatini aniqlash asosida “samaradorlik” singari umumiy toifa yotadi. Demak, birinchi navbatda, aynan ushbu toifaga har tomonlama tavsif berish, uning mazkur qirralarini ajratish talab qilinadi. Aynan ushbu qirralari yerlardan oqilona foydalanish tushunchasi (mohiyati)ni aniqlashda tadbiiq qilinishi zarur”[32].


Yerlardan samarali foydalanish iqtisodiy toifa hisoblanadi, ammo bu tushuncha, qoidaga binoan, faqatgina qishloq xo‘jalik yerlariga dahldor bo‘lgan iqtisodiy yoki xo‘jalik mazmuni bilan chegaralanmaydi. U ijtimoiy, rekreatsion hamda tabiatni muhofazalash samaradorligi tushunchalarini ham o‘z ichiga oladi. Yerdan foydalanishning har bir qirrasiga shuncha mos tarzda, belgilangan tiplardagi: ijtimoiy, iqtisodiy, eklogik va boshqa samaradorliklar mos keladi. Agarda yerdan foydalanishni faqatgina qandaydir bitta qirrasiga bo‘yicha qarasa, amalda ham ushbu qaralayotgan qirrasiga mos keluvchi samaradorlikni aniq turi bo‘yicha eng yuqori natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Bunda aniq bir tur bo‘yicha eng yuqori samaradorlikka boshqa turlar bo‘yicha samaradorlikning pasayishi evaziga erishiladi, negaki yerdan foydalanishning boshqa (qolgan) qirralarining talablari birlamchi, boshlang‘ich shartlar sifatida qabul qilinmagan.

Ammo yerdan foydalanish bir necha omillarning talablariga rioya qilingan sharoitda amalga oshiriladi. Bunday majmualii sharoitni tadbiiq qilish yerdan foydalanish samaradorligining barcha (bir necha) bir vaqtdagi turlarining eng yuqori darajalariga ta’sir etishlari bilan emas, balki yalpi samaradorlik bilan bog‘liqdir. Bunday samaradorlik yalpi maqbul samaradorlik hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, maqbullashtirilgan samaradorlik yerlardan oqilona foydalanishga (barcha qirralari shartlarini bir vaqtda bajarilishi nuqtai nazardan) mos keladi. Demak, yerlardan foydalanishning “oqilonaligi” samaradorlikni qabul qilingan mezonlari nuqtai nazaridan eng ma’qul yakuniy natijasini ko‘zda tutadi, ya’ni bir vaqtning o‘zida u, qoidaga binoan, iqtisodiy, rekreatsion, sog‘lomlashtirish hamda ekologik yoki qandaydir bir boshqa birikmalarda, ammo Yerdan foydalanishning qabul qilingan shartlarida kutilishi mumkin bo‘ladigan eng yuqori, albatta yangi

samaradorlikdir. Bunday yerlardan oqilona va samarali foydalanish bir vaqtning o'zida tizimli yerdan foydalanishning ham shartli natijasidir, ya'ni uning ikkitalikdagi yagona vazifasidir.

Yerlardan oqilona va samarali foydalanish tushunchasiga maxsus adabiyotlarda keltirilgan qoidalarining asosiy kamchiliklari shundan iboratki, ular qoidaga binoan juda tor ma'noda qaralgan, asosan Yerlardan texnologik foydalanish nuqtai nazaridan, ya'ni yer resurslarini qayta tiklash siklining ikkinchi bosqichida qaralgan. Ammo ushbu tushunchani anchagina keng ma'noda, aynan yer resurslarini qayta tiklash sikli bo'yicha qarash zarur, ya'ni faqat bittasi bo'yicha emas, balki barcha uchta bosqichini baravariga qarash zarur. Yerlardan foydalanishning "oqilonaligi" va "samaradorligi" nainki undan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish bosqichida, shu bilan birga, eng avvalo, uni taqsimlash va qayta tiklash bosqichlarida ham mavjud bo'ladi (shakllanadi, "vujudga keladi"). Taqsimlash bosqichida qanday shartlarda, cheklanishlarda, o'lchamlarda mamlakat yer resurslarining har bir tarmog'ida, har bir korxonada foydalanish ko'zda tutishi bo'yicha qarorlar qobul qilinadi. Aynan shu shartlar mamlakat, tarmoqlar, korxonalarining shakllantirilgan manfaatlari nuqtai nazaridan ko'zda tutilayotgan yerdan foydalanishning "oqilonaligini" zaruriy darajasini aniqlaydi. Negaki "oqilona" tushunchasi yerdan ko'p maqsadli foydalanish uchun xarakterli ekan, demak, bunday holda yerdan foydalanishning qandaydir bitta qirrasini eng yuqori emas, balki berilgan shartlar yoki cheklanishlardan eng maqbul bo'lgan yerdan foydalanishning yangi samaradorligi vujudga keladi.

Yerlarni qayta tiklash bosqich ham ulardan oqilona va samarali foydalanishga ma'lum tasir ko'rsatadi. Qayta tiklash bosqich yerlarni yangidan taqsimlash (qayta taqsimlash) hamda yer resurslaridan keyingi foydalanishlar uchun manbaa yaratadi. Qanday qayta tiklash – kengaytirilgan yoki oddiy qayta tiklash qabul qilinganiga qarab, shunga mos ravishda keyingi qayta tiklash siklida yerlardan foydalanish samaradorligi vujudga keladi.



20-rasm. Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning bog'liqligi[66].

Qishloq xo'jaligida tuproqlar unumdorligini qayta tiklash xarakteriga qarab yer turlari va ekinlarining bo'lg'usi tarkiblari, ekinlarining almashinuvi, mahsulotlarni etishtirish turlari va xajmlari belgilanadi, ya'ni Yerlardan foydalanishning oqilonaligi belgilanadi. Iqtisodiyotning noqishloq xo'jalik tarmoqlarida yer resurslaridan oqilona foydalanish u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarish talablariga qarab, faoliyatning ijtimoiy sohalarida esa-zaruriy ijtimoiy xizmatlar talablariga qarab aniqlanadi. O'z navbatida shularga mos ushbu yerlarni qayta tiklashning shartlari va harakatlari aniqlanadi (kam qavtli uy-joy binolari va ijtimoiy o'ektlarni buzish hamda ular o'rniga zamonaviylarini qurish, o'zini foydalanish muddatlarini o'tab bo'lgan

eski ishlab chiqarish binolarini buzib tashlash va ancha quvvatlarini qurish, avtomobil va temiryo'llarini rekonstruksiya qilish va boshq.). Demak, yer resurslaridan oqilona samarali foydalanish iqtisodiy toifa sifatida uni to'la qayta tiklash siklining barcha bosqichlarida tadbiiq qilinadi, shuning uchun ham ushbu tushunchalarni belgilashda ularni qayta tiklash siklining qandaydir bittagina bosqich bilan emas, balki bir vaqtning o'zida barcha bosqichlari bilan bog'liqligidan kelib chiqish zarur.

Qator maxsus adabiyotlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida "Yerlardan oqilona va samarali foydalanish" tushunchasi yerdan foydalanish yoki yer tuzishining tamoyillaridan bittasi sifatida qaraladi. Masalani bunday qo'yilishini to'g'ri deb hisoblamaymiz. O'zining mohiyati, roli va ahamiyati bo'yicha ushbu tushuncha yerdan foydalanishning qandaydir bir asosiy tomonlarini tavsiflaydigan har bir alohida tamoyillardan yuqori va keng tushunchadir. Bunda yerdan foydalanishning barcha tamoyillarini amalga oshirilishi yerdan foydalanishning asosiy vazifasi-jamiyatni moddiy va boshqa turdagi boyliklariga doimiy o'sib borayotgan talablarini qondirish maqsadida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashni amalga oshirishga bo'ysundirilgan.

Yerlardan oqilona foydalanish darajasini oshirishning muhim masalasi-bu yerdan foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion hamda ekologik samaradorligini baholash metodikasini hamda zaruriy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdir. Ijtimoiy sohada, sanoat va transportda, xalq xo'jaligining qator boshqa tarmoqlarida yerlardan foydalanish samaradorligini baholash masalalari kam o'rnatilgan. Bunday ko'rinadiki, ushbu sohalardan foydalanish samaradorligini baholash metodikasi yerlardan foydalanishning jadallashganlik darajasini oshirishni ko'zda tutadigan hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy talablari uchun yer ajratishning ilmiy asoslangan me'yorlarini ishlab chiqishni o'z ichiga olgan bozor va me'yoriy uslublariga asoslanishi zarur. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash masalalari anchagina yirik miqiyoslarda o'rganilgan, baholashning ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, noqishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi masalalari kam o'rganilgan masala bo'lib qolmoqda, boshqa turlardagi

samaradorliklar esa amaliy jihatidan tadqiq qilinmagan. Jamiyatning o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablarini ta'minlash yerlardan jadal foydalanish asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yer resurslaridan foydalanish samaradorligini doimiy ravishda oshirib borishni talab qiladi.

Yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish butun bir majmualiy muammo bo'lib, uni hal qilish uning barcha qirralarini, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsiya, ekologik, huquqiy, axborotli, texnologik, resursli, tashkiliy-hududiy va tadbirkorlik qirralarini tadbiq qilish asosida erishiladi. Bunda birinchi to'rtta qirrasidan yerdan to'g'ridan-to'g'ri foydalanishni tavsiflaydi, qolganlari esa undan foydalanishning oqilonaligini va samaradorligini ta'minlaydi. Ularning hech bittasi alohida tarzda, boshqalaridan ajralgan holda yerlardan oqilona foydalanishni ta'minlay olmaydi.

Shunday qilib, oqilona yerdan foydalanish tushunchasini yerlardan foydalanishning butun bir majmuidagi qirralari bilan aniqlangan yagona maqsadlilik nuqtai nazardan qarash zarur, ya'ni-bu ulardan foydalanishda oldinga qo'yilgan shartlar va chegaralanishlarda jamiyatning umumiy talablarini bir vaqtda ta'minlovchi yer resurslaridan foydalanishning ko'p maqsadli, birlashtirilgan variantidir. Bunda shu bilan birga maqbul majmualiy samaradorlik ta'minlanadi. Shu munosabat bilan yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish modelini ishlab chiqish usullarini, har bir qirrasidan bo'yicha tadqiqot predmetini o'z ichiga olishi zarur. O'zining to'la qayta tiklanish sikliga asoslangan (taqsimlash, yer resurslaridan foydalanish va qayta tiklash) va yerdan foydalanishning barcha qirralarini majmualiy amalga oshiradigan tizimli yerdan foydalanishgina oqilona va samarali bo'ladi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerlardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz?
2. Yerlardan oqilona foydalanish zaruriyati nima asosida kelib chiqadi?
3. Yerlardan foydalanishning iqtisodiy qirrasining mazmuni nimadan iborat?
4. Yerlardan samarali foydalanish tushunchasining mazmuni qanday?
5. Yerlardan samarali foydalanish zaruriyati nimaga asoslanadi?

6. Yerlardan foydalanish samaradorligining darajasi qanday baholanadi?

7. Qaysi shuncha keng: Yerlardan oqilona foydalanishli yoki samarali foydalanish?

8. Yerlarni qayta tiklash siklining fazalari bilan ulardan oqilona va samarali foydalanishlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?

9. Yerlardan foydalanish samaradorligining turlarini sanab bering?

10. Yerlardan foydalanish samaradorligining turlarini baholash uchun qanday uslubiyatlar zarur?

III BOB. MAMLAKATDA YERDAN FOYDALANISHNI INTEGRATSION BOSHQARUVNING MAVJUD HOLATI

3.1 Yerdan foydalanishni boshqarish tamoyillari

Yerdan foydalanish murakkab boshqariladigan tizim sifatida uning asosiy, boshlang'ich holatini aniqlovchi tamoyillarga mos tarzda amalga oshiriladi. Ularning mazmuni tabiatdan foydalanishning umumiy tizimida Yerdan foydalanishning roli va o'rni bilan, tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirlarining mohiyati bilan, jamiyatning rivojlanishida yer resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan, yerlardan oqilona foydalanish, qayta tiklash va muhofaza qilish usullari va uslublari bilan aniqlanadi.

Yerdan foydalanish tamoyillari, uning tizimi ham ulardan bir nechasi shakllantirilgan va maxsus adabiyotlarda [22], [32], [35] keltirilgan bo'lishiga qaramasdan to'la o'rganilgan emas hamda tizimga keltirilgan emas. Jumladan, [32,50b] yer tuzishning tamoyillari qarab chiqilgan: yerlardan oqilona foydalanish, umumxalq boyligi, muhim ishlab chiqarish vositasi hamda tabiiy resurs sifatida; qishloq xo'jalik yerlarining ustunligi: ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishiga mos ularni doimiy shakllantirish asosida qishloq xo'jalik korxonalarining barqarorligini ta'minlash; yerning kenglik xususiyatlarini, xo'jalik va tuman: yerning kenglik xususiyatlarini, xo'jalik va tuman: mintaqalarining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini qat'iy hisobga olish.

Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillar yerdan foydalanishning mazmuni va mohiyatini to‘la yoritmaydi, ko‘p jihatdan ular yer tuzishning asosiy qoidalarini yoritadilar. Bu holat prof. Yu.M.Rogatnyov tomonidan ham qayd qilinadi: yerdan foydalanishni tashkil etishning mavjud nazariyasi va amaliyoti uni faqatgina ishlab chiqarish vositasi sifatidagina e‘tirof etadi. Shu bilan birga qayd qilish lozimki, yerlardan oqilona va samarali foydalanish bir qator olimlar tomonidan yerdan foydalanish tamoyillaridan biri deb e‘tirof etiladi, bunday hulosa bilan kelishish mumkin emas. Bundan tashqari rejali iqtisodiyot sharoitida yerdan foydalanishning bozor tamoyillarini o‘rnatish mumkin bo‘lmagan, yerdan foydalanishning ijtimoiy, rekreatsion va ekologik qirralari juda kam yoritilgan.

Yerdan foydalanishni tabiiy majmuaning hamda ijtimoiy-iqtisodiy voqeilikning kichik tizimi sifatida qarash quyidagi tamoyillarini o‘rnatishga imkon berdi (21-rasm):

- yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish;
- yer resurslaridan foydalanishni integratsion boshqarish;
- mulkchilik shakllarini hamda yer huquqi turlarini rang-barangligi;
- yer resurslaridan ko‘p maqsadli, tarmoqlararo foydalanish;
- jamiyat va tabiiy majmualarning bir-birlari bilan o‘zaro ta’siri;
- yerdan foydalanishning ijtimoiy yo‘nalishligi;
- yerdan foydalanishning pulliligi;
- yer bozorining mavjud bo‘lishi (huquq);
- qishloq xo‘jalik yerlarining ustunligi;
- yerdan xo‘jalik yuritishni tashkiliy-huquqiy shakllarining rang-barangligi, yer uchastkalarining barqarorligi;
- hududni tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlari bo‘yicha mintaqalash hamda rayonlashtirish.


Yerdan foydalanishning *yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish tamoyili* yer munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirishning zamonaviy darajasi bilan bir xil darajaga keltirish, shuningdek

jamiyat va tabiiy atrof-muhitning o‘zaro garmonik rivojlanishini ta’minlash maqsadlarida jamiyat rivojlanishining dialektik xarakterini ko‘zda tutuvchi Yerdan foydalanishni takomillashtirishning obyektiv zaruriyatini yoritadi. yer munosabatlarini muvofiqlashtirish yerdan foydalanishni boshqarishning asosidir.

Yer munosabatlari yerni jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar va munosabatlar obyekti sifatida mavjud bo‘lish qonuniyatlariga mos tarzda rivojlanadi. Boshqa munosabatlar singari u ham voqeilikning yuzasida ko‘rinmaydi, real hayotda yerlardan foydalanish mexanizmi vositasida aks etadi. Ularni mavjud bo‘lishining bosh va asosiy sharti-bu jamiyatni yerdan foydalanishga bo‘lgan obyektiv zaruriyatidir hamda buning oqibatida yerda xo‘jalik yuritishni ijtimoiy-iqtisodiy shakllarining mavjudligidir.

Aynan yerda xo‘jalik yuritish jarayonida yer munosabatlari amalga oshiriladi. Darhaqiqat, yer munosabatlarini vujudga kelishi yoki moddiylashtirishining asosiy shakllari-bu xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida yerlarni maqsadli mohiyatlariga qarab taqsimlash hamda yer xo‘jalik yuritishining ijtimoiy-iqtisodiy shakllaridir. Ularni vujudga kelishining navbatdagi shakli-bu xalq xo‘jalik tarmoqlari o‘rtasida, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida yerlarni miqdoriy taqsimlash hamda yer uchastkalarini chegaralarini belgilashdir. Vanihoyat, bozor munosabatlari sharoitida anchagina muhim ahamiyatga ega bo‘lgan shakllaridan biri-bu yer “bahosi”dir. Qat’iy mazmunda tabiiy resurs sifatidagi yerning bahosi iqtisodiy mazmunga ega emas va u irratsional tushunchadir. Shu bilan bir vaqtda tovar-pul munosabatlariga yerni tortish uni qiymat baholash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Voqeilikning sirtida yerning bahosi qiymatining o‘zgaruvchi shakli sifatida gavdalanadi.

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish jamiyatdagi bosh islohotchi-davlat tomonidan amalga oshiriladi, u eng avvalo keyingi huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muvofiqlashtirishning asosi sifatida siyosiy xarakterga egadir.



21-rasm. Tizimli yerdan foydalanishning tamoyillari

Yerga bo‘lgan mulkchilik shakllari va huquq turlarining rang-barangligi tamoyili mamlakatda bozor munosabatlarining rivojlanishi, mamlakat iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga kirishi, yer resurslaridan foydalanishni jadallashtirish zaruriyatlari bilan vujudga keldi. Bularning barchasi yer munosabatlarini ma’lum tartibda isloh qilishni talab qildi. Bu islohatning markazi esa mulkchilik

munosabatidir. Ushbu tomoilga rioya qilish undan oqilona foydalanishni amalga oshirish uchun yerga bo'lgan turli mulkchilik turlarini hamda huquq turlarini maqbul qo'shilishini ta'minlaydi.

Tarmoqlararo yerdan foydalanish tamoyili yerni ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarning obyekt sifatidagi obyektiv ko'p maqsadli xarakterini ko'zda tutadi. Uni amalga oshirish yerlardan foydalanishning yalpi samaradorligini maqbullashtirish sharti bilan yagona davlat yer fondini tariflari bo'yicha maqbul taqsimlanishini ko'zda tutadi. Barcha toifalar yerlardan foydalanishdagi turlicha xarakter, shakllar va o'ziga xoslik yerlardan foydalanishni baholashning ularga mos mezonlari va uslubiyatlarini hamda yerlarni qayta tiklash usullarini ishlab chiqishini talab qiladi.

Jamiyat va tabiiy majmuani, shu jumladan yerni ham o'zaro ta'siri tamoyili biosferaning umumiy tizimida alohida va o'zaro bog'liq kichik tizim sifatidagi jamiyat hamda tabiiy muhitni garmonik rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlashdan iboratdir. Biosfera o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tizim bo'lganligi sababli tabiiy majmuaga, shu jumladan yerga ham antropogen ta'sir insonni biosferaga yo'l qo'yarli aralashishining chegarasida bo'lishi zarur. Aynan shu chegarada biosfera qayta tiklash jarayonini o'z-o'zi muvofiqlashtirib turish imkoniyatini yo'qotmaydi.

Yerdan foydalanishni ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili umumqobul qilingan mezonlar va me'yorlarga mos tarzda aholini to'la qonli hayoti va mehnati uchun zaruriy shart-sharoitlarni to'laroq ta'minlashni ko'zda tutadi. Oqilona yerdan foydalanish odamlarni uy-joyga bo'lgan talablarini qondirish, dehqon xo'jaligini yuritish, tarbiya va ta'lim olish, aholini faol dam olishi, davolanishi uchun barcha zaruriy sharoitlarni yaratishi zarur.

Yerdan foydalanishning pullilik tamoyili yer resurslarini umumxalq mulkchiligining iqtisodiy mohiyatini hamda ulardan yuqori mahsuldorlik asosida foydalanishni rag'batlantirishni amalga oshirish zaruriyatlaridan kelib chiqqan. U bahoning mohiyati va roli, yer rentasi, yer solig'i va ijara haqi, yerlardan xo'jalik sifatida foydalanish mexanizmida ishlab chiqarish yo'qotishlarini o'rnini qoplash kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Yer rentasi yer uchastkasining sifat holati va

joylashgan o‘rnini hisobga olgan holda yerga bo‘lgan mulkchilikning iqtisodiy mohiyatini yoritadi. Yer solig‘i fiskal maqsadidan tashqari, yerlardan foydalanishni ancha yuqori darajasini rag‘batlantiradi. Yerlarga baho belgilash zaruriyati yer uchastkalarini xususiy lashtirish va yer bozorini yaratishning natijasi hisoblanadi, u bozor kon’yunkturasini hisobga olgan holda kadastrli qiymat baholashga asoslanadi. Ishlab chiqarishning yo‘qotishlarini o‘rnini qoplash yerlarni muhofaza qilish hamda qayta tiklashni yoritadi.

Qishloq xo‘jalik yerlarining ustunligi tamoyili ularni asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi hamda qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun zaruriy sifatidagi yerlarning chegaralanganligini ko‘zda tutadi. Ushbu yerlarda aholi uchun oziq-ovqat ekinlari hamda sanoat uchun xom-oshyo, shuningdek chorvachilik uchun yem-xashak etishtiriladi. Qishloq xo‘jalik yerlari foydalanishning eng murakkab huquqiy rejimiga ega, ular maxsus muhofaza qilinadi, ularni oborotdan chiqarish ta‘qiqlanadi hamda maxsus qonunchilik hujjatlari bilan belgilanadi.

Yerda xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllarini rang-barangligi, yer uchastkalarining barqarorligi tamoyili bozor munosabatlarini rivojlanishi bilan, ishlab chiqarish vositalariga, shu jumladan yer ham mulkchilik shakllari bilan uzviy bog‘liqdir. Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikdan tashqari mulkchilik munosabatlari tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlarini erkin tanlashlari, shuningdek etishtirilgan mahsulotlarni obyektiv tasarruf etishlari hamda ularni teng (ekvivalent) almashish huquqlarini o‘z ichiga oladi. Xo‘jalik yuritishning rang-barang shakllari yerlarga egalik qilish va ulardan foydalanishning turli shakllarini, mehnatni tashkil etish va yakuniy mahsulotni taqsimlashning turli shakllarini belgilaydi, yer, suv, mehnat, moddiy, moliyaviy resurslardan foydalanishda raqobat uchun manbalar yaratadi.

Hududni mintaqalash va rayonlashtirish tamoyili qishloq xo‘jalik yerlarini tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik shartlar bo‘yicha tabaqalashtirishni, shaharlar va posyolkalar hududlar yerlarini funksional foydalanishlari bo‘yicha mintaqalashni ko‘zda tutadi. Regionning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, jumladan uni mehnat va suv resurslari bilan ta‘minlaganligi, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil

etish darajasi, qishloq xo'jalik infratuzilmalarini rivojlantirish, ekologik holati Yerlardan oqilona va samarali foydalanishda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Tizimli yerdan foydalanishning iqtisodiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- yerdan foydalanishning iqtisodiy qirrasining ustunligi;
- yerlarni qayta tiklash siklining yopiq xarakterga ega ekanligi;
- yer-suv munosabatlarini isloh qilishning birligi;
- yerdan foydalanishlar, yer turlari va ekinlar tarkiblarini maqbullashtirish;
- qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash;
- yer resurslarini unumli va unumsiz iste'moliga obyektiv zaruriyat;
- yer resurslarini qayta tiklash sarf-harajatlarini kamaytirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish jarayonida tuproqlar unumdorligini qayta tiklash;
- yerlarni va sug'orish suvini baholashning bozor uslubiyatlari;
- yer bozori va ijara huquqini mavjud bo'lishi;
- yerdan foydalanishning pulliligi;
- yerdan samarali foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish.

Yerlardan foydalanishning iqtisodiy qirrasini ustunligi tamoyili yerlardan foydalanishning asosiy maqsadi-jamiyatning doimiy o'sib borayotgan talablari uchun moddiy va boshqa boyliklarni mumkin qadar ko'proq ishlab chiqarishni ta'minlashni ko'zlaydi. Yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi yerdan foydalanuvchi daromadini shakllantirish hamda iste'mol qilingan yer resurslarini qayta tiklashni moliyalash manbai hisoblanadi. Ushbu qirrasini yerdan foydalanishni iqtisodiy mohiyatini yoritadi hamda tizimli yerdan foydalanishning iqtisodiy asosi hisoblanadi.

Yerlarni qayta tiklash siklining yopiq xarakterga ega ekanligi tamoyili e'tirof etadiki, yerdan foydalanish jarayoni sikllik xarakterga ega. Yerni to'la qayta tiklash sikli uchta fazani tashkil etadi, u yopiq yoki ochiq (yopilmagan) bo'lishi mumkin. Yopilmagan sikl samarali bo'lmaydi, keyingi siklni amalga oshirish uchun zaruriy

sharoitni ta'minlamaydi. Tizimli yerdan foydalanish uchun qayta tiklashning yopiq sikli xarakterlidir.

Yer-suv munosabatlarini isloh qilishning birligi tamoyili bir vaqtning o'zida yerdan va sug'orish suvidan samarali foydalanishni ta'mirlamaydigan sug'oriladigan yerdan foydalanishning yer munosabatlarini uzviy o'zaro bog'liq holda isloh qilishni ko'zda tutadi.

yerdan foydalanishlar, yer turlari va ekinlar tarkiblarini maqbullashtirish tamoyili ulardan foydalanishni rejalashtirish yiliga yerlardan oqilona foydalanish sharti bilan mumkin bo'ladigan eng yuqori yalpi samaradorlikni belgilaydi; tarkibni maqbullashtirish dinamik xarakterga ega, negaki kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish sharoitida u jamiyatni moddiy boyliklarga doimiy o'sib boruvchi va o'zgaruvchi talablari ta'sirida har yili o'zgaradi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash tamoyili tuproqlarni ishlashning samarali usullarini qo'llash, urug'larni rayonlashtirish, ekishning maqbul muddatlarini belgilash, o'simliklarni oziqlantirish, hosilni eg'ishtirish kabi ishlab chiqarishning eng kam sarf-harajatli shartida yuqori hosilni ta'minlovchi omillarni ko'zda tutadi.

Yer resurslarini unumli va unumsiz iste'moliga obyektiv zaruriyat tamoyili yerdan foydalanishni qonuniy jarayon sifatida, iste'mol qilingan resursni keyingi qayta tiklashni esa yili ma'lum miqdordagi sarf-xarajatlarni talb qiladigan obyektiv zaruriy, doimiy va dinamik jarayon sifatida qaraydi.

Yer resurslarini qayta tiklash sarf-harajatlarini kamaytirish tamoyili ularni samarali ta'sirini hamda maqbul muddatlarida ularni amalga oshirishni hisobga olgan holda zaruriy agroxo'jalik va meliorativ tadbirlarning eng maqbul nisbatda birlashishini ko'zda tutadi.

Ishlab chiqarishni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirish jarayonida tuproq unumdorligini qayta tiklash tamoyili tuproqlar unumdorligini tiklaydigan yerdan foydalanishning agroxo'jalik usullarini (bedali va boshqa o't dalali tizimlar) qo'llashni ko'zlaydi. U qishloq xo'jaligi uchun, ekin yerlarni (ayniqsa sug'oriladigan)

xo‘jalik oborotidan chiqib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik hamda mahsulotlar etishtirish harajatlarini qisqarmasligi nuqtai nazarlardan ayniqsa muhimdir.

Yer va suvni baholashning bozor uslublari bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida obyektiv hamda haqqoniydir. Ular yerlardan foydalanishda bozor uslublarini qo‘llashga hamda uning samaradorligini oshirishga (subekktiv me‘yorlash usullariga nisbatan) imkon beradi.

Yer bozori va ijara huquqini mavjud bo‘lish tamoyili ipotekani rivojlantirishni, kreditlarni erkin tarzda berilishini ta‘mirlaydi, yerlardan yaxshiroq foydalanish va yirik samaradorlikka erishish maqsadida anchagina ilg‘or Yerdan foydalanuvchilarga Yerni yoki yerga bo‘lgan ijara huquqini erkin (bozor) tarzda berilishiga imkoniyat yaratadi, yer uchastkalarini yaxshilash uchun yirik miqdordagi inventitsiyalarni yo‘naltirishga imkon beradi.

Yerlardan samarali foydalanuvchi yerdan foydalanuvchilarni iqtisodiy rag‘batlantirish tamoyili davlat yoki mahaliy byudjetlar hisobiga yer uchastkalarida turli agroxo‘jalik va meliorativ tadbirlarni amalga oshirishni, shuningdek turli imtiyozlar berishni (yer solig‘i, kredit, qo‘shimcha yer bo‘laklari va xok.) ko‘zda tutadi.

Qarab chiqilgan tamoyillar uning tarkibiy qismlarga (kichik tizimlarga) va yerlardan oqilona va samarali foydalanish qirralariga mos tarzda tizimli yerdan foydalanishning mohiyatini va iqtisodiy asoslarini yoritadi. Ularni majmualari tarzda amalga oshirish yerdan foydalanishni tizimli boshqarishni amalga oshirishga, tizimni maqbul, barqaror hamda o‘zgarmas holatda tutib turishga imkon beradi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Tizimli yerdan foydalanishning tamoyillarini sanab bering.
2. Yerlardan foydalanish davlat boshqaruvi tamoyilining mohiyati nimadan iborat?
3. Mulkchilik shakllari hamda yerga bo‘lgan huquq turlarining rang-barangligi tamoyilining mohiyati qanday?
4. Yer resurslaridan tarmoqlararo foydalanish tamoyilining mohiyati nima?

5. Jamiyat va tabiiy majmua yerdan foydalanishlarning o‘zaro ta’siri tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

6. Yerdan foydalanishning ijtimoiy yo‘naltirilganlik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

7. Yerdan foydalanishning pullilik tamoyilining mazmuni nimadan iborat?

8. Qishloq xo‘jalik yerlardan foydalanishni ustunlik tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

9. Yerdan xo‘jalik yuritishni tashkiliy-huquqiy shakllarini rang-barangligi tamoyilining mohiyati nimadan iborat?

10. Hududni mintaqalash va rayonlashtirish tamoyilining mohiyati nima?

11. Tizimli yerdan foydalanishning qanday tamoyillari iqtisodiy guruhga kiritiladi?

3.2 Yerlardan foydalanishni davlat boshqaruvi

Yerlardan foydalanishni davlat boshqaruvi jamiyat yerdan foydalanish tizimining ikkinchi kichik guruhi hisoblanadi. U o‘z navbatida ikkita kichik guruhni o‘z ichiga oladi: *yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish hamda yer resurslaridan foydalanishni ma‘muriy boshqarish*. Bugungi kunda yerdan foydalanishni boshqarish tizimiga davlat jamoat tashkilotlari (qishloq kengashlari, qishloq fuqarolar yig‘inlari, mahalla kengashlari) tomonidan yer resurslaridan foydalanishni boshqarish muammosi ham kiradi.

Boshqarish deganda boshqariladigan tizimlarga ta’sir jarayoni tushuniladi. Har qanday murakkab tashkil etilgan boshqariladigan tizimlar, shu jumladan yerdan foydalanish tizimi ham, boshlang‘ich holatni ushlab turish, shuningdek berilgan sifat holatga ma‘lum maqsadli erishish uchun ularni boshqarishni talab qiladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, boshqarish boshqariladigan tizimlarni ularning ichki mazmuni bilan birgalikda mavjud bo‘lishining obyektiv zaruriyati hisoblanadi. U ushbu tizimlarning o‘zlarini rivojlanish qonuniyatlariga mos tarzda amalga oshiriladi, boshqaruvsiz tizimning o‘zi amaliy jihatdan bo‘linib ketadi.

Yerdan foydalanishning maqsadi berilgan sifat holatida uni boshqariladigan tizim sifatida ushlab turishdan iboratdir. Bunda tizimning berilgan darajasi uning qandaydir bir boshlang'ich davridagina emas, balki uning butun berilgan davrida ta'minlangan bo'lishi zarur. Shu sababli ma'lum bir mexanizmlar yordamida uni to'la ishlash jarayonida berilgan o'lchamlardan ko'zda tutilmagan farqlarni bartaraf qilish uchun davriy yoki doimiy ravishda zaruriy tuzatmalar kiritib turiladi. Umumiy ko'rinishda boshqarish-bu "mavjud tizimga mos obyektiv qonunlardan foydalanish asosida uni yangi sifat holatga o'tkazish maqsadida tizimga ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Tizimni o'zgartiruvchi manba odatda ushbu tizimning o'zida yotadi" [33,17b]

Ammo, boshqarishni faqatgina yangi sifat holatga o'tkazish maqsadida tizimga ta'sir etuvchi sifatida tavsiflash unchalik to'la bo'lmaydi. Murakkab boshqariladigan tizimlardagi muhim e'tirof shundan iboratki, boshqarish ularni maqbul holatda ushlab turilishini ta'minlaydi hamda shu bilan bir vaqtda tizimni o'zini ham tashkil etishga yo'naltirilgan, ya'ni boshqarishning mohiyati tizimni to'g'rilash uchun unga ta'sir etibgina qolmasdan, balki uni tashkil etish uchun ham ta'sir etishdan iborat. Demak, boshqarish tizimni o'zini tashkil etishga ham xizmat qiladi. Yana bir muhim tomoni shundan iboratki, boshqarish yordamida boshqariladigan tizimni barqarorligi, bir xilligi, tartibga solib turilishi ta'minlanadi [33,25b].

Maxsus adabiyotlardan ko'rinadiki, umuman barcha mualliflar tomonidan "YER resurslarini boshqarish"ning mazmuniga deyarli bir xil ta'rif beriladi. Jumladan, prof. S.A.Tkachuk "Yer resurslarini boshqarish"ni oqilona Yerdan foydalanishni tashkil etish vositasi sifatida qaraydi, ya'ni uni ".....ushbu tizimga mos obyektiv qonunlardan foydalanish asosida yangi berilgan holatga o'tkazish maqsadida tizimga ta'sir ko'rsatish jarayoni" deb tushuntiradi [32,19b]. Bunda u e'tirof etadiki "Yana bir muhim tomoni shundan iboratki, bu-boshqarish yordamida boshqariladigan tizimni barqarorligini, bir xilligini tartibga solinib turishini ta'minlashdir" [32,19b]. Bundan ko'rinadiki, "Yer resurslarini boshqarish" deganda yer resurslaridan foydalanishni tashkil etish tizimiga ta'sir etish, ya'ni yer munosabatlarini muvofiqlashtirish tushuniladi. Va nihoyat, u huloqa qiladiki,

“Boshqarish-bu nainki ta’sir etish, balki ko‘p qirrali faoliyatdir. Boshqariladigan tizimga ta’sir etish-bu faoliyatining bir qismidir. Bu faqatgina “aynan boshqarish” deb nomlanadi”. [32,19b]. “Yer resurslarini boshqarish”, “ta’sir etish” holatidan tashqari boshqariladigan tizimning bir xilligini, barqarorligini, tartibga solib turishni ta’minlash bo’yicha ko‘p qirrali faoliyatni ham bu yerda e’tirof etadi.

Prof. A.A.Varlamov va boshqalar tomonidan “Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish”ga quydagicha ta’rif beriladi. “Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish deganda tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy harakatlar majmuasini amalga oshirish yo‘li bilan yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashga, uni muhofazalashga, tuproq unumdorligini qayta tiklash va oshirishga, insonlar uchun maqbul atrof-muhitni yaratish va uni saqlashga, yerlarga mulkchilik, egalik va foydalanish huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan tadbirlar tizimiga aytiladi” [22,52b]. Shu bilan bir vaqtda, yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni to‘g‘ri tashkil etishning asosiy talablariga yer resurslarini boshqarish zaruriyati ham kiradi. Mualliflar buni shunday tushuntiradilar “bu-ulardan foydalanishni rejalashtirish, Yerlarni mintaqalash, tabiiy-qishloq xo‘jalik rayonlashtirish, yer tuzish, yer monitoringi hamda davlat yer kadastri” [22,54b]. Bundan ko‘rinadiki, yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish-bu ma’lum bir tadbirlar tizimi hamda harakatlar majmuasidir, “yer resurslaridan foydalanishni boshqarish” esa yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo yer munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda yer resurslaridan foydalanishni boshqarish terminlari turlicha maxsus terminlar bo‘lib turlicha mazmunga ega, ammo ularning ikkalasi ham bitta maqsadni ko‘zlaydi, ya’ni yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashni ko‘zda tutadilar. Shuning uchun ham yerdan foydalanishni boshqarish sohasida, yerdan foydalanishni davlat boshqaruvi tizimidagi ularning nisbatlarida (statusida), va nihoyat ularni ta’riflashda ushbu ikkita muhim tushunchalar o‘rtasida anchagina aniqroq chegarani ajratishi zarur bo‘ladi.

“Har bir hukmron sinf o‘zining asosiy manfaatlariga mumkin qadar mos keladigan yer munosabatlari tizimini hamda uni muvofiqlashtirish uslublarini

shakllantiradi” [22,19b]. Bunda “Yer munosabatlarining muhim qirrasini yer resurslarini boshqarish shakllari hisoblanadi, qaysiki u yerga bo‘lgan mulkchilik shakllariga yuqori darajada bog‘liqdir”[22,9b]. Bu yerda ham ikkita tushuncha keltiriladi-yer munosabatlarini muvofiqlashtirish va yer resurslarini boshqarish. Shu bilan bir vaqtda ushbu turlicha tushunchalarga hech bir tushuntirish keltirilmaydi.

Yuqorida keltirilgan ma’lum tushuncha va qoidalardan “Yerlardan foydalanishning davlat boshqaruvi” tushunchasiga quyidagicha hulosalar keltirish mumkin:

- bugungi kunga qadar “yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish” va “yer resurslaridan foydalanishni boshqarish” tushunchalari o‘rtasida aniq bir chegara mavjud emas, ularning mazmuni mohiyati ham to‘la ochilgan emas;

- jamiyat yerdan foydalanishini davlat boshqaruvining umumiy tizimida ularning o‘rni va roli aniqlanmagan;

- yerdan foydalanishning chegaralilik tizimida ularning o‘zaro nisbatlari belgilanmagan;

- yerdan foydalanishning boshqarish sohasida har birining aniq maqsadi, vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari mavjud emas.

Birinchi galda “muvofiqlashtirish” va “boshqarish” terminlarining mazmunini tushunib olish zarur. Muvofiqlashtirish (lotincha *regulo* so‘zidan)-to‘g‘irayman, tartibga keltirman ma’nosini bildiradi[29,1112b]. Ojegovaning lug‘atida “muvofiqlashtirish” termini 1) tartibga keltirish, yo‘lga qo‘yish; 2) rivojlanishni yo‘naltirish, bir tizimga, tartibga keltirish maqsadida nimanidir harakatga keltirish kabi ma’nolarni bildiradi.

Demak,“muvofiqlashtirish” termini eng avvalo, ma’lum bir to‘la birlikning elementlari yoki tarkibiy qismlarini tartibga solish, tizimlash tushuniladi. Yerdan foydalanishda esa yer munosabatlarini muvofiqlashtirish ularni ma’lum bir tartibga keltirilgan holatga yoki tizimga keltirishni bildiradi, qaysiki aynan ushbu holatda ular (yer munosabatlari) yerlardan oqilona va samarali foydalanish uchun eng yuqori


sharoitni ta'minlaydi. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirishda yer resurslaridan foydalanishning doimiy o'zgaruvchan sharoitiga muvofiq ularning tizimlarini eng maqbul holatga keltirib turishning doimiy jarayonidir, ya'ni jamiyatdagi yer munosabatlarini muvofiqlashtirishni dialektik nuqtai nazardan qarash zarur. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning maqsadi yer resurslaridan keyingi foydalanish uchun eng maqbul sharoitni ta'minlaydigan (yaratadigan) yer munosabatlarini shakllantirish, shuningdek, yerdan foydalanishga rivojlanayotgan jamiyatning talablari o'zgargan holatda uni (tizimni) to'g'rilashdan iborat. Bu yerdan foydalanishni davlat boshqaruvining birinchi hamda eng ustuvor kichik tizimi hisoblanadi.(22-rasm)

Boshqarish-turlicha tabiatga ega bo'lgan tizimlarni ma'lum bir tartibda saqlanishini, faoliyat rejimini ushlab turilishini ta'minlaydigan ushbu tashkil etilgan tizimlarning funksiyasi, elementi, ular dasturlari va maqsadlarini amalga oshirishidir[29,1388b]. Boshqarish-bu: kimningdir yoki nimaningdir harakatini boshqarish, yo'naltirishdir [29,743b]. Keltirilgan ta'rifdan ko'rinadiki, yer resurslaridan foydalanishni boshqarish-bu yer resurslaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish bo'yicha jamiyat rivojlanishining aynan ushbu daqiqasiga aniqlangan maqsad yoki dasturlarni amalga oshirish hamda yer munosabatlarining mavjud tizimini ushlab turish jarayonidir. Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish jamiyatni yerdan foydalanishini davlat boshqaruvining ikkinchi kichik tizimidir.

Shunday qilib, muvofiqlashtirish yerlardan foydalanishni bashoratlash, ularni taqsimlash (qayta taqsimlash), foydalanish va qayta tiklash bo'yicha yuzaga keladigan yer munosabatlari tizimini shakllantiradi, yerlardan foydalanishni boshqarish esa tizim tomonidan berilgan parametrlarda yerlardan oqilona va samarali foydalanuvchi yerdan foydalanishni rivojlanishini ta'mirlaydigan ushbu tizimini barqarorligini (uni mumkin bo'ladigan to'g'rilashlarini hisobga olgan holda) saqlashga yo'naltirilgan. Aynan shu holat jamiyat yerdan foydalanishini davlat boshqaruvining qarab chiqilayotgan ikkita kichik tizimi mazmunlaridagi asosiy farqlar hisoblanadi. Shularga mos tarzda ikkita kichik tizim o'zlarining turli vazifalariga, ularni amalga oshirish usullari va uslublariga ega, yerdan foydalanishni

davlat boshqaruvi tizimida turlicha rol o'ynaydilar hamda ma'lum bir o'rinni egalaydilar.

Qarab chiqilayotgan tushunchalarning mohiyati, maqsad va vazifalari shuni ko'rsatadiki, yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish hamda yer resurslaridan foydalanishni boshqarish o'rtasida maqsadli mohiyati, mazmuni hamda yer resurslaridan foydalanish va tashkil etish jarayonida ular tomonidan hal qilinadigan masalalarning ketma-ketligida yirik farq mavjud.



22-rasm. Yerdan foydalanishni boshqarishning kichik tizimi.

Aynan ushbu farq jamiyat yerdan foydalanishining umumiy tizimida har bir ushbu tushunchalarning aniq joyi va ahamiyatini aniqlaydi. Ikkinchi tomondan, jamiyat yerdan foydalanishiga moddiy-abstrakt tizimi sifatida, shu jumladan o'z ichiga yerlardan foydalanishini Davlat boshqaruvi kichik tizimini birlashtiradigan konseptual yondoshuv nuqtai nazaridan haqqoniy ravishda hisoblash mumkinki, ohirigi o'z navbatida ikkita kichik tizimdan, ya'ni yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va yer resurslaridan foydalanishni boshqarishdan iborat.

Umumiy nuqtai nazardan e'tirof etish zarurki, boshqarish umuman obyektlar (predmetlar) bilan emas, balki jarayonlarda amalga oshiriladi. Shu sababli ham "Yer resurslarini boshqarish" yoki "Yerni boshqarish" kabi ko'rinishdagi tushunchalar umuman o'z mohiyatiga to'g'ri kelmaydi. O'quv rejalari, ko'pgina o'quv qo'llanmalari va ilmiy ishlar, afsuski, aynan shunday hato va kamchiliklardan holi emas. Har qanday murakkab tizim singari yerdan foydalanishni boshqarish tizimi boshqarishning mohiyati, mazmuni va vazifalarini yorituvchi uning asosiy tamoyillariga mos tarzda amalga oshiriladi. Aynan shunday tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- yerlardan foydalanishning butun qirralari asosida yerdan foydalanishni boshqarishga tizimli yondashuv;
- yerni ko'p maqsadli foydalanish qonuniyatlarini (shu jumladan bozor sharoitida) hamda faoliyatning turli sohalarida undan foydalanish xususiyatlarini hisobga olish;
- qishloq xo'jalik yerlarining ustunligi;
- mintaqaviy farqlarni hisobga olgan holda yerdan foydalanis.

Yerdan foydalanishni boshqarish tizimini amalga oshirishning aynan shunday tamoyillarini amaliy jihatdan boshqa ko'pgina olimlar ham tavsiya qiladilar [masalan,33, 45b.va boshq.]. Sanab o'tilgan tamoyillarning majmuali tarzda amalga oshirish yerdan foydalanishni tizimli boshqarishga, tizimni maqbul, barqaror va bir xil holatda ushlab turishga imkon beradi.

Yerdan foydalanishni boshqarishning obykti sifatida mamlakat yer resurslari hamda, birinchi navbatda, undan foydalanish jarayoni xizmat qiladi. Bunda yerlarni taqsimlash, foydalanish va qayta tiklash (jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarining obyektiv va tabiiy majmualarining bosh, asosiy komponenti sifatidagi, yerni mavjud bo'lish qonuniyatlari) jarayonlari o'rganish predmeti bo'ladi. Qabul qilingan mezonlar (yer resurslaridan foydalanish qirralari) ning butunligi yoki uning alohida funksiyalari nuqtai nazardan yerdan foydalanish tizimini maqbul holatda ushlab

turish bo'yicha mavjud uslublar va texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish boshqarishning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Yerdan foydalanishni davlat boshqaruvi deganda ijtimoiy, shu jumladan yer munosabatlarini muvofiqlashtirishda davlatning o'ziga xos roolidan kelib chiqadigan funksiyalarini bajarish hamda davlat chegarasi doirasida uni hududiy ustunligi bo'yicha ma'lum bir davlat organlarining qonunchilik hamda ijroiyy-farmonbarorlik faoliyatidir. Funksiyasi deganda berilgan munosabatlar tizimida qandaydir bir obyektning faoliyati, majburiyatlari, xususiyatlarining tashqi aks etishi tushuniladi. Yerdan foydalanishni boshqarish tizimidagi funktsiya-bu yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha boshqarish faoliyatining nisbatan avtonom sohadir. Bunday funktsiyalarga quyidagilar kiradilar: *yer-kadastr axborotli ta'minot, Yerlardan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish, Yerni taqsimlash va qayta taqsimlash, yer tuzish, yerlardan foydalanishni davlat nazorati, yer munozaralarini hal qilish, yer resurslarini qayta tiklash, yerni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish* [33 va boshq.].

Yerdan foydalanishni boshqarish hamda uning funktsiyalari masalalariga maxsus adabiyotlarda etarli darajada yirik o'rin berilgan. Jumladan, prof. N.D.Kazansev tomonidan quyidagi funktsiyalar ajratiladi; yerlarni tasarruf qilish; yer hisobini amalga oshirish va yer kadastr; yer tuzishni amalga oshirish; Yerdan foydalanishning nazorati; melioratsiyani tashkil etish; yerlar rekultivatsiyasini tashkil etish, yer munozaralarini hal qilish. Prof.S.A. Tkachuk tomonidan yerdan foydalanishni boshqarishning quyidagi funktsiyalar tizimi taklif etiladi; yer kadastr, yerdan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish, yerni taqsimlash va qayta taqsimlash, yer tuzish, yerdan oqilona foydalanishni iqtisodiy rag'batlantirish, yerlardan foydalanishni nazorat qilish, yer munozaralarini hal qilish [61,49b].

Yerlardan foydalanishni boshqarishning sanab o'tilgan funktsiyalarining turlari guvohlik beradiki, umumiy holda ular yerdan foydalanishni boshqarishning barcha tomonlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, taklif etilayotgan ba'zi bir funktsiyalar amalda yerlardan oqilona foydalanish bo'yicha alohida tadbirlarni yoritadi hamda yerlardan foydalanishni boshqarishning yaxlit yo'nalishini tavsiflaydi. Aynan

shunday funksiyalar qatoriga “Yerlarni tasarruf etish”ni kiritishi mumkin, negaki mamlakatda yer munosabatlarini muvofiqlashtirish davlatning huquqidir; “yerlarning rekultivatsiyasini tashkil etish” amalda “Yerlarni qayta tiklash” funksiyasining bir qismi hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda yuqorida sanab o‘tilgan funksiyalar yerdan foydalanishda bozor munosabatlarini rivojlantirish xarakterini yoritmaydi. Qayd qilish zarurki, Prof.S.A. Tkachuk tomonidan taklif etilgan boshqarishning “Yerlardan oqilona foydalanishni iqtisodiy rag‘batlantirish” funksiyasi Yerdan foydalanishda bozor tamoyillarini qo‘llash sharoitida juda muhim va dolzarb hisoblanadi.

Yerdan foydalanishni boshqarishining yangi funksiyalari sifatida taklif etilayotgan funksiyalar mustaqil funksiyalar sifatida muhim ahamiyat kasb etadilar. Bularga kiradilar; “Yer qonunchiligini yaratish”, “Yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizimlari”, “Yerni sug‘orish” hamda “Yerdan foydalanishning samaradorligini baholash” [66]. Yer qonunchiligini yaratish jamiyat yerdan foydalanishni boshqarish bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatli faoliyat bo‘lib, u o‘z ichiga yerdan foydalanish sohasida qonunlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni oladi. Yerdan foydalanish sohasidagi huquqiy faoliyatning o‘ziga xosligi yerdan foydalanishni boshqarishda uni alohida, avtonom funktsiya sifatida ajratilishini ko‘zda tutadi. “Yerlardan foydalanishni boshqarishni iqtisodiy mexanizimi” funksiyasiga zaruriyat yer resurslarini bozor munosabatlariga tortish bilan, va jumladan, yerlardan foydalanishda pullik tamoyilini kiritilishi (yer solig‘i va ijara haqi), yerlarni qiymat jihatidan baholash zaruriyati, yerlarni xususiylashtirish hamda yer va ko‘cha mulk bozorini rivojlantirishi, ipoteka institutini rivojlantirishi bilan bog‘liqdir. Dehqonchilikning arid mintaqasida “sug‘oriladigan yerlar” funksiyasining roli va ahamiyati benihoya yirikdir. Tabiiy yog‘ingarchilikning etarli bo‘lmagan miqdorlari sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish (dehqonchilik)ni yerlarni sun‘iy sug‘orishsiz tasavvur etish mushkul. Shuning uchun yerlarni oqilona va samarali sug‘orilishini tashkil etish bu Yerda nihoyatda mushkul, zaruriy hamda boshqarish nuqtai nazaridan anchagina avtonom holatidagi tadbirdir. “Yerdan foydalanish samaradorligini baholash” funksiyasiga bo‘lgan zaruriyat shu bilan vujudga kelganki, yerlardan foydalanish natijalari (yer resurslarini to‘la qayta tiklash siklining barcha


bosqichlari), to'la qayta tiklanish sikli tugashi bilan jamiyat qancha daromad olishi mumkinligini hamda keyingi siklda daromadni qanday miqdorlarda rejalashtirish zarurligini belgilash maqsadlarida miqdoriy jihatidan baholanishi zarur. Bundan tashqari, to'la siklning uchinchi bosqichida yer resurslarini qayta tiklashga ma'lum sarf-xarajatlar zarur bo'ladi. Bu holat ayniqsa qishloq xo'jalik Yerlari uchun muhimdir. Ushbu harajatlar to'la qayta tiklanish sikli bo'yicha Yerlardan foydalanishning daromadli qismini to'g'rilaydi. Shu munosabat bilan boshqarishni qaralayotgan funksiyasining mazmuni anchagina murakkab bo'ladi hamda shu bilan bir vaqtda uni alohida qilib ajratish bugungi rivojlanish sharoitida nihoyatda zaruriy shartdir.

Shunday qilib, yerdan foydalanishni boshqarishning asosiy funksiyalari sifatida quydagilarni ajratish mumkin (23-rasm).

- yer qonunchiligi bilan shug'ullanish;
- yer kadastri (axborot ta'minot);
- yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash;
- yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi;
- yer fondini taqsimlash va qayta taqsimlash;
- yer tuzish;
- yer resurslarini qayta tiklash;
- yer monitoringi va yerdan foydalanish hamda muhofaza qilishni nazorat;
- yer munozaralarini hal qilish;
- yerlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish;
- yerdan foydalanish samaradorligini baholash.

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarish kichik tizimlari turlicha maqsadli mohiyatga ega bo'lganlari sababli yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasini ham ikkita guruhga ajratish maqsadga muvofiq; bitta guruh yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, ikkinchisi esa yerlardan foydalanishni ma'muriy boshqaruvini amalga oshiradi. Ba'zi bir funksiyalar ikkita kichik tizim uchun ham umumiydir (23-rasm).

Jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida yerlardan foydalanishni boshqarishning xususiyati umuman jamiyat rivojlanishining hamda qisman tabiiy resurslardan foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillari rolini nihoyatda kuchayishi bilan aniqlanadi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ishlab chiqarish munosabatlarini, qisman yer munosabatlarini tubdan o'zgarishini talab qildi. Respublikada



23-rasm. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalari

yer munosabatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish yerdan foydalanishning zaruriy hukuqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy bazasini yaratishni talab qiladi. Yerdan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish tizimiga yangi funksiyalarni kiritishinigina emas, balki yerdan foydalanish tizimida, jamiyatni va tabiiy majmuani rivojlantirishda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini o'xshash holatida yoritish maqsadida mavjud funksiyalarni sifati jihatidan o'zgartirishni ham ko'zda tutadi.

Bilimni anqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni davlat boshqaruviga qanday ta'rif beriladi?
2. Yerdan foydalanishni davlat boshqaruvining asosiy tashkil etuvchilarini aytib bering.
3. Yerdan foydalanishni boshqarishining maqsadini shakllantiring?
4. Yerdan foydalanishni boshqarishining vazifasini sanab bering?
5. Yerdan foydalanishni boshqarishining toifalarini sanab bering?
6. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Yerdan foydalanishni boshqarishining birinchi kichik tizimini aytib bering?
8. Yerdan foydalanishni boshqarishining ikkinchi kichik tizimini aytib bering?
9. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalarini sanab bering?
10. Nodavlat notijorat tashkilotlari Yerdan foydalanishni boshqarishda qanday rol o'ynaydilar?

3.3 Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish muammosiga, uning muhimligini, mazmuni va tarkibini murakkabligini e'tiborga olib maxsus adabiyotlarda doimiy ravishda alohida e'tibor berib kelingan. "Yer munosabatlari va yer tuzish" (prof. V.N.Xlistun va F.I.Palchikov), "Yer resurslarini boshqarish" (prof.S.A. Tkachuk), "Yer resurslarini boshqarish"(prof. A.A.Varlamov va S.A.Galchenko), "Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish" (prof.A.A.Varlamov va S.N.Volkov), "Yerdan foydalanishni boshqarish"(prof. A.S.Chertovitskiy va A.Q.Bazarov) va boshqa qator tadqiqotlar bu yo'nalishdagi ancha ahamiyatli tadqiqotlardan hisoblanadi.

Yerdan foydalanishning vujudga kelgan aniq tizimiga yer munosabatlarinig shunga mos ma'lum tizimi mos keladi, qaysiki u jamiyat rivojlanishining harakatdagi iqtisodiy qonunlariga mos tarzda rivojlanadi. Jamiyatning doimiy o'zgaruvchi talablari (manfaatlari) ta'sirida rivojlana borib yer munosabatlari, o'z navbatida, uni yer resurslaridan ancha oqilona va samarali foydalanish irmog'iga doimiy ravishda yo'naltirgani holda yerdan foydalanish tizimiga ta'sir etadilar. Ammo yer munosabatlarining o'zgarishi, shu jumladan bozor munosabatlarining rivojlanish sharoitida ham stixiyali emas, balki ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan holda va

jamiyat rivojlanishining qonunlarini hisobga olgan holda ro'y beradi. Bu hol butun jamiyat manfaatlariga ham, shuningdek har bir alohida Yerdan foydalanuvchi manfaatlariga mos keluvchi yer resurslaridan foydalanishning eng yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Bunda yer munosabatlarining o'zgarish roli (muvofiqlashtirish, to'g'rilash, isloh qilish), qoidaga binoan, davlatga tegishlidir.

Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning mazmunini, uning xususiyatlari, shuningdek, mexanizmini o'rganish nazariy va amaliy jihatlardan o'ta muhimdir. Shu maqsadga yer munosabatlarini o'zini rivojlanish qonuniyatlarini, real sharoitida ularni paydo bo'lish shakllarini oldindan ko'rib chiqish zarurdir. Yer munosabatlari umuman iqtisodiy munosabatlar singari jamiyat rivojlanishining iqtisodiy qonunlariga mos tarzda rivojlanadi. Ular yerni jamiyatdagi roli bilan aniqlangan o'ziga xos xususiyatlarga egadirlar. Umuman olganda yer munosabatlarini rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy qonunlari obyektiv tarzda namoyon bo'ladilar.

Xo'jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy shakllari va ular o'lehamlarini ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlanish darajasiga hamda iqtisodiy munosabatlar xarakteriga moslik qonuni. Ushbu qonunning aniq ta'siri yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblangan qishloq xo'jaligida namoyon bo'ladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat va jamoat mulkchiligiga, ishlab chiqarish vositalarining bo'linmas mulkchiligiga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishning oldingi shakllari (sovxozlar va kalxozlar) samarasiz va istiqbolsiz bo'lib qoldi. Yer munosabatlarini isloh qilish jarayonida ular oldiniga qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari)ga, keyinchalik esa xususiy yerdan foydalanish va mehnatni oilaviy tashkil etishga asoslangan fermer xo'jaliklariga aylantirildi. Xo'jalik yuritishni yangi shakllari yer uchastkalarining maydonlari oldingilaridan tubdan farq qiladi.

Yerlarni doimiy ravishda hamda proporsional tarzda taqsimlash va qayta taqsimlash qonunining ta'siriga mos tarzda iqtisodiy islohotlar yer toifalari o'rtasida, iqtisodiy tarmoqlar, alohida yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yerlarni qayta taqsimlanishini obyektiv ravishda talab qildi. Sanoat obyektlarini (shu jumladan energetika) jadal qurilishi, transport, aloqa tarmoqlarini rivojlanishi,

shuningdek qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlar munosabati bilan qishloq xo'jaligi, sanoat va transport, o'rmon va suv fondi, boshqa toifalar yer maydonlari yirik miqdorlarda o'zgardi, tarmoqlararo yerlarni qayta taqsimlash, shu jumladan yerdan foydalanuvchilar o'rtasida yerlarni qayta taqsimlash amalga oshirildi. Jumladan, xo'jalik yuritishning asosiy shakli hisoblangan fermer xo'jaliklarining maydoni bugungi kunda 5,0 mln. gektardan oshadi, dehqon xo'jaliklarining maydoni 342,9 ming gektarga etdi. O'rmon fondi yerlarining maydoni 1990 yilga nisbatan bugungi kunda 3 barobardan ortiq o'sdi, sanoat, transport aloqa yerlari esa 100,0 ming gektarga oshdi [35]. Yerdan foydalanishdagi bunday yirik o'zgarishlar yer munosabatlarini rivojlanishida ko'rib chiqilayotgan qonunning ta'sirining yaqqol namoyoni bo'lmoqda.

Yer madonlarini bir joyga to'planish qonuni yer munosabatlariga ta'siri alohida korxonalar, muassasa, tashkilotlar maydonlarining o'zgarishida ham, ular yer maydonlarini to'planishi va assotsiatsiyalar (birlashmalar) tashkil etishida ham namoyon bo'ladi. Jumladan, masalan, birgalikda suvdan foydalanish assotsiatsiyasi, qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash obyektlari (paxta punktlari, paxta tozalash, konservalash va boshqa zavodlar) va qishloq xo'jalik korxonalarining assotsiatsiyalari doirasidagi boshqa servis xizmat ko'rsatish korxonalarining har biri va umuman butun bir tizimi resurs salohiyatidan foydalanishning ancha yuqori samaradorligini ta'mirlaydi. Bundan tashqari, bugungi kunda respublikada fermer xo'jalik maydonlarini yanada yiriklashtirish-40-150 gektargacha etkazish vazifasi qo'yilgan, negaki maydon xo'jaliklar resurs salohiyatidan foydalanishning yuqori samaradorligini ta'minlay olmaydi.

Yer resurslarini kengaytirilgan qayta tiklash qonunining ta'siri yer-agrar munosabatlarini rivojlantirishda ancha yorqin namoyon bo'ladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish tuproq unumdorligini ishlab chiqarish "iste'moli" bilan bog'liq. Jamiyatning doimiy o'sib boruvchi talablarining iqtisodiy qonuni yer resurslarini umuman hamda, qishloq tuproq unumdorligini kengaytirilgan qayta tiklashni obyektiv ravishda talab qiladi. Bu tuproqlar unumdorligini tiklash va

oshirish, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish, qishloq xo'jalik oborotidan yerlarni ajratib olishni to'xtatish bo'yicha maxsus tadbirlar o'tkazishni talab qiladi. Noqishloq xo'jalik sohasida yer resurslarini miqdoriy qayta tiklash cheklangan hamda bu yangi qurilishlar uchun yerni iqtisod qilgan holda ajratish, eski obyektlarni maydonlarini qisqartirilgan holda rekonstruksiya qilishda aks etgan.

Jamiyatdagi mavjud yer munosabatlarining asosiy qonuniyatlari shundaydir. Yer munosabatlarini namoyon bo'lish shakllari, o'z navbatida, har qanday ishlab chiqarishning umumsharti, bozor munosabatlarining obyekt sifatidagi Yerdan foydalanishning mohiyati va xususiyatlaridan kelib chiqadi. Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining umumlashgan, umumiy va xususiy turlari ajratiladi.

Markaziy masala, yer munosabatlarining qirrası, yerga bo'lgan mulkchilik shakli hisoblanadi. Mulchilik jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning mohiyatini aniqlagani kabi, yerga bo'lgan mulchilik ham yer munosabatlarining butun tizimiga kirib ketadi va uning xarakterini aniqlaydi, negaki yer har qanday ishlab chiqarishning umumiy sharti, qishloq xo'jaligida esa asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yer munosabatlari jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy o'ziga hos qismi hisoblanadi. Yer kimning mulchiligida bo'lishiga qarab yer munosabatlarining harakteri ham o'zgaradi. Yer munosabatlari tizimida renta munosabatlari ularni ichki asosiy mazmuni sifatida qonuniy tarzda qaraladi, negaki ular yerga bo'lgan mulchilikni yoritishning iqtisodiy shakli hisoblanadi. yer doimo kimningdir mulchiligida bo'lganligi sababli renta munosabatlari yer munosabatlariga real iqtisodiy mazmun beradi, usiz yer munosabatlari o'zining mohiyatini yo'qotadi. Real sharoitda renta munosabatlarini namoyon bo'lish shakli-bu yer rentasi hisoblanadi. Yerga mulchilikning xususiy shaklida yer rentasi (absolyut, tabaqalangan I - hamda II- bir qismi, monopol) mehnatsiz daromad sifatida yerning mulkdori tomonidan o'zlashtiriladi. Yerga davlat mulchiligi sharoitida tabaqalangan I, mehnat va boshqa sarf-harajatlari bilan bog'liq bo'lmagan qo'shimcha daromad yerdan foydalanuvchilardan olinadi va bu davlat byudjetiga tushadi.

Ijara yer munosabatlari yerga bo'lgan mulkchilik munosabatlari bilan daolektik birlikda namoyon bo'ladi: Yerga mulkchiliksiz ijara munosabatlari ham mavjud bo'lmaydi. Yer har doim ham kimningdir mulkchiligida bo'ladi. Mulkdor yerni yoki o'zi foydalanishi mumkin, yoki uni ma'lum bir haq evaziga va ma'lum muddatga boshqa birovga foydalanishga berishi mumkin. Shunday qilib, ijara haqi, shuningdek ijarachi tomonidan yer uchastkasidan foydalanishning aniq shartlari ijara yer munosabatlarini namoyon bo'lishining aniq shakli bo'ladi.

Voqeylikning sirtida, real hayotda yer munosabatlarini namoyon bo'lishining muhim shakli yerda xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy shakllarining birligini yorituvchi xo'jaliklarning tashkiliy-huquqiy shakllari hisoblanadi. Yer davlat tomonidan foydalanish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi. Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishining asosiy shakllari quyidagilar: fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklari, fermerlar, xo'jaliklararo birlashmalar, chorvachilik fermerlari, o'quv-tajriba va xo'jaliklari, ilmiy-eksperimental dalalar, o'rmon xo'jaliklari. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi yerdan foydalanuvchilarga noqishloq xo'jalik tipidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar kiradi. Yerdan foydalanuvchi subektlarni yuritish uchun yer uchastkasiga, bog' uchastkasiga, uy-joy qurish hamda uy-joy qurilmalariga xizmat ko'rsatish uchun yer uchastkasiga, xizmat yuzasidan yer uchastkasiga, mollarni boqish va pichan o'rish uchun yer uchastkasiga ega bo'lgan respublika fuqarolari tashkil etadilar.

Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining navbatdagi shakli-bu yer uchastkasiga huquq turi va servitutdir. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksiga binoan yer uchastkasi mulk, umrbod merosiy egalik, doimiy va muddatli foydalanish, ijara huquqlari asosida beriladi. Servitut ham yer uchastkasiga huquq turiga kiradi. 2007 yildan boshlab ishlab chiqarish va tijorat ahamiyatidagi obyektlar tagidagi yer uchastkalaridan foydalanuvchi subektlar, shuningdek 2008 yildan boshlab yakka tartibda uy-joylar tagidagi yerlardan foydalanuvchi fuqarolar mulk huquqiga ega bo'lishlari mumkin. Mulq huquqi asosida yer uchastkalari O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarga beriladi. Umrbod merosiy

egalik huquqidagi yer uchastkalari asosan jismoniy shaxslarga beriladi, ammo ular yer uchastkalariga meros huquqini (tomorqa yer uchastkasiga, bog'dorchilik yer uchastkasiga, uy-joy qurilishi tagidagi yer uchastkasiga) boshqa birovga berish huquqigagina egadirlar, yer uchastkasini tasarruf qilish bo'yicha ular boshqa huquqlarga ega emaslar. Davlat obyektlari tagidagi yer uchastkalari (ma'muriy binolar, ijtimoiy obyektlar va bir qator boshqalar) doimiy foydalanish huquqida bo'ladilar. Yer uchastkasidan ijara huquqi asosida foydalanadigan yuridik shaxslar-noqishloq xo'jalik va noo'rmon xo'jalik tipidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar, noqishloq xo'jalik turidagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar, shuningdek yer uchastkasini mulk sifatida sotib olgan, xizmat yuzasidan yer bo'laklariga ega bo'lmagan fuqarolar. Yer ijara huquqi qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarini etishtirish uchun fermer xo'jaliklariga beriladi. Fermerlar o'zlarining yer uchastkalariga ijara huquqini kredit olish maqsadida garovga qo'yish huquqiga egadirlar, ammo yerlarni tasarruf qilish bo'yicha ular boshqa huquqlarga ega emaslar.

Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining navbatdagi shakli yerning xususiyati, ya'ni uni kenglikda chegaralanganligi bilan bog'liqdir. Bu xususiyati yerlarni qat'iy asoslangan va belgilangan miqdorlarda ajratish va foydalanish zarurligini e'tirof etadi. Shuning uchun ham foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini o'lchash va chegaralarini qat'iy belgilashga obyektiv zaruriyat tug'iladi. Bu esa o'z navbatida yer munosabatlarini namoyon bo'lishining shakllaridan biridir.

Yerlardan kenglik-operatsion asos hamda ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish yer uchastkalarining barqarorligi bilan, doimiy bir joyda joylashganligi bilan bog'liq, ularni kenglikda ko'chirib bo'lmaydi, ular sifat bo'yicha bir xil emas. Shulardan kelib chiqqan holda uchastkalarini aniq maqsadli foydalanishini hamda ma'muriy-hududiy bo'ysunuvini hisobga olgan holda taqsimlashga obyektiv zaruriyat tug'iladi. Yerlarni yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar o'rtasida, iqtisod tarmoqlari, viloyatlar, tumanlar va yer uchastkalari o'rtasida taqsimlash makon va zamonda bir vaqtning o'zida o'tkaziladigan tadbir emas, albatta. Yer resurslarini

qayta tiklash va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish zaruriyati qonunining ishlash yerni kenglik va zamonda doimiy ravishda qayta taqsimlashni talab qiladi. Bu ham yer munosabatlarini namoyon bo'lishining shakllaridan biridir.

Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining keyingi shakli umuman mamlakatning yagona yer fondi, yer kategoriyalari, iqtisodiy tarmoqlari, tarmoq ichidagi yerdan foydalanishlarning tarkibi bilan bog'liqdir. Jamiyatning moddiy va boshqa turdagi boyliklariga doimiy o'sib borayotgan talabini ta'minlash ko'p jihatdan uni yerdan foydalanishining tarkibiga bog'liqdir. Shuning uchun ham uning barcha darajalaridagi yerdan foydalanishlar tarkibini maqbullashtirish yer munosabatlarini namoyon bo'lishining shakllaridan biridir.

Qishloq va o'rmon xo'jaligida yerdan foydalanish tuproq unumdorligi bilan bog'liqdir. Tuproq unumdorligini iste'moli uni qayta tiklashni obyektiv tarzda talab qiladi. Bu birlik maydondan mumkin qadar ko'proq mahsulot olish maqsadida kengaytirilgan takror ishlab chiqarish maxsus tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan erishiladi. Bu ham yer munosabatlarini namoyon bo'lishining shakli hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda yer turlari va ekin maydonlarining tarkibi bilan qishloq xo'jalik mahsulotlarining turlari va xajmlari, uning tannarxi, ishlab chiqarishning rentabelligi, foyda va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar uzviy bog'liqdir. Bular ham yerlardan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha yer munosabatlarini namoyon bo'lish shakli hisoblanadi.

Yerdan foydalanishning pullilik tamoyili yer solig'i, ijara haqi, yer uchastkalarini ajratishda o'rnini qoplash, ijara huquqining garovi asosida kreditlar, yer uchastkalariga umrbod merosiy egalik huquqining qiymati, Yerlarni kadastr qiymati kabi to'lov turlarini o'z ichiga oladi. Bular ham yer munosabatlarini namoyon bo'lishining shakli hisoblanadi.

Yer bozorini mavjud bo'lishi yoki yer uchastkasiga huquqlar sharoitida yer uchastkalari bilan yoki ularga bo'lgan huquqlar bilan harakatlar sodir etiladi: oldi-sotdi, sovg'a, almashish, garov, meros, ijara, foydalanish, qaysiki bular ham yer munosabatlarini namoyon bo'lishining bitta shakli bo'ladi. Bugungi kunda respublikada yer qonunchiligi asosida quyidagilar ruxsat berilgan: fuqarolar

tomonidan yer uchastkalariga umrbod egalik huquqini meros qilish; kreditlar olish maqsadida fermerlar tomonidan huquqini garovga qo'yish, dehqon xo'jaligini yuritish va uy-joy qurilishi uchun yer uchastkalarini umrbod merosiy egalik huquqi bilan konkurs asosida auksionlarda sotib olish. Noqishloq xo'jalik ishlab chiqarish va uy-joylar ahamiyatidagi yerlarni ko'zda tutilgan xususiylashtirishga kelsak, ular uchun bozor harakatlarining barcha turlari ruxsat etiladi.

Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining ratsional shakllaridan farqli o'laroq irratsional shakllarini ham ajratish mumkin. Yer tabiiy tarixiy tana sifatida, inson mehnatining mahsuli bo'lmaganligi sababli qiymatga ega emas. Demak, uning "baho"si yer munosabatlarini namoyon bo'lishining irratsional shakli bo'ladi. Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining ratsional va irratsional shakllari ana shunday.


Yer munosabatlarini namoyon bo'lishining boshqa qator xususiy shakllari ham mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: qishloq xo'jalik tabiiy rayonlashtirish, yer uchastkalarini ajratishda yo'qotishlarning o'rnini qoplash va boshqalar.

Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish jamiyat yerdan foydalanishini boshqarishning birinchi, ustuvor kichik tizimi hisoblanadi. Ushbu kichik tizimning muhimligi va o'ziga xosligi shundan iboratki, uning vositasida davlat yer siyosati amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan yer resurslaridan foydalanish va qayta tiklashning barcha qirralarini boshqarish amalga oshiriladi. Bundan tashqari, davlat ijtimoiy munosabatlarning, shu jumladan yer munosabatlarining bosh islohotchisidir.

Yer munosabatlari-bu jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos sohasi, u yerga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish bo'yicha huquq munosabatlaridagi (davlat, yuridik va jismoniy shaxslar) subektlar o'rtasida sodir bo'ladi. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish *siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va ekologik qirralarini* o'z ichiga oladi. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish amalda hamda maxsus adabiyotlarda, asosan ularning huquqiy qirradi nuqtai nazardan ko'proq qaraladi. Bizning fikrimizcha, bunday hol unchalik asoslangan yondoshuv emas. *Birinchi*dan, huquqiy qirradi asosiy belgilovchi bo'lishiga qaramasdan yer

huquqi munosabatidagi subektlarning harakatiga faqat huquqiy ta'sirini belgilaydi. ***Ikkinchidan***, yer munosabatlari eng avvalo yerga mulkchilik bilan bog'liq, nisbatan ancha chuqur iqtisodiy mohiyatga egadir. Ijtimoiy-yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlanishi hamda ekologik muammolarni kuchayganligi sharoitida yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning ijtimoiy va ekologik qirralari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yer munosabatlarini muvofiqlashtirish huquqiy qirralari bilan bir qatorda jamiyat rivojlanishining harakatidagi iqtisodiy qonunlari va tabiat qonunlaridan foydalanishga asoslanadigan, yuqorida sanab o'tilgan boshqa qirralarini ham albatta o'z ichiga oladi. Demak, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish qirralari yer resurslaridan foydalanishga o'zlarining ta'sirini ajralmas birlik holda, butun bir majmua holatida ko'rsatadi.

Yer munosabatlarining mavjud tizimini boshlang'ich sifatda qabul qiladigan bo'lsak, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning keyingi zaruriy o'zgarishlari yer munosabatlarini ham o'zgarishini talab qiladi, ya'ni yerdan foydalanish tizimi ham o'zgaradi. Jamiyat rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga mos zaruriy yerdan foydalanish tizimini yaratish muvofiqlashtirishning yuqoridagi sanab o'tilgan qirralarini hisobga olishga asoslangan yer munosabatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ular yer resurslaridan foydalanish tizimining zamonaviyligini, barqarorligini va samaradorligini ta'minlaganlari holda rivojlanib borayotgan jamiyatning talablariga muvofiq berilgan sifat va tarkibiy darajada yer munosabatlari va yerdan foydalanish tizimini ushlab turadilar. (24-rasm).



24-rasm. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish qirralari


Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish qirralari umumiy ta'sir ko'rsatibgina qolmasdan, bu ta'sir ma'lum bir nisbatlar va ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Bunda majmuadagi boshlang'ich qirradi iqtisodiy qirradi bo'ladi, negaki yer munosabatlarining markazi yerga bo'lgan mulkchilikdir, va yer-huquqiy munosabatlar shakllari masalalari esa hukumatning siyosiy nufuzi va qarorlarining natijasidir (25-rasm). Jumladan, respublikada noqishloq xo'jalik ishlab chiqarish mohiyatidagi yer uchastkalarini xususiylashtirish ko'zda tutilgan. Ushbu siyosiy qaror bilan yerga davlat mulkchiligiga asoslangan mavjud yer munosabatlari isloh qilinadi. Shu bilan bir vaqtda yerga mulkchilik shakli to'g'risidagi siyosiy qarorning qabul qilinishi, so'zsiz, jamiyatni doimiy o'sib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy talablarini maksimal tarzda qondirish talablari bilan aniqlangan, ya'ni birinchi navbatda iqtisodiy xarakterdagi talablar bilan aniqlangan. Shunday qilib, muvofiqlashtirishning siyosiy qirradi yer munosabatlari tizimining asosiy, fundamental iqtisodiy asoslarini yaratish uchun manbaani ta'minlaydi. Ular esa keyinchalik yerdan foydalanish tizimiga talab qilinadigan tartibni berish maqsadida boshqa qirralari bilan muvofiqlashtiriladi, ammo doimiy ravishda jamiyat rivojlanishining iqtisodiy sharoitiga asoslanadi. U uzoq vaqt davomida o'zgarmaydigan jamiyat yer munosabatlarining fundamental asoslarini barqarorligi, saqlanishi ta'minlanadi. Dekretlar qabul qilish, referendumlar o'tkazish va boshqalar uni amalga oshirish mexanizmidir. Yer munosabatlari va yerdan foydalanish asoslarini muvofiqlashtiruvchi siyosiy qirrasini amalga oshirishda davlatning roli benihoya yirikdir.

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning huquqiy qirradi deganda yer munosabatlari subektlari o'rtasida o'rnatilgan huquq munosabatlariga rioya qilish maqsadida yer huquqiy munosabatlari subektlarining aniq huquqiy rejimini o'rnatish vositasida yer munosabati ishtirokchilarining holatiga, yer munosabatlarini namoyon bo'lishining nufuzli shakllariga ta'sir ko'rsatish tushuniladi. Huquqiy munosabatlarining mazmuni esa, o'z navbatida, butun jamiyatni hamda alohida tarzda har bir yerdan foydalanuvchining manfaatlari uchun yer resurslaridan foydalanishda oldiga qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishga

bo'ysundirilgan. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning huquqiy qirrasini amalga oshirish mexanizimi bo'lib yer qonunchilik ijodi hisoblanadi. Ushbu funksiyaning asosiy vazifalari-mamlakat oliy qonunchilik organi-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ishlab chiqadigan yerdan foydalanish sohasida Qonunlarni tayyorlashdir.

Yerdan foydalanish sohasidagi Mamlakat Prezidentining Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari ham yer qonunchilik ijodiga kiradilar.

Muvofiqlashtirishning iqtisodiy qirrasib-u jamiyat rivojlanishining harakatdagi qonunlarini bilishga asoslangan yer munosabatlarini namoyon bo'lishining iqtisodiy shakllariga maqsadli yo'naltirilgan ta'siridir. Yer munosabatlari tizimida yerga mulkchilik munosabatlari o'ziga xos o'rinni egallaydi. Mulchilik, umuman hamda yerga bo'lgan mulchilik, xususan, nihoyatda muhim iqtisodiy toifa hisoblanadi. Yuqorida qayd qilindiki, yer mulchilikni ifodalash shakli-bu barcha turlardagi yer rentalarni o'z ichiga olgan renta munosabatlaridir. yer rentasi va yer solig'i, yerga baho va yer uchastkalariga huquqlarning qiymati, yerdan foydalanish samaradorligi yer munosabatlarini namoyon bo'lishining muhim iqtisodiy shakllaridir. Yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarining iqtisodiy qirralarini muvofiqlashtirish jarayonida ushbu shakllarga ta'sir amalga oshiriladi. Ba'zan yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning asosiy qirrasib bo'lib huquq keng o'rin oladi, negaki, ushbu qirrasib yer-huquqiy munosabatlarning qatnashchilariga yirik ta'sirini o'tkazadi.



25-rasm. Yer munosabatlari namoyon bo'lish shakllari va ularni muvofiqlashtirish qirralari

Ammo yer-huquqiy munosabatlari qatnashchilariga bo'ladigan bunday ta'sir uning asosiy maqsadi emas, u yerlardan foydalanish uchun maqbul iqtisodiy sharoitni ta'minlash maqsadida oshiriladi va yuqori miqdorlarda moddiy boyliklarni olish bilan namoyon bo'ladi. Demak, muvofiqlashtirishning iqtisodiy qirralari yer munosabatlari namoyon bo'lishini iqtisodiy shakllariga ta'sir etish vositasi bilan muvofiqlashtirishning barcha boshqa qirralariga obyektiv tarzda ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir yer munosabatlarining iqtisodiy shakllarini o'zining imkon boricha foydali

amalgaga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Aynan shu yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning iqtisodiy qirrasini chuqur, ustuvor rolidir.

Yerdan foydalanish tizimini boshqarishning quyidagi funksiyalari munosabatlarini muvofiqlashtirishning iqtisodiy qirrasining mexanizimi hisoblanadi: yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish, yer resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash, yer uchun to'lovlar (yer bozori va yerga huquqlarni qo'shgan tarzda), yer resurslarini qayta tiklash, yerdan foydalanishning samaradorligi.

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning ekologik qirrasiga talab yerni tabiiy majmuaning tarkibiy qismi sifatida egallagan o'rni bilan belgilanadi. Yer resurslaridan nooqilona va samarasiz foydalanishdan antropogen jarayonlar ta'sirini o'sib borayotgan intensivligi yerni tabiiy majmua sifatida o'zaro ta'sirini buzilishiga olib keladi. Yerlardan tizimsiz foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, shu jumladan, yerdan foydalanishdagi muhofaza tadbirlarini mensimaslik, nainki kengaytirilgan, hattoki resurslarni oddiy qayta tiklash jarayonining mavjud emasligi qishloq xo'jalik yerlari mahsuldorligini pasayishiga, ularni sho'rlanishiga va botqoqlanishiga, ifloslanishiga, yerning ustki tuproq qatlamining buzilishiga, yerlarni zararlanishiga va zaharlanishiga olib keladi. Yerdan foydalanish amaliyoti ro'y-rost ko'rsatmoqdaki, keyingi yillari yer resurslaridan foydalanishda bunday salbiy jarayonlar kuchaymoqda. Muvofiqlashtirishning ekologik qirrasini yer munosabatlari tizimini unday takomillashtirishga (to'g'rilashga) qaratilganki, bunda birinchidan, yer resurslaridan foydalanishdagi mavjud salbiy jarayonlarini tugatish, ikkinchidan, ularni ekologik holatlari nuqtaiy nazaridan anchagina to'la, oqilona va samarali foydalanishni ta'minlaydi. Yer resurslarini qayta tiklash, yer monitoringi va yerdan foydalanishni nazorati, yerlarni muhofaza qilish singari yerdan foydalanish tizimini boshqarishning funksiyalari yer munosabatlarini muvofiqlashtirishni ekologik qirrasining mexanizmlari hisoblanadilar.

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish kichik tizimi hamda yer resurslaridan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish kichik tizimlari turlicha maqsadli mohiyatga ega bo'lganliklari sababli yerlardan foydalanishni boshqarish funksiyasi ikkita guruhga

bo‘linadi (24-rasmga qarang). Bu ba’zi funksiyalar yerdan foydalanishni boshqarishning ham birinchi, ham ikkinchi tizimlarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Yer munosabatlarini muvofiqlashtirishning asosiy funksiyalari quydagilardir:

- yer qonunchilik ijodi;
- yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish;
- yerlarni tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlash;
- yer kadastri;
- yer tuzish;
- yerdan foydalanishga to‘lovlar mexanizmi.

Bilimni anqlash uchun savollar:

- 1.Yer munosabatlariga qanday tushuncha beriladi?
- 2.Yer munosabatlarini rivojlanish qonuniyatlarini aytib bering?
- 3.Xo‘jaliklar ijtimoiy-iqtisodiy shakllari va ular maydonlarini iqtisodiy munosabatlar xarakteriga moslik qonunining mohiyati qanday?
- 4.Yerlarni doimiy va proporsional taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi qonunining mohiyati qanday?
- 5.Yer maydonlarini bir joyga to‘plash qonunining mohiyati qanday?
- 6.Yer resurslarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish (qayta tiklash) qonunining mohiyati nimadan iborat?
- 7.Real hayotda yer munosabatlarini namoyon bo‘lish shakli nima?
8. Yer munosabatlarini namoyon bo‘lish shakillarini sanab bering?
9. Yer munosabatlarini muvofiqlashtirish qirralarini aytib bering?
- 10.Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish funksiyalarini sanab bering?

3.5 O‘zbekistondagi yer islohotlarining mazmuni

O‘zbekistonda milliy mustaqillikka erishish hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tilishi sharoitida keng miqyosdagi iqtisodiy islohotlar boshlandi. Ular yer munosabatlarini tub isloh qilishga, ya’ni yer islohotlarini o‘tkazishga obyektiv zaruriyat tug‘dirdi. Mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar davlat mulkchiligiga, markazlashgan, ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotiga asoslangan oldingi iqtisodiy munosabatlarni yangi, bozor munosabatlariga almashtirishga yo‘naltirildi. Islohot jarayonida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, xo‘jalik yuritishni turli-tuman tashkiliy-huquqiy shakllarini rivojlantirish, yerga mulkchilik shakllari va huquq turlarini rang-barangligini ta’minlash, yer va ko‘chmas mulk bozorini yaratish va boshqa qator masalalar amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov qayd qiladi: “.....markazlashgan, ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish-bu xo‘jalik yuritishning eski mexanizmlarini modernizatsiyalash yoki takomillashtirish emas, bu-bitta sifat holatidan ikkinchisiga o‘tkazishdir”[27]. Shunday qilib, bu yerda xo‘jalik yuritish mexanizmini bitta fragmentli yoki qalbaki o‘zgartirish emas, balki chuqur iqtisodiy islohotlar to‘g‘risida, oldingi mavjud iqtisodiy munosabatlarni tubdan isloh qilish to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Yer munosabatlari uning eng muhim o‘ziga xos sohasi bo‘lganligi sababli ularni o‘zgartirish iqtisodiy islohotlarining obyektiv zaruriyatidir. Shuning uchun nazariy jihatdan ham amaliy jihatdan ham bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishning mohiyatini o‘rganish, ular qonuniyatlarini, bosqichlari va xususiyatlarini aniqlash juda muhimdir.

“Islohot” termini qat’iy ma’noda “o‘zgartirish, o‘zgarish, mavjud ijtimoiy tartib asoslarini yo‘q qilmaydigan, ijtimoiy hayotning qandaydir bir tomonini qayta qurish, deb tushiniladi”[29]. Zamonaviy ta’limotlarga ko‘ra islohot-“tubdan qayta yaratish, o‘zgartirish, qayta qurish, iqtisodiy siyosatning srategik maqsadlarini amalga oshirish mexanizimidir. Islohotni o‘tkazishda, strategik siyosiy o‘zgarmagan holda, iqtisodiy siyosatning maqsadi tubdan o‘zgaradi”[29]. Sharq mamlakatlari sharoitida umuman

demokratlashtirish jarayonining rivojlanish xarakateri va xususiyatlarini tahlil qilgani xolda respublika Prezidenti I.A.Karimov yozadi: “Islohot-bu ham qayta tashkil etish, ammo ushbu jamiyatga va insoniyatning oldingi tajribalariga asoslangan ancha organik tarzda o‘zgartirishdir”[26]. Demak, yer islohotiga nisbatan huloa qilish mumkinki, mamlakatdagi yerdan foydalanishning tarixiy tajribalari va an’analarini hisobga olgan holda jamiyatdagi ilg‘or o‘zgaruvchan (islohot qilinayotgan) iqtisodiy munosabatlarga mos tarzda amalga oshirilayotgan yer islohotlari oldingi yer munosabatlariga nisbatan ancha-muncha ilg‘or o‘zgarishlardir.

Yer islohotining mohiyati asosan yer munosabatlarining mohiyatiga uning qanday qirralari (tomonlari) hamda uning o‘zi qay darajada tegib o‘tishi va o‘zgartirilishi bilan aniqlanadi. Yer islohoti jarayonida yer munosabatlarini mohiyatining alohida qirralari yoki bo‘lmasa uning chuqur mazmunini o‘zgartirish mumkin.

Har bir mamlakatda, uning ijtimoiy rivojlanish xarakteriga, an’analariga bog‘liq, ma’lum bir qonuniyatlar va tamoyillarga mos tarzda rivojlanayotgan yerdan foydalanishning ma’lum bir tizimi mavjuddir. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishiga qadar hamda hozirgi kungacha O‘zbekistondagi yer munosabatlarining mohiyatini yerga davlat mulkchiligi tashkil etadi. Mulchilikni ushbu tipda bo‘lishining asosiy argumenti-bu o‘z vaqtida yerlarni musodara qilinishi, yerdan foydalanishni kollektiv xarakteri, ya’ni xo‘jalik yuritishning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy shakllari-kolxozlar va sovxozlar, keyinchalik esa qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlar)ning mavjud bo‘lganligidir. Bu yerda yer-suv munosabatlari nihoyatda bir-biri bilan bog‘lanib ketgan. Ular davlat tomonidan muvofiqlashtirilgan hamda muvofiqlashtirib kelinmoqda. Yuqori tovar ekini hisoblangan paxtani etishtirish yirik va murakkab sug‘orish tarmoqlarini hamda dala jarayonlarini mexanizatsiyalash uchun shularga mos hududiy sharoitlarni talab qilgan. Bu esa, o‘z navbatida yerga, suvga va sug‘orish tarmoqlariga mulchilikning davlat shakliga asoslangan, maydonlari bo‘yicha yirik xo‘jaliklarni yaratish zaruriyatini tug‘dirgan. Darhaqiqat, o‘tkazilayotgan yer islohotining mohiyatiga nisbatan quyidagilarni huloa qilish mumkin: o‘tish davridan buyon u mamlakatdagi yerdan foydalanishning alohida

muhim qirralarini o'zgartirdi, bunda 2009 yilga qadar yer munosabatlarining eng chuqur mohiyati o'zgarimasdan qoldi. Ammo mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish yer munosabatlarini chuqur isloh qilishni obyektiv tarzda talab qildi. Iqtisodiyotni va jamiyat faoliyatining boshqa sohalarini dinamik hamda barqaror rivojlantirish zaruriyati yer munosabatlarining eng markaziy qismini-yerga mulkchilik munosabatlarini isloh qilishini talab qiladi.

Mamlakatda iqtisodiy o'zgarishlarning boshlanishidan buyon yer islohotining asosiy mazmuni va bosqichlarini ko'rib chiqamiz. Uning boshlang'ich bosqichidagi muhim tarkibiy qismi-bu yerlarni ajratish, asosan sug'oriladigan yerlarni ajratish hisobiga respublika fuqarolarining tomorqa yer uchastkalari moydonlarini keskin oshirish va bog'dorchilik-uzumchilik uchastkalari uchun yer ajratib berish bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonini (1989yil 15 avgustdagi) amalga oshirish umuman islohot uchun muhim siyosiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan, negaki bu, ".....aholining ishsiz qismini mehnatga jalb qilish, ...ishsizlikni o'sib ketish havfini yo'qotish, aholini real daromadlarini o'stirish, hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, industrial uy-joy qurilishi masshtablarini ancha kengaytirish, respublika ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash"⁵ imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risidagi qonuni" (1990y) Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar kengaytirish, yerdan foydalanishni pullilik tamoyillari kabi yerdan foydalanishga prinsipial yangiliklarni o'z ichiga oldi. "Dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va respublikadagi tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvatlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991yil 29.11.dagi Farmonida mamlakatda xususiy Yerdan foydalanishni rivojlantirishga huquqiy asos yaratildi hamda ushbu maqsadlar uchun yer fondidan 200 ming gektarga yaqin yer ajratilishi ko'zda tutildi. Yer islohotlarining boshlang'ich bosqichida sovxozlarni xo'jalik yuritishning istiqbolsiz shakli sifatida qayta tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Buning natijasida 1995 yilga kelib ular xo'jalik yuritishning kollektiv, aksiyadorlik va ijara shakllariga o'zgartirildi. Aynan ushbu davrda paxta ekinlarining solishtirma miqdorlari (50-60 % gacha) qisqartirildi va mamlakatda don mustaqilligini ta'minlash

maqsadida bir vaqtning o'zida g'alla ekinlarining maydonlari ko'paytirildi. Bir vaqtning o'zida mamlakatda yangi yerlarni o'zlashtirish hamda mavjud sug'oriladigan yerlarni rekonstruksiya qilish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining "Yer solig'i to'g'risida"gi qonuni qabul qilinganidan so'ng (1993y) mamlakatda 1994 yildan boshlab aholi punktlari va sanoat toifalaridagi, 1995 yildan boshlab esa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi toifalaridagi yerlardan foydalanishlarga haq to'lash tamoyilini joriy etish boshlandi. Ushbu maqsadlar uchun qishloq xo'jalik yerlarida tuprov bonitirovkasi hamda shaharlar va panyolalar hududlarini soliq mintaqalari bo'yicha mintaqalash o'tkaziladi.

Iqtisodiy islohotlarni yagona chuqurlashtirish yerdan foydalanishning qonunchilik asoslarini tubdan yangilashni talab qildi. O'zbekiston Respublikasining YER kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati) to'g'risida"gi, "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi, "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi, (30.04.1998y) Qonunlari qabul qilindi. Ushbu vaqtga kelib respublikada qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shakllari-qishloq xo'jalik kooperativlari (Yerga ulush nisbati bilan) hamda mustaqil xususiy yerdan foydalanishga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari yaratildi. 2000 yilga kelib kolxozlarni qishloq xo'jalik kooperativlariga, fermer xo'jaliklari va ijara jamoalariga aylantirish tugadi, dehqon xo'jaliklari yer egaliklari ancha mustahkamlandi. Yer islohotlarini tezlashtirish hamda mamlakatda yerdan foydalanishni samarali boshqarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo'mitasi tashkil etildi (1998y). Iqtisodiy islohotlar boshlanishidan buyon mamlakat yerdan foydalanishida o'tkazilgan o'zgarishlar yer resurslaridan foydalanishning samaradorligiga kuchli turtki berdi, qishloq xo'jalik korxonalaridagi taqsimlash tizimini tugatdi, mamlakatda xususiy yerdan foydalanishga yo'l boshladi, yerdan foydalanishga bozor tamoyillarini kiritishga imkon berdi, amalda buni yer islohotining alohida bosqichi deb ajratish mumkin.

1999-2000y.y. davlat yer kadastri doirasida mamlakatda rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida yer munosabatlari subektlari huquqlarini davlat tomonidan

muhofaza qilish, shuningdek, tugʻilayotgan koʻchmas mulk bozorini zaruriy axborotlar bilan taʼminlash maqsadida yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni roʻyxatga olish ishlari boshlandi. Yer-kadastr axborotlarining kompyuterli avtomatlashtirilgan tizimi (EKAKAT) ni yaratish boʻyicha tajriba ishlari boshlandi. Yerlardan foydalanishni tartibga solish, va ayniqsa, birdaniga yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni roʻyxatga olish bilan aholi punktlari va sanoat toifalari Yerlaridan foydalanishni tartibga solish boʻyicha yirik hajmlardagi ishlar oʻtkazilmoqda. Tuproq bonitirovkasi va yerlarni iqtisodiy baholash boʻyicha hujjatlar tayyorlandi va yangilandi.

Shu vaqtdan boshlab respublikada ishlab chiqarish tajribasi tariqasida qator zarar koʻrib ishlayotgan va rentabelligi past qishloq xoʻjalik kooperativlari fermer xoʻjaliklariga aylantirila boshlandi. Islohotning ushbu davrida uncha yirik boʻlmagan oʻlchamlarda yangi yerlarni meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha yirik hajmlardagi ishlar boshlandi, gʻalla ekinlarining maydonlari ancha kengaytirildi (2000-2005 yillarga moʻljallangan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash dasturi). bir vaqtda, bir tomondan, kooperativlar (shirkatlar) faoliyatining samarasizligi, hamda xoʻjalik yuritishning ilgʻor shakli-fermer xoʻjaliklarining tezlik bilan rivojlanib borayotganligi, ikkinchi tomondan, qishloq xoʻjalik korxonalarini yanada qaytadan tarkiblash zaruriyatini tugʻdirdi. 2003yil 24 marta Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3226 sonli “Qishloq xoʻjaligidagi islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yoʻnalishlari toʻgʻrisida”gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonga binoan 2004 yildan boshlab barcha qishloq xoʻjalik korxonalarini qishloq xoʻjalik Yerlaridan foydalanishning ijara shakliga oʻtishi koʻzda tutildi, shuningdek yaqin yillarga fermer xoʻjaliklarini rivojlanish Konsepsiyasini ishlab chiqish vakolatli organlarga topshirildi. Ushbu Konsepsiya Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3242-sonli “2004-2006 yillarga fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni qabul qilindi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003yil 30 oktyabrdagi 476-sonli, “2004-2006 yillarga fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasini amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori bilan esa 2004-2006 yillari belgilangan shirkat xoʻjaliklarini

qayta tashkil etish hamda ular orasida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish bo‘yicha aniq tadbirlar ishlab chiqildi. Shuni qayd qilish kifoyaki, 2006yil 1.05 ga respublikada 175 mingdan ortiq fermer xo‘jaliklari faoliyati ko‘rsatgan. 2007 yilga kelib qolgan shirkat xo‘jaliklarini ham qayta tashkil etish nihoyasiga etdi, natijada mamlakatdagi fermer xo‘jaliklarining soni 217 mingga yaqinni tashkil etdi.

Yerdan foydalanish, geodeziya va kartografiya sohalarida boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish va oqilona Yerdan foydalanishni ta‘minlash, davlat kadastrlarining yagona tizimini yuritish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktyabrdagi PF-3202-sonli Farmoni bilan tugatilgan O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari Davlat qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastr Bosh boshqarmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr Davlat qo‘mitasi (O‘zyergeodezkadastr) tashkil etildi. Bunda yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishini ta‘minlash, yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish davlat nazoratini amalga shirish, tuproqlar unumdorligini ashirish bo‘yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, davlat yer kadastrini yuritish O‘zyergeodezkadastrning asosiy vazifalaridan biridir, deb aniqlandi.

Ko‘p profilli idorani yaratish o‘zining ijodiy tomonlari bilan birga yerdan foydalanish, geodeziya va kartografiya, yer munosabatlarini muvofiqlashtirish va oqilona yerdan foydalanishini ta‘minlash, davlat kadastrlarining yagona tizimini yuritish sohalarida boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha, fikrimizcha, ma‘lum kamchiliklarga ham egadir. Yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, yerdan foydalanish tarkibini va ayniqsa qishloq xo‘jalik yerlaridan foydalanish tarkibini maqbullashtirish bo‘yicha davlat siyosatining yo‘qligi, tuproqlar unumdorligini pasayishini davom etayotgan jarayon, yer resurslarini maqsadga muvofiq qayta tiklash bo‘yicha maxsus dasturning yo‘qligi, davlat yer kadastrini, ayniqsa, shaharlar va posyolkalarda yuritish muammolarining mavjudligi, yerdan

foydalanish samaradorligini to'la mamlakat bo'yicha, qisman faoliyat sohalari va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha, baholash metodologiyasi va uslubiyatini mavjud emasligi, yerdan foydalanishda qator boshqa muammolarning mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Tashkil etilgan fermer xo'jaliklar o'zlarining o'lchamlari bo'yicha yer-suv resurslaridan, qishloq xo'jalik texnologiyalaridan samarali foydalanish talablariga javob bermadi, ekin maydonlarining o'lchamlari ishlab chiqarishning yuqori rentabelligini ta'minlamadi. SHu sababli 2008-2009 yillar respublikada fermerlar yer uchastkalarini yiriklashtirish amalga oshirildi. Buning natijasida ular maydonlari 2-3 barobar o'sdi va ekin yerlarining maydonlari 40-80 gektarga etdi. Yer uchastkalarini kengaytirish bilan bir vaqtda qishloq xo'jalik texnologiyalarini sotib olish uchun kreditlar ham ajratildi. Bu hol ishlab chiqarishga va moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Haqqoniy ravishda e'tirof etish mumkinki, nihoyasiga etkazilgan qishloq xo'jali korxonalarini qayta tarkiblash hamda xo'jalik yuritishning ilg'or tashkiliy-huquqiy shakli-fermer xo'jaliklarini yaratish, shuningdek dehqon xo'jaliklarini mustahkamlash jarayoni yer islohotining muhim bosqichini-mamlakatda yer-agrar munosabatlarini isloh qilishni yakunlaydi. Iqtisodiy o'zgarishlar boshlanganidan buyon yer islooti agrar xarakterga ega bo'lgan, negaki agrar sohani isloh qilishga ustunlik roli berilgan edi. Shunday qilib, respublikada bugungi kunda yer-agrar munosabatlar qishloq xo'jalik yerlariga davlat mulkchiligiga hamda ijara shklida foydalanishga asoslanadi. Qishloq xo'jaligi yuritishning asosiy tashkiliy-huquqiy shakllari fermer xo'jaliklari (asosiy tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar) va dehqon xo'jaliklari (mayda tovar xo'jaligi) hisoblanadi. Fermer xo'jaliklari 10 yildan 50 yilgacha muddatga ijaraga olingan, yer ijarasi shartnomasini keyinga cho'zish huquqidagi yerda tashkil topadi. Dehqon xo'jaliklari eng yaqin qarindoshlariga meros qilinadigan egalik huquqini berish bilan oila boshlig'iga umrbod merosiy egalikda beriladigan yer uchastkasida tashkil topadi. Shu bilan bir vaqtda qishloq xo'jaligida urug'chilik va naslchilik yo'nalishlaridagi uncha ko'p bo'lmagan shirkat xo'jaliklari ham faoliyat ko'rsatadi. Suv, temir yo'l va boshqa qator xo'jaliklardagi

xizmatchilarida bo'lgan yer bo'laklari muddatli foydalanish huquqida foydalaniladi. Fuqarolardagi yakka tartibdagi bog' (dacha) uchastkalariga xususiy mulkchilik mavjud emas.

Yerdan foydalanishni isloh qilish bo'yicha hukumatning keyingi vazifalari faoliyatning sanoat va uy-joy sohalarida yer munosabatlarini tubdan isloh qilishdan iborat bo'ldi. Bu yer islohotining yangi, uchinchi bosqichidir. Sanoatda, transportda, uy-joy sektorida investitsiyalarni ko'paytirishga talab, mamlakat iqtisodiyotida xususiy mulkchilik ulushining ko'payishi, tadbirkorlik faoliyatini jadallashtirish ishlab chiqarish va uy-joy (yakka tartibdagi) ahamiyatdagi yerlarni xususiylashtirishni talab qildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 iyulidagi PF-3780-sonli Farmoni bilan ishlab chiqarish mohiyatidagi obyektivlar tagidagi yerlarni xususiylashtirish 2007yil 01.01dan va yakka tartibdagi uy-joylar tagidagi yerlarni 2008yil 01.01dan boshlash belgilandi. Ushbu Farmon hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining keyingi, 2006yil 26.07dagi qarori bilan respublikada yerlarni xususiylashtirish bo'yicha Yergeodezkadastr Davlat qo'mitasining vazifalari belgilandi.

Shunday qilib, respublikada o'tkazilayotgan yer islohotining asosiy mazmuni quydagilardan iborat bo'ldi. Yagona yer fondining toifalari o'rtasida, xalq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida va yer-huquqiy munosabatlarining su'bektlari o'rtasida yerlarni qayta taqsimlash, qishloq xo'jalik korxonalarini qayta tashkil etish, xususiy yerdan foydalanishni joriy etish, yerdan foydalanishda haq to'lashni joriy etish, yerga bo'lgan xuquq turlarini tenglashtirish, yerdan foydalanuvchilarni yerlarni tasarruf etishning qator huquqlari bilan qurollantirish, fermer xo'jaliklari uchun zahira yer fondini ajratish, xo'jalik yuritishning yangi shakllari maydonlarini asoslash, ular chegaralarini belgilash va maydonlarini tashkil etish, yerdan foydalanishlarni tarkibga keltirish va yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish, ekin maydonlari tarkibini o'zgartirish va ularni hisob-kitob qilish, yer resurslarini qayta tiklash, inistitutsional o'zgarishlar, me'yoriy hujjatlar hamda yerdan foydalanish sohasidagi qator boshqa ilg'or yangiliklar. Mamlakatda boshlangan iqtisodiy o'zgarishlar asosida o'tkazilayotgan yer islohotlari yerdan foydalanishning mazmun

va mohiyatini tubdan o'zgartirdi, yer munosabatlarining mohiyati-yerga bo'lgan mulkchilik munosabatini isloh qilishni ko'zda tutadi. Yerga davlat mulkchiligi bilan bir qatorda xususiy shakli ham joriy etiladi. Hukumatning ushbu siyosiy qarori O'zbekiston yerga bo'lgan mulkchilikning tupli shakllarini joriy etishini boshlanishi bo'ladi.

O'tkazilayotgan yer islohotining mazmunida uning alohida ba'zi-bir xususiyatlarini ajrati maqsadga muvofiqdir. Birinchi xususiyati shundan iboratki, bu uning tarkibiga ega ekanligi, bosqich xarakteridir. U bitta xo'jalik yuritish shaklidan boshqa, ikkinchisiga birin-ketinlikda o'tishi bilan qayd qilinadi, natijada yer islohotini o'zini qator bosqichlariga imkon yaratadi: sovxozlarni tugatish, kolxozlarni tugatish, xo'jalik yuritishning yangi shakllarini-kooperativlar, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish. Islohotning ikkinchi xususiyati-bu mavjud jamoa va shaxsiy (tomorqa uchastkalari) yerdan foydalanish bilan bir qatorda respublikada xususiy yerdan foydalanish (fermer xo'jaliklari)ni joriy etilishidir. Yer va suv munosabatlarini isloh qilishni o'zaro uzviy bog'liq xolda amalga oshirishini yer islohotining navbatdagi xususiyatiga kiritish zarur. Yer islohoti davomida yer munosabatlari bozor xarakterini oldi: Yerdan foydalanishga to'lov joriy qilinishi, xususiy yerdan foydalanish, yerga xususiy mulkchilikni hamda yer bozorini joriy etish rejalashtirilmoqda, ijara yer munosabatlari joriy etildi.

Navbatda qisqa muddatlarda yer munosabatlarida o'tkazilgan ilg'or o'zgarishlar mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarga nihoyatda yirik ta'sir o'tkazdi va ularni o'zgartirdi hamda, so'zsiz, yer munosabatlarini "oddiy yoki operativ" muvofiqlashtirish chegarasidan chiqarib yubordi. Bunda mamlakatdagi iqtisodiy islohotlar davom etmoqda, bugungi kunda ularni yanada chuqurlashtirish bosqichi ketmoqda. Demak, yer islohotlari ham davom etmoqda. Barcha o'zgarishlardan asosiy maqsad-ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishdir. Uning asosiy komponenti ko'chmas mulk, shu jumladan yer bozori bo'ladi. Davom etish mumkinki, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish davrida yerga mulkchilik munosabatlari masalasi ushbu yerlarga davlat mulkchiligi saqlanib qolgan holda qishloq xo'jalik yerlariga uzoq muddatli ijara huquqining bozorini istiqbolda

yaratish imkoniyatlarini o‘zida jamlangan tadqiqotlar va o‘zaro almashuvlar predmeti bo‘ladi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. O‘zbekistonda yer islohotlarini amalga oshirishning manbaasi nima bo‘lgan?
2. “Yer islohoti” terminining mazmuni nima?
3. Yer islohotining mohiyati nima?
4. Respublikadagi yer islohotining bosqichlarini sanab bering.
5. Yerdan foydalanishning qonunchilik asoslarini yangilash o‘z ichiga nimalarni oladi?
6. Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatga olishning mohiyati nima?
7. Qishloq xo‘jalik korxonalarini qayta tashkil etish nima?
8. Respublikada fermer xo‘jaliklarini yaratish Konsepsiyasining mohiyati qanday?
9. Ishlab chiqarish va uy-joy obyektlari tagidagi fuqarolar yer uchastkalarini bo‘lg‘usi xususiylashtirishning mohiyati qanday?
10. O‘zbekistondagi yer islohotlarining xususiyatlarini sanab bering.

3.6 Suv resurslaridan foydalanishni boshqarishning asosiy masalalari

Markaziy Osiyo regionining bosh suv tarmoqlari Amudaryo va Sirdaryo daryolaridir. Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon va boshqa davlatlararo daryolar suvidan foydalanish hududiy davlatlararo kelishuvlar asosida belgilanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida suv resurslarini taqsimlash 1983-1984 yillari ishlab chiqilgan “Amudaryo va Sirdaryo daryolari basseynining SRKFM sxemasi”ga sobiq Ittifoq suv xo‘jaligi Vazirligining 1986 yilgi 566-sonli “Amudaryo daryosi basseynining suv resurslarini taqsimlash to‘g‘risida”gi Bayonnomasi hamda 1992 yil fevral oyida Olmaota shahrida davlat boshliqlari tomonidan imzolangan Markaziy Osiyo Respublikalari Davlatlararo kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Asosiy daryolardan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun suv hajmlarini ulushli taqsimlanishi 15-jadivalda va 26-rasmda keltirilgan. Davlatlar darajasidagi masalalarni hal qilish

uchun Orolni qutqarish Halqaro Fondining yagona tarkibi hisoblangan suv xo‘jaligini koordinatsiyalashning Davlatlararo Hay’ati ta’sis etilgan hamda bugungi kunda mavjuddir.

15-jadval

Suv resurslarini taqsimlanishi, km³

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekiston	Turkma- niston	Qirg‘i- ziston	Toji- kiston	Qozo- g‘iston	Afg‘o- niston	Jami
Sirdaryo basseynidagi iste‘mol	17,78	-	4,03	2,46	12,29	-	36,06
Amudaryo basseynidagi iste‘mol	38,91	21,73	0,38	9,88	-	7,44	78,34

Regional darajada Markaziy Osiyo regionining barcha davlatlari uchun majburiy hisoblangan Orol dengizi va daryo deltalariga suvni o‘tkazib yuborish hamda daryo suvlaridan foydalanish bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi.


O‘zbekistonda suv resurslarini boshqarishning milliy siyosati O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi (1993y), “Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi (1993y), “Gidrotexnik inshootlarni xavfsizligi to‘g‘risida”gi (1999y), “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (2005y) qonunlar, boshqa qonunlar va qonunosti me‘yoriy hujjatlar asosida shakllanadi. Respublikada suv munosabatlarini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarning maqsadi quyidagilarni ta‘minlashga qaratilgan:

- aholini yashashi uchun maqbul sharoitlar;
- barqaror rivojlanish uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;
- tabiatdan foydalanish sohasida halqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

Iqtisodiy islohotlar sharoitida mamlakat xalq xo'jaligi tarmoqlarini suv bilan to'xtovsiz ta'minlashni muhim arteriyasi sifatidagi suv xo'jaligi tizimiga ayniqsa alohida e'tibor berilgan. O'zbekistondagi o'tish davrining nihoyatda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida davlat byudjeti hisobiga respublika suv xo'jaligi tizimini normal faoliyat ko'rsatishi asosan saqlab qolindi:

- O'zbekiston Respublikasi geologik va mineral resurslar bo'yicha Davlat qo'mitasi-yer osti suvlari;

- O'zbekiston Respublikasi sanoatda va tog'-kon ishlarni xavfsiz olib borilishini nazorat qilish bo'yicha Davlat inspeksiyasi-o'z vakolatlari doirasida termal va mineral suvlar.



26-rasm. O'zbekiston hududida shakllanadigan suv resurslari.

Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish deganda suv resurslariga egalik, foydalanish, tasarruf qilish, ularni muhofaza qilish, suvdan foydalanuvchilar huquqini himoya qilish, mamlakat sug'orish tarmoqlarini normal holati hamda normal ishlashi to'g'risidagi qonunchilik talablari bajarilishini ta'minlash bo'yicha vakolatli organlar,

vakillik qilingan shaxslar, jamoat tashkilotlarining maxsus harakatlari majmuasi tushuniladi.

Yerdan foydalanish singari, suvdan foydalanishning davlat boshqaruvi suv munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirishni hamda suvdan foydalanishni ma'muriy boshqaruvini (shu jumladan jamoat tashkilotlari tomonidan ham) o'z ichiga oladi:

1) Suv munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari bilan, vakolatli davlat qo'mitalari va vazirliklar tomonidan amalga oshiriladi. Suv munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni (1993 y) qabul qilingan. Unda O'zbekiston hududidagi barcha suvlar davlat mulkidir, suvdan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, shuningdek maxsus vakolati davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi, deb qayd qilingan. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunga binoan, suvdan foydalanishni boshqarishning vakillik qilingan davlat organlari qatoriga kiradi:

- O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi Vazirligi -ustki suvlardan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruvni amalga oshirish;

Suvdan foydalanish va muxofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining sanab o'tilgan organlarining faoliyati ularning Nizomlariga mos amalga oshiriladi.

2) Suvdan foydalanishni rejalashtirish va amalga oshirishni ta'minlovchi, to'g'ridan-to'g'ri korxonalar, muassasa va tashkilotlar suvdan foydalanishini ma'muriy ishlab chiqarish boshqaruvi.

3) Jamoatchilik boshqaruvi-suvdan foydalanish bo'yicha qarorlar qabul qilinishida, jamoatchilik ekologik ekspertizalashda va jamoatchilik nazoratida fuqarolar va jamoatchilik birlashmalarining ishtiroki; O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanishda"gi Qonunida jamoatchilik ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek jamoat ekologik nazoratini amalga oshirish

bo'yicha ushbu tashkilotlar takliflarini davlat organlari tomonidan hisobga olish yo'li bilan oqilona suvdan foydalanishni ta'minlashda jamoatchilik tashkilotlarini ishtirok etishi ko'zda tutilgan (10-modda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoniga binoan, QSXVning asosiy vazifalaridan biri suvdan foydalanishni boshqarish tizimini takomillashtirish, deb qabul qilingan. Bunday takomillashtirish boshqarishning ma'muriy-hududiy tamoilidan sug'orish tizimlarini boshqarishning basseyn tamoyiliga o'tishini, shuningdek suvdan foydalanishga bozor tamoyillarini tadbiq qilishni ko'zda tutadi (2003 y 24 mart, 3226-sonli). O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Suv xo'jaligini boshqarishni tashkil etishni tamakillashtirish to'g'risida"gi Qarori bilan sug'orish tizimlaridan boshqarishni ma'muriy-hududiy tamoyilidan basseyn tamoyiliga o'tish tartibi aniqlangan. Boshqarishning basseyn tamoyilini hisobga olgan holda QSXVning tashkiliy-hududiy tarkibi belgilandi (Suv xo'jaligi Bosh boshqarmasi), har bir tarkibiy bo'linmaning vazifalari, funksiyalari, huquqlari va faoliyatini tashkil etish tartibi aniqlandi (2003yil 21 iyul, 320-sonli). Natijada sug'orish tarmoqlarining 10 basseynli boshqarmasi yaratildi; Norin-Qoradaryo; Norin-Sirdaryo; Sirdaryo-Sox; Quyi Sirdaryo; Chirchiq-Oxongoron; Amu-Surxon; Amu-Qashqadaryo; Amu-Buxoro; Quyi Amudaryo va Zarafshon (27-rasm). Bundan tashqari, Farg'ona vodiyyida birlashgan dispecherlik markaziga ega bo'lgan mustaqil magistral kanallar tizimining Boshqarmasi tashkil etildi. Bunda yangidan tashkil etilgan sug'orish kanallarining basseynli boshqarmalari (SKBB)ning asosiy vazifalari quyidagilar qilib aniqlandi;

-suvdan foydalanishning bozor tamoyillari va mexanizimlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va oqilona foydalanishni tashkil etish;

-suv xo'jaligida yagona texnik siyosatini o'tkazish;


-ist'yemolchilarni uzluksiz va o'z vaqtida suv bilan ta'minlanishini tashkil etish;

-suv resurslarini oqilona boshqarish;

-suv resurslaridan foydalanishning haqqoniy hisobini va hisobotini ta'minlash va boshqa vazifalar.

QSXBning ishlab chiqarish-hududiy bo'linmalariga suv xo'jaligi obyektlarini, sug'orish va kollektor-zovur tarmoqlarini birlashtirish

T A R K I B I.



27-rasm. Suv xo'jaligi Bosh boshqarma bo'linmalariga sug'orish kanallarini va kollektor-zovur tarmoqlarini birlashtirish

Suvdan foydalanuvchilarning huquqiy rejimi o'rnatildi. Ular huquqlari ichida etkazib beriladigan suvni miqdori va sifatini tekshirish shartnoma bo'yicha olinmagan suv uchun o'rnini qoplash talabi ayniqsa muhimdir. Suvdan foydalanuvchilar majburiyatlari ichida suv obyektlaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, suvni iqtisod qilish, suv iste'moli limitiga rioya qilish kabilar muhimdir. Mamlakat suv tizimini zaruriy darajada ushlab turish uchun, limitlangan iste'mol bilan bir qatorda suvdan foydalanishda to'la yoki qisman to'lovni joriy etish ko'zda tutilgan.

Qishloq xo'jaligi suvdan foydalanuvchilarining majburiyatlari quyadagilardir:

- suvdan foydalanishning o'rnatilgan limitlariga me'yorlar, qoidalari va rejimiga rioya qilish, olinadigan suvning hisobini yuritish;

- ichki xo'jalik sug'orish va kollektor-zovur tarmoqlarini hamda ulardagi inshootlarni texnik soz holatida saqlash. Xo'jaliklararo tizimini soz holatida saqlab turish uchun suvdan foydalanuvchilar belgilangan tartibda irrigatsiya-melioratsiya ishlariga jalb qilinadi;

- meliorativ yerlarni kompleks rekonstruksiya qilish hamda ularning qishloq xo'jalik ekinlarini maqbul sug'orish rejimini ushlab turish;


- suvni tejash texnologiyalarini hamda ilg'or sug'orish texnikalarini joriy etish yo'li bilan sug'orish usullari va uslublarini takomillashtirish;

- suvdan foydalanish samaradorligini oshirish;

- suvdan foydalanish monitoringini yuritish.

Suv fondi yerlari, xo'jaliklararo kanallar va inshootlar yerlari, sug'oriladigan yerlar konturidagi yer osti suvlarini olish joylari, yerdan foydalanishning qanday mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yagona suv xo'jaligi tizimi sifatida ekspluatatsiya qilinadi hamda xususiylash tirilmaydi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish hamda fermer xo'jaliklarini tashkil etish xo'jaliklar yer uchastkalarini anchagina maydalashib ketishiga olib keldi. Buning natijasida qishloq xo'jalik korxonalarining oldingi ichki xo'jalik meliorativ tarmoqlari suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SIU) ixtiyoriga o'tdi, fermer xo'jaliklariga esa faqatgina uchastka tarmoqlari va zovurlar birlashtirildi.

Bugungi kunda mamlakat tizimini boshqarish QSHV ning suv xo'jaligi Bosh boshqarmasi hamda boshqarishning basseyinli tamoyili bo'yicha tashkil etilgani uchun hududiy bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatning suv basseyini to'g'ridan-to'g'ri suv xo'jaligi Bosh boshqarmasiga (QSHV SXBB) bo'ysunuvchi 10 sug'orish tarmoqlarining basseyinli boshqarmasiga bo'lingan. Sug'orish tarmoqlarining boshqarmalari (STB) tashkil etildi, ularga magistral kanallar Boshqarmalari to'g'ridan-to'g'ri bo'ysunadilar (28-rasm).



28-rasm. Suv xo'jaligini boshqarishning tashkiliy-hududiy tarkibi

Suv xo'jaligi Bosh boshqarmasi mamlakatda suv siyosatini ishlab chiqadi. U tomonidan suv resurslarining balansi tuziladi, suv manbalaridan olinadigan suvning limiti, shuningdek STBB dan olinadigan suvning limiti, suvdan foydalanuvchilar hisoblangan iqtisodiyot tarmoqlarining limiti belgilanadi.

Suv xo'jaligi obyektlari majmuasini takomillashtirish, uni zaruriy holda ekspluatatsiyasini ta'minlash, suv xo'jaligi obyektlarini ta'mirlash ishlarini tashkil etish (suv omborlari, irrigatsiya–melioratsiya tizimlari va inshootlari, nasos stansiyalari, quduqlar, EUL, aloqa liniyalari, transformatorlar, kichik stansiyalar) SXBB ning asosiy vazifalariga kiradi.

SXBB suv va meliorativ kadastrlarni yuritishni, sug'oriladigan yerlar va ularning meliorativ holatining hisobini amalga oshiradi, suv, energetika va boshqa madaniy- texnik resurslarni iqtisod qilish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi. STBBning muhim funksiyalaridan biri-mamlakat suvdan foydalanishida bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etishdir.

SXBB sug'orish kanallarini faoliyatini boshqarish suv xo'jaligi obyektlarini- suv omborlari, irrigatsiya–melioratsiya tarmoqlari va inshootlari, nasos stansiyalari,

quduqlar, EUL, aloqa liniyalari, transformatorlari, kichik stansiyalarni ta'minlash vositasida amalga oshiriladi, bunda shu bilan birga, sug'orish tarmoklarini ishonchli ishlashi uchun texnik va moliyaviy sharoit yaratiladi.

Sanab o'tilgan ishlarni moliyalash, shuningdek SXBB ishlab chikarish hodimlarini saqlab turish faqatgina davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu sarf-xarajatlar qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishga yunaltirilgan qishloq xujaligi davlat dotatsiyasi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishidan olinadigan daromadlar belgilangan hisobotlarda tovar ishlab chiqaruvchilar (fermer va dexqon xo'jaliklari)da tovar ishlab chiqaruvchilar asosiy suv xo'jaligi obyektlarini ish holatda ushlab turishga sarflanadigan harajatlarda ulush sifatida qatnashmaydilar. Bundan tashqari, asosiy suv xo'jalik obyektlarini zaruriy ishchi holatda ushlab turish bilan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning natijalari o'rtasida iqtisodiy aloqa (bog'liqlik) yo'k. SXBB ishlab chiqarish hodimlarini suv xo'jaligi obyektlarini aniq va ishonchli ishlashini ta'minlashdan manfaatlari mavjud bo'lmaydi.

Sug'orish tarmoqlarining baseynli boshqarmasi (STBB) SXBBga bo'ysunadigan, ishlab chiqarish-xususiy tashkilot sifatida irrigatsiya tizimlari va inshootlarini texnik jihatidan qayta qurollantirish, moderizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari magistral kanallar alohida yirik ahamiyatli suv xo'jaligi obyektlari, viloyatlar va tumanlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilash, resurslarni tejash texnologiyalarini, suvdan foydalanishning bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish xamda amalga oshirish kabi o'zining qator mahsulotlariga egadir.

Suv xo'jalik tizimini suv o'lchash va hisob qilish vositalari bilan ta'minlash, suv resurslaridan foydalanishni boshqarishda zamonaviy aloqa tizimlarini, avtomatika va telyemexanikani joriy etish, ularni meteorologik ta'minoti, irrigatsiya tarmoqlarini zaruriy darajada ekspluatatsiya uchun tayyorlash va doimiy ishchi holatida saqlash, suv resurslari balansini tuzish, STBB ning asosiy vazifalari hisoblanadi. SHu bilan birga STBB basseyn bo'yicha to'la holda suv olish va suvni etkazib berishning hisobi, magistral kanallar (tizimlar), sug'orish tarmoqlariga suv etkazib berishning hisobi, belgilangan limitlarga rioya qilish va suv resurslaridan

oqilona foydalanish bo'yicha nazoratni, basseyn bo'yicha suv kadastrini yuritishni amalga oshiradi.

STBB tomonidan sug'orish kanallarini ishlab turishini boshqarish sug'orish tarmoqlari va inshootlarni modernizatsiya qilish, rekonstruksiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish shakllarida amalga oshiriladi. Sug'oriladigan yerlarining maydoni bo'yicha eng quvvatli STBBga Quyi- Amudaryo (39ming km), Zarafshon (22ming km), Sirdaryo-Sox (21ming km) hisoblanadi.

Ushbu holatdagi xarajatlar sarfi suv xujaligi tizimlarini suv o'lchovi va hisobining texnik vositalari bilan qurollantirish, suv resurslaridan foydalanishni boshqarishda zamonaviy aloqa tizimlari avtomatika va telyemexanikani joriy etish hamda ularni metrologik ta'minoti bilan bog'lik. Asosiy suv xo'jaligi obyektlarini moliyalashdagi singari bu holatda ham boshqa manbaalardan va ayniqsa tovar ishlab chiqaruvchilar-suvdan foydalanuvchilar tomonidan qo'shimcha moliyalash mavjud emas shuningdek STBBning manfatlari bilan tavar ishlab chiqaruvchilar-suvdan foydalanuvchilar o'rtasida iqtisodiy bog'liqlik (aloqa) mavjud emas. Amaliyot ko'rsatadiki, sug'orish tarmoqlari va inshootlarini modernizatsiyalash qayta qurish hamda texnika jihatdan qayta qurollantirishga sarflanadigan harajatlar etarli emas. SHu sababli ham sug'orish tarmoqlarining texnik jihatidan qurollanishi qoniqarli emas.

Magistral kanallar boshqarmasi (MKB) STBB tomonidan tasdiqlangan limitlarga muvofiq STBga suv uzatishni amalga oshiradi, STB va suv hamda elektr energiyasi etkazib berish chun nasos stansiyalari, energetika va aloqa idoralari bilan shartnomalar tuzadi. MKB ichki tizim nasos stansiyalari va agregatlarni ekspluatatsiya rejimini o'rnatadi, suv xo'jaligining umumiy holatiga qarab sug'orish tarmoqlariga suv uzatish grafigini to'g'rilydi, suv xo'jaligi tizimini ishonchli ekspluatatsiyasini ta'minlaydi, tizim bo'yicha suv uzatish suv olishni hisobini amalga oshiradi, tizim bo'yicha suv resuslari balansini tuzadi, suvdan foydalanishga bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etishni ta'minlaydi.

MKB magistral kanallarni zaruriy daromadagi suv o'lchagich qurilmalari bilan ta'minlaydi, suv resuslaridan foydalanishni boshqarishda aloqa tizimlarini,

avtomatika va mexanikani joriy etadi va takomillashtiradi, kanallarni kapital va joriy ta'minlash bo'yicha majmualar ishlab chiqadi va ularni amalga oshiradi.

Magistral kanallarni ishchi holatida ularni texnik vositalar bilan ta'minlash va modernizatsiya qilish davlat va mahalliy byudjetlar hisobiga amalga oshiriladi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi tovar ishlab chikaruvchilar Ushbu ishlarni moliyalashda ulushli ishtirok etilmaydi. Davlat byudjetida bugungi kundagi moliyalash, aytish mumkinki, umuman etarli emas. Natijada magistral kanallarning aksariyat qismi o'zlarini qayta tiklashlarini talab qilmoqda. Bundan tashqari, ta'minlash va tozalash ishlarini amalga oshirish uchun MKB etarli idoralardagi meliorativ texnikaga ega emas.

Magistral kanallar ishlab turishning muhim jihati-bu suvni uzatish xarakteridir. Bu odatda ikki turli-o'z oqishi va mashina yordamida bo'ladi. Qayd qilish zarurki, ikkinchi holatda elektr-energiya iste'moliga yirik miqdorda harajat sarflanadi. Bu xususiyat suvni mashina yordamida uzatishdagi moliyalashni ko'paytirishni talab qiladi, shuningdek sug'orish tarmoqlarini ishlash samaradorligi va qishloq xo'jali mahsulotlarining tannarxiga ta'sir ko'rsatadi.

Sug'orish tarmoqlari boshqarmasi (xo'jaliklararo sug'orish kanallari yordamida)- STB suvdan foydalanuvchilar assotsiatsiyasiga ajratilgan suv limitini o'z vaqtida etkazib berishni amalga oshiradi, sug'oriladigan hududlarni (birlamchi va ikkilamchi suvdan foydalanishlarni qo'shgan holda) o'lchov asboblari bilan ta'minlaydi, suvdan foydalanish navbatlarini tashkil etadi, suvni iqtisod qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi, suvni etkazib berish bo'yicha birlamchi suvdan foydalanuvchilar o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiradi.

Xo'jaliklararo kanallarni zaruriy miqdordagi suv o'lchov asbob va qurilmalari bilan ta'minlashni boshqarishda aloqa tizimlarini, avtomatika va telyemexanikani joriy etish va takomillashtirish, kanallarni kapital va joriy ta'minlash bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish MKBning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari SIU ajratilgan milliy ikkilamchi suvdan foydalanuvchilarning suvdan foydalanish rejasini tuzadilar, ichki shartnomaga

muvofiq fermer va dehqon xo'jaliklariga maqsadli suv taqsimotini amalga oshiradilar, dalalar va sug'orish tomorqalaridan suvni yo'qotilishini oldini oladilar, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini, inshootlar va ulardagi suv o'lcho'v asboblari o'z vaqtida ta'mirlashni amalga oshiradilar.

SIU o'zlarida mavjud bo'lgan meliorativ texnikalardan foydalangan holda yoki ta'mirlash ishlarini bajarish uchun STB bilan shartnoma tuzgan holda ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash va tozalash ishlarini amalga oshiradi.

SIU ishlab chiqarish hodimlarini ushlab turish, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash fermerlar va dehqon xo'jaliklarining badallari hisobiga amalga oshiriladi. Ko'pincha badallar o'z vaqtida, to'la miqdorlarda to'lanmaydi, natijada bu hol ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarining sifati holatiga hamda SIU hodimlarning mehnatiga haq to'lashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SIU nodavlat va notijorat mamlakatdir, ularni moliyaviy manbaalari asosan sug'orish xizmatlari uchun assotsiatsiya a'zolarining badallari, SIU ishlab chiqarish hodimlari mehnatiga haq to'lash badallari, shartnoma asosidagi xizmatlarga haq to'lash (suvni transportirovkasi uchun to'lovlar), shuningdek davlat va boshqa manbaalardan bo'lishi mumkin bo'ladigan grantlardan iboratdir. Suvdan foydalanishni rejalashtirishda davlat suv kadastiri ma'lumotlarini, suv xo'jaliklari balanslarini, suvlardan kompleks foydalanish va muhofaza qilish sxemasi ma'lumotlarini hisobga olish zarur. Davlat suv kadastri bu miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha suvlarni hisob qilish, suvdan foydalanishni ro'yxatga olish va suvlardan foydalanishni hisobga olish ma'lumotlarning to'plamidir. Suv xo'jalik balanslari suvni mavjudligi va undan foydalanish darajasini baholash uchun daryolar basseynlari va iqtisodiy rayonlar bo'yicha tuziladi. Suvlardan kompleks foydalanish va muhofaza qilishning Bosh va basseynli (hududiy) sxemalari aholi va xalq xo'jaligini suvga bo'lgan istiqboldagi talablarini qondirish va sirlarini muhofaza qilish bo'yicha asosiy suv xo'jaligi va boshqa tadbirlarni aniqlaydilar. Suvlar manitorigi, shu jumladan yer osti suvlari monitoring bu o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, ularni baholash, ogohlantirish hamda salbiy jarayonlarni tugatish uchun suvlarning holatini kuzatish tizimidir.

O‘zbekiston Respublikasida suv monitoring davlat boshqaruvining maxsus vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi gidrometeorologiya xizmati Markazi O‘zbekiston hududidagi barcha suvlar monitoringni amalga oshiradi. Suv monitoringi alohida turlarini quyidagi organlar amalga oshiradilar.

-Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi- yer usti suvlari;

-O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resuslar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi- yer osti suvlari;

-sanoatda va tog‘- kon nazoratida ishlarni xavfsiz olib borishni nazorati bo‘yicha Davlat inspeksiyasi- termal va mineral suvlar.

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishni nazorati boshqarishni tarkibiy qismi bo‘lgan holda quyidagi turlarga bo‘linadi; davlat, idoraviy, ishlovchi qarshi va jamoatchilik. Suvdan foydalanish va muxofaza qilishning davlat nazoratini vazifasi barcha vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, korxonalar, muassasalar, mulkchilikning barcha turlaridagi tashkilotlar, fermer va dehqon xo‘jaliklari hamda fuqorolar tomonidan suvdan foydalanishni belgilangan tartibiga rioya qilinishini, suvlarni muhofaza qilish bo‘yicha majburiyatlarni bajarilishini, ularni zararli ta‘siridan ogohlantirishni tugatishni, suvlarni hisobini, yuritish tartibini, shuningdek suv qonunchiligida belgilangan boshqa qoidalarni ta‘minlashdan iboratdir. Suvdan foydalanish va muhofaza qilishning davlat nazoratini mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari, O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish Davlat qo‘mitasi, sanoatda va tog‘- kon nazoratida ishlarni xavfsiz yuritishni nazorati bo‘yicha Davlat inispeksiyasi, Sog‘liqni saqlash Vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi Vazirligi amalga oshiradilar. Suvdan foydalanishni idoraviy nazoratini O‘zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resuslar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi va boshqa vazirliklar hamda idoralar amalga oshiradilar. Ishlab chiqarish nazoratini suvdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining korxonalari, muassasalari hamda suvdan foydalanuvchilar amalga oshiradilar. Jamoatchilik birlashmalari, jamoalar o‘zlarining Nizomlariga muvofiq hamda fuqarolar suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga

haqlidirlar. Bundan tashqari, jamoat birlashmalari, fondlar, jamiyatlar, respublika, xalqaro va boshqa ahamiyatdagi assotsiatsiyalar o'zlarining nizomlari hamda qoidalariga muvofiq suvdan oqilona foydalanish va muxofaza qilish bo'yicha samarali tadbirlarni joriy etishni mukofotlashlari va rag'batlantirishlari mumkin. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyoti ko'rsatadiki, suvdan foydalanish va muhofaza qilishni nazoratini amalga oshirishda jamoat birlashmalari, tashkilotlarining ishtirok etishi nihoyatda yirik ijobiy natijalarni bermoqda.

Suvdan foydalanish deganda belgilangan maqsadlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan suv resuslaridan foydalanish tushuniladi. Ammo suv resuslari boshqa tabiiy resurslar singari ham qonuniy asosda, ham o'zboshimchalik bilan, ya'ni harakatdagi qonunchilikni buzish asosida foydalanishi mumkin. Ushbu munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi yoki jismoniy yoki yuridik shaxslarni suvdan foydalanishlarini qonunchiligi to'g'risidagi munozaralar sudyasi suv xuquqidir. Suvdan foydalanishdan umuman farqli o'laroq, suvdan foydalanish huquqi deganda xarakatdagi qonunchilikka mos tarzda belgilangan maqsadlarda jismoniy va yuridik shaxslarni suv resuslaridan foydalanish tushuniladi.

Suvdan foydalanish quyidagi turlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi;

- foydalanish shartlari bo'yicha;
- vujudga kelish asoslari bo'yicha;
- maqsadli foydalanishi bo'yicha;
- foydalanish muddatlari bo'yicha.

Foydalanish shartlari bo'yicha suvdan foydalanish quyidagilarga bo'linadi:

- umumiy suvning holatiga ta'sir etuvchi inshootlar va texnik qurilmalarni qo'llamasdan amalga oshiriladigan;
- maxsus, maxsus vakolatli organlar tomonidan beriladigan va inshootlar hamda texnik qurilmalarni qo'llash bilan amalga oshiriladigan ruxsatnomalar asosida yuzaga keladigan.

Ijtimoiy-maishiy va sog'lomlashtirish maqsadlari uchun suvdan foydalanish, agarda u ochiq suv manbalaridan, ya'ni daryolardan, ko'llardan, buloqlardan, suv omborlardan inshootlar yoki texnik qurilmalarsiz, masalan kanallar, nasoslar

qo'llanmasdan amalga oshirilsa-oddiyga kiradi. Umumiy suvdan foydalanishning anchagina keng tarqalgan turlariga kiradilar; kishilar va hayvonlarni ichishlari uchun suv iste'moli; ovqat tayyorlash uchun; cho'milish va kir yuvish uchun; o'simliklarni sug'orish uchun; boshqa maqsadlarda.

Umumiy suvdan foydalanishning asosiy xususiyati shundan iboratki, u bepul amalga oshiriladi.

Umumiy suvdan foydalanish hech qanday ruxsatsiz va muddat chegaralanmagan tarzda amalga oshiriladi [10].

Alohida xollarda maxsus suvdan foydalanishga inshootlar va texnik qurilmalardan foydalanilgan tarzda suv obyektlaridan foydalanish, ammo bunga ba'zida suvning holatiga ta'sir etadigan holatlar xam kirish mumkin.

Bundan tashqari, maxsus suvdan foydalanish xarakatlari bo'yicha ham quydagilarga bo'linadi:

- birgalikda, qachonki suv obyekti bir necha foydalanuvchilarga berilgan taqdirda;

- alohida-alohida qachonki suv obyekti bitta korxonaga (muassasaga, tashkilotga) berilsa.

Vujudga kelish asosilari bo'yicha suvdan foydalanish bo'linadilar:

- birlamchi;

- ikklamchi (ikklamchi suvdan foydalanishga ruxsatnoma birlamchi tomonidan beriladi).

Maqsadli foydalanish bo'yicha suvdan foydalanish bo'linadilar:

- aholini ichimlik, maishiy va boshqa zaruriyatlari, qishloq xo'jaligi, sanoat va boshq.uchun.

- doimiy, muddati oldindan belgilanmagan suvdan foydalanish;

- muddatli suvdan foydalanish qisqacha muddatli-uch yilgacha, uzoq muddatli-yigirma yilgacha bo'lishi mumkin.

Muddatli suvdan foydalanish muddatlari manfaatdor suvdan foydalanuvchilarning iltimoslariga binoan suv obyektlarini alohida-alohida

foydalanishga berilganligi to'g'risida qaror qabul qilgan yoki maxsus suvdan foydalanishga ruxsat bergan davlat organi tomonidan cho'zilishi mumkin.

“Suv va suvdan foydalanish to'g'risida”gi Qonunning 30-moddasiga muvofiq, barcha suv iste'molchilari limitlangan suvdan foydalanish o'rnatiladi. Suv iste'molining limitlari ma'muriy-hududiy tamoyil, suv basseynlari bo'yicha hamda suvdan foydalanuvchilar bo'yicha, yer osti suvlari bo'yicha esa geologiya va mineral resurslar bo'yicha organlar hamda davlat tog'-kon nazorati bilan kelishish asosida belgilanadi.

Suv tizimlarini, xizmat ko'rsatuvchi hodimlar tarkibini, suv obyektlarini saqlanishini va tiklanishini zaruriy tartibda saqlab turish uchun limitlashtirilgan suvdan foydalanish bilan bir qatorda suvdan foydalanishga qisman yoki to'la to'lovlar kiritiladi.

Suvdan foydalanganlik uchun pul to'lashga oid asosiy talablar O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga, har yili qabul qilinadigan Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda suv resurslaridan foydalanishga soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risida yo'riqnomaga asosan belgilanadi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Markaziy Osiyoda sug'orish suvining ulushli taqsimlanishi qanday ?
2. “Suvdan foydalanish”ga qanday ta'rif beriladi ?
3. Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish sohasi bo'yicha respublikaning qonunchilik bazasi o'z ichiga nimalarni oladi ?
4. Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish deganda nimani tushunasiz?
5. Respublikada suv munosabatlarini muvofiqlashtirish kim tomonidan amalga oshiriladi ?
6. Suv resurslaridan foydalanishni boshqarish tizimi nima ?
7. Suvdan foydalanuvchilarning huquqiy rejimi o'z ichiga nimalarni oladi?
8. Respublika suv fondining yer maydoni qancha ?
9. Suv xo'jaligi Bosh boshqarmasi, STBB, STBning vazifalarini aytib bering ?
10. Suvdan foydalanish uchun to'lovlarni aytib bering ?

3.8 Sug‘orish va meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarish

Respublikaning mavjud suv xo‘jalik tizimi 30-35 yildan ortiq eksplataatsiya qilinmoqda, ko‘pgina nasos stansiyalari o‘z xizmat muddatlarini o‘tab tugatishgan. Respublikadagi 40% davlat nasos stansiyalari 20-25 yildan beri ishlarida, 43% esa-30yildan ortiq,ularni ta‘mirlashga bo‘lgan xarajatlar har yili oshib ketmoqda. Irrigatsiya tizimlarini zaruriy holatda ushlab turish uchun ajratilayotgan byudjet vositalari har yillik talabning 65-70 % ini tashkil etmoqda. Suv xo‘jaligi majmualarini moliyalash hajmlarini keskin kamayishi ham kuzatiladi. Bularning barchasi suv xo‘jaligi obyektlarining texnik holatlarini pasayishiga (ularning ko‘pchiligi qoniqarsiz holatlarda), sug‘oriladigan yerlarni sho‘rlanishi va botqoqlanishga va oxir-oqibatda, ular mahsuldorligini pasayib ketishiga olib kelmokda.

Suv obyektlari suv xo‘jaligi tizimidagi funksional mohiyati va rolga qarab SXBBning ma‘lum bir bo‘linmalariga birlashtirilgan. Tarkibiy jihatdan ular quyidagilar: daryolar, suv omborlari, ko‘llar, suv havzalari, magistral kanallar, magistral kanallardagi nasos stansiyalari, suv olish gidrouzullari, gidroinshootlar, gidropostlar, xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik kanallari, xo‘jaliklararo kanallardagi nasos stansiyalari, sug‘orish quduqlari, kollektor-zovur tarmoqlari, vertikal zovur stansiyalari, elektr uzatish liniyalari, aloqa tarmoqlari va boshq. (16-jadval)

Sug‘orish tarmoqlari xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik tarmoqlariga, bo‘linadi, xo‘jaliklararo tarmoqlar davlat tarmoqlaridir, ichki xo‘jalik tarmoqlari suvdan foydalanuvchilar uyushmalari ixtiyoriga berilgan va ular xo‘jali hisobidagi tarmoqlardir. Respublikadagi sug‘orish tarmoqlarining umumiy uzunligi 197,6 ming km.ni, shu jumladan xo‘jaliklararo tarmoqlar 14% ni, ichki xo‘jalik 86% ni tashkil etadi. Xo‘jaliklararo sug‘orish kanallarining 31%ga beton yotqizilgan. Sug‘orish kanallariga 4,26 mln.ga sug‘oriladigan yer maydoni birlashtirilgan (17-jadval). Joylardagi qaytadan tashkil etilgan xo‘jaliklar suvdan foydalanishni ichki xo‘jalik boshqaruvi shirkat xo‘jaliklarini qayta tashkil etilishi va fermer xo‘jaliklari tashkil etilganligi natijasida suv iste‘molchilari sonining keskin o‘sib ketishi natijasida, fermer xo‘jaliklarida hisob-kitob va hisobotlarni yirik hajmdaligi natijasida

murakkablashdi. Suv resurslarini boshqarishga suvdan foydalanuvchilarning o'zlarini tortish asosida ma'lum bir tarkibni yaratishga zaruriyat tug'ildi. Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2002 yil 5 yanvarda 8-sonli qaror qabul qilindi, unda "Qayta tashkil etilgan xo'jaliklar hududida suvdan foydalanuvchilar Uyushmasini SIU tashkil etish tartibi" tasdiqlandi. Hukumatning ushbu qaroriga asosan o'z tarkibiga 141 mingdan ortiq suvdan foydalanuvchilarni birlashtirgan hamda 3269,1ming gektardan ortiq maydonga xizmat ko'rsatuvchi 1407 SIU tashkil etilgan. Keyingi yillari asosiy sug'orish infratuzilmalarini saqlab turish uchun zaruriy talabdan 55-66%i moliyalanmoqda xolos, sug'orish tizimlarini ishlab turishiga sarflanayotgan harajatlar yil sayin qisqarmoqda.

1990yildan 2006yilga qadar suv xo'jaligidagi kapital harajatlar deyarli 5 barovar qisqardi, shu bilan bir vaqtda nasos stansiyalari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasiga to'lovlar ulushi 18,5%dan 72,1% gacha o'sdi, ya'ni 3,9 barobarga qo'paydi. Mamlakatda iste'mol qilinadigan elektr energiyasining 20%ga yaqini hamda suvdan foydalanishning 72% sarf-harajatlari nasos stansiyalari va zovurlar uchun foydalaniladigan elektr energiyasiga to'g'ri keladi. 2006 yilda ushbu maqsadlarga 410,2 mlyard so'm byudjet mablag'lari sarflandi, shundan 72,1% nasos stansiyalari uchun elektr energiyasini iste'moliga to'g'ri keladi.

Davlat byudjetidan moliyaviy ta'minot sug'orish va zax qochirish infratuzilmalarini normal faoliyati uchun to'la harajatlar sarfini ta'minlay olmaydi, natijada regionlarda suvdan foydalanishga asta-sekinlik bilan to'lovni joriy etishni, davlat tasarrufidagi sug'orish tarmoqlarini talab darajasida ushlab turish harajatlarining bir qismini davlat buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirmaydigan suvdan foydalanuvchilarga yuklashni maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqish tavsiya qilinadi.

Ushbu masalani hal qilish uchun boshqa mamlakatlar tajribalaridan foydalanish mumkin. Masalan, strategik muhim qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirishga davlat hisobidan ma'lum hajmdagi suvni ajratish ko'rinishidagi imtiyozni berish zarur.

Misol uchun, bug'doy va meva, sabzavot ekinlarini etishtirish uchun gektariga 4000 m³ hajmda suv limiti ajratish. Suv me'yoridan ortiqcha foydalanganiga ilg'or

to'lovni belgilash zarur. Suvdan foydalanishga to'lovning bunday tizimini joriy etish suvdan foydalanuvchilarning moddiy manfaatdorligini oshiradi, suvni iqtisod qilishga manfaat vujudga keladi.

Sug'orish suvidan samarali foydalanish bo'yicha moddiy manfaatdorlik mexanizmi ham mavjud emas. Sug'orish suvidan me'yoridan ancha ortiq foydalanish natijasida respublikadagi sug'oriladigan yerlarning 62% turli darajadagi sho'rlanishga uchragan. Kimyoviy moddalarni ko'p miqdorlarda foydalanish tuproqning sifat holatini yomonlashtiradi. Yerlarni buzilishini oldini olgan holda sug'orish suvini saqlash uchun sug'orish va zovur tarmoqlarini tiklashga, shuningdek suvdan foydalanishni boshqarish samaradorligini oshirishga investitsiyalarni qo'paytirish zarur.

Viloyatlardagi gidrogeologo-meliorativ ekspeditsiyalar (VGME)ishini jonlantirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, tuman zvenolari faoliyatiga alohida e'tibor berish zarur. Barcha sug'oriladigan maydonlar ushbu ekspeditsiyalar yordamida nazorat qilinishi zarur. Kuzatuv quduqlarining qalinligini kuzatish zarur (har 1000ga yer hisobiga 1dan 50-100gacha). Har bir tumanda suv va tuproqlarning minerallasganligini aniqlash uchun gidrokimyoviy laboratoriyalar tashkil etish zarur. Ishlab chiqarish uchastkalarining ishchilari yerlarni sho'rini yuvishda tavsiyalarni yer tuzish s'yomkasi natijalari asosida berishlari lozim. Bu qisqa muddat ichida kollektor-zovur suvlari miqdorini kamaytirish, tuproq unumdorligini oshirish hamda sarflangan harajatlarni qoplashni ta'minlaydi.

O'zbekistonning 18-20% hududini suv eroziyasi jarayonlari qoplagan, yer osti suvlarning chuqurligi 2m.gacha bo'lgan maydonlar 50%dan ortiqni tashkil etadi: turli darajada sho'rlangan maydonlar sug'oriladigan yerlarning 60%dan ortiqni tashkil etadi. Tuproqdagi mikro- organizmlarning miqdori 3-10 marta qisqargan. Tezkorlik bilan investitsiyalar samaradorligiga erishish uchun yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga diqqat-e'tiborni va vositalarni qaratish, ya'ni sug'oriladigan maydonlardagi kollektor-zovur tarmoqlarining ishini yaxshilash tavsiya qilinadi.

“O'zdavyerloyiha” instituti tomonidan oxirgi 20 yil ichida sug'oriladigan yerlar tuz holatining s'yomkasi o'tkazilmagan (oxirgisi 1987y), tuproqlarning holati

bo'yicha ancha oxirgi ma'lumotlar mavjud emas, sho'rlangan maydonlarni yuvish ishlari hech qanday tuproq kuzatuvlari ma'lumotlarisiz o'tkazilmoqda. Shu sababli sug'oriladigan yerlarni tuz holatining s'yomkasini har 5-6 yilda davriy ravishda amalga oshirish tavsiya qilinadi. Bu ayniqsa Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro, Novoiy va Sirdaryo viloyatlari uchun muhimdir. 2008-2012 yillarga sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi respublikadagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi STBB bo'yicha sug'orish obyektlarining tarkibi

Ko'rsatkichlar	O'lcho v bir- ligi	Res-ka bo'yicha jami	Norin Qora- daryo	Norin Sirdaryo	Quyi Sirdaryo	CHirchi q Oxon- garon	Amu Surxand aryo	Amu Qash- qadaryo	Amu Buxo- ro	Quyi Amu- daryo	Zaraf- shon	Sirdaryo sox
Sug'oriladigan Yerlar	Ming ga	4260	271	275,2	534,4	382,8	325	507,5	273,7	755,4	543,3	262
Suv olish gidrouzellari	Birl.	686	22	28	22	19	3	216	23	117	167	47
Gidro inshootlar	Birl.	13345	1700	3192	1832	1631	1567	1535	2583	1347	3857	1836
Shu jumladan boshqariladigan	Birl.	12250	53	1205	1439	520	1200	948	1287	551	2064	1439
Boshqarilmaydigan	Birl.	8448	1328	1743	361	760	276	303	1260	434	1443	361
Xo'jaliklararo tarm. Gidropostlar	Birl.	44588	1301	2060	n/s	11299	5141	9436	9440	7485	1755	7930
Xo'jaliklararo tarm.nasos stansiyalari	Birl.	1786	143	219	69	133	118	48	17	775	88	147
Xo'jaliklararo tarm.nasos stansiyalari	Birl.	6285	425	510	193	455	476	478	341	2307	348	752
Sug'orish quduqlari	Birl.	2968	71	1125	414	13	162	345	265	-	433	154

Aloqa liniyalari	km	3234	154	329	133	178	283	674	844	163	320	156
EUL	km	3462	234	190	373	229	319	612	271	398	407	144
Xalqaro sug'orish tarmoq uzunligi	km	27408	2726	2620	1454	3426	1514	2042	1901	6011	3046	2668
Shu jumladan beton yotqizilgan	km	8509	888	1037	545	916	418	1329	778	362	1200	1032
i/x sug'orish tarmoq uzunligi	km	170192	12017	9492	11258	12021	13489	20450	16426	33277	23303	18460

*O'zsvloyiha ma'lumotlari bo'yicha

17-jadval

O'zbekiston Respublikasining sug'orish tarmoqlarining texnik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birli-gi	Res-ka bo'yicha jami	Norin Qora-daryo	Norin Sir-daryo	Quy-i Sir-daryo	CHirchi q Oxon-garon	Amu Surxand aryoy	Amu Qashqa-daryo	Amu Buxo-ro	Quy-i Amu-daryo	Zarafs hon	Sir-daryo sox
Sug'oriladigan ekin Yerlar	Min ga	4260	271	275,2	534,4	382,8	325	507,5	273,7	755,4	543,3	262
Sug'orish tarmoqlarining umumiy uzunligi	Km	197600	14743	12112	12712	15447	15003	22492	18327	39288	26349	21128
Xo'jaliklararo sug'orish	Km	27408	2726	2620	1454	3426	1514	2042	1901	6011	3046	2668

tarmoqlarining umumiy uzunligi												
Shu jumladan betonlashgan	Km	8509	888	1037	545	916	418	1329	778	362	1200	1032
Ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarining umumiy uzunligi	Km	170192	12017	9492	11258	12021	13489	20450	16426	33277	23303	18460
STBB bo'yicha x/aro %		13,9	18,5	21,6	11,4	22,2	10,1	9,1	10,4	15,3	11,6	12,6
STBB bo'yicha i/x %		86,1	81,5	78,4	88,6	77,8	89,9	90,9	89,6	84,7	88,4	87,4

* O'zsvloyiha ma'lumotlari bo'yicha

Suvdan foydalanuvchilar Uyushmasi notijorat tashkilot sifatida ichki xo'jalik sug'orish va kollektor tarmoqlarini zarur ishchi holatida ushlab turish uchun zarur moliyaviy va moddiy resurslarga ega emas.

Bugungi kunda fermer va dehqon xo'jaliklari bir qator meliorativ tadbirlarni (yerlarni yuvish, dalalar sirtini joriy tekislash, uchastka sug'orish tarmoqlarini tozalash) o'z hisoblaridan amalga oshirmoqdalar, ancha murakkab va yirik hajmlardagi meliorativ tadbirlarga ularda ham zaruriy moliyaviy va moddiy resuslar mavjud emas (ichki xo'jalik tarmoqlarini ushlab turish, dalalarni kapital tekislash, eroziyaga qarshi tadbirlar va hokazolar).

Suvdan foydalanuvchilar tomonidan sug'orish suvini hisoblash aniqligi sug'oriladigan yerlar hisobining aniqligidan ancha past, bu qishloq xo'jalik maxsulotlarini etishtirish tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SIU hamda suvdan foydalanuvchilar darajasidagi sug'orish suvini yirik aniqlikdagi nazorat-o'lchov asboblari (NO'A) mavjud emas.

Ayniqsa ikkilamchi suvdan foydalanuvchilar darajasidagi sug'orish tarmoqlarining suv yo'qotishi yirikdir. Bu sug'orish suvidan samarasiz foydalanishga olib keladi, uni transportirovka qilishda samarasiz harajatlarni keltirib chiqaradi hamda etishtiriladigan mahsulot tannarxini o'stiradi. Sug'orish suvidan foydalanish samaradorligini baholash uslubiyati yo'q.

Suvni olib kelishga (transportirovka qilishga) undiriladigan to'lovlar sug'oriladigan yerdan undiriladigan yer solig'i bilan shartli bog'langan emas.

Suv xo'jaligi tizimiga bozor uslublari va iqtisodiy mexanizmlar kam joriy qilingan, suv xo'jaligi tizimlarini sifatli darajada ushlab turishga sariflanadigan xarajatlar tizimining boshqaruv darajalari o'rtasida tabaqalanmagan, suv resuslaridan oqilona va samarali foydalanish va meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish tannarxini pasaytirishga suv xo'jaligi boshqaruvining barcha darajalarida kuchli ta'sir ko'rsatuvchi rag'batlantirish mexanizimi mavjud emas.

Kollektor-zarur tarmoqlarning umumiy uzunligi 132,2 ming km, shu jumladan xo'jaliklararo kollektorlar-24,2% va ichki xo'jalik tarmoqlari-75,8%.

KZT bilan 2,9 mln.ga sug'orilgan yer ta'minlangan, shu jumladan vertikal zovurlar-10,7%, yopiq gorizontal-19,8% (18va19-jadvallar).

Kollektor-zovur tarmoqlarning texnik holati qoniqarsizdir. Bugungi kunda 82,3 ming.km kollektorlar ta'mirlash ishlarini (62,2%) va 35,9 ming.km-tozalash (27,8%) ishlarini bajarishni talab qiladi.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga tizimli yondoshuvning yo'qligi sug'oriladigan yerlar sifatini pasayishiga, qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorliklarini pasayishiga, mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini kamayishiga, qishloq aholisi daromadini qisqarishiga olib keladi. Bugungi kunda respublika bo'yicha kuzatuv olib borilgan sug'oriladigan yerlarning o'rtacha boniteti 55 ballni tashkil etadi, ya'ni yaxshi sifat darajasidan pastdir. (20-jadval). Yaxshi va a'lo sifatli yerlar maydoni jami 27,4% ni tashkil etadi. Yomon va o'rtachadan past sifatli (1-40ball) yerlar jami maydonlarning 25,1%ni tashkil etadi, bu yerlarda ekinlar o'stirish amaliy jihatdan rentabelli emas. 2006 yilda 380 ming gektarga yaqin past sifatli sug'oriladigan ekin yerlari xo'jalik omboridan chiqib ketdi. Respublikada sho'rlangan sug'oriladigan yerlar miqdorining yirikligi, yerlarni etarli darajada sho'ri yuvilmaganligi, dala yuzalarini kapital tekislashning yo'qligi, yer osti suvlarining yuqoriligi, kollektor-zovur tarmoqlarini qoniqarsiz ishlashi sug'orish massivlaridan o'z vaqtida sizot suvlarini olib chiqib ketilmaganligi bilan izohlanadi.

Respublika sug'oriladigan yerlari sifat holatining pastligi sug'orish va kollektor tarmoqlarining holatida muhim muammolar hamda ular faoliyatini boshqarishda kamchiliklar mavjudligidan darak beradi.

Faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining Uyushmalari (1994yildan) meliorativ tarmoqlarning normal ishchi holatda ushlab turish uchun maxsus meliorativ texnikalarga hamda zarur moliyaviy resurslarga ega emaslar. Yerlarni melioratsiyalashga investitsiyalar keskin qisqardi. Paxta almashlab ekishda beda ekinini yo'q qilinishi ham sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sanab o'tilgan va qator boshqa sabablar sug'oriladigan yerlar sifatini keskin pasayishiga, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini, mahsulot

ishlab chiqarish xajmini, qishloq axolisi daromadlarini kamayishiga olib keldi. Sugʻoriladigan yerlar meliorativ holatini davom etayotgan yomonlashuvini, salbiy jarayonlar sababini chuqur oʻrganish meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarish tizimining samaradorligini baholash zaruriyatini tugʻdirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007yil 25 iyunidagi F-2270-sonli Farmoyishi bilan sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning yangi mexanizmini ishlab chiqish va holatini tahlil qilish hamda takliflar tayyorlash boʻyicha ichki guruh tuzildi.

Kollektor-zovur tarmoqlarining inventarizatsiyasini oʻtkazish, ularni ishchi holatda ushlab turish amaliyotini qishloqda mulkchilik shakllarini oʻzgartirishni hisobga olgan holda tarmoqlarni butun vertikal boʻyicha faoliyatini boshqarish tizimi va uslublarini oʻrganish, meliorativ texnikalar parkini yangilash, mavjud huquqiy-meʼyoriy bazadagi qarama-qarshiliklarni aniqlash, meliorativ tarmoqlarning ishlash tizimini tahlil qilish, 2008-2012 yillar davrida sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha majmualiy tadbirlar ishlab chiqish zarur deb topildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007yil 29 oktyabrdagi “Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni bilan sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash 2008-2012 yillar davrida qishloq xoʻjaligining muhim ustuvor yoʻnalishi sifatida aniqlandi.

Iqtisodiyot vazirligi qoshida sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash fondini tashkil etish koʻzda tutildi, uning asosiy vazifalari va moliyalash manbalari, meliorativ tadbirlarga vositalarni ishlatish tartibi aniqlandi, sugʻoriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash boʻyicha Davlat dasturi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasidagi kollektor-zovur tarmoqlarining tarkibi va texnik ko‘rsatkichlari*

Viloyatlar	Sug‘oriladigan maydon ming.km	Shu jumladan zovur bilan ta‘minlangan mingga	Shu jumladan		Zovurning uzunligi km	Shu jumladan xo‘jaliklar aro zovurlar, km	Shu jumladan ikki xo‘jalik zovur km			Zovurlarni solishtirish uzunligi m/ga		
			Vertikal zovur mingga	Yopiq gorizonta l zovur mingga			Umumiy uzunligi, km	Shu jumladan yopiq gorizonta l zovur	Shu jumladan ochiq zovur	Umumiy	Shu jumladan xo‘jaliklararo	Shu jumladan ichki xo‘jalik
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	520	368	-	7,4	19885	3445	16440	430,4	16110	33,1	10,7	22,4
Andijon	264	181	35,39	14,95	8479	3508	4971	728,7	4242	47,9	19,4	27,5
Buxoro	274	219	40,22	15,55	7576	2843	4733	1001,4	3732	34,6	13,0	21,6
Jizzax	301	255	82,09	217,6	14982	1282	13700	11116	2584	69,4	5,03	59,2
Qashqadaryo	501	292	32,25	80,7	13939	2649	11290	6811	4479	47,7	9,1	38,7
Navoiy	132	103	12	4,7	2647	1045	1602	156	1446	26,7	10,5	15,6
Namangan	279	136	24,67	0,2	5071	1814	3257	29,6	3227	37,4	13,4	24,0
Samarqand	376	95	8,74	-	3197	1782	1415	-	1415	33,7	18,8	14,9
Surxondaryo	326	202	1,4	88,62	7163	1106	6057	1079	4978	31,7	5,43	28,3
Sirdaryo	291	291	53,8	86,53	16516	1963	14553	9403	5151	56,7	6,75	50,3
Toshkent	382	237	11,56	4,9	8560	2804	5755	141,2	5614	35,5	11,8	23,7

Farg'ona	367	256	87,8	18,79	14492	4024	10468	639,6	9828	56,6	15,7	40,9
Xorazm	276	268	0,2	0,2	1064	3718	6922	504,1	6418	39,7	13,9	25,8
Respublika bo'yicha	4260	2902	310,1	574	132146	31982	100163	32040	69125	41,1	11,8	29,5

* O'zsvloyiha ma'lumotlari bo'yicha

Davlat Dasturi doirasida 2008-2012 yillarda sug'oriladigan Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha 748,7 mlyard so'mlik ishlar amalga oshirildi. Natijada respublika bo'yicha ushbu davr mobaynida 65929 km. Ochiq va 4837 km uzunlikdagi yopiq yotiq drenaj tarmoqlari, 337 dona meliorativ nasos agregatlari 6204 dona vertikal drenaj quvurlari, 8339 dona kuzatuv quduqlari rekonstruksiya qilindi. Ushbu ishlarning bajarilishi natijasida 1200 ming gektar sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga erishildi.

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi "2013- 2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra 2013-2017 yillarga mo'ljallangan yangi Dastur qabul qilindi. Ushbu Dastur doirasida ushbu davrda 79359 km uzunlikdagi ochiq kollektor tarmoqlarini, 9339 km yopiq yotiq drenajlarni, 4546 dona vertikal drenaj quduqlarini, 161 dona meliorativ nasos stansiyalarni va boshqa ko'pgina inshootlari qurish, ta'mirlash va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

19-jadval

O'zbekiston Respublikasidagi kollektor-zovur tarmoqlarini
jonlashtirishga talab ko'rsatiladi*

Viloyatlar	Xo'jaliklararo kollektorlar		Ichki xo'jalik kollektor-zovur tarmoqlari				
			ochiq		yopiq		
	ta'mirlash	tozalash	ta'mirlash	tozalash	jami	ta'mirlash	tozalash
Qoraqalpog'iston Respublikasi	780,3	843,2	16010	4370	222	120	102
Andijon	36,1	731	4242	1400	154,7	128	26,7
Buxoro	83,5	817,5	3732	1853	753,5	309,2	444,3
Jizzax	28,7	267,5	2584	1002	3931	3896	34,5

Qashqadaryo	107	677,9	4479	2804	3105	2856	248
Navoiy	74	320	1446	435	95	64	31
Namangan	4,5	574	3227	1124	-	-	-
Samarqand	-	364	1415	1003	-	-	-
Surxondaryo	-	412,8	4978	1846	545	545	-
Sirdaryo	71	585,2	5151	2454	2959	2803	156
Toshkent	109	1310	5614	1699	119	5	114
Fargʻona	87,7	1684	9828	3276	489	304,2	184,8
Xorazm	335,4	1130	6418	2224	552	543	9
Respublika boʻyicha	1722	9293	69125	25330	12680	11411	1270

* Oʻzuvloyiha maʼlumotlari boʻyicha

O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan Yerlarini sifat baholash*

(O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan tuproqlarining sifat bahosi ma'lumotlari)

(sug'oriladigan qishloq xo'jalik Yerlar jami maydoni, ga hisobida)

T.r	Respublika va viloyatlar	Kadastr guruhlar i										Jami, ga	O'rtacha bonitet bali
		yomon Yerlar		o'rtachadan past		o'rtacha Yerlar		yaxshi Yerlar		eng yaxshi Yerlar			
		Kadastr klasslari											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X		
		Bonitet bali											
		0-10	11-20.	21-30	31-40	41-50	51-60	61-70	71-80	81-90	91-100		
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi		181	25506	224917	142079	39126	11860	1396			445065	41,3
2	Andijon			844	22346	51597	52837	62741	36573	5857	67	232862	57,5
3	Buxoro		263	15374	48791	53826	51309	46752	12714	81		229110	51
4	Jizzax			2132	22885	144602	60894	29045	10170	1347		271075	51
5	Qashqadaryo		0	354,14	40742,5	207262,0	111116,6	67181	26402,3	7059,5	0	460118,2	52,5
6	Namangan			4597	41141	48808	39359	46533	33581	19195	1729	234943	60
7	Navoiy		255	5190	20952	20627	23445	22646	11593	1437		106144	53
8	Samarqand			57	10656	60316	98351	83871	37753	15231	171	306406	59,3
9	Surxondaryo			3592,4	33964,5	75733,1	79766,8	53375,7	18772,5	5885,9	0	271091	56

10	Sirdaryo			489	26537	105386	69828	58603	6542	9		267395	53
11	Toshkent		23	2471,4	15115,3	59432,8	96185,9	103023,2	40032,9	9622,9	2	325909	59
12	Fargʻona			5557	44499	79437	58661	74163	29300	5268	49	296933	56
13	Xorazm			2837	36095	45591	69981	57666	8832	47	-	221049	54
Respublika boʻyicha			722	69001	588641	1094696	850860	717461	273663	71040	2018	3668101	55

* Yergeodezkadastr maʼlumotlari boʻyicha

Mamlakatda suv munosabatlarini yanada takomillashtirish maqsadida “Suv kodeksi”ni qabul qilish tavsiya qilinadi, uning tarkibida esa suvdan foydalanuvchilar Uyushmasi to‘g‘risidagi qonun ko‘zda tutiladi.

Qishloq xo‘jaligida suvdan samarali foydalanishga erishishning asosiy yo‘nalishlari quydagilardir:

A) Sug‘orish tarmoqlarida suv yo‘qotilishini kamaytirish;

B) Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida suvdan samarali foydalanish.

Sug‘orish kanallarida suvning yo‘qotilishi, agarda kanal yer bag‘rida qazilgan holatda bo‘lsa, filtratsiya (suvning yer ostiga shimishi) sababli hamda suvning bug‘lanishi sababli, shuningdek kanallarni texnik jihatdan nosozligi sababli ro‘y beradi. Respublikadagi sug‘orish tarmoqlarining uzunligi 197,6 ming.km.ni shundan magistral va xo‘jaliklararo kanallar -27,4 ming.km va milli xo‘jalik kanallari-170,2 ming.km. Faqatgina 31% xo‘jaliklararo kanallar betonli to‘shamga (8,5ming.km) ega. Filtratsiya bilan suv yo‘qotilishi xo‘jaliklararo kanallarda 5% gacha va ichki xo‘jalik kanallarida 15-20 % gachani tashkil etadi. Kanallardagi suv yo‘qotilishini tubdan kamaytirish muammosining asosiy echimi betonli to‘shamdagi kanallar uzunligini oshirish, yer bag‘rida qurilgan ichki xo‘jalik kanallarini betonli latoklar bilan almashtirish, shuningdek suvni transportirovka qilishda quvurlardan foydalanish kiradi. Sug‘orish suvini transportirovka qilish uchun yirik diametrli quvurlardan foydalanish bo‘yicha chet mamlakatlar (Isroil, AQSH va boshqa) tajribasi shundan guvohlik beradiki, bunda suvni filtratsiyaga va bug‘lanishga yo‘qotilishiga amaliy jihatdan umuman barham beriladi. Filtratsiya va bug‘lanish suv isrofi asosan xo‘jalik kanallarida (SIU) hamda qishloq xo‘jalik ekinlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘orishda ro‘y beradi. Shuning uchun ham asosiy diqqat-e‘tibor ushbu kanallarning sifat holatini yaxshilashga qaratilishi zarur.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida suvdan samarali foydalanish muammosi suvni transportirovka qilishdagi isrofgarchilik muammosiga nisbatan texnik, iqtisodiy va tashkiliy jihatlardan murakkabdir. Suvdan samarali

foydalanishga suvga resurs sifatida haq to'lash tamoyilini joriy etish bilan Erishish mumkin. Suvdan foydalanishning to'lov tamoyili suvga etiyotkorona munosabatni ta'minlashda juda muhimdir. Suvdan foydalanishning to'lovligi sharoitida suvdan xo'jasizlarcha foydalanish maxsulot ishlab chiqarish tannarxini oshiradi, bozorda uni raqobatbardoshligini pasaytiradi, demak, tovar ishlab chiqaruvchilar daromadlarini kamaytiradi. Suvga haq to'lash undan oqilona foydalanishga va resursni iqtisod qilinishiga olib keladi. Bozor sharoitida suvni iqtisod qilish texnologiyalarini joriy qilish, limitlarga va qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish me'yorlariga rioya qilish, suvdan foydalanuvchilarga etkazib berilgan suvlarni hisob qilish, sug'orish suvini kollektor tarmog'iga tashlanishiga yo'l qo'ymaslik hisobiga erishish mumkin.

O'zbekistonda qishloq xo'jalik ekinlarini yomg'irlatib sug'orish tajribalari mavjud. Bu usul sug'orish suvini yirik miqdorlarda iqtisod qilishga imkon beradi. Sug'orishning bu usuli qishloq xo'jaligi rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Uni joriy qilish uchun maydonlarni maxsus tayyorlash va yomg'irlatib sug'orish agregatlari zarur. Bunday usulni amalga oshirish sug'orish suvini 30-50% gacha iqtisod qilishga imkon beradi.

Sug'orish suvini tejashning muhim imkoniyatlardan biri –bu bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaliklarida, ayniqsa adir yerlaridagi xo'jaliklarda tomchilatib sug'orishdir. Bu yerlarda tomchilab sug'orish ham (Respublikadagi ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 353 ming gektarni tashkil etadi) yirik miqdorlardagi sug'orish suvini tejashga imkon beradi. Ushbu iqtisoslashtirilgan xo'jaliklarda tomchilab sug'orishni rivojlantirish shunga mos moddiy resurslarni (quvurlar, maxsus taqsimlash uskunalari) talab qiladi.

Sug'orish suvini tejashning muxim omili-bu suvga belgilangan limitlar va gidromodul rayonlashtirish hamda qishloq xo'jalik ekinlarining turlarini hisobga olgan holda ilmiy asoslangan sug'orish me'yorlariga rioya qilishdir. Nazorat-o'lchov asboblari (suv hajmini hisoblagich) ning mavjudligida ushbu talabni amalga oshirish ortiqcha hajmlarda sug'orishga hamda suvni kollektor

tarmog'iga tashlanishiga barham beradi. Sug'orish suvini tejash 10-15 %ni tashkil etishi mumkin.

Suv isrofini yirik miqdorda qisqartirishga hamda undan foydalanish samaradorligini oshirishga suvlarni tashish uchun xo'jaliklararo va ichki xo'jalik kanallari sifatida yirik diametrli quvurlarni qo'llash hisobiga Erishish mumkin. Suv istofi bu yerda 0 ga yaqin, ishlab chiqarish harajatlari yirik miqdorlarda qisqaradi, yer va suv resuslaridan foydalanish samaradorligi, shuningdek qishloq aholisining daromadlari oshadi. Shu bilan birga, quvur tarmoqlarini rivojlantirish uchun ma'lum moddiy resurslar (belgilangan diametrlardagi quvurlar, shuningdek ularni qurish harajatlari) talab qilinadi.

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda suvni uncha yirik bo'lmagan hajmlarda to'g'ridan-to'g'ri o'simliklarga beradigan qayishqoq quvurlardan keng foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda dalalarda sug'orish suvining qolgan qismini chiqarib tashlashni kamaytirish uchun turli tuproqlarga qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish me'yorlarini asoslash muhim omil hisoblanadi. Bu sharoitni ham amalga oshirish suvni isrof qilishni qisqartirishning muhim imkoniyati hisoblanadi.

Sug'orish tarmoqlarini samarali faoliyat ko'rsatishida STBB suvdan foydalanishni boshqarishning barcha darajalaridagi mutaxassislarning iqtisodiy manfaatdorligi yirik rol o'ynaydi. Ular manfaatdorligining mexanizmi qishloq xo'jalik ekinlari hosildorliklarini o'sishi hamda fermer va dehqon xo'jaliklari daromadlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksiga binoan, yerdan foydalanuvchilar davlat tomonidan ularga turli bepul yoki imtiyozli xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan dalalarni tekislash, chuqur haydash, imtiyozli yer solig'i kabi rag'batlantirishlar bo'lishi mumkin. Ushbu rag'batlantirish tadbirlarini suv xo'jaligi obyektlariga ham qo'llash mumkin: kanal va kollektorlarni tozalash bo'yicha imtiyozli xizmatlar, suv chiqargichlarni ta'mirlash, hisoblagichlar o'rnatish, limitdan tashqari suv berish bo'yicha imtiyozlar va boshqa. Bozor sharoitida suv resurslarini tejash bo'yicha tavsiya qilinadigan tadbirlar ro'yxati 21-jadvalda keltirilgan.

**Suvdan foydalanishda bozor uslublarini va suv tejash
texnologiyalarini joriy etish bo'yicha tadbirlar**

№	Suv resurslarini iqtisod qilish bo'yicha tavsiyalar	Mexanizmi	Amalga oshirish bo'yicha tadbirlar
1	Sug'orish suviga resurs sifatida to'lovlar kiritish	Suvga resurs sifatida baho belgilash	
2	Limitdan tashqari suv hajmiga to'lovlar joriy etish	Yilni suvligini hisobga olib suvga baho belgilash	
3	Suvni transportirokasi to'lovlar joriy etish (sug'orish tarmoqlarini ishchi holatda ushlab)	Kanallar va kollektorlarni ta'minlash va tozalashga harajatlarni, aniqlash STBB suvdan foydalanishning boshqarishning barcha darajadagi mutaxassislar mehnatiga haq to'lash	
4	YOmg'irlatib sug'orish	Sug'orishni yangi texnologiyalariga o'tish	YOmg'irlatish agrogentlarini sotib olish, maydonlarni tayyorlash
5	Tomchilatib sug'orish	Sug'orishni yangi texnologiyalariga o'tish	Quvurlar, nasoslar sotib olish, inshootlar qurish
6	Quvur tarmog'ini rivojlantirish	Suvni transportirovka qilishning yangi texnologiyalariga o'tish	Quvurlar sotib olish, quvurlar tarmog'ini qurish, hisoblagichlar
7	Sug'orishda qayishqoq quvurlardan foydalanish (shlanglardan)	Sug'orishni yangi texnologiyalariga o'tish	SHlanglar va boshqa zarur qurilmalar sotib olish
8	Suv limitiga rioya qilish	Sug'orish suvini tejash	Nazorat hisoblagichlar o'rnatish
9	Suvdan foydalanuvchilarga yuboriladigan suvni hisob qilish	Sug'orish suvini tejash	Hisoblagichlar o'rnatish
10	Suvdan foydalanish tizimini barcha darajadagi boshqarish mutaxassislarining sifatli ishini rag'batlantirish	Sug'orish suvini tejash	Sug'orish suvidan foydalanish samaradorligini baholash, suvdan foydalanuvchilar daromadini o'sishini baholash
11	Suvdan samarali foydalanganligi uchun suvdan foydalanganlarni rag'batlantirish	Sug'orish suvini tejash	Tejalgan suvni hisob qilish

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Sug'orish va kollektor tarmoqlarining faoliyatini boshqaruvchi davlat organlari tarkibini tavsiflab bering.

2. Respublikadagi sug'orish obyektlarining tarkibini aytib bering.
3. Sug'orish tarmoqlarining asosiy texnik ko'rsatkichlarini sanang.
4. Sug'orish infratuzilmalarini moliyalashning holatini tavsiflab bering.
5. Sug'orish suvidan samarali foydalanish bo'yicha asosiy tadbirlarni aytib bering.
6. Respublikaning kollektor-zovur tizimi tarkibini tavsiflab bering.
7. Kollektor tarmoqlarining asosiy texnik ko'rsatkichlarini sanab bering.
8. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini tavsiflang.
9. Kollektor-zovur tizimlari faoliyatini moliyalashning holatini tavsiflang.
10. Sug'oriladigan yerlarni meliorativ yaxshilash fondining roli va mohiyatini aytib bering.

3.8 Yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarish

Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish bilan bir qatorda yer resurslaridan foydalanishni ma'muriy boshqarish yerdan foydalanishning ikkinchi kichik tizimi hisoblanadi. Ushbu tashkil etuvchi ikkinchi kichik tizimning muhimligiva o'ziga xosligi shundan iboratki, aynan shuning vositasida davlatning yer siyosati amalga oshiriladi, yer resurslaridan foydalanishning barcha qarorlari amaliy jihatdan joriy qilinadi. U yerdan foydalanishni boshqarishning viloyat va tuman darajalarini o'z ichiga oladi. O'zbekiston Respublikasi yer kodeksida viloyat davlat hokimiyati organlarining, Toshkent shaxrining (7-modda) va tumanlarning (6-modda) yerdan foydalanishni boshqarish sohasidagi vakolatlari aniqlangan. Yerdan foydalanishni boshqarishning regional (viloyat) darajasi asosan tashkiliy-taktik xarakterdagi vazifalarni, ma'muriy tuman darajasida esa-tezkor xarakterdagi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Mamlakat yer kodeksining 5-moddasiga binoan, regional darajada yerdan foydalanishni boshqarishning vazifalariga quyidagilar kiradilar [5]:

-tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

-yerlardan maqsadli, oqilona va samarali foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha davlat nazoratini amalga oshirish;

-yer tuzishni, yer monitoringini tashkil etish va davlat yer kadastrini yuritish;

-qishloq xo'jaligi va boshqa davlat hamda jamoat maqsadlari uchun yuridik shaxslarga egalik, foydalanish va ijaraga yer berish;

-alohida qimmatli, mahsuldor sug'oriladigan yerlardan tashqari, barcha yerlar tarkibidan alohida muhofaza qilinadigan hududlar bilan band yerlarni, shahar atrofi va shaharlar yashil mintaqalarini, tajriba dalalarini, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlari, o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlarni-o'lchamlaridan qat'iy nazar-ajratish;

-O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan diplomatik vakolatxonalar hamda shunga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarga, vakolatxona boshlig'ining qarorgohini ham qo'shgan holda, ushbu vakolatxonalar binolarni qurish uchun yer uchastkalarini mulk qilib realizatsiya qilish;

-yer kodeksining 36-moddasiga binoan belgilangan tartibda yerlarga egalik va foydalanish huquqlarini,shuningdek yer uchastkasiga ijara va mulkchilik huquqlarini to'xtatish:

-yerdan foydalanish sohasida viloyatlar, Toshkent shahri davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiradigan boshqa vazifalarni hal qilish.

Shunday qilib, region darajasida yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarishning mazmuni yerlardan oqilona foydalanish va sifatini oshirishninghududiy dasturini ishlab chiqish hamda uni o'z vaqtida amalga oshirish uchun shart-sharoitni ta'minlashdan iboratdir. ushbu darajadagi boshqarmaning vazifalariga, shuningdek, yer tuzish, yer kadastr ishlarini, yer monitoringi hamda yerlardan foydalanishni nazorat kilish, yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalarini berish hamda ulardan ajratib olish, ulardan foydalanishning huquqiy rejimi buzilgan hollarda yer uchastkasiga huquqlarni to'xtatish kabi vazifalar ham kiradi.

Yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarishning regional darajasida shuningdek, birinchi galda qishloq xo'jalik yerlarining qiymatini kadastr baholashni nazorat qilish bo'yicha vazifalar ham bajariladi. viloyat hokimiyati darajasida viloyatda yerlardan agroxo'jalik darajasini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik yerlarini me'yoriy baholashga tuzatma koeffitsentlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinadi. Yerlarni me'yoriy baholashni bunday to'g'irlash to'g'ridan-to'g'ri yer solig'i miqdorida yoritiladi, ya'ni yer solig'ini undirishni tartibga solish ham regional darajadagi yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarishning vazifasidir.

Bundan tashqari, yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu darajasida viloyat yerdan foydalanishning jamlanma samaradorligini baholash amalga oshiriladi. Yerlardan foydalanish samaradorligini baholash qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi yerlarini to'la qayta tishlash sikli bo'yicha, shuningdek viloyatning boshqa toifa yerlari bo'yicha har yili o'tkaziladi. Bunday baholash viloyat yerlaridan foydalanish samaradorligini aniqlash, yerdan foydalanishning qabul qilingan tizimidan yerlardan asosiy jihatdan foydalanishdagi farqlarni aniqlash uchun, aniqlangan kamchiliklarni tugatish, yerdan foydalanish subektlarini rag'batlantirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun hamda ohir-oqibatda yerdan foydalanish tizimini to'g'rilashga zaruriyat va yer munosabatlarini shularga mos tarzda isloh qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish uchun zarurdir.

Regional darajada yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarishda bugungi kunda ma'lum kamchiliklar mavjud. Birinchi galda -bu tuproq unumdorligini qayta tiklashda tizimlilikning yo'qligiga taalluqlidir. Agroxo'jalik tadbirlari boshqa turdagi tadbirlar bilan kelishilmasdan amalga oshiriladi. Eroziyaga qarshi tadbirlar amalda o'tkazilmaydi, agroo'rmonmeliorativ , gidrotexnik tadbirlar etarli hajmlarda o'tkazilmaydi, ekin maydonlarida qishloq xo'jalik ekinlarining almashishi mavjud emas, almashlab ekishlar yo'q. Yer kadastrini yuritish ham kamchiliklardan holi emas, aholi punktlari yerlarning aniq hisobi hamda ushbu yerlarni qiymat jihatidan kadastr baholash mavjud emas, o'tkazilayotgan

tuproqlar bonitirovkasi ishlarining natijalari etarli aniqlikka ega emas, qishloq xo'jalik yerlarning monitoringi o'tkaziladi, ammo ularni sifat holatini yaxshilash bo'yicha hal qiluvchi echimlar yo'q, boshqa toifa yerlarining kadastri va monitoringi amalda yuritilmaydi. Bugungi viloyat yerdan foydalanishni jamlanma samaradorligini baholash ham mavjud emas.

Ma'muriy tuman darajasida ma'muriy boshqarishning vazifalariga quyidagilar kiradi (2,6-modda)

-yerlardan oqilona va samarali foydalanish,tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish.

-yerlardan oqilona foydalanishning davlat nazoratini amalga oshirish.

-sug'oriladigan yerlar,shundan yaxshilash ishlari o'tkazilgan pichanzorlar va yaylovlardan, o'rmon fondi yerlaridan, o'rmon daraxtzorlari bilan qoplangan, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi yerlardan, suv fondi yerlaridan tashqari yerlarni-bitta yer egaligi yoki yerdan foydalanishga 10gektargacha egalikka, foydalanishga va ijara huquqida fuqarolarga, yuridik shaxslarga yer berish, shuningdek yerlarni ajratib olish.

-fermer xo'jaligini yuritish uchun ijaraga fuqarolarga yer berish.

-yer uchastkasining o'lchamlaridan qat'iy nazar-zahira yerlardan yuridik shaxslarga,fuqarolarga egalikka,foydalanishga va ijaraga yer berish.

-savdo-sotiq obyektlari va xizmatko'rsatish obyektlari bilan birgalikda yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalarini mulk sifatida realizatsiya qilish.

-yer tuzish, yer monitoringini tashkil etish va davlat yer kadastrini yuritish.

-yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni, yer ijarasi shartnomalarini, shuningdek servitut to'g'risidagi bitimlarni davlat ro'yxatiga olish.

-yer kodeksining 36-moddasiga binoan belgilangan tartibda yer uchastkalariga egalik va foydalanish huquqlarini, shuningdek ijara va mulk huquqlarini bekor qilish.

-qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarni tashkil etish, qayta tashkil etish hamda tugatishda yer egaligi va yerdan foydalanish masalalarini hal qilish.

-yerdan foydalanishni davlat boshqaruvi sohasida tuman davlat hokimiyati organlari va vakolatiga kiruvchi boshqa masalalarni hal qilish.

Yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarishning tuman darajasida yer uchastkalarini berish va ajratib olish bo'yicha davlat va jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtasida aholi punktlarida va qishloq joylarida yuzaga keladigan yer munozaralari, yer uchastkalarining chegaralarini aniqlash, sug'orish suvini olish, yer va suv uchun to'lovlar, yerlardan samarali foydalanishni rag'batlantirish va boshqa qator masalalar ham hal qilinadi. Yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu darajasida o'z yer uchastkalaridan oqilona va samarali foydalanilayotgan yerdan foydalanuvchi subektlarni rag'batlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilinadi. shuningdek, boshqarishning ushbu darajasida yer uchastkasi, aholi punkti, umuman ma'muriy tuman darajasida yerdan foydalanishning nomlanma samaradorligini baholash joriy etilishi zarur.

Region darajadagidek, yerdan foydalanishni boshqarishda tuman darajasida ham ma'lum kamchiliklar mavjud. Tuproqlar unumdorligini qayta tiklashda, yer kadastri va monitoringini yuritishda, yerlardan oqilona foydalanishni rag'batlantirishda amaliy jihatdan ushbu kamchiliklar bu yerda ham mavjud, aholi punktlari va umuman tuman yerdan foydalanish samaradorligini baholash mavjud emas, yer uchastkalari bo'yicha esa ushbu baholash asosan faqatgina iqtisodiy samaradorlikni hisobga oladi, samaradorlikning boshqa turlarida hisobga olinmaydi. Bu esa yerdan foydalanish samaradorligini to'la (jamlanma) baholash natijalarini yirik miqdorlarda buzadi.

Shunday qilib, agarda Yerdan foydalanishni boshqarishning birinchi va ikkinchi kichik tizimlari vazifalarining mazmuni taqqoslansa, bundan birinchiga (yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish) yerdan foydalanishni ilmiy asoslangan tizimining parametrlarini yaratish, tashkil etish va to'g'irlash (parametrlari berilgan miqdorlarda cheklanganda) joriy qilinadi, ya'ni yerdan foydalanishni boshqarish makro darajada bo'ladi. yerdan foydalanishni boshqarishning ikkinchi tizimi-mikro darajadagi-yerdan foydalanish tizimining berilgan barcha parametrlari talabalariga javob beradigan qishloq xo'jalik

mahsulotlarini ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlashdan iboratdir. Demak, makro va mikro darajalarda boshqarish nainki bir-birlariga qarama-qarshi qo'yiladi yoki bir-birlarini takrorlaydilar, balki o'zlarining birligida bir-birlarini to'ldiradilar hamda ushbu murakkab boshqarish jarayonni mumkin va samarali qiladilar.

Keyingi vaqtlarda yerdan foydalanishni boshqarishda nodavlat notijorat tashkilotlari yirik faoliyat ko'rsatmoqdalar va nihoyatda ahamiyatli bo'lib bormoqdalar. Bunday tashkilotlarga qishloq Kengashlari, fuqarolar o'z-o'zini boshqarish idoralari, mahalla qo'mitalari, suvdan foydalanuvchilar Uyushmasi (SIU) va boshqalar kiradilar. Mahalla qo'mitalari aholi punktlari (shaharlar va pasyolkalar) yerlaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishda ko'roq ishtirok etmoqda. Qishloq Kengashlari qishloq xo'jaligining kamroq qimmatli yerlaridan-pichanzorlar va yaylov yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etishga yirik ta'sir ko'rsatmoqdalar. Qayd qilish zarurki, keyingi vaqtda qishloq Kengashlari tarkibiga yer tuzuvchi lavozimi joriy qilingan. respublika sug'oriladigan yerlaridan foydalanishni boshqarishda suvdan foydalanuvchilar Uyushmasi nihoyatda faol ishtirok etmoqdalar. Ular nodavlat notijorat tashkilotlari bo'lib amalda bir yoki bir necha fermer xo'jaliklari Birlashmalari chegaralaridagi sug'oriladigan yerlardan foydalanishni boshqaradilar. SIUning asosiy vazifalariga kiradi: sug'orish suvini ekinlar tarkibini hisobga olgan holda fermer xo'jaliklari o'rtasida taqsimlash: SIU chegarasida sug'orish, kollektor, yo'l tarmoqlarini ishchi holatda tutib turish: fermer xo'jaliklari tomonidan meliorativ tadbirlarni amalga oshirishni, ular tomonidan yer-suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirilganligini nazorat qilish va boshq. SIU assotsiatsiya a'zolar-fermerlarning badallari hisobiga faoliyat ko'rsatadi. Keyinchalik yerdan foydalanishning pastki darajasida nodavlat notijorat tashkilotlarning rolini o'sib borishiga hech qanday shak-shubha yo'q desak xato qilmaymiz.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni boshqarishning ikkinchi kichik tizimining mohiyati qanday?
2. Regional darajada yerdan foydalanishni boshqarishning asosiy vazifalarini sanab bering?
3. Regional darajada yerdan foydalanishni boshqarishning mazmunini tavsiflab bering?
4. Regional darajada yerdan foydalanishni boshqarishning asosiy kamchiliklarini sanab bering?
5. Tuman darajasida yerdan foydalanishni boshqarishning asosiy vazifalarini sanab bering?
6. Tuman darajasida foydalanishni mazmunini tavsiflab bering?
7. Tuman darajasida yerdan foydalanishni boshqarishning asosiy kamchiliklarini sanab bering?
8. Mintaqa va tuman darajalarida yer munosabatlarini tartibga solish va boshqarishning vazifalariga qiyosiy baho bering?
9. Yerdan foydalanishni boshqarishda nodavlat notijorat tashkilotlarining rolini tavsiflang?

3.9 Suvdan foydalanishni va yerdan foydalanishni boshqarishda suvdan foydalanuvchilar uyushmasining roli

Respublikada tashkil etilgan suvdan iste'molchilar uyushmalari (SIU) respublikaning deyarli barcha sug'oriladigan yerlarni qamrab oladilar, ular sug'orish infratuzilmalarini ishchi holatda ushlab turish bo'yicha keng qamrovli muammolarni hal qiladilar. Respublikadagi 3269,1 ming gektar sug'oriladigan maydonga 1407 SIU xizmat ko'rsatmokda. Respublika uchun SIU fermer xo'jaliklari darajasida suvdan foydalanishni boshqarishning yangi tashkiliy-huquqiy tarkibi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatayotgan bitta SIU ishlab chiqarish faoliyatining ko'rsatkichlari 22-jadvalda keltiriladi.

Ikki yoki undan ortiq fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatadigan sug'orish-zovur tizimlari hamda ulardagi barcha turdagi inshootlar fermerlararo tizimi toifasiga kiradi hamda SIU balansida bo'ladi va SIU tomonidan ekspluatatsiya qilinadi. Fermerlararo suv obyektlarining tarkibiga quyidagilar kiradi:

-xo'jalik, taqsimlovchi va chiqarib tashlovchi kanallar, lotoklar, quvurlar, ulardagi inshootlar bilan birga:

-muvaqqat sug'orish tarmoqlari;

-bitta SIUga xizmat ko'rsatuvchi kollektorlar, zovurlar va ularning inshootlari;

-suvni hisob qiluvchi qurilmalar;

-sug'orish qurilmalari va mashinalari;

-sug'orish va kollektor-zavur tarmoqlari hamda boshqa inshootlar va qurilmalarga xizmat ko'rsatuvchi yo'llar va aloqa liniyalari.

SIU irrigatsiya va melioratsiya xizmatiga quyidagi funksiyalar yuklatilgan:

A) sug'orish jadvallarini tuzish va uni bajarish, sug'orishni ancha takomillashgan usullari hamda texnikasini joriy etish:

B) sug'orish tarmoqlarida suv isrofgarchiligi bilan kurashish hamda xo'jalikka olinadigan suvdan foydalanish samaradorligini ta'minlash:

V) sug'orish kanallarini loy bilan to'lib qolishi va o't bosib ketish sabablari bilan kurashish:

G) kanallar va ulardagi inshootlarnio'z vaqtida ta'mirlash;

D) sho'rlangan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, yer fondini sho'rlanishdan va botqoqlanishdan ogoh qilish hamda ortiqcha suvlarni xo'jalikdan tashqariga olib chiqish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.

Sobiq “Uch-tut” shirkat xo‘jaligi asosida tashkil etilgan Navoiy viloyati
Navbahor tumanidagi “O‘ng sohil” SIUning ko‘rsatkichlari*

t/r	Ko‘rsatkichlar	O‘lch. Birligi	Shirkat xo‘jaligi	Shirkat xo‘jaligi asosidagi “O‘ng sohil” SIU	Farqi	Izoh
1	Suv olish	ming.m ³	21516	16316	-5200	O‘z.R.VMning 2002y 5.01dagi Qarori bilan Sobiq “Uch-tut” sh.x fermer xo‘jaliklariga aylantirilgan.
2	1.kub.m suvning tannarxi	So‘m	0,75	0,6	-0,15	
3	1.t.paxtani etishtirishga suv sarfi	m ³	4400	3800	-600	
4	1t bug‘doy etishtirishga suv sarfi	m ³	3500	2560	-940	
5	Nasoslar soni	dona	58	18	-40	
6	Jami yillik xarajat	ming.so‘m	202500	153600	-48900	
7	YOMM	tonna	336	9	-327	
8	Elektr energiyasi	ming kvt	1837	476	1361	
9	SHtatlar ro‘yxati	odam	5	9	4	
10	Yillik ish haqi	mln.so‘m	2,1	3,7	1,6	

* O‘z.R.VMning 2002y 5.01dagi Qarori bilan Sobiq “Uch-tut” sh.x.

“O‘ng sohil” SIUga aylantirilgan

Albatta, respublikada suvdan foydalanuvchilar talablarini to‘la miqdorda ta‘minlamayotgan va faoliyati samarasiz SIUlar anchagina. Amaldagi tartibga ko‘ra fermerxo‘jaliklari suvdan foydalanishni boshqarish bo‘yicha barcha vakolatlarni SIUga berganlar, ammo ko‘pgina SIUlar o‘zlarining yuridik makomiga, suv resurslarini taqsimlash vakolatlariga va moliyalash mexanizmlariga ega emaslar. Shuning uchun suvdan foydalanishning quyidagi tamoyillarini kiritishni tavsiya qilish maqsadga muvofiqdir:

- o‘z-o‘zini boshqarish, SIU sug‘orish tizimlarini ekspluatatsiya qilish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish maqsadida o‘z a‘zolari tomonidan tashkil etiladigan, o‘zining barcha a‘zolari manfaatlari, shuningdek suvdan foydalanish tizimini barqarorligi manfaatlarini zarur tartibda hisobga oladigan o‘z-o‘zini boshqaradigan, o‘z-o‘zini moliyalaydigan nodavlat notijorat yuridik shaxs hisoblanadi. Tizimlar barqarorligini hamda SIUni zaruriy institutsional rivojlanishini ta‘minlashda, ayniqsa ularni tashkil etish davrida davlat nihoyatda

muhim rol o'ynasa-da, ushbu funksiyalar SIUning faoliyatiga hech qanday to'g'ridan-to'g'ri aralashuvsiz amalga oshirilishi zarur;

-SIUning hisob berishligi-sug'orish tarmoqlari SIUga ishonch asosida boshqarishga beriladi,shu bilan birga har bir SIU majburiyatlarni berish to'g'risidagi Shartnomaning qoidalarida asosida boshqaradigan tizimlar uchun davlatga hisob beradi. Bunday hisob berish irrigatsiya tizimlarining rivojlanishiga javob beruvchi davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan doimiy monitoring tizimi orqali tadbiriq qilinadi;

-irrigatsiya bo'yicha davlat organining hisob berishligi-Davlat suv xo'jaligi organlari har yilgi suv etkazib berish shartnomalarida ko'rsatilgan suvni o'z vaqtida etkazib berishga javob beradi. Bunday shartnomalar asosida suvni o'z vaqtida va belgilangan xajmlarda etkazib bermagan hollarda SIU uchun o'rnini qoplash uslubiyatini aniqlash zarur;

-hayotiyliigi-SIU o'z a'zolarining uzoq muddatli manfaatlari yo'lida hayotiy notijorat tashkilot sifatida faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan texnik, boshqaruv va moliyaviy imkoniyatlarni olishi zarur. Buning uchun SIU ish haqini,ko'zda tutilgan sarf-harajatlar yoki ishchi qurilmalarni almashtirishga zaxira fondini yaratish mexanizmlarini qo'shgan holda tizimni samarali ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatishga zarur miqdorlarda irrigatsiya tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish va texnik xizmat ko'rsatish, a'zolik badallarini hamda yig'imlarini to'lash vakolatiga ega bo'ladi;

-moliyaviy hisob berishligi-mamlakatning boshqa korxonalarini singari o'z moliyaviy resurslarini zaruriy boshqarilishiga javob beradi hamda to'lov hujjatlarini va balanslarini, shuningdek davlat taftish hamda sudlashuv jarayonlarining qoidalarida belgilanadigan tashqi vositalarni taqdim etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tamoyillarni to'la joriy qilish uchun suvdan foydalanuvchilar Uyushmasi to'g'risidagi qonun zarur. SIU suvdan foydalanuvchilarning tashabbuslariga ko'ra ko'ngillilik asosida tuziladi va u nodavlat notijorat tashkilot hisoblanadi. SIU qishloq xo'jalik Yerlarini ijaraga olish huquqiga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarning tashabbuskor


guruhlari tomonidan tuziladi, u o'zining ta'sis qo'mitasini shakllantiradi. SIU nizomi Adliya Vazirligi organlarida ro'yxatga olinishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 77-moddasiga hamda "Suv va suvdan foydalanish" qonuning 10-moddasiga binoan, notijorat tashkiloti sifatida ta'sis qilingan SIU ma'lum bir sug'orish tarmoqlariga xizmat ko'rsatish yo'li bilan suvdan foydalanish sohasida fermerlar va qishloq aholisini manfaatlarini himoya qilishga, shuningdek SIU mintaqasida joylashgan yerdan foydalanuvchilarga boshqa xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan (29-rasm). SIU nodavlat notijorat tashkilot bo'lganligi sababli uning faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishga yo'l qo'yilmasligi zarur. Hech qanday QSXV, joylardagi hech qanday davlat organi uning faoliyatiga aralashishga haqli emas, ammo bunday aralashishlar ba'zan uchrab turadi. Masalan, suvdan foydalanishni boshqarishning mahalliy organlari fermer xo'jaliklari o'rtasida suvni taqsimlash jarayoniga aralashadilar. Uyushma o'zining xizmatlariga bulgan talab hamda o'z a'zolari daromadlarini oshirishlariga qarab o'z byudjetini mustaqil ravishda shakllantiradi, sarflaydi va itiqboldagi rivojlantirishni aniqlaydi. SIUning moliyaviy yili kalendar yil bilan birlashgan. Uyushma suv limitlarini va badallar miqdorini taqsimlash uchun zarur bo'lgan o'z a'zolarining yerlarini kadastr ma'lumotlaridan foydalanadi.

Yer kadastr ma'lumotlari har yili Uyushma a'zolarining ma'lumotlari bo'yicha to'g'rilanadi. Uyushma ishlariga va xizmatlariga baholar va ta'riflar, agar ular qonunchilik bilan belgilangan bo'lsa, ularni to'lash tartibi va muddatlari umumiy majlislarning qarori bilan belgilanadi.

SIUni faoliyat ko'rsatishining asosiy shartlaridan biri- suvdan foydalanuvchilar va suvni etkazib beruvchilar o'rtasida shartnomaviy o'zoro munosabatlarini o'rnatishdir. Suvni etkazib berish shartnomasi Adliya Vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan, belgilangan shaklda tuziladi. Shartnomada suvni etkazib berish bilan bog'liq barcha qirralar yoritiladi. Irrigatsiya tarmoqlari Boshqarmasi bilan suvdan foydalanuvchilar uyushmasi o'rtasidagi namunaviy shartnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003yil 4.09 dagi

383-sonli Qaroriga qat'iy muvofiq ravishda tuziladi. Rivojlangan mamlakatlarda (Italiya, AQSH, Yaponiya va boshq.) suv etkazib berish uchun SIU hamda uning a'zolari o'rtasida shartnoma tuzish ko'zda tutilmagan. Fermerni SIUdan ayrim holda qarash mumkin emas. SIU hamda uning a'zolari- fermerlar o'rtasida o'zaro jarima sanksiyalarini qo'llanishi mumkin emas. SIU va uning a'zolari o'rtasida o'zaro munosabatlar SIUning Nizomida ko'zda tutilgan. SIUning xizmat ko'rsatish hududida bo'lgan, lekin uning a'zosi bo'lmagan suvdan foydalanuvchilar suv etkazib berish uchun SIU bilan shartnoma tuzishga majburdirlar. Tomorqada yerlari bilan mahalla qo'mitalari o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan suv bilan ta'minlanadilar.



29-rasm. Suv iste'molchilari Uyushmasining tarkibi

Har qanday qishloq xo'jalik ekinini etishtirishda mashinali sug'orishdan foydalanish yirik sarf-harajatlarni talab qiladi. Shuning uchun mashinali sug'orish asosan unumdor yerlarda qo'llaniladi va bunda barcha harajatlar suvdan foydalanuvchilar hisobidan qoplanadi. Ammo davlat buyurtmasi bo'yicha qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish uchun mashinali sug'orishdan foydalanishda barcha xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003yil 4.09dagi 383-sonli qaroriga muvofiq (2005yil 26maydagi 133-sonli Qororidagi

tuzatmalar bilan) tayyorlov tashkilotlari tomonidan qoplanishi zarur. Buning uchun davlat buyurtmasini bajaruvchilar buyurtma berilgan mahsulotni ishlab chiqish bo'yicha mashinali sug'orishga sarflangan harajatlar to'g'risida "Paxtasanoat" yoki "O'zdonmahsulot"ga ma'lumotnoma beradi. SIUning faoliyati SIU hududida joylashgan suvdan foydalanuvchilar (fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa uchastkalari va boshq.) badallari hisobiga amalga oshiriladi. Badallar a'zolik, joriy hamda rivojlanishga bo'linishi mumkin. SIUni tashkil etish bilan bog'liq harajatlar (muhr va shtampni tayyorlash, SIUni davlat ro'yxati va boshq.) a'zolik badallari hisoblanadi. Joriy badallar (a'zolik) SIUdagi yollanma ishchilarni ushlab turish uchun belgilanadi. Rivojlantirish maqsadlari uchun belgilanadigan badallar ta'mirlashga, qayta turishga va sug'orishni ilg'or texnologiyalarini qo'llashga sarflanadi.

Joriy badallarning miqdori olinadigan suvning hajmiga bog'liqdir. Xizmat ko'rsatiladigan maydonda bir xil ekinlar (paxta, bug'doy) joylashgan taqdirda suvdan foydalanuvchilardan badallar gektarli ta'rif bo'yicha (so'm/ga) to'planadi. SIUda suv o'lchagich asboblarini bo'lmaganligi sababli badallar amalda gektar bo'yicha tarifga asosan to'planadi. Badallar 20000dan 200000 so'm/ga gacha farq qiladilar. Rivojlantirish maqsadlaridagi badallar irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlari va inshootlarining balans qiymatidan amortizatsiya ajratmalarining miqdoriga qarab aniqlanadi.

O'zbekistonda SIU asosan qaytadan tashkil etilgan qishloq xo'jalik korxonalarini (shirkatlar) hududida tashkil etilgan. Ushbu xo'jaliklarni qayta tashkil etish chog'ida tuman hokimining qarori bo'yicha tugatish hay'ati tashkil etilgan. Oldingi xo'jalikning barcha asosiy fondlari va vositalarini, shu jumladan suv xo'jaligi obyektlarini qayta baholash ularning vazifasiga kirgan. Tugatish hay'ati tomonidan SIUning balansiga beriladigan qayta baholangan asosiy fondlarning qaydnomasi tuziladi. Respublika bo'yicha jami 70 foiz SIU o'zining moddiy-texnik bazasiga, texnikalar va qurilmalar sotib olish uchun kredit olish imkoniyatiga ega emas. shu sababli SIUGa kredit resurslarini olishimkoniyatlarini berish tavsiya qilinadi. Bugungi kunda SIU hali ham tiklanish bosqichida,

iqtisodiy jihatdan kam quvvatli hamda sug'orish tarmoqlarini texnik soz holatda ushlab turish uchun texnik vositalarga deyarli ega emas.

Respublikada qabul qilingan tashkiliy-hududiy boshqarish, suvni transportirovka qilish va suvdan foydalanuvchilarga (fermerlarga) suvni etkazib berilishiga qarab sug'orish tarmoqlari quyidagi darajalarga bo'linadi:

- suv maydonlari va suv tashish uchun magistral kanallar-STBBlari (1-daraja);

- suvni tashish uchun xo'jaliklararo kanallar va ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlariga uni taqsimlash- STB lari (2-daraja);

- ichki xo'jalik sug'orish tarmog'i suvni suvdan foydalanuvchilarga taqsimlaydi- SIU (3-daraja);

- suvdan foydalanuvchining dalasiga suv berish uchun uchastkali sug'orish tarmog'i (fermer xo'jaligi)- SF (FX)- (4-daraja).

STBB chegarasida, 1-darajada, sug'orish tarmoqlarini ishchi holatda tutib turish harajatlariga quyidagilar kiradi: magistral kanallarni tozalashga harajatlar (X_{I-toz}), magistral kanallarni ta'mirlash harajatlari ($X_{I-t.k}$), magistral kanallardagi inshootlarni ta'mirlashga xarajatlar ($X_{I-t.i}$), STB ma'muriyatini saqlab turish harajatlari ($X_{I-ma'm}$). STB chegarasida, 2-darajada, sug'orish tarmoqlarini ishchi holatda tutib turish harajatlariga quyidagilar kiradi: xo'jaliklararo kanallarni tozalashga harajatlar (X_{II-toz}), xo'jaliklararo kanallarni ta'mirlash harajatlari ($X_{II-t.k}$), xo'jaliklararo kanallardagi inshootlarni ta'mirlash harajatlari ($X_{II-t.i}$), STB ma'muriyatini saqlab turish harajatlari ($X_{II-ma'm}$). 3-darajada, SIU chegarasida sug'orish tarmoqlarini ishchi holatda tutib turish harajatlariga quyidagilar kiradi: ichki xo'jalik kanallarini tozalashga harajatlar ($X_{III-toz}$), ichki xo'jalik kanallarini ta'mirlash harajatlari ($X_{III-t.k}$), ichki xo'jalik kanallaridagi inshootlarni ta'mirlashga harajatlar ($X_{III-t.i}$), SIU xodimlarini tutib turish xarajatlari (X_{III-x}). SFlar chegarasida, 4-darajadagi uchastkali sug'orish tarmoqlarini tutib turish harajatlariga kiradilar: uchastka sug'orish kanalini tozalash harajatlari (X_{VI-toz}), uchastka sug'orish kanalini ta'mirlash harajatlari (X_{VI-t}), uchastka sug'orish

kanalidagi inshootlarni ta'mirlash harajatlari($X_{VI-t.i}$), suvga resurs sifatidagi to'lovlar (X_{VI-res}), suv solig'i($X_{VI-soliq}$).

STBB lari va STBlar o'z faoliyatlarini byudjet vositalari hisobiga amalga oshiruvchi davlat tashkilotlaridir, magistral va xo'jaliklararo kanallar ham bugungi kunda davlat byudjeti hisobiga ushlab turiladi. SIU- suvdan foydalanuvchilarning uyushgan badallari hisobiga faoliyat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar, iqtisodiy jihatdan suvdan foydalanuvchilar (fermerlar)ning to'lov qobiliyatlariga bog'liq hamda ichki xo'jalik tarmoqlarini mustaqil ravishda tutib turish imkoniyatiga ega emas. suvdan foydalanuvchilar (FX) uchastka sug'orish tarmog'ini tutib turish, suvga haq to'lash, SIU ishlab-chiqarish hodimlarini tutib turish harajatlarini amalga oshiradilar.

Sug'orish suviga limitning hajmi barcha rivojlangan mamlakatlarda amaliy jihatdan qishloq xo'jalik suvidan foydalanuvchilariga bepul beriladi. Bu holat shu bilan tushuniladiki, sug'orish suvi tabiiy resurs sifatida bahoga ega emas. O'zbekistonda ham suv limiti, o'z tarkibiga sho'r yuvish suvini ham qo'shganiholda va regionlar bo'yicha tabaqalangani xolda fermerlarga bepul beriladi.

Sug'orish suvini bozor bahosini belgilash va limitlangan suv uchun suvdan foydalanuvchilarga ma'lum bir to'lovlarni kiritish zarur.Yerning bahosi ham tabiiy resurs sifatida irratsional tushuncha hisoblanadi. Ammo Yerni bozor munosabatlariga tortish uni bozor bahosini belgilashga olib keldi. SHu munosabat bilan sug'orish suviga bozorni vujudga keltirish sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarni kuchaytirish zarur.

Suvdan foydalanishda bozor munosabatlarining dunyo tajribasi belgilanganlimitdan ortiq suv hajmiga suvdan foydalanuvchilarning to'lovini ko'zda tutadi. Uni to'lash ko'pgina davlatlarda turlicha amalga oshiriladi, ammo amalda barcha joyda u progressiv xarakterga ega, limitdan oshiq suv xo'jaligining bazaviy bahosi u yoki bu tezlikda o'sib boradi. O'zbekistonda limitdan oshiqcha suvdan foydalanganlik to'lovlari hali amaliyotga kiritilmagan.

Uni amaliyotga joriy qilish tashkiliy-texnik, iqtisodiy va huquqiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Texnik jixatdanssondan foydalanuvchilar uchastka sug'orish kanallaridagi barcha suv chiqarish qurilmalari, suv o'lchash asboblari (nazoratli-o'lchov asboblari-NO'A) bilan jihozlangan bo'lishi zarur. Har bir SIUdagi ichki xo'jalik sug'orish tarmog'i ham NO'A bilan jihozlangan bo'lishi zarur. O'lchov asboblarining aniqligi ancha oshirilishi zarur.

Sug'orish suvini tashishga to'lovlar ikkita tashkil etuvchidan iborat: sug'orish tarmoqlarini ichki holatda tutib turishga to'lovlar va SIU hodimlariga haq to'lash. Birinchi tashkil etuvchi sug'orish tarmoqlari va ulardagi inshootlarni ta'mirlashga haqni, shuningdek tarmoqni tozalash qiymatini o'z ichiga oladi. Turli mamlakatlarda ushbu turdagi to'lovlar turlicha nomlanadi: suv solig'i, suvning qiymati, suvdan foydalanuvchiga suv etkazib berish qiymati, suvdan foydalanuvchining yer uchastkasiga suvni tashish qiymati. O'zbekistonda ushbu xildagi to'lovlar suvni tashish to'lovlari deb ataladi. Bu to'lovlar deganda sug'orish kanallarini ishchi holatda tutib turish harajatlari va SIU hodimlariga haq to'lash tushuniladi. To'lovlarni ikkinchi tashkil etuvchisi-SIUning ishlab-chiqarish hodimlari mehnatiga haq to'lashdir. Buni tutib turish uchun suvdan foydalanuvchilarning har yilgi badallari ko'zda tutiladi.

Respublikada bugungi kunda suvdan foydalanuvchilar badallarini to'plash tizimsizligini hisobga olgan holda uni zaruriy me'yoriy hujjatlar (masalan, SIU to'g'risidagi qonun) bilan qonunlashtirib majburiylik xarakterini berish zarur. Suv uchun barcha turdagi to'lovlar majburiy xarakterni olishi zarur. Limitlangan va limitdan ortiqcha suvni litsenziyalash mexanizmini kiritish maqsadga muvofiq, bunda suvdan foydalanuvchilar qishloq xo'jalik yilining boshlanishida suvga litsenziyalar sotib oladilar. Suv hajmi majburiy tartibda ushbu region uchun belgilangan limitni va suvdan foydalanuvchining ixtiyoriga qarab limitdan ortiqcha suv hajmini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, litsenziyaning qiymatiga SIU ishlab chiqarish hodimlariga haq to'lash uchun badallar ham kiradi.

Suvga litsenziyani markazlashgan holda, yil boshida suv tizimlari bo'yicha sotish, birinchidan, suvdan foydalanuvchigi suvning limit hajmini olishga kafolat beradi. ikkinchidan oldinda turgan qishloq xo'jalik yilini suvlik darajasidan kelib chiqqan holda (mutaxassislarining baholash bo'yicha) suvdan foydalanuvchi o'z xoxishiga ko'ra limitdan oshiqcha zaruriy hajmdagi suvni birdaniga sotib olishi mumkin. Uchinchidan, suvdan foydalanuvchilar SIUning ishlab-chiqarish hodimlarini tutib turish byudjetiga yilning oxirida birdaniga badallarni amalga oshiradilar. Suvdan foydalanish uchun barcha turlardagi to'lovlar o'zlarining suv tizimlari bo'yicha markazlashgan holda yil boshida amalga oshiriladi.

Litsenziyaning egasi zaruriy hollarda ma'lum xajmdagi suvga kuponni berish yoki sotish bilan o'zining Uyushmasidagi boshqa suvdan foydalanuvchiga o'z suvini bir qismini berishi (sotishi) mumkin. Xo'jalikdagi tejalgan suvni oldi-sotdi qilish imkoniyati vujudga keladi, bu bozor tomoyillariga javob beradi, sug'orish suviga bozorni shakllantirishga, tizim bo'yicha sug'orish suvidan samarali foydalanishga imkon beradi. Bunda harakatlar SIU, STB va STBB ishlab chiqarish hodimlarining aralashuvisiz bozorda amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanish tizimini yaxshilashda, suvdan va sug'oriladigan Yerlardan foydalanish samaradorligini oshirishda, shuningdek fermer xo'jaliklari daromadlarini ko'paytirishda STBB, STB va SIU ishlab chiqarish hodimlarini manfaatdorliklarini rag'batlantirishning qandaydir bir mexanizmi bugungi kunda mavjud emas. SIU ishlab chiqarish hodimlari manfaatdorligini SIU chegarasidagi fermer xo'jaliklari daromadlarini oshishi bilan, STB hodimlarini-sug'orish tizimi (ST) chegarasidagi fermer xo'jaliklari daromadlarini oshirish bilan, STBB hodimlarini-STBB chegarasidagi fermer xo'jaliklari daromadlarini oshishi bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir. Hodimlar manfaatdorligini fermer xo'jaliklari daromadidan foizlarda yoritish maqsadga muvofiq (masalan, 0,5% yoki 0,25% va xok.). SIU, STB va STBB ishlab-chiqarish hodimlari o'rtasida o'tkaziladigan vositalarni taqsimlash SIU, STB va STBB xizmat ko'rsatadigan xo'jaliklar miqdorlariga va sug'oriladigan yerlar maydoniga mos tarzda proporsional ravishda amalga oshiriladi.

Suvni litsenziyalash mexanizmi hamda ortiqcha foydalanilgan suv bilan bozor harakatlari suv hisobini aniqligini ancha oshirishni talab qiladi. Sug'orish suvi hisobini aniqligini asoslash hamda suvdan foydalanuvchilarning barcha suv chiqaruvchi qurilmalarini ularga mos aniqlikdagi nazoratli-o'lchov asboblari (NO'A) bilan ta'minlash zarur. Suvdan foydalanuvchiga o'z vaqtida va to'la miqdorlarda suv etkazib bermaganlik uchun jarima sanksiyalarini qayta ko'rib chiqish talab qilinadi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasining mohiyati va mazmuni nima?
2. SIU balansida qanday suv obyektlari bo'ladi?
3. SIUga qanday funksiyalar yuklatilgan?
4. SIU faoliyatining asosiy tamoyillarini aytib bering.
5. SIUning tarkibini tavsiflang.
6. SIUning faoliyati qanday moliyalanadi?
7. Irrigatsiya va kollektor tarmoqlarini zaruriy holatda turishida suvdan foydalanuvchilarning ulushi qanday?
8. Ortiqcha suvdan foydalanishni bozor harakatlari va suvni litsenziyalash mexanizmining mohiyati nima?

IV BOB. YERDAN FOYDALANISHNI INTEGRATSION

BOSHQARISHNING FUNKSIYALARI

4.1 Yer qonunchiligi ijodiyoti-yerdan foydalanishni boshqarishning funksiyasi

Yerdan foydalanishni o'zi kabi yer qonunchiligi ijodiyoti jarayoni ham tanaffuzsiz davom etadigan, doimiy jarayondir. Buning natijasida boshqarishning ushbu funksiyasi ham dinamik xarakteriga ega. Ushbu ijodiyot davomida yangi qonunchilik hujjatlari qabul qilinadi hamda mavjud qonunchilik hujjatlariga mamlakatdagi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish va chuqurlashtirishga mos o'zgarishlar kiritiladi.

Mamlakatda yer munosabatlarini tubdan o'zgarishi yer munosabatlari sohasida zaruriy qonunchilik bazasini yaratishni talab qildi. Yer qonunchilik bazasini ishlab chiqishni tezlashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 martdagi 120-sonli "1998-2000yillar davriga qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish Dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Karorini qabul qilinishi bilan muhimlashdi. Shu sababli yer munosabatlari sohasida mamlakatda qator muhim qonunchilik aktlari tayyorlandi va qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi (1998 yil 30 apreldagi Oliy Majlisning XI sessiyasida), O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi Qonuni (1998yil 28 avgustdagi Oliy Majlisning XII sessiyasida), O'zbekiston Respublikasida davlat yer kadastrini yuritish tartibi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998yil 31 dekabrda 543-sonli Qarori) shular jumlasidandir. Bundan tashqari, yer kodeksi va "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi qonunining asosiy qoidalarini rivojlantirish bo'yicha "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi tomonidan yerdan foydalanish va yer munosabatlarini tartibga solish masalalariga bog'liq 40 dan ortiq qonun osti me'yoriy hujjatlari ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini, shuningdek qishloqlararo yerlardan foydalanishga talluqli bo'lgan qator muhim masalalar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida (1998y) qabul qilingan "Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida", "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" qonunlarda o'zining aksini topgan. Sanab o'tilgan qonunchilik hujjatlari guvohlik beradiki, bugungi kunda yerdan foydalanish sohasida qonunchilik bazasi amaliy jihatdan yaratilgan.

Yer kodeksining asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasiga to'la asoslangan, qaysiki bu yerda e'tirof etiladiki, tabiiy resurslar va birinchi galda yer, umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi aholisining hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida davlat tomonidan oqilona foydalanilishi va muhofaza qilinishi zarur.

Yer kodeksining 1-moddasida e'tirof etilishicha, yer qonunchiligining asosiy vazifasi bugungi va bo'lg'usi avlodlar manfaatlarini ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solish, yerlardan ilmiy asoslangan, oqilona foydalanish va muhofaza qilish, tuproq unumdorligini qayta tiklash, tabiiy muxitni saqlash va yaxshilash, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqli rivojlantirish uchun sharoit yaratish, yuridik va jismoniy shaxslarni yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini muhofaza qilish, shuningdek bu sohadagi qonunchilikni mustahkamlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksi 14 bob 91-moddani o'z ichiga oladi. Mazmuni jihatidan uni quyidagi 10 tarkibiy bo'limlarga ajratish mumkin: umumiy qism (1-10moddalar); yer kadastri, yer tuzish va yer monitoringi (11-15 moddalar); yer uchastkalariga huquq shakllari (16-38 moddalar); yer huquqi subektlarining huquqiy rejimi (39-42 moddalar); qishloq xo'jalik yerlari (43-58 moddalar); yer fondining boshqa toifa yerlari (59-78 moddalar); yerlarni muhofaza qilish, yer munozaralarini hal qilish, yer qonunchiligiga rioya qilishni nazorati hamda buni buzganlik uchun javobgarlik (79-85,89-91 moddalar), zararlar va ishlab chiqarish yo'qotishlari o'rnini qoplash (86-88 moddalar).

Umumiy bo'limda yer qonunchiligining tamoyillari, davlat hokimiyati organlarini yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari, yer fondini yer toifalari bo'yicha tarkibi keltirilgan, yer uchastkasiga tushuncha berilgan.

Yer kodeksida u qabul qilinguncha faoliyat ko'rsatgan "Yer to'g'risida"gi qonunga (1990 y.) nisbatan yer huquqining yangi asosiy tamoyillari qatoriga quyidagi tamoyillar qo'shilgan: yerga egalik va foydalanish shakllarining rang-barangligi, yer huquqi subektlarining teng huquqliligini ta'minlash, ularning qonuniy huquqi va manfaatlarini himoya qilish; yerga va barcha atrof muxitga zarar etkazilishini oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash; yerni holati to'g'risidagi axborotlarni to'laligini va haqqoniyligini ta'minlash.

Yerga egalik va foydalanish shakllarining rang-barangligi tamoyilini kiritishga zaruriyat mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga, ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning hamda yer uchastkasiga huquqning turli

shakllarini rivojlanishiga iqtisodiyotniko'pukladliligiga asoslanadi. manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer kadastr axborotlariga bo'lgan imkoniyatlar tamoyili jamiyatni demokratik rivojlanishi va ochiqligiga, rivojlanayotgan ko'chmas mulk bozorini yer axborotlarini talablariga, rivojlanayotgan investitsiya siyosatini hamda kredit-garov tizimining talablariga, shuningdek boshqa qator ijtimoiy-iqtisodiy omillarga asoslanadi.

Yer fondini yangi tarkibiga mos ravishda mamlakatning barcha yerlari 8 yer toifasiga bo'lingan: oldingi qabul qilingan 7 toifaga qo'shimcha tariqasida tarixiy-madaniy yodgorliklar yerlari toifasi qo'shilgan. Yerlarni yer fondining u yoki bu toifasiga kiritish yerlarni berish chog'ida o'rnatiladigan yer uchastkalarining maqsadli mohiyatiga qarab qat'iy ravishda amalga oshiriladi.

Yer kodeksida yer uchastkasiga yangidan ta'rif berilgan. Yangi tushunchaga binoan yer uchastkasi-bu belgilangan chegaraga hamda shunga mos maydon va egallagan o'ringa, huquqiy rejimga va boshqa tavsiflarga ega bo'lgan, davlat yer kadastrida, shu jumladan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yhatiga olish hujjatlarida yoritiladigan yer uchastkasining bir qismidir. Demak, yer uchastkasi deganda, kenglik-huquqiy makomga ega bo'lgan, ma'lum bir maqsadda foydalanishga mo'ljallangan hamda aniq bir yer huquqi subekttiga qarashli bo'lgan ma'lum bir hudud tushuniladi. Shu munosabat bilan huquqiy makomga ega bo'lgan, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslarning obyektlari, "yer egaligi" va "yerdan foydalanish" hududi sifatidagi oldingi tushunchalar bekor qilindi.

Yer kodeksida bozor iqtisodiyotini shakllantirishdagi yer kadastrining kuchayib borayotgan roli yoritildi, yaratilayotgan davlat kadastrlarining yagona tizimidagi o'rni, boshqa tarmoq kadastrlarini rivojlantirish uchun kenglik-huquqiy asos sifatidagi ahamiyati aniqlangan.

Yer kodeksida birinchi marta yer uchastkalariga subektlar huquqlarining keng qamrovli turlari, jumladan, yerga mulkchilik, abadiy merosiy egalik, birgalikda egalik yoki foydalanish, yer uchastkasining ijarasi birinchi marta ko'zda tutilgan.

Yerga mulkchilikka (yer kodeksining 16-moddasi) nisbatan qayd qilinadiki, O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan holatlardan tashqari barcha hollarda yer uchastkasini oldi-sotdi, almashtirish, sovg‘a qilish, garovga qo‘yish man qilingan. Yuqorida qayd qilingan holatlarda yuridik va jismoniy shaxslar yer uchastkalariga, shu jumladan mulk huquqida ham yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin (17,18-moddalar). Mulk huquqi bilan yer uchastkasiga ega bo‘lish imkoniyati to‘g‘risidagi bu qoida respublika yer qonunchiligida birinchi marta yuritilgan.

Yer uchastkasini bo‘lish mumkin bo‘lmagan hollarda unga birgalikda egalik qilish yoki undan birgalikda foydalanish to‘g‘risidagi qoida yer kodeksining mazmunida yangidir. Auksionlardan tanlov asosida 0,04ga atrofidagi yer uchastkasini umrbod merosiy egalik huquqi asosida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini sotib olishi ham yangi qoida hisoblandi. Huquqshunoslikdagi bu yangilik mamlakatda uy-joy masalasini hal qilinishini ancha tezlashtirish hamda ijtimoiy muammolarni ko‘p jihatdan engillashtirishga imkon beradi.

Respublika yer qonunchiligiga birinchi marta yer uchastkalaridan foydalanishga cheklashlar (saqlashlar) tushunchasi, shuningdek servitutlar to‘g‘risidagi tushuncha kiritildi. Yer uchastkasidan foydalanishga quyiladigan cheklanishlarning asosiy turlari quyidagilar (29-modda): oldi-sotdi, iklamchi ijara, maqsadli mohiyatini o‘zgartirish, faoliyatning alohida turlari, tashqi ko‘rinishni o‘zgartirish, ko‘chmas mulkni rekonstruksiya qilish yoki buzib tashlash va boshqalar. Yer uchastkasidan foydalanishga cheklashlar uning huquqiy makomiga qo‘shiladi, davlat ro‘yxatiga olinadi va yer uchastkasiga huquq boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga o‘tganigacha saqlab qolinadi. Servitutlar turli vazifalarni bajarish (to‘g‘ridan to‘g‘ri piyoda yoki mashinada o‘tish, suv olish, yer osti suvlarini chiqarib tashlash ishlari, turli injenerlik inshootlarini ekspluatatsiya qilish, mollarni haydab o‘tish, qidiruv ishlarini olib borish va hak.) zaruriyati bilan bog‘liq o‘zga yer uchastkasidan piyoda yoki mashinada o‘tishni ta‘minlash maqsadida belgilanadi. Servitutlar ko‘chmas mulklar shakllanishida yer uchastkasiga huquq subektti hamda servitutni

oʻrnatishni talab etuvchi shaxslar oʻrtasida kelishuvga binoan oʻrnatiladi, bunday kelishuvga Erishilmagan taqdirda servitut toʻgʻrisidagi masala sudda hal qilinadi. Oʻrnatilgan servitut davlat roʻyxatiga olinadi hamda yer uchastkasiga huquq boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga oʻtganda saqlab qolinadi. Servitut, uni oʻrnatishga asos toʻxtatilgan hollarda bekor qilinishi mumkin.

Yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni roʻyxatga olish masalalariga, shuningdek yer-roʻyxatga olish hujjatlarining turlari va mazmuniga yer kodeksida ayniqsa yirik eʼtibor berilgan. Yer uchastkasining kadastr plani, huquqni roʻyxatga olinganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma, shuningdek huquqni oʻrnatuvchi hujjatlar yer uchastkalariga boʻlgan huquqlarni roʻyxatga olishning asosiy hujjatlari hisoblanadi.

Yer kodeksida yer huquqi subektlarining huquqiy rejimi anchagina kengaytirilgan. Jumladan, huquq subektlari oʻz yer uchastkalarini ijaraga, iklamchi ijaraga va ichki xoʻjalik ijarasiga berishlari mumkin. Kredit olish maqsadida yer egasi-fuqaro yer uchastkasiga umrbod merosiy egalik huquqini, shu jumladan, dehqon xoʻjaligini yuritishi, yakka tartibda uy-joy qurish uchun auksion orqali olingan yer uchastkasini garov tariqasida berishi mumkin. Fermer xoʻjaligi kredit olish uchun oʻz mulkini, shuningdek yer uchastkasiga ijara huquqini garovga berishga haqlidir.

Yer kodeksining eng yirik va muhim boʻlimi-bu “Qishloq xoʻjalik yerlari” boʻlimi hisoblanadi, chunki bu bobdagi moddalarda ushbu toifa yerlarining huquqiy holati tartibga solinadi, ushbu yerlarda xoʻjalik yuritishning asosiy shakllari aniqlanadi, subektlar, jumladan qishloq xoʻjalik kooperativlari (shirkatlari), fermer xoʻjaliklari, dehqon xoʻjaliklarining huquqiy holatlari aniqlanadi.

Yer kodeksida qishloq xoʻjalik kooperativi (shirkati)ga taʼrif berilgan, yaʼni u-tovar qishloq xoʻjalik mahsulotlarini etishtirish maqsadida pay(ulush)ga asoslangan qishloq xoʻjalik korxonasining asosiy tashkiliy-huquqiy shaklidir. Yerlardan oqilona va samarali foydalanilgan taqdirda qishloq xoʻjalik kooperativi

(shirkati) yer uchastkasini qo'shimcha holda ijaraga olishi yoki vaqtincha foydalanishga olishi mumkin.

Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkati)ga doimiy egalikka berilgan yer uchastkasining qiymati, kooperativning asosiy fondlari va boshqa majburiyatlaridan holi aktivlarning qiymati bilan birgalikda pay fondining tarkibiy qismi hisoblanadi. Pay fondi kooperativ a'zolari o'rtasida mulkiy paylarga taqsimlanadi, ular pay fondining qiymatida hamda shunga mos dividendlar ko'rinishdagi foydasida har bir kooperativ a'zosining ulushini aniqlaydi. Kooperativ yer uchastkalari, qoidaga binoan, qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish uchun oilaviy (kollektiv)pudrat shartnomasining shartlari asosida oilalarga (kollektivga) vaqtinchalik foydalanishga beriladi. Oilaviy pudrat shartnomasida yer uchastkasining o'lchamlari, joylashgan o'rni va holati, yer uchastkasidan foydalanish shartlari, qabul qilingan almashlab ekish sxemasiga muvofiq yerning sifatini va hosildorlikni oshirish bo'yicha, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish bo'yicha tomonlarning majburiyatlari ko'rsatiladi. Oilaviy (kollektiv) pudrat shartlari asosida berilgan yer uchastkalari qat'iy ravishda maqsadli mohiyati bo'yicha foydalaniladi, ekin yerlari maydonlarini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi. Yer uchastkasining o'lchamlari va uning chegarasi tomonlarning kelishuviga binoan o'zgartirilishi mumkin.

Yer kodeksining 53-moddasi fermer xo'jaligining mohiyatini aniqlaydi, ya'ni u-o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkasidan foydalangani xolda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini olib boruvchi, fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan yuridik shaxs makomidagi mustaqil xo'jalik yurituvchi subekttir. Fermer xo'jaligiga yer uchastkalari zahira yerlardan, maxsus respublika fondidan, mehnat resurslari etishtirmaydigan xo'jaliklardan hamda yangidan sug'oriladigan massivlardan beriladi. Qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari)ning yerlari fermer xo'jaliklariga kooperativ a'zolari umumiy majlisning qarorlari bo'yicha berilishim mumkin, ushbu qarorlar asosida tuman hokimi mos ravishda qaror qabul qiladi. Fermer xo'jaligini yuritish uchun fuqarolarga yer uchastkasi 10yildan 50 yilgacha muddatga ijaraga beriladi.

yer uchastkasining o'lchami yer uchastkasini bergan organ tomonidan, har bir alohida holatda mahalliy sharoitlarni hamda fermer xo'jaligining miqdoriy tarkibini hisobga olgan tarzda aniqlanadi. Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalari xususiylashtirishi mumkin emas hamda ular oldi-sotdi, garov, sovg'a, almashish obyekti bo'lmaydi. Agarda qonunda yoki ijara shartnomasida ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday holda fermer xo'jaligi yer uchastkasiga o'zining ijara huquqini ijaraga beruvchining roziligisiz garovga berishi mumkin.

Yer kodeksida (55-modda) shuningdek dehqon xo'jaligiga tavsif berilgan, ya'ni u-umrbod merosiy egalik huquqi asosida oila boshlig'iga beriladigan, tomorqa yer uchastkasida oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va realizatsiyasini amalga oshiruvchi oilaviy mayda tovar xo'jaligidir. U quyidagi o'lchamlarda bo'ladi: sug'oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha va sug'orilmaydigan yerlarda 0,5 gektargacha, cho'l va dasht mintaqasida-qurilishlar va hovlilar egallagan yerlar bilan birgalikda 1,0 gektargacha.

Dehqon xo'jaligini yuritish uchun beriladigan yer uchastkasining o'lchami yer uchastkalarining mavjudligiga qarab hamda oila a'zolarini jamoat ishlab chiqarishdagi ishtirokini hisobga olgan holda aniqlanadi. Dehqon xo'jaligini yuritish uchun tomorqa yer uchastkasiga ega bo'lmagan yoki ushbu qishloq xo'jalik va o'rmon xo'jalik korxonasi, tashkiloti va muassasasida belgilanganidan kichik maydonga ega bo'lgan fuqarolarga ushbu korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlar egaligidagi yoki foydalanishidagi yerlardan belgilangan me'yorlar doirasida shaxsiy polizchilikka qo'shimcha yer uchastkalari foydalanishga beriladi. Dehqon xo'jaligini yuritish uchun respublika fuqarolariga tomorqa yer uchastkalari umrbod merosiy egalik huquqi asosida auksionlardan 0,06 gektarga qadar yer maydoni realizatsiya qilinishi mumkin.

Yagona davlat yer fondini uning ma'lum toifalariga kiritish tartibi va mexanizmi yer kodeksida aniqlangan. Kodeksda yerlarni muhofaza qilish, ularni oqilona va samarali foydalanishni nazorat qilish, yer qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik muammolariga diqqat va e'tibor qaratilgan.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasining yer munosabatlari sohasidagi asosiy qonunchilik hujjatlari hisoblangan yer kodeksi va “Davlat yer kadastriga to‘g‘risida” qonuni e’tirof etish zarurki, bugungi kunga yaratilgan huquqiy asos umumiy yer resurslaridan foydalanish samaradorligi darajasini ancha oshirish shartini ta’minlaydi.

Shu bilan bir qatorda qayd qilish zarurki, 1998-2000 yillarda yerdan foydalanish sohasida qabul qilingan asosiy qonunchilik hujjatlari, mamlakatda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirilishi sababli, ayniqsa keyingi yillari, yer munosabatlarini bozor sharoitida mamlakat iqtisodini dinamik rivojlana borish talablariga mos keltirishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan yaratilgan qonunchilik bazasi ma’lum darajada eskirdi. Jumladan, eng avvalo, yer qonunchiligida yerdan foydalanishni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatidagi mohiyati, yerdan foydalanishga jamiyat tomonidan yer resurslaridan ko‘p maqsadli foydalanishning obyektiv, tanaffuzsiz, siklli jarayoni sifatida tizimli yondashish hamda uni murakkab tashkil etishga boshqariladigan tizim sifatida qarash zarurligini yoritish zarur. Mamlakatda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratishning zamonaviy sharoitida uning maqsadi va vazifalarini shakllantirish zarur.

Yerdan foydalanishning mavjud qonunchilik asoslarini eng yirik kamchiliklaridan biri-bu, ushbu qonunchilik asoslari asosan qishloq xo‘jalik yerlari, kam miqdorda o‘rmon xo‘jaligi yerlar munosabatlarini tartibga solishidir. Mamlakat yer fondining boshqa toifa yerlari (sanoat, transport, aholi punktlari, suv xo‘jaligi) etarli qonunchilik bazasiga ega emas yoki umuman qonunchilik bazasiga ega emas.

Mavjud qonunchilikda yerdan foydalanishning bozor tamoyillari etarlicha rol o‘ynamagan. Yer kodeksida yer bozori yoki yer ijarasi huquqining bozorini yaratish asoslari yoritilmagan, ammo respublikada ko‘chmas mulk bozorini to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishi aynan shuni talab qiladi. Yer bozorini yaratish va faoliyat ko‘rsatishi, o‘z navbatida, barcha toifa yerlarini bozor uslublari yordamida qiymat baholashni o‘tkazishni talab qiladi. Bunda qonunchilik tartibi

qiymat baholashning asosini tashkil etuvchi yerlarni sifat baholashga etarlicha e'tibor qaratishi zarur. Respublikada "Tuproq unumdorligi to'g'risida"gi Qonunni qabul qilish, shuningdek tuproqlar kadastrini yuritish uchun huquqiy asos yaratish maqsadga muvofiqdir.

Sug'oriladigan yerlardan foydalanishning Qonunchilik bazasida arid mintakasi dehqonchiligining muhim tabiiy resurslari hisoblangan yer va suvdan oqilona hamda samarali foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan yer va suv munosabatlarini isloh qilishda ularni o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Bugungi kunda "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi tomonidan mamlakat yer kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish talablariga javob beradigan yerdan foydalanish tizimini yaratishga imkon beradigan respublika yerdan foydalanishning hozirgi daqiqaga va ma'lum istiqbolga barcha zaruriy o'zgarishlari unda yoritilishi zarur.

Hulosa qilib qayd etish zarurki, butun jamiyat manfaatlariga mos Yerlardan oqilona va samarali foydalanish yagona davlat yer fondining huquqiy rejimi bilan ta'minlanadi. Davlat organlarini yerdan foydalanish va muhofaza qilishga nisbatan huquq va majburiyatlari yerdan foydalanishni davlat boshqaruvining mazmuni hisoblanadi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni boshqarish sohasidagi qonunchilik bazasini nima tashkil etadi?
2. Yer qonunchiligining doimiylik xarakterining mohiyati nima?
3. Yerdan foydalanishni boshqarish bo'yicha yer kodeksining asosiy qoidalarini aytib bering.
4. Yer resurslaridan foydalanishda huquqiy qirraning nomini aniqlang.
5. Yer kodeksida yerdan foydalanuvchilarning huquqiy rejimi qanday ta'riflanadi?

6. Qishloq xo‘jalik korxonalariga xo‘jalik yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida yer kodeksida qanday ta’rif berilgan?
7. Bozor sharoitida yerdan foydalanishni pullilik tamoyili yer kodeksida qanday aniqlangan?
8. Yerdan foydalanishni boshqarish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastrini to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy qoidalarini sanab bering.
9. Yerdan foydalanishni boshqarish sohasida mavjud qonunchilik bazasi qanday kamchiliklarga ega?
10. Yer qonunchilik bazasi qanday yo‘nalishda takomillashtirilishi zarur?

4.2 Yerdan foydalanishning yer-axborotli ta’minoti-boshqarish funksiyasi

Yerlardan oqilona foydalanish hamda muhofaza qilishda chuqur iqtisodiy mohiyatga va halq-xo‘jaligi ahamiyatiga ega bo‘lgan tadbir sifatida davlat yer kadastrini muhim rol o‘ynaydi. Yer kadastrini yuritishning obyektiv xarakteri yer to‘g‘risidagi axborotlarga zaruriyat bilan aniqlanadi. Axborot, eng avvalo, yer munosabatlarini tartibga solish uchun, shu jumladan, uning yer qonunchilik ijodi, yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish, yer resurslarini tarmoqlararo taqsimlash (qayta taqsimlash), to‘la holda mamlakat bo‘yicha yerdan foydalanish samaradorligini baholash kabi funksiyalarni amalga oshirish uchun zarurdir. Ushbu axborot regional hamda mahalliy hududiy darajalarda yer resurslaridan foydalanishni ma’muriy boshqarishda ham qo‘llanishni talab qiladi. Yer kadastrini yerdan samarali foydalanish va muhofaza qilishni, xalq xo‘jaligini rejalashtirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va joylashtirish, yerlar melioratsiyasi, yer resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xalq xo‘jaligi tadbirlarini amalga oshirishni axborotli ta’minlashga mo‘ljallangan yerdan foydalanishning muhim funksiyasi hisoblanadi. Shunday qilib, yerdan foydalanishning barcha funksiyalari (yer kadastridan tashqari) o‘zlarining amaliy jarayonida yer axborotlarini qo‘llashni talab qiladi, bu yer kadastriga yerdan foydalanishni axborotli ta’minlash

funksiyasini beradi. Shu sababli respublikada yer kadastrini yuritishga yirik ahamiyat beriladi. 1998 yili O‘zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastrito‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi, keyinchalik respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida yer kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” ishlab chiqildi va qabul qilindi.


Yerdan foydalanishni ko‘p kirrali xarakteri yerlarni tabiiy, xo‘jalik va huquqiy holatlari to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan turli-tuman yer-kadastr axborotlariga zaruriyatni aniqlaydi. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi hamda uni ushbu axborotga bo‘lgan doimiy talabi yagona tizim sifatida yer kadastrini rivojlanish xarakterini aniqlaydi. O‘zbekiston Respublikasining yer kodeksida (15-modda) qayd qilindiki, Davlat yer kadastrini yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi to‘g‘risidagi, ularni toifalari, sifat tavsiflari va qiymati to‘g‘risidagi, yer uchastkalarining joylashgan o‘rni va o‘lchamlari, ularni yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer mulkdorlari bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risidagi zaruriy va ishonchli ma’lumotlar xamdahujjatlar tizimidir. Davlat yer kadastrini yuritish topografo-geodezik, kartografik, tuproq, agrokimyoviy, geobotanik kuzatuvlar va qidiruvlar, yerlarni hisob qilish va baholashni, yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarni yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini ro‘yxatga olishni o‘tkazish asosida ta’minlanadi.

Yer kadastritizimi nisbatan bir-biridan ajralgan, shu bilan bir vaqtda, o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan ikkita kichik tizimdan iborat: ***yer-kadastr jarayoni kichik tizimi*** hamda ***yer-kadastr axboroti kichik tizimi*** (30-rasm). Birinchi kichik tizimning maqsadi kadastr axborotlarini ishlab chiqarishdan iborat. U turli-tuman va ishonchli axborotlarni ishlab chiqish bo‘yicha texnologik jarayonlarni (tasvirga olish, kuzatuv, plan-xarita asoslarini tuzish, kartometrik va baholash ishlari, yerga huquqlarini ro‘yxatga olish jarayoni) o‘z ichiga oladi. O‘z tarkibiga ikkita kichik tizim birligini olgan yer kadastrini tizim sifatida aniqlash yer kadastrini axborotlarini ishlab chiqish bo‘yicha jarayon sifatida (yer-kadastr jarayoni) hamda axborotlarni saqlash va foydalanuvchiga berishning statik kichik

tizimi sifatida yer kadastr, axborotli qarash haqidagi masalani obyektiv va hakqoniy qo'yishning muhim jihatidir. Mamlakatning barcha yer uchastkalariga yer kadastr axborotlarini ishlab chiqish (birinchi kichik tizim) hamda ularni saqlash, yangilab turish va foydalanuvchiga berish (ikkinchi kichik tizim) maqsadida ushbu axborotlarni tizimlash yer kadastrini yuritishning maqsadi hisoblanadi.

Yer-kadastr jarayoni kichik tizimi-bu axborotlarni ishlab chiqish jarayonida doimo o'suvchi (dinamik) xarakterga egadir. Yer kadastrini o'rganish obyekti bo'lib asosiy maqsadli mohiyatidan va xo'jalik foydalanishidan qat'iy nazar yer massivlari, yer uchastkalari, yer turlari, sug'orish, kollektor va yo'l tarmoqlar, inshootlar tagidagi yerlarni o'ziga jamlagan mamlakatning yagona davlat yer fondi hisoblanadi. Asosiy yer-kadastr birligi bo'lib yer uchastkasi (yerdan foydalanish) hisoblanadi, qaysiki u yer kadastrining obyekti sifatida yer fondining mohiyati va xususiyatini yoritadi, hamda xo'jalik hisobining boshlang'ich birligi sifatida gavdalanadi. Yer uchastkasi o'z ichiga huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik mohiyatlar hamda ahamiyatlarni olgan holda majmualar tushunchasiga egadir. Yer uchastkalarini miqdoriy, sifat va qiymat tavsiflari ma'muriy-hududiy bo'limlar (aholi punkti, tuman, shahar, viloyat, respublika) yer kadastrini o'rganish predmeti hisoblanadi. Shu sababli yer kadastrining birinchi kichik tizimi moddiy mohiyatga ega.

Yer-kadastr jarayonini alohida, tarkibiy bir-biriga bo'ysunuvchi jarayonlar to'plami sifatida qarash zarur, ularni joriy etish yer-kadastr axborotlarini olishga yo'naltirilgan. Ushbu jarayonlarning to'plami ularning mexanik yig'indisi, erkin jamlanmasi bo'lmasdan, balki qat'iy tarkibli yaxlit bir jarayondir.



30-rasm. Yer kadastr tizimi

Yer-kadastr jarayonning maqsadi zarur ishonchli axborotlarni ishlab chiqishdan iborat, yer kadastrining kichik bir tizimi sifatida uning mohiyati yer kadastrining ikkinchi tizimidagi axborotlarni uzluksiz va o'z vaqtida yangilab turishdan iborat. Ma'lum bir uslublar yordamida axborotlarni tashkil etish va ishlab chiqarish yer-kadastr jarayonining vazifalari hisoblanadi.

Yer-kadastr jarayonining mohiyati, maqsadi va ahamiyatini aniqlashni hisobga olgan holda unga quyidagicha ta'rif beriladi: yer-kadastr jarayoni-bu ishonchli zaruriy yer-kadastr axborotlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan davlat tadbirlari tizimidir.

Yer-kadastr jarayonini amalga oshirish quyidagilarni talab qiladi:

- yer-kadastrini yuritish bo'yicha me'yoriy va uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish-texnologik tadbirlarni tashkil etish;
- yer-kadastr hujjatlarini yuritish.

Yer-kadastr jarayoni umuman yer kadastr singari asosiy va joriy turlarga bo‘linadi. Ikki turi bir-biri bilan uzviy bog‘liq yer-kadastr jarayonining tarkibiy qismlari hisoblanadi hamda istalgan bir vaqtga to‘la va ishonchli yer-kadastr axborotlari bilan ta‘minlashi zarur. Bu axborotlar quyidagilar: mamlakat yer fondining o‘lchamlari, uni yer toifalari, yerdan foydalanuvchilar, yerdan foydalanishlar va yer turlari bo‘yicha taqsimlanishi, yerlarning sifat tavsifi hamda ularni baholash. Yer-kadastr jarayonining asosiy turi tasvirga olish, kuzatish, izohlash, yer uchastkalariga bulgan huquqlarni ro‘yxatga olish va baholash, maydonlarni hisoblash bo‘yicha yirik hajmlarga ega bo‘lganligi bilan farqlanadi; u davriy ravishda qaytariladi; joriy esa yer to‘g‘risidagi axborotlarni zamon talabi darajasida ushlab turish uchun amalga oshiriladi hamda har yili o‘tkaziladi.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimi-yer uchastkasi yoki yer uchastkalari to‘g‘risida axborotlarni butun bir yaxlit ko‘rinishini tashkil etuvchi o‘zaro uzviy bog‘liq holdagi kadastr ko‘rsatkichlarining qonuniy joylashgan to‘plamidir. Tarkib nuqtai nazardan kichik tizim o‘z navbatida axborotlarning maqsadli mohiyati bo‘yicha va ma‘muriy-hududiy belgisi bo‘yicha turlarga (ancha past darajadagi kichik tizimlar), shuningdek shunga mos kadastr ko‘rsatkichlari tizimining axborot turlariga bo‘linadi.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimining markazi yer uchastkalarini kimga qarashlilik va sifat tavsifini o‘rnatish uchun moddiy asosni aniqlaydigan hisob-kitob axboroti hisoblanadi, u yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy qirrasini aks ettiradi. Shu bilan birga, barcha uch turdagi axborotlar (ro‘yxatga olish, hisob va baholash) o‘zaro bog‘liqlikda, yaxlit birlik holatida jamiyat yagona yer fondining holati hamda undan foydalanishning har tomonlama to‘la tavsifini ta‘minlaydi. Har bir foydalanuvchi hal qilinadigan masalalarning xarakteridan qat‘iy nazar barcha axborot turlaridan majmualar tarzda foydalanadi.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimining mohiyati Yerning tabiiy, huquqiy va xo‘jalik holati to‘g‘risidagi zaruriy ishonchli axborotlar bilan barcha manfaatdor axborot ite‘molchilarini o‘z vaqtida ta‘minlashdan iboratdir.

Axborotlarni to'plash, ularni saqlash, qidirish va foydalanuvchilarga berish uzviy ravishda axborotlarni yangilab turish tizimining vazifasiga kiradi. Kichik tizimning faoliyat ko'rsatishi uning tamoyillariga mos ravishda amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd qilinganlar asosida yer-kadastr axborotlari kichik tizimiga shunday ta'rif beriladi: bu-yerga bo'lgan huquqlarni hisobga olish, yerlarni miqdor va sifat hisobi, yerlarni baholash bo'yicha tizimlangan ishonchli ma'lumotlar to'plamidir.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimi sun'iy axborotlar tizimi hisoblanadi, uning barcha turlardagi axborotlar to'plami bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir. Axborotli tizimlar yer resurslarini tarkibini bilish jarayonida hamda yer resurslaridan foydalanish jarayonida o'rnatilgan kadastrli miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar tizimini o'z ichiga olgan.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimiga mamlakatning butun hududiga axborotlarni olish, tizimga keltirish va saqlash metodologiyasining birligi hosdir. Shu bilan birga, tizim yerlardan foydalanishni tabiiy va iqtisodiy jihatlardan mintaqaviy xususiyatlarini ham yoritadi. Yer resurslaridan foydalanishning doimiy jarayoni, ularni taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, yagona davlat yer fondidan foydalanishning dinamikasini yoritish zaruriyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni doimiy ravishda yangilab turishni talab qiladi. Xalq xo'jaligining axborotlariga bo'lgan talab tizimni tashqi muhit bilan bog'liqligini ko'zda tutadi, uning mohiyatini, vazifalarini va mazmunini aniqlaydi.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimining murakkabligi barcha mamlakat hududi bo'yicha yirik hajmlarda yer resurslari to'g'risidagi turli-tuman va ishonchli axborotlarni to'plash, uni doimiy ravishda yangilab turish, saqlashni hamda barcha manfaatdor foydalanuvchilarga o'z vaqtida berilishini ta'minlashi bilan belgilanadi. Tizimni murakkabligi axborotlarni sintaktik (yer uchastkalari to'g'risida miqdoriy tavsiflar), semantik (yer uchastkalari to'g'risida sifat tavsiflar) hamda pragmatik (axborotlarni amaliy ahamiyatini va iqtisodligini aniqlash) qirralarini o'rganish zaruriyatini ko'zda tutadi.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimi uning o'ziga xos qator xususiyatlarga ega, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: kadastr ko'rsatkichlari tizimining murakkabligi, axborotlarni taqdim etishning turlicha shaklliligi, tizimni avtomatlashtirish (kompyuterlashtirish) zaruriyati.

Yer-kadastr axborotlari kichik tizimini yer kadastrining kichik tizimi sifatida yer-kadastr jarayoni bilan uzviy bog'liqligi uchun mavjud bo'lishning eng asosiy shartidir.

Kichik tizimlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shundan iboratki, (2chi kichik tizim) axborotga bo'lgan zaruriyat uni ishlab chiqishni (1chi kichik tizimi) talab qiladi, axborotlarni ishlab chiqish (1chi kichik tizimi) esa uni foydalanuvchilarga berilishini (2chi kichik tizimi) talab qiladi. Shuning uchun ham bir kichik tizimni boshqasidan ustunligini aniqlash amalda mumkin emas. o'zlarining birligi, o'zaro bog'liqligi bilanular yer kadastrining yaxlit, moddiy-abstrakt tizimini tashkil etadilar.

Mamlakatda yuritiladigan yer kadastrini grafik mohiyatga ega, uning materiallari (hujjatlari) tekst va kartashunoslik qismlarni o'z ichiga oladi. yer axborotlarini olish uslubiyati oldiniga yerlarni kuzatishni, kartashunoslik materialida yer turlarining miqdoriy va sifat tavsiflarini qayd qilishni, keyinchalik esa ularni ma'lum bir usullar bilan hisoblashni ko'zda tutadi.

Yer kadastrini yuritish ularning tamoyillariga mos tarzda amalga oshiriladi. Ushbu tamoyillarni umumiy, birinchi va ikkinchi kichik tizim tamoyillariga shartli ravishda ajratish mumkin:

-respublika butun hududini qamrab olish: yer kadastrini yuritishda ularni kimga qarashliligi ham hududiy joylashuvidan qat'iy nazar barcha yer uchastkalari qayd qilinadi, ushbu talabning maqsadi barcha toifalardagi yerlarga to'la yer-kadastr axborotlarini ishlab chiqishdan iborat;

-respublika hududida yer kadastrini yuritish uslubiyatining birligi: respublikaning barcha hududlarida barcha hududiy bo'linmalar tomonidan yer uchastkalariga huquqlarni ro'yxatga olish, miqdoriy va sifat hisobi, yerlarni baholash yagona uslubiy hujjatlar bo'yicha va bitta o'rnatilgan qonunchilik

tartibida yuritiladi; bu talab kadastr materiallarini yaxlit ma'muriy tuman, viloyat, respublika bo'yicha taqqoslanish maqsadini ko'zda tutadi;

-yer kadastrini yuritish maqsadlari uchun yagona davlat geodezik kordinatlar tizimi: ushbu talab alohida olingan yer uchastkalariga grafik yer-kadastr axborotlarini (kadastr planlari) bitta yaxlit ko'rinishga keltirish zaruriyatini ko'zda tutadi; bu talab kadastr planlarining elektron turlarini ishlab chiqish bilan ancha jonlandi;

-respublikaning barcha yer uchastkalarini majburiy kadastrli kodlash; har bir yer uchastkasida yakka tartibda kadastr raqamining mavjudligi yer uchastkalarini qayd qilishda, hisobini yuritishda ikkinchi marta takrorlanishga yoki ularni tushirib qolishiga yo'l qo'ymaydi;

-ishlab chiqilayotgan kadastr ko'rsatkichlari va kadastr planlarini aniqligi, to'raligi va haqqoniyligiga erishishni o'z ichiga oladigan yer-kadastr axborotlarini ishonchliligi;

-yer kadastrini yuritishning tanaffuzsizligi: yer uchastkalarining miqdoriy, sifat va huquqiy holatlarida yuz berayotgan o'zgarishlarni doimiy ravishda qayd qilib borish asosida istalgan vaqtga zamonaviy yer-kadastr axborotlarining mavjudlik zaruriyatini ko'zda tutadi;

-yer kadastrini yuritishni iqtisodligi: kadastr ishlarini bajarishni va kadastr axborotlarini ishlab chiqishni imkon boricha kamroqaxborotlar evaziga amalga oshirish bilan bog'liq uni yuritishning eng samarali uslublarini tanlashdan iborat;

-yer-kadastr axborotlarini saqlash, yangilab turish va manfaatdor foydalanuvchilarga o'z vaqtida berish;

-kompyuter texnologiyalarini qo'llash yer kadastrini yuritishning majburiy shartidir: bu talab respublikada yer uchastkalar sonining nihoyatda ko'p miqdorda (7 mln.atrofida) ekanligi bilan bog'liq, axborotlarni to'la, to'g'ri va o'z vaqtidaqayta ishlash an'anaviy uslublarda (qo'lda bajarish, qog'oz variantlari) yirik qiyinchiliklar tugdiradi.

Yer kadastrini yuritishda uning tamoyillarini joriy etish yer-kadastr axborotlarini hakqoniy va o'z vaqtida ishlab chiqishnita'minlaydi. uni ishlab

chiqish uchun yer kadastrini yuritishning ma'lum uslublaridan foydalaniladi. Ular shartli ravishda umumiy va maxsus uslublarga ajratiladi. Yer kadastrini yuritishning umumiy uslublariga kiradilar: topografo-geodezik, aerokosmik, geobotanik, yerlarni dala kuzatuv, kartografik, kartometrik, statistik, matyematik modellashtirish. Maxsus uslublariga kiradilar: yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish uslubi, yerlarni miqdor va sifat hisoblarini yuritish uslubi, Yerlarni baholash uslubi.

Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida yer kadastrini yuritish yer-suv resurslarini o'zaro uzviy bog'liqligi hamda birgalikda foydalanilishi bilan vujudga keladigan qator xususiyatlarga egadir. Sug'oriladigan dehqonchilik mintaqalarida sug'orish suvi ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi hamda yer kabi hech narsa bilan almashtirib bo'lmas va chegaralangan qimmatli tabiiy resurs sifatida gavdalanadi. Shu sababli sug'orish suvidan foydalanish samaradorligini oshirish sug'oriladigan yerlarni hisob qilishning aniqligi va to'laligiga qo'shimcha talablarni aniqlaydi. Bu yerdagi hisobning qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud: yer hisobi sug'orish mintakalari bo'yicha, meliorativ holati bo'yicha, sug'orish kanallari va tizimlarining mintaqalari bo'yicha amalga oshiriladi. Sug'oriladigan yerlarga ularni hisobini yuritish va sifat jihatidan baholash aniqliligiga nisbatan anchagina yuqori talablar qo'yiladi, negaki ular iqtisodiy jihatdan yuqori darajada qimmatlidir, yuqori qimmatli qishloq xo'jalik ekinlari o'stiriladi, ba'zi bir ekinlardan yil davomida 2-3 marta hosil olishning real imkoniyatlari mavjud, sug'oriladigan Yerlarni irrigatsiya jihatidan ta'minlash yirik kapital mablag'larni talab qiladi.

Yer-kadastr axborotlari suv iste'molini hisob qilishda va rejalashtirishda foydalaniladi. Suvdan foydalanishni rejali tashkil etish uchun qishloq xo'jalik korxonalaridagi sug'oriladigan yerlarni o'lchamlari hamda ularni sifat holati to'g'risidagi hisob ma'lumotlari zarur. Ular qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish rejimini hamda butun sug'orish davri uchun to'la yoki alohida sug'orishlar bo'yicha suv iste'moli hajmini hisob-kitob qilishda foydalaniladi. Sug'orish tizimi yoki alohida kanallar doirasida suvdan foydalanishni hisob qilish va

rejalashtirishga zaruriy sug'oriladigan yerlarni nainki alohida yerdan foydalanuvchilar bo'yicha, balki ushbu kanallarning sug'orish mintaqalari va sug'orish me'yorlari bo'yicha ham hisobi talab qilinadi.

Ekin yerlarini sug'orishshartlari bo'yicha (sug'oriladigan, shartli sug'oriladigan, lalmi), meliorativ holati bo'yicha tasniflash ham sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida yer kadastrining o'ziga xos xususiyatlarini tashkil etadi.

Respublikada bugungi kunda amalga oshirilayotgan yer kadastrini uchun metodologik xarakterdagi qator kamchiliklar xarakterlidir. Eng avvalo qayd qilish zarurki, uni yuritishda asosiy diqqat-e'tibor asosan qishloq xo'jalik yerlariga qaratilgan. Yerlarning turlari bo'yicha eksplikatsiyasini tuzish asosida shaharlar va posyolkalar yerlarini yoppasiga hisobi mavjud emas, ushbu yerlarni sifat baholash o'tkazilmaydi. Yerlarni boshqa toifalari bo'yicha kadastr ishlari amalda o'tkazilmaydi. "Mamlakat yer fondining holati va foydalanilishi to'g'risida" gi Milliy hisobot yorqin tarzda agrar yo'nalishga va tarkibga ega, yerlarni boshqarish toifalari kuchli umumlashgan ko'rinishda keltirilgan. Bundayholatning asosiy sabablari jamiyatdagi yerning ijtimoiy-iqtisodiy, rekreatsion va ekologik xususiyatlariga etarlicha baho bermaslik, mamlakat yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ilmiy asoslangan Dasturining mavjud emasligidir.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi sifatida yer kadastrining tushunchasi va mohiyati.
2. O‘zbekiston Respublikasining yer kodeksida yer kadastriga qanday tarif berilgan?
3. Yer kadastr tizimini tavsiflang.
4. “Yer kadastr jarayoni” kichik tizimining mohiyati nima?
5. “Yer kadastr axboroti” kichik tizimining mohiyati nima?
6. Ikki kichik tizimining uzviy bog‘liqligi nimadan iborat?
7. Respublikadagi yer kadastrining grafik mohiyati nimani ko‘zda tutadi?
8. Yer kadastrining tamoyillarini sanab bering.
9. Sug‘oriladigan mintaqada yer kadastrini yuritishning xususiyatlarini aytib bering.
10. Ishlab chiqarilayotgan yer kadastr axborotlarining turlarini aytib bering.
11. Yer kadastrining materiallari qanday hujjatlarda rasmiylashtiriladi?
12. Yer kadastrini yuritishning asosiy kamchiliklari hamda ularni tugatish yo‘llarini ayting.

4.3 Yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish hamda ularni tarmoqlararo taqsimlash-yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi

Yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash funksiyasi mamlakat iqtisodiyotini va ijtimoiy sohasini yer resurslariga bo‘lgan talabi bilan belgilanadi. Ushbu funktsiyani joriy etish jamiyat rivojlanishini ma’lum bo‘lgan qonunlarga mos ravishda amalga oshiriladi, mamlakatda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar, bozor iqtisodiyoti sharoitida yerni mavjud bo‘lish xususiyatlari bilan bog‘lanadi. Yer kodeksining 4-moddasida aytiladiki, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha yagona davlat siyosatini yuritish, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda tuproqlar unumdorligini oshirish, boshqa tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasida yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturlarini

ishlab chiqish hamda tadbiq qilish yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolatlari hisoblanadi. Ushbu funksiyani amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, iqtisodiyot vazirligi, "Yergeodezkadastr" Davlat qo'mitasi, yerlardan foydalanishni amalga oshiruvchi boshqa vazirliklar va idoralarning masalasidir.

Mamlakatda o'tkalilayotgan iqtisodiy islohatlar sharoitida yer, suv, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga bo'lgan talab ancha oshdi, qishloq xo'jaligining ixtisosligi va joylashtirilish talablari o'zgarmoqda. Barqaror yerdan foydalanish va uni xususiyatlari muammosining murakkabligi, qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish, xalq xo'jaligi tarmoqlari shakllarini murakkablashishi va o'zaro bog'liqligi yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashga alohida yondashuvni ko'zda tutadi. Uning murakkabligi hamda o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish muammosini jamiyat faoliyatining alohida sohalari, mamlakatning butun iqtisodiyotini va uni alohida tarmoqlarini rivojlanishini hisobga olgan holda "Umumiydan-xususiyga" tamoyili bo'yicha hal qilish zarur. Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining darajasi va miqyosini o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi sharoitida yer-suv resurslaridan foydalanishning reja-bashoratlarini ishlab chiqish ularni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini anchagina maqbul variantini qidirish kafolati hisoblanadi[33]

Yer-suv resurslaridan istiqbolda foydalanish bo'yicha asosiy qoidalarni o'zida jamlagan ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishning uzoq muddatli bashoratlari mamlakat yer fondidan oqilona foydalanish uchun ustuvor rol o'ynaydi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarini rivojlanishi jamiyat rivojlanishining bugungi bosqichida yer resurslaridan foydalanishning bosh yo'nalishini aniqlaydi. Shuning uchun yer fondidan foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq

mamlakat iqtisodiyotini, shu jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish yanada keng o'rin olishi zarur.

Bashorat (forecast)-bu o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonni bo'lg'usidagi mumkin bo'ladigan holatlari to'g'risida, boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida ushbu holatga erishishning alternativ yo'llari va muddatlari to'g'risida ilmiy asoslangan fikrlashdir. Gipotezadan farqli o'laroq bashorat doimo bo'lg'usini izohlashgayo'naladi hamda bugunda ma'lum va o'rganilgan rivojlanish qonuniyatlariga suyanadi. Boshqarish qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan ko'pgina bashoratlarning ehtimolligini baholash ham o'tkaziladi. Miqyosi bo'yicha bashoratlar quyidagilarga ajratiladi [22, 469b]:

- makroiqtisodiy va tarkibiy bashoratlar;
- xalq xo'jaligi majmualarini rivojlanishining bashoratlari;
- tarmoq va regional bashoratlar;
- xalq xo'jaligi tizimlarining birlamchi bo'g'inlari-korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari, alohida ishlab chiqarish bashoratlari.

Muddatlari bo'yicha bashoratlar quyidagilarga bo'linadi:

- tezkor-1 yilgacha;
- qisqa muddatli-1yildan 3 yilgacha;
- o'rta muddatli-5yildan 10 yilgacha;
- uzoq muddatli-10yildan 20 yilgacha;
- 20 yildan ortiq.

Sanab o'tilgan barcha turdagi bashoratlar o'zlarining mazmuni va hal qilinadigan masalalarining xarakteri, tadqiq qilinadigan jarayonlarni baholash xarakteri bo'yicha bir-biridan farq qiladilar.

Bashorat (forecasting)-bu qat'iy ajratib olingan ma'lumotlarni o'rganish asosida bashorat ishlab chiqishdir. Bashoratlar ayniqsa holatni baholash bosqichida hamda boshqarish qarorini ishlab chiqishda keng foydalaniladi. Bashoratli baholashni joriy etish holatni o'zgarishi qanday yo'nalishda yuz berishi, qanday usullar bilan, qanday o'zgarishlarda oldinga qo'yilgan maqsad va

vazifalarga erishish mumkinligi, rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish natijasida nima olinishi mumkinligi to'g'risida tasavvur beradi [22, 469b].

Yerdan foydalanish bo'yicha bashoratlarning mazmuni ularning maqsadli mohiyatiga, qamrab olgan hududning o'lchamiga, bashoratning o'zini vazifalari va xususiyatlariga bog'liqdir. Bashoratlar quyidagilarga bo'linadi: rejali, loyiha oldi va tezkor-xo'jalik. Reja oldi bashoratlash, qoidaga binoan, ular yuqori ilmiy darajasini, shuningdek tuzilgan rejalarini samarali joriy etishni ta'minlash maqsadida xalq xo'jaligi rejalarini ishlab chiqishga qadar bajariladi. "Respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish Sxemasi"ning yer resurslaridan foydalanish bo'limi, Respublika yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning Bosh sxemasi, viloyatlar yer tuzish sxemalari, shuningdek joylashtirish va rivojlantirish tarmoq sxemalaridagi majmual hamda maqsadli xalq xo'jaligi dasturlarining shularga mos bo'limlari reja oldi bashoratlashning hujjatlari hisoblanadi. Loyiha oldi bashoratlari majmualikni, o'zaro bog'liqlikni hamda ishlab chiqilayotgan reja hujjatlarining sifatini oshirishga mo'ljallangan; qamrab olish hududini kamroq miqyoslilik bilan demakki, yirik aniqligi bilan tavsiflanadi. O'zbekiston sharoitida bunday xarakterdagi bashoratlashhujjatlariga ma'muriy tumanlar yer tuzish sxemalari kiradi, agarda bular mavjud bo'lmasa, tuman qishloq xo'jaligini rejalashtirishning loyihalari kiradi. Yerlardan foydalanishning tezkor-xo'jalik bashoratlari ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarishni yaxshilashga, tashkiliy-xo'jalik va ijtimoiy tadbirlar samaradorligini oshirishga mo'ljallangan. Shuning uchun ular tashkiliy-xo'jalik rejalarini hamda alohida xo'jaliklar hududida tuziladigan boshqa hujjatlar ko'rinishiga egadirlar.

Bugungi kunda yer fondidan foydalanishni rejalashtirishning uch zvenoli tizimi tavsiya qilinadi [31, 11b]:

- majmual ilmiy-texnik dasturlar tarkibidagi konsepsiya;
- ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishning majmual sxemasi tarkibidagi bashoratlar;
- yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishning majmual dasturi.

Bashorat, majmuali dastur va reja-rejalashtirish bosqichining hujjatlari hisoblanadi; ularni ishlab chiqish o'zining maqsadlariga ega, ulardan foydalanish esa tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish bilan nihoyalanadi; bashorat va majmuali dastur sxemalarni ishlab chiqish uchun birlamchi material sifatida foydalaniladi, rejalar esa turli bosqichlarda bajariladigan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun foydalaniladi. Ushbu jarayonni uchzvenoligiuzoq istiqbolda xo'jalik rivojlanishining asosiy yo'nalishlari va tendensiyalarini asoslash, iqtisodiy rejalashtirishning qabul qilingan o'lchamlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni echish, uzoq istiqbolli joriy o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini oshirish zaruriyatini aniqlaydi.

Umuman mamlakat iqtisodini hamda, qisman yer resurslaridan foydalanishni boshqarishda rejalashtirish yordamida ta'minlanadigan tarmoq va hududiy rivojlanishni to'g'ri, proporsional qo'shilishi anchagina murakkab muammo hisoblanadi. Xalq xo'jaligi tarkibini murakkablashuvi, ijtimoiy ishlab chiqarishning turli zvenolarini o'zaro bog'liqligining kuchayganligi sharoitida ishlab chiqarishning qandaydir bir uchastkasini yuqori darajada takomillashtirish hamda iqtisodiy samaraga erishish mumkin emas. Shunday tizimli yondoshuv xalq xo'jaligi resurslaridan oqilona foydalanish, ilmiy-texnik muammolarni tarmoqlar doirasida ham, hududiy doirada ham hal qilish bo'yicha majmuali tadbirlarni amalga oshirish uchun zarurdir. Respublikada tarmoqli, tarmoqlararo hamda hududiy ishlab chiqarish aloqalarining murakkab tizimi asosida faoliyat ko'rsatayotgan hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha zvenolarini qamrab olgan yagona xalq xo'jaligi majmuasi vujudga kelgan. Uni iqtisodiyoti uchun umumdavlat rejalashtirish tizimi asosidagi xo'jalikni o'zaro bog'liq holda yuritish xarakterlidir.

Reja (plan)- bu boshqaruv qarorining bir shakli bo'lib, ma'lum bir ketma-ketlikda hamda belgilangan muddatlarda bajarish zarur bo'lgan maqsad bilan birlashtirilgan tadbirlar majmuasi ko'rinishidagi rejalashtirish natijasidan iborat. Reja ma'lum muddatga uni joriy etish natijasida erishish zarur bo'ladigan ko'rsatkichlarni, shuningdek buning uchun zarur bo'ladigan resurslarni qayd

qiladi (aniqlaydi). Hal qilinadigan vazifalar xarakteri, qabul qilinadigan qarorlar ahamiyati hamda ularni joriy etish muddatlari bo'yicha rejalar quyidagilarga bo'linadilar[32, 442b]:

- boshqarish obyekti faoliyatini qamrab olish bo'yicha (umumiy, xususiy va iqtisoslashtirilgan);

- istiqbolli va joriy;

- alohida va qo'shma (boshqa organlar bilan).

Rejalashtirish (planning)-eng umumiy mazmunda-bu reja ishlab chiqish jarayonidir. Rejalashtirish-boshqarishning funksiyalaridan biri, boshqarish siklining bosqichidir. Rejalashtirish xarakteri bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

-rejalashtirish davrinig davomiyligi bo'yichauzoq muddatli (5 va undan ortiq yil), o'rta muddatli(3-4yil), qisqa muddatli (1,5-2,0yil), joriy (1 yildan kam muddatli);

-ijodiy darajasi bo'yicha-standart, namunaviy va shartli;

-maqsadli yo'naltirilganligi bo'yicha- strategik,taktik [32, 443b].

Jarayonlarni rejalashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi [32, 442b]:

- maqsadli yo'naltirilganlik;
- samaradorlik;
- haqqoniylik;
- huquqlilik;
- asoslanganlik;
- aniqlilik;
- qayishqoqlik;
- o'zgaruvchanlik;
- majmualilik;
- tizimlilik.

Loyihaoldi va loyiha materiallari tizimida yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish hujjatlari maqsadli mohiyati bo'yicha quyidagilarga bo'linadi:

- rejalashtirishning hududiy qirralari;
- hududiy rejalashtirish.

Rejalashtirish moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga, qishloq xo‘jaligining murakkab masalalarini hal qilishga, yer resurslaridan ham tarmoq, ham hududiy jihatlarida foydalanish muammolarini hal qilishga, imkon qadar yuqori ta‘sirni o‘tkazishga qaratilgan. Yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish bugungi kunda xalq xo‘jaligi uchun umumqabul qilingan bosqichlarda amalga oshiriladi; alohida regional, daryolar basseynlari, viloyatlar yoki massivlar va hokazolar uchun bajariladigan majmualiy loyihaviy ishlanmalar ko‘rinishidagi rejalar xam tan olinmoqda.

Respublika va viloyat darajasida yer fondidan foydalanishni rejalashtirish qator shartlar bilan murakkablashadi. *Birinchi*dan, hujjatlarni ishlab chiqishning turli muddatligi turli viloyatlar uchun aynan bitta muammoni hal qilishga yondashuvdagi farqlarni aniqlaydi. *Ikkinchi*dan, ko‘pgina ishlanmalar idoraviy xarakterga egadir. Muammoni hal qilish uchun yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilishni ilmiy asoslangan bashoratlash, rejalashtirish va loyihalashni ta‘minlaydigan hujjatlarning qat‘iy “yerarxiyasi”ni yaratish zarur.

Yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish tarmoqlar, vazirliklar bo‘yicha “vertikal”da, shuningdek respublika, viloyat, tuman, xo‘jalik bo‘yicha “gorizontal” bo‘yicha amalga oshiriladi. Hududlarning xususiyatlarini hisobga oluvchi va xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini rivojlanishini ta‘minlovchi rejalashtirishning ushbu ikki turining birligina yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirishning hududiy qirrasini tushunchasini tashkil etadi. “Gorizontal” bo‘yicha rejalashtirishgina ma‘lum hududni qamrab oladi va amalda hududiy rejalashtirishni tashkil etadi. Hududiy rejalashtirishga asosan yer resurslaridan foydalanishning tarmoq rejalarini hududiy doirasidagi asosiy ko‘rsatkichlari kiradilar (“vertikal”bo‘yicha rejalar).

Istiqbolga respublika yer fondidan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir [19,35b]:

- iqtisodiyot tarmoqlarida yer resurslarini taqsimlash va foydalanishni takomillashtirish;

- sug'oriladigan yerlar va suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish;

- yerlarni sifatini va meliorativ holatini yaxshilash, ularni muhofaza qilish;

- yer-suv munosabatlariga bozor tamoyillarini, yerlarni ishlashni va ishlab chiqarishning eng yangi texnologiyalarini joriy etish.

Yagona davlat fondi yerlarni taqsimlash funksiyasi-yerdan foydalanishni boshqarish tizimida muhimdir, negaki u nisbatan uzoq muddatga yer resurslardan foydalanishni davlat siyosatini aniqlaydi. U oldingi funksiyalar materiallariga asoslanadi hamda amaliy jihatdan jamiyat faoliyatining turli sohalarini, iqtisodiyot tarmoqlarini, yerdan foydalanuvchilarni yer resurslariga bo'lgan talablarini aniqlaydi. Yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirish, yerdan foydalanish va qayta tiklash bo'yicha qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy asoslash amalga oshiriladi.

Mamlakat iqtisodiyotini, uni ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlanishi hamda ularni ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishga bo'lgan talablari iqtisodiyot tarmoqlarida yer resurslarini qayta taqsimlashni yoki taqsimlash va foydalanishni takomillashtirishni talab qiladi. Iqtisodiyot tarmoqlarini, shuningdek jamiyat faoliyatining boshqa sohalarini (ijtimoiy, rekreatsion va boshq.) Yer resurslariga bo'lgan talabni zahira yerlari hisobiga ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Ammo bunga har doim ham erishib bo'lmaydi, ayniqsa shahar atrof mintaqalarida bu murakkabdir. Ko'pincha aholi punktlari maydonlarining o'sishi qishloq xo'jalik yerlaridan, shu jumladan yuqori qimmatli sug'oriladigan maydonlardan ularga yer ajratish hisobiga ta'minlanadi. Qishloq xo'jalik maqsadlari uchun sug'oriladigan maydonlardan yer ajratishning har yillik miqdori 3-5 ming hektarni tashkil etadi, bu iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Ushbu yerlarning o'rnini qoplash, qoydaga binoan, yirik harajatlar evaziga qishloq xo'jaligida kam yaroqli yangi yerlarni o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, yangidan o'zlashtirilgan yerlar qurilishlari uchun ajratilgan sug'oriladigan yerlarga nisbatan past bonitet balliga egadir. Yangidan

o‘zlashtirilgan yerlar sifatini oshirish uchun yirik miqdorlarda moddiy harajatlar zarur. Shu sababli yer resurslarini tarmoqlararo taqsimlash (yoki qayta taqsimlash) masalalarini hal qilishda yerni ishlab chiqarish vositasi hamda kenglik operatsion asos sifatidagi xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Yakuniy natijada yer resurslarini oqilona tarmoqlararo taqsimoti mamlakat yagona yer fondining yer toifalari tarkibida yoritiladi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasida yerlardan foydalanishni bashoratlashga qanday ta’rif beriladi?
2. “Bashorat” tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?
3. Yerlardan oqilona foydalanishda bashoratlash qanday rol o‘ynaydi?
4. “Rejalashtirish” tushunchasiga qanday tarif berilgan?
5. Yerlardan oqilona va samarali foydalanishda rejalashtirish qanday rol o‘ynaydi?
6. Bashoratlash miqyosi bo‘yicha bashoratlar qanday tavsiflanadi?
7. Muddatli belgisi bo‘yicha bashoratlar qanday tavsiflanadi?
8. Yer resurslaridan foydalanish va yerdan foydalanish bo‘yicha bashoratlar mazmunini tavsiflab bering.
9. Yer resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va yerdan foydalanish tamoyillarini sanab bering.

4.4 Yer tuzish-yerdan foydalanishni boshqarishning muhim funksiyasi

Yer tuzish yerdan foydalanishni boshqarish tizimidagi muhim funksiyalardan biri hisoblanadi. Yer tuzish hududlarini oqilona tashkil etish bo‘yicha tadbirlar tizimi sifatida loyiha-qidiruv, tasvirga olish va kuzatuv ishlarini o‘z ichiga oladi hamda yerdan foydalanishni boshqarish mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Akademik S.A.Udachinning yozishicha, yer tuzishning mohiyati ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerlardan foydalanishni tashkil etishdan iboratdir [19]. Yerlardan mumkin qadar oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish

hamda texnikani yuqori unumdorlik asosida qo'llanish uchun zaruriy tashkiliy-hududiy sharoit yaratish yer tuzishning muhim tamoyillaridan biridir [19]. Akademik P.N.PYERshin yer tuzish to'g'risida suz yuritib qayd qilgan ediki, ".....o'zining ishlab chiqarish mohiyati bo'yicha yer tuzish tushunchasi shubhasiz tashkiliy-xo'jalik mazmuniga ega bo'ladi. Shu jihatdan u hududni tashkil etish bo'ladi hamda texnik rivojlanishning ushbu darajasida xo'jalik elementlarini ishlab chiqarishning o'zaro ta'siri bilan anqlanadi." [19]

Yer tuzishning mohiyatiga nisbatan prof. S.A.Volkov yozadiki, "Yer tuzish keng ma'noda mavjud ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining ta'siri ostida yuz beradigan, yer bilan chambarchas bog'liq bo'lgan hududlarni va ishlab chiqarish vositalarini maqsadli yo'naltirilgan xolda tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni sifatida gavdalanadi, tor ma'noda-bu yerlardan foydalanish va muhofaza qilishni tartibga keltirish bo'yicha davlat, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan harakatdir (tadbiridir)." [19,4b]

Yer tuzishni yer munosabatlarini tartibga solish va Yerlardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha tadbirlar tizimi sifatida aniqlash mumkin, deb e'tirof etadi prof.V.N.Xlistun [23,20b].

Professor M.A.Genelman yer tuzishni ijtimoiy ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlash maqsadida yer bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish vositalari va yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etishga, mamlakatdagi yer munosabatlarini tartibga solish hamda yerlarni muhofaza qilishga qaratilgan yer qonunchiligini amalga oshirish bo'yicha davlat tadbirlarining tizimi sifatida aniqlagan.

Yer tuzish to'g'risida yuqorida keltirilgan va boshqa qator qoida va ta'riflar guvohlik berdiki, u o'zining barcha bosqichlarida asosan qishloq xo'jalik korxonalarini hududini tashkil etish bo'yicha huquqiy va texnik jihatlarni (iqtisodiy asoslash bilan) o'z ichiga olgan. Boshqa toifa yerlariga kelsak, yerdan foydalanish jarayoni bu yerda mavjud bo'lganligiga qaramasdan amalda yer tuzish ishlari bajarilmagan. Jamiyat hamda uning iqtisodini rivojlanishi bilan

yerlardan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarning mazmuni va mohiyati doimiy ravishda murakkablashgan va o'zgargan. Ularning ko'pchiligi qishloq xo'jalik korxonalarini hududiy tashkil etish sifatida yer tuzishga umuman talluqli bo'lmaganligiga qaramasdan ular hozirga qadar "yer tuzish" teriminining tarkibiga qo'shilgan. Ilmiy nazariyaga muvofiq yer tuzish ikkita turni o'z ichiga oladi: xo'jaliklararo va ichki xo'jalik. Ularning mazmuni yer uchastkalari chegaralarini o'rnatish, tartibga keltirish va o'zgartirish, shuningdek qishloq xo'jalik korxonalarini hududini ichki xo'jalik tashkil etish bo'yicha tadbirlardan iborat. Fikrimizcha, o'zining qo'llanilish sohasini bunday yirik chegaralanish doirasi bilan yer tuzish yerdan foydalanish tushunchasini almashtiradi, ijtimoiy voqeilik sifatidagi yerdan foydalanish tizimining roli va ahamiyatini haqsiz ravishda qisqartiradi. Yer resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatning funksiyasini amalda chegaralab qo'yadi. Bularning barchasi yerdan foydalanishning nazariy asoslarini etarli darajada rivojlantirilmaganligi oqibatida ro'y beradi.

Aytish joizki, yerdan foydalanishning hududiy qirrasini amalga oshirish bo'yicha tadbirlar tizimi sifatida yer tuzish faqatgina yerni qayta tiklash siklining birinchi fazasidagina mavjud bo'ladi, yerni qayta tiklash siklining ikkinchi va uchinchi fazalarini joriy etishning ko'pgina masalalari yoki yer tuzish tadbirlari bilan bog'langan, yoki bo'lmasa ularni chegaralangan doirasidagina mavjud bo'ladi. Uning ko'pgina masalalari, masalan, axborotli ta'minot yoki yer munozaralarini hal qilish yerdan foydalanishning boshqa qator funksiyalari singari, yer tuzishdan mustaqil xoldagi avtonom mohiyatga xos maqsadli mohiyatga egadir.

Yerdan foydalanishni boshqarish tizimida "yer tuzish" funksiyasining o'рни va mazmuniga kelsak, quyidagilarni e'tirof etish zarur. Maxsus adabiyotlarda yerdan foydalanishning funksiyasi va mazmuni ko'pincha asossiz tarzda yer tuzishning mazmuni va funksiyasi sifatida qaraladi, ya'ni yerdan foydalanish yer tuzish tushunchasi bilan almashtiriladi. Planeta yoki davlat miqyosida tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida gapirilganda, "tabiatdan foydalanish",

“suvdan foydalanish”, “o‘rmonlardan foydalanish” kabi so‘zlardan foydalaniladi. “Foydalanish” terminlari turlicha talqinga ega. Lug‘atda “foydalanish” “zaruriyat uchun iste‘mol qilish, foyda olish” kabi talqin qilinadi, shu bilan bir vaqtda “tuzish” so‘zi “qishloq yaratmoq, tashkil qilmoq, yo‘lga qo‘ymoq, zaruriy ko‘rinish bermoq, tartib; joylashuv, qismlarning nisbati” singari ma‘nolarni beradi. Keltirilgan terminlarning farqi aniq ko‘rinib turibdi. Yer resurslari jamiyat tomonidan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalaniladi. Zaruriyat tug‘ilgan taqdirda ularni tuzish, shunda ham foydalaniladigan yer fondining barcha maydonlarini emas, balki bir qism maydonlarni tuzish o‘tkaziladi. Yer resurslaridan ko‘p maqsadli foydalanishni joriy etish uchun har doim ham ularni tuzish zarur emas. Bundan tashqari, ma‘lum bir vaqt oralig‘i uchun yerlarni tuzish bir martagina o‘tkaziladi, shu bilan bir vaqtda ulardan foydalanish jarayoni, ya‘ni Yerdan foydalanish doimiydir. Bularning barchasi yerdan foydalanishni voqeylik sifatida o‘zining mohiyati va mazmuni bo‘yicha yer tuzishdan mustaqil ekanligini yana bir karra ko‘rsatadi, qat‘iy mazmunda yerdan foydalanish yer tuzishsiz ham mavjud bo‘lishi mumkin, ya‘ni o‘zining mazmuni bo‘yicha “yerdan foydalanish” yer tuzish “tushunchasidan” ancha kengdir.

“Yer tuzish” amalda yerdan foydalanish sohasida qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish asbobi, mexanizmi, vositasi hisoblanadi. Jumladan, yer kadastri (axborotli ta‘minot), yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va yer fondini tarmoqlararo taqsimoti, yerlardan foydalanishni nazorat qilish va yerlarni muhofaza qilish, yerlardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirish, yer munozaralarini hal qilish, yer resurslarini qayta tiklash yerdan foydalanishning mustaqil funksiyalari bo‘lganlari holda amaliy jihatdan yer tuzishga bog‘liq emaslar, shu bilan bir vaqtda yer tuzishni o‘tkazish undan oldin turgan yerdan foydalanishni boshqarish tizimidagi qator funksiyalarni amalga oshirilishiga bog‘liqdir. “Yerdan foydalanish” va “yer tuzish” tushunchasi va mohiyatida aniq chegaralanishning bo‘lmaganligi “yerdan foydalanishni boshqarish” funksiyalarida chalkashliklarga, bitta funksiya mazmunini ikkinchisining mazmuni bilan almashishiga olib keladiyu, shunga qaramasdan ko‘pgina

me'yoriy hujjatlarda "yerdan foydalanish funksiyalari" deb nomlangan joyda oldiniga "yer tuzish" keyin "yer kadastrı" qayd qilinadi. masalan, o'zbekiston respublikasining yer kodeksida "yer kadastrı" bo'limi "yer tuzish" bo'limidan keyin joylashtirilgan. Bu yer kodeksida obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik voqeilik sifatidagi "yerdan foydalanish" tushunchasi, roli, mazmuni va ahamiyatining mavjud bo'lmaganligi bilan tushuntiriladi. Bularning barchasi "yerdan foydalanish"ning to'g'ri tushunchasini mavjud emasligidan guvohlik beradi, "yerdan foydalanish" to'g'risidagi yer resurslaridan foydalanishning qandaydir bir fragmenti to'g'risidagi kabi mavjud fikrlashni tubdan o'zgartirish zarur.

Amalda yer resurslaridan foydalanish "yerdan foydalanish" tushunchasining bir necha turli-tuman talqinlaridan iborat, jumladan:

- 1) korxonalar, muassasa va tashkilotlarning yer uchastkasi (maydoni);
- 2) yerdan foydalanishning texnologik jarayoni;
- 3) yer resurslaridan tanaffuzsiz, maqsadli har tomonlama foydalanishning ijtimoiy jarayoni;
- 4) ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik.

Birinchi ikkita qoidani "yerdan foydalanish" ning ilmiy tushunchasiga amalda hech qanday aloqasi yo'qdir. Keng ma'noda yerdan foydalanishni yer resurslaridan foydalanish va qayta tiklash sohasini o'z ichiga olgan hamda Yerdan foydalanishni ijtimoiy-iqtisodiy voqeilik sifatida tavsiflaydigan tabiatdan foydalanish umumiy tizimining tarkibiy qismi sifatida tushunish zarur. "Yerdan foydalanish" ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik voqeilikdir, shusiz jamiyat rivojlana olmaydi. Demak, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida "Yerdan foydalanish"ning maqsadi, mohiyati, mazmuni, vazifalariga va funksiyalariga umumlashgan ilmiy asoslangan yondashuv zarur. O'z navbatida, yer tuzish yer to'g'risida ilmiy bilimlar tarmog'i sifatida so'zsiz, o'zining nazariyasiga, o'zining mazmuni va mohiyatiga egadir hamda yerdan foydalanishni boshqarishning barcha funksiyalari kabi o'zining xususiyatlari doirasidagi usullari va uslublari yordamida yerdan oqilona va samarali foydalanishga erishishga yo'naltirilgan.

Bugungi sharoitda yer tuzish yerlardan, shuningdek, yer bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish vositalaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishga yo‘naltirilgan davlat tadbiri sifatida gavdalanadi.

Xo‘jaliklararo yer tuzish-bu xalq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rtasida, tarmoqlar ichida yerlarni taqsimlash hamda yangi yerdan foydalanishlarni vujudga keltirish va mavjud yerdan foydalanishlar tarkibi va tizimini o‘zgartirish yo‘li bilan foydalanishlarni takomillashtirish bo‘yicha davlat tadbirlari (ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va texnik) tizimidir. O‘zining maqsadli mohiyati bo‘yicha xo‘jaliklararo yer tuzish quyidagilarga bo‘linadi: qishloq xo‘jalik korxonalarini hududlarini tashkil etish va noqishloq xo‘jalik mohiyatidagi xo‘jaliklar hududlarini tashkil etish.

Xo‘jaliklararo yer tuzishning obyektlari quyidagilardir:

- xo‘jalik (korxonalar);
- ma‘muriy tuman;
- o‘zlashtiriladigan yangi yer massivlari;
- o‘zaro bog‘liq xo‘jaliklar guruhi (ular chegaralarini o‘zgartirish, sug‘orish va kollektor tarmoqlarini qayta qurish).

Ushbu turdagi yer tuzishning vazifalari quyidagilar:

- yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etish;
- ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish, ya‘ni mehnatni tashkil etish, ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish, Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq aholisi daromadlarini o‘stirish uchun zarur hududiy sharoit yaratish.

- xo‘jaliklararo yer tuzumining mazmuni quyidagilar:
- yangi qishloq xo‘jalik korxonalarini yaratish va mavjudlarini qayta tashkil etish;
- mavjud qishloq xo‘jalik korxonalarini joylashishidagi va ular chegaralaridagi kamchiliklarni tugatish;

- yangi sugʻorilgan massivlarda yangi qishloq xoʻjalik korxonalarini yaratish va mavjudlarini qayta tashkil etish;

- oʻzlashtirish uchun belgilangan yangi yerlarda qishloq xoʻjalik korxonalarini yaratish;

- yaylov chorvachiligi uchun togʻ, choʻl va boshqa mavsumiy yaylovlarni qayta taqsimlash;

- mavjud korxonalarini qayta tashkil etish bilan yirik gidrotexnik inshootlar qurishlari uchun yer berish;

- yirik sanoat va boshqa noqishloq xoʻjalik mohiyatidagi obyektlarini qurish uchun yer uchastkalarini berish;

- chiziqli inshootlar (EUT, quvurlar va boshq.) qurish uchun yer uchastkalarini berish;

- noqishloq xoʻjalik mohiyatidagi yirik boʻlmagan obyektlarni yaratish;

- aholi punktlari chegaralarini oʻrnatish va oʻzgartirish;

- yerlarni va atrof-muhitni muhofaza qilish boʻyicha tadbirlar;

Xoʻjaliklararo yer tizimining ishlab chiqarish jarayoni oʻz ichiga quyidagilarni oladi:

- tayyorgarlik ishlari (yer tuzish qatnashchilarini aniqlash, zarur materiallarni toʻplash va oʻrganish, yer uchastkalarining holatini oʻrganish, xoʻjaliklararo yer tuzishni oʻtkazish sabablari va zaruriyatini belgilash, Yerdan foydalanuvchilarning talab va istaklarini aniqlash va oʻrganish, loyihalash uchun topshiriqni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va olish);

- Yer tuzish kameral tayyorgarligi (yer tuzish sxemasini, materiallar va hujjatlarni oʻrganish, yer-kadastr axborotlarini, plan-xarita materialini, oldingi yillar yer tuzish materiallarini, tuproq geobotanik, meliorativ, yoʻl, suv xoʻjaligi va boshqa kuzatuvlar materiallarini, yer melioratsiyasi loyihalarini, korxonalar xoʻjalik faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlarini toʻplash);

- dala yer tuzish kuzatuvi;

- chegara belgilari va xoʻjalik chegarasini saqlanish holatini aniqlash;

- yer tuzishga tortiladigan xo‘jalik yer uchastkalarining xarakterini aniqlash;
- aholi punktlari, ishlab chiqarishlar, ichimlik suvi bilan ta‘minlash manbaalari, asosiy yo‘llar, boshqa inshootlar bilan tanishish;
- manfaatdor tomonlarning takliflarini aniqlash va rasmiylashtirish.

Bulardan keyin ishlab chiqarish jarayoni xo‘jaliklararo yer tuzish loyihasiga topshiriq tuzish, loyihani tuzishni, ko‘rib chiqishni va tasdiqlashni, loyihani huquqiy jihatdan rasmiylashtirishni, joyga loyihani ko‘chirishni hamda Yerdan foydalanish chegarasini rasmiylashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ichki xo‘jalik yer tuzishi-yer, mehnat va qishloq xo‘jalik texnikasidan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini va yerning boshqa foydali xususiyatlarini saqlash va ko‘paytirish, qishloq aholisi uchun maqbul sharoit yaratish uchun rejali asosni ta‘minlaydigan qishloq xo‘jalik korxonalari ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish bo‘yicha tadbirlar tizimidir.

Xo‘jalik hududini ichki tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- har bir yer uchastkasidan oqilona va samarali foydalanishni, shuningdek vaqt va resurslarni tejash maqsadida mehnatni ilmiy tashkil etish va mashina-traktor parkidan unumli foydalanish uchun maqbul sharoitni ta‘minlaydigan hududlarni tashkil etish shakllarini yaratish;

-tuproqlar unumdorligini saqlash va ko‘paytirish;

-tuproqlar Eroziyasi oqibatlarini tugatish, kelgusidagi Eroziya jarayonlarining oldini olish;

-mavjud madaniy landshaftlarni hamda yangidan yaratilganlarini saqlanishini ta‘minlash;

-yerdan foydalanishdagi kamchiliklarni tugatish va xo‘jalik yuritishning ilmiy-asoslangan tizimini joriy etish uchun tashkiliy-hududiy sharoit yaratish;

-kishilar mehnati, turmushi va dam olish sharoitlarini yaxshilash.

Ichki xo‘jalik yer tizimining tarkibiy qismlari quyidagilar:

-ishlab chiqarish bo‘linmalari va xo‘jalik markazlarini joylashtirish;

-ichki xo‘jalik yo‘l tarmoqlarini, suv xo‘jaligi va boshqa injenerli inshootlarni joylashtirish;

-yer turlarini tashkil etish;

-almashlab ekish tizimini tashkil etish va ular hududini tuzish;

-meva-rezavorlar va uzumzorlar hududlarini tuzish;

-yem-xashak yerlarini tuzish.

Ichki xo‘jalik yer tuzishning mazmuni quyidagilardan iborat:

-kameral tayyorgarlik ishlari (plan-xarita materiallarini tayyorlash, xarita asoslarining masshtablarini tanlash, yer-kadastr axborotlarini to‘plash va boshq.);

-dala tayyorgarlik ishlari;

-ishlab chiqarish bo‘linmalari va xo‘jalik markazlarini joylashtirish;

-qishloq aholisini joylashtirish tizimini ishlab chiqish;

- ishlab chiqarish bo‘linmalarining yer massivlarini joylashtirish;

-majmualiy loyiha echimlarini iqtisodiy asoslash;

-yer tuzish loyihasini amalga oshirish, hujjatlarni rasmiylashtirish va berish.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni yuritish yoki bu regionning tabiiy-iqlimiy xususiyatlarini hisobga olish bilan bog‘liqdir. Shu sababli ichki xo‘jalik yer tuzishi regional xususiyatlarga ega. Ichki xo‘jalik yer tuzishining regional xususiyatlari quyidagi o‘ziga xos hududlarda mavjud bo‘ladi:

- tuproq eroziyalarining yuqori xavfsizligida;

- sug‘oriladigan dehqonchilikda;

- quritiladigan yerlarda;

- shimoliy rayonlarda;

- yaylov chorvachiligida va boshq.

Yer tuzishining u yoki bu regional xususiyatlari mavjud bo‘lishiga qaramasdan masalalarni hal qilishning barcha holatlarida yer tuzish jarayonini amalga oshirishning umumiy tamoyillariga amal qilish zarur.

Bilimini aniqlash uchun savollar:

1.Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi sifatida yer tuzishga qanday ta’rif beriladi?

- 2.Yer tuzish qanday mohiyatga ega?
- 3.Yerlarni to‘la qayta tiklash siklida yer tuzishning o‘rni va rolini aniqlang?
- 4.Yer tuzishning turlarini aytib bering.
- 5.Yer tuzish tamoyillarini sanab bering.
- 6.Yer tuzish jarayonining mohiyati nimadan iborat.
- 7.Xo‘jaliklararo yer tuzishning mazmuni nimalardan iborat?
- 8.Ichki xo‘jalik yer tuzishning tarkibiy qismlarini aytib bering?
- 9.Ichki xo‘jalik yer tuzishning mazmuni nima?
- 10.Yer tuzishning regional xususiyatlarini aytib bering.

4.5 Yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizimi-uni boshqarish funksiyasi

Yerdan foydalanishning iqtisodiy boshqarish funksiyasi yer resurslarining faoliyat sohalari, iqtisodiyot tarmoqlari, yerdan foydalanuvchi subektlar o‘rtasida oqilona taqsimlash hamda ulardan foydalanish va qayta tiklash samaradorligining darajasi, yer bozorini tartibga solish, ipoteka tizimini takomillashtirish asosida yerdan foydalanish tarkibini maqbullashtirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. U yerlardan foydalanish va qayta tiklash, yer uchastkalariga bozor baholarini o‘rnatish, yerlarning qiymat bahosini va ijara huquqini o‘rnatish, kreditlash, yer solig‘i va ijara haqlarini, yer uchastkalari ajratib olinganda o‘rnini qoplash to‘lovlarini asoslash, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag‘batlantirish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy asoslash mexanizmini o‘z ichiga oladi.


Yerdan foydalanish tartibi muhim tushunchadir, u yerlardan foydalanishning oqilonaligi va samaradorligini aniqlaydi. Jamiyat tomonidan yer resurslaridan foydalanish ko‘p maqsadli xarakterga ega, shuning uchun yerlarni maqbul tarkibda taqsimlash va foydalanish yerdan foydalanishning tizimlilikini, shu jumladan belgilangan sharoitda mumkin bo‘ladigan eng yuqori umumlashgan samaradorligini ham ta‘minlaydi. Bugungi kunga qadar jamiyat Yerdan foydalanish tarkibining mohiyati va ahamiyati etarli darajada to‘la o‘rganilmagan, yerdan foydalanish turlari va kichik turlarining nisbatlarini

oʻrnatishning metodologik asoslari ishlab chiqilmagan, ular tarkibini maqbullashtirish va samaradorligini baholash uslubiyati mavjud emas. Bularning barchasi yerlardan nooqilona foydalanishga olib keladi, ularning sifat holatini va samaradorligini pasaytiradi, qayta tiklashni buzadi.

Tarkib deganda umuman obyektning qurilishi, ichki tuzilishi yoki tizimli joylashuvi, obyekt tarkibiy qismlarining tartibi tushuniladi. Yerdan foydalanishning tarkibi yerdan foydalanishning tarkibiy qismlarini, jamiyat rivojlanishining tabiiy, siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini koʻzda tutuvchi ularni maʼlum shartida joylashuvi hamda amalga oshirish tartibini namoyon qiladi. Yerdan koʻp maqsadli foydalanish yerdan foydalanishning xarakteri va usullariga mos tarzda foydalanishni tarkiblashning sababi boʻladi, yaʼni u jamiyat rivojlanishining amaldagi qonunlari bilan belgilanadigan obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Shu sababli ham yerdan foydalanishni tarkiblash chuqur siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatga egadir. Jamiyat uchun eng birinchi zaruriyat hisoblangan moddiy boyliklar yerdan foydalanishning tegishli tarkibi bilan taʼminlanishi zarur. Masalan, mustaqil Oʻzbekistonni yerdan foydalanishi oldiga qoʻyilgan eng asosiy, strategik masala-bu mamlakatni don mustaqilligini taʼminlashdan iborat boʻlgan. Bu holat qishloq xoʻjaligi yerdan foydalanishining tarkibiga taʼsir koʻrsatdi hamda uning siyosiy-iqtisodiy mohiyatini kuchaytirdi. Bugungi kunda etishtirilayotgan donning miqdori 7,5 mln.tonnani tashkil etadi. Shu bilan bir vaqtda Oʻzbekiston paxta xom-ashyosi etishtirish boʻyicha yirik baza boʻlib qolmoqda. Bu esa oʻz vaqtida qishloq xoʻjaligi yerdan foydalanishining tarkibini oldindan belgilashga asos boʻladi. Mamlakat Prezidentining “Kolxozchilar, sjvxoʻz ishchilari hamda qishloq joylarida istiqomat qiluvchi boshqa fuqarolarning shaxsiy yordamchi xoʻjaliklarini yanada rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Farmonini [14] hayotga tadbiiq qilinishi respublika aholisi uchun yirik siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega boʻldi hamda bu tegishli tartibda Yerdan foydalanish tarkibiga taʼsir koʻrsatdi. Yuqorida qayd qilinganlar yerdan foydalanish tarkibini

siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy mohiyatining barcha argumentlarini to‘la qamrab olmaydi, lekin etarli darajada buni tasdiqlaydi.

Yerdan foydalanish tarkibi iqtisodiy mahsulotni qaytadan ishlab chiqarish jarayoni bilan, yerni qayta tiklashning sikli bilan, yerlardan oqilona va samarali foydalanish bilan uzviy bog‘liqdir. Iqtisodiy mahsulotning miqdor o‘lchami hamda uni turli-tumanligi yerdan foydalanish tarkibiga, uning turlari va kichik turlariga, ularni solishtirma nisbatlariga bog‘liqdir. Tarkibi bilan farqlanishi yaratilayotgan u yoki bu turdagi iqtisodiy mahsulot (xizmat)ning miqdoriy o‘lchamlarini o‘zgarishiga imkon beradi, bu jamiyat iqtisodini dinamik rivojlanishi uchun muhimdir (31-rasm). Yerdan foydalanish tarkibi yer resurslarini o‘zining qayta tiklanish siklida ham yirik rol o‘ynaydi. U yerdan foydalanish usullari va xarakterining nisbatlarini, uni unumli va unumsiz iste‘molini, qayta tiklanish xarakterini aniqlaydi. Nihoyat, yerdan foydalanish




32-rasm. Mamlakat yerdan foydalanishning turlari va kichik turlari (zahira yerlar ko'rsatilmagan) [66].

bo'yicha barcha loyihaviy echimlarni amalga oshirish qabul qilingan tarkib asosida bajariladi, ya'ni tarkib yerlardan oqilona va samarali foydalanishni namoyon bo'lishining shakllaridan biridir.

Tarkibli jihatidan mamlakat yerdan foydalanishi yer toifalariga bo'linadi (32-rasm). "Toifa" terminining tushunchasi-bu qandaydir bir-biriga yaqin belgilarni birlashtirgan predmet, voqeilik guruhidir. Yerlar toifasi deganda, umumiy belgilari bo'yicha birlashtirilgan yer uchastkalarining to'plami tushuniladi. Mamlakat yer fondiga nisbatan toifa-bu yerdan foydalanish asosida ijtimoiy ahamiyatli belgilarning maqsadli mohiyati yotgan hamda ulardan foydalanish usullari maqsad qilib belgilangan yer uchastkalarining to'plamidir. yer fondini yer toifalariga bo'linishi [39,8b] yerlarning maqsadli mohiyatini boshqa turlardan farq qildiruvchi, aniq belgilangan yerdan foydalanishning tegishli asosiy turlarini aniqlaydi. Keyin ular yer toifalari chegarasida yerdan foydalanish shartlari bo'yicha, ma'muriy-hududiy belgilari, mulkchilik shakllari hamda yer uchastkalariga huquqiy turlari va boshqa belgilari bo'yicha kichik turlarga bo'linadilar (33-rasm).

Qishloq xo'jalik yerlarining ustuvorligini hisobga olgan holda aynan ushbu yerlar yerdan foydalanishning eng muhim turi hisoblanadi. Bu yerda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xomashyo ishlab chiqariladi, bu yerlar foydalanish va qayta tiklanishga yirik miqdordagi sarf-xarajatlar talab qiladi, ularni o'sishi zahira yerlar hisobiga yoki qishloq xo'jaligi uchun kam mahsuldor yerlar hisobiga amalga oshiriladi. Bunday yangi yerlarni o'zlashtirish yirik sarf-harajatlarni talab qiladi.

O'zining xususiyatlari hamda yerdan foydalanishning murakkabligini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishi murakkab tarkibga egadir. Yerdan foydalanish sharoitlari va usullariga qarab u sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmi) yerlarga bo'linadi. Yerlarni ishlash usuli bo'yicha sug'oriladigan yerdan foydalanish haydalma yerlar va ko'p yillik daraxtzorlarga bo'linadi. Lalmi yerlar ham o'z navbatida, haydalma yerlar (dalalar) va yaylov yerlariga bo'linadi.



33-rasm. Yerdan foydalanishni tarkiblashning asosiy belgilar

Dalachilik sug'oriladigan yerdan foydalanishi ixtisosligi bo'yicha turli-tuman mahsulotlar etishtirishni ko'zda tutuvchi murakkab tarkibga egadir, hamda u quydagilarga bo'linadi: paxtachilik, donchilik, savzavotchilik, kartoshkachilik, bog'dorchilik-uzumchilik, tamakichilik, yem-xashak etishtiruvchi yerdan foydalanish. Dalachilikda sug'ormaydigan yerdan foydalanish ixtisosligi bo'yicha asosan donchilikdan iborat, yaylov tabiiy sharoitlari bo'yicha, o'z navbatida, dasht (cho'l), tog'-oldi (adir) hamda baland tog' (tau) turlariga


bo‘linadi. O‘z navbatida qishloq xo‘jaligining ixtisosligi bo‘yicha yaylovlar qo‘ychilik (go‘sht etishtirish), qorako‘lchilik hamda tuyachilik yo‘nalishlariga bo‘linadi (34-rasm).

Qishloq xo‘jalik yerdan foydalanish tarkibining muhim ko‘rsatkichlaridan biri-bu uni kichik turlari maydonlarining bir-birlariga nisbatlaridir. U bilan resurslarni ishlab chiqish zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqish tarkibini va hajmlarini belgilash, davlat tomonidan mahsulotlarini sotib olish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport va import hajmlari va tarkiblarini belgilash bog‘liqdir. U qishloq ishlab chiqarish infratuzilmasini, mahsulotlar ishlab chiqarish harajatlarini, yerlarni qayta tiklash harajatlarini aniqlaydi, Yerlardan samarali foydalanishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Maqsadli Yerdan foydalanishning maqbul nisbatlari maqbullashtirish masalasini ishlab chiqish va echish orqali, chiziqli dasturlashning simpleks usulidan foydalanish asosida erishiladi

Ekin yerlari, haydalma va yaylov yerlarining olingan maqbul natijalari qishloq xo‘jalik yerdan foydalanishning maqbul tarkibini tashkil etadi. yerdan foydalanish tarkibining iqtisodiy mohiyati yerdan foydalanish jarayonida namoyon bo‘ladi, samaradorligi yerlarni maqsadli taqsimlanishida rejalashtiriladi.

Yerlardan ko‘p maqsadli foydalanishni va kadastr axborotlarining aniqligiga turlicha talablarni aniqlovchi mamlakat Yerdan foydalanishning tarkibi yer va suv kadastrlarining bir qator xususiyatlarini ko‘zda tutadi. Yerlarning miqdoriy hisobi nainki qishloq xo‘jalik korxonalarini hamda yer turlari bo‘yicha, balki SIU, STB, STBB, sug‘orish va kollektorlarining ishlash mintaqalari bo‘yicha ham amalga oshiriladi, barcha darajalardagi sug‘orish kanallari va kollektorlar tagidagi yerlar hisobi yuritiladi.


Metodologik nuqtai nazardan qishloq xo‘jaligi va noqishloq xo‘jaligi maqsadidagi yerlarni baholash bir-birlaridan farq qiladilar: birinchi holatda yerlarning unumdorlik qobiliyatini baholash tuproq bonitirovkasi hamda shu asosda qiymatni baholash amalga oshiriladi, ikkinchidan esa yer uchastkasini



34-rasm. Qishloq xo'jaligi yerdan foydalanishining tarkibi [66].

sifat jihatidan yaxshilanishi (yerlar bonitirovkasi) hamda ular asosida- qiymat baholash o'tkaziladi.

Tuproqlar sifatini baholash natijalari aniq bir ishlab chiqariladigan mahsulotning tarkibiga natural va qiymat ko‘rinishida ma’lum bir miqdorlar bilan kiradilar, qator ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining miqdoriy o‘lchamlarini belgilashga imkon beradi, shu bilan bir vaqtda noqishloq xo‘jalik Yerlari uchun ular faqatgina nisbiy shaklga-ballga ega bo‘lganlari xolda qandaydir-bir absalyut yoki qiymat shaklga ega emas, ya’ni tuproqlar bonitirovkasi sug‘oriladigan yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmida muhim rol o‘ynaydi (35-rasm).



35-rasm. Sug‘oriladigan yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmida tuproq bonitirovkasining roli [66].

Tegishli tartibda tuproq sifatini baholash va yerlar sifatini baholash usullari ham turlicha.

Suvdan foydalanganlik uchun to'lovlarni kiritish sug'oriladigan Yerlar maydonlarining, sug'orish tarmoqlari tagidagi maydonlarning aniq hisobini, har bir suvdan foydalanuvchining suvdan foydalanishini hisobini, sug'orish me'yorlarini haqqoniy belgilanishini, sug'orish suvini tashish qiymatini hamda tabiiy resurs sifatidagi suvning qiymatini aniklashni talab qiladi. To'lovli suvdan foydalanish faqatgina suv-kadastr axborotlarini emas, balki yer-kadastr axborotlarini qo'llanilishini ham talab qiladi, ya'ni bir vaqtning o'zida suv va yer kadastriga talabni taqdim etadi. Ko'p bosqichli tarkibga ega bo'lgan va o'zaro hisob-kitoblarga ta'sir ko'rsatuvchi suvdan foydalanish tizimi nainki birlamchi suvdan foydalanuvchilar bo'yicha, balki uning butun tarkibiy bo'linmalari bo'yicha ham kadastr ma'lumotlarini talab qiladi.

Respublikada o'tkazilayotgan suv kadastr yeri usti suvlari, yer osti suvlari hamda yerlarning meliorativ holati kadastrlariga bo'linadi. Berilgan holatdagi moddiy biologik birlik sifatidagi tuproqlar sifatini baholash uchun yer, sug'orish suvi meliorativ kadastrlaridan farq qiluvchi aynan tuproq kadastr sifatidagi ma'lum bir kadastrlarning o'ziga xos ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Sug'oriladigan tuproqlar moddiy biologik birlik sifatida kamida ikkita turdagi resursni yer va sug'orish suvining majmuasi sifatida gavydalanadi. Agarda minerallasgan yer osti suvlari toza sug'orish suvidan farq qiluvchi alohida, mustaqil resurs deb hisoblansa, bunday holda tuproq tarkibi endi uchta turdagi resurslarni o'z ichiga oladi, shu sababli ham sug'oriladigan tuproqlarni faqatgina yer kadastrini o'rganish obyekti deb hisoblash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Hudud shunday, sug'oriladigan tuproqlarni faqatgina suv kadastrini (sug'orish suvi) o'rganish obyekti deb hisoblashga asos etarli emas. Shu sababli ham sug'oriladigan tuproqlarni miqdori va sifati jihatlaridan baholash umumiy tarzda yer kadastrining mazmunini tashkil etmasdan sug'oriladigan tuproqlar kadastr mazmunini tashkil etadi. Bu holat davlat kadastr tizimida sug'oriladigan tuproqlar kadastr alohida ajratilishi va yuritishi zarur[66].

Yerlarni qiymat baholash yer munosabatlarini iqtisodiy qirrasini tartibga solish maqsadida amalga oshiriladi va mamlakatda bozor munosabatlariga o'tishi bilan u yanada dolzarblashgan. Yerdan foydalanishda bozor tamoyillarini joriy qilinishi, ya'ni yerdan foydalanishni to'lovligi, ijara munosabatlarini rivojlanishi, ipotekani rivojlanishi, noqishloq xo'jalik yerlarini bo'lg'usi xususiylashtirish va qator boshqalar yerlarni qiymat baholashni o'tkazishini talab qildi. Metodologik nuqtai nazardan qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi yerlarini baholash bir-birlaridan tubdan farq qiladi. Birinchi baholashda tuproqlarning mahsuldorligi baholanadi, ikkinchi holatda esa yer tabiiy-moddiy tana sifatida baholanadi, tuproq qatlami bunda rol o'ynamaydi. Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida gavydalanadi, hosil yaratishda to'g'ridan-to'g'ri qatnashadi. Noqishloq xo'jalik yerlari ishlab chiqarish vositasi rolini o'ynaydi va yoki kenglik-operatsion asos vazifasini bajaradi hamda moddiy yoki boshqa boyliklarni yaratishda ikkinchi darajali ahamiyatga ega, bunda ulardan foydalanish ko'pincha nainki faqat iqtisodiy samaradorlikni olish bilan, balki ijtimoiy, reaksiyon, ekalogik samaradorlikni olish bilan bog'liqdir. Agarda qishloq xo'jalik yerlarining sifati meliorativ tadbirlarga bog'liq bo'lsa, noqishloq xo'jalik yerlariniki hududda o'tkaziladigan boshqa xarakterdagi yaxshilanishlarga bog'liqdir.

Mavjud uslubiyatni tahlil qilish metodologik nuqtai nazardan quyidagi kamchiliklarni aniqlashga imkon berdi. Tuproq bonitirovkasiga asoslangan kadastr hosildorligi quyidagi kamchiliklarga ega. 1 bonitet balliga to'g'ri keladigan 0,3 % hisoblangan foyda me'yori unchalik asoslangan emas. Aholi punktlariga va mahsulotlarini sotish punktlariga nisbatan yer uchastkasining joylashgan o'rni bo'yicha koeffitsent to'g'ri belgilanmagan. yer uchastkasini mahsulotlarni sotish joyidan uzoqlik ko'rsatkichini 50 %ga o'sishi yer qiymatini 40 %ga oshiradi, olib boriladigan mahsulot ushbu masofaga o'sishi Yerning qiymatini bor-yo'g'i 10%ga oshiradi, xolos. Yer uchastkasini aholi punktidan uzoqlik ko'rsatkichini 3 marta o'sishi yer qiymatini bor-yo'g'i 4 %ga oshiradi, shu bilan bir vaqtda undan yer uchastkasiga o'tish butun qishloq xo'jalik yilida

amalgaga oshiriladi. MTP va mineral o'g'itlarni saqlash punktlari umuman hisobga olinmagan. Mahalliy xarakterga ega bo'lgan sharoitlarni yer uchastkasiga ta'siri bo'yicha tuzatma koeffitsientlar asoslangan emas (mahalliy hokimiyat organlarining ixtiyori bilan 25 % gacha), bu holat baholashda uning natijalarini yirik miqdorlarda subekktiv ravishda o'zgartirilishiga olib kelishi mumkin.

Aniq e'tiborga olish zarur: qishloq xo'jalik yerlarini me'yoriy baholash qanday maqsadni ko'zlaydi? Amaliy mohiyatga qarab baholash bir necha turlarga bo'linadi: yerlarni realizatsiya qilishda boshlang'ich qiymatni hisoblash uchun (ijara huquqi), yer solig'ini hisoblash uchun (ijara haqi), yerning garov qiymatini belgilash uchun. yerga davlat mulkchiligida yerlarni qiymat baholash, eng avvalo, yer solig'ini hisoblash uchun o'tkaziladi. Ammo soliq yerdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik daromadi bilan emas, balki tuproqlarni tabiiy xususiyatlarini ko'zda tutadigan Yerlarni sifati asosida hisoblanishi zarur. SHuning uchun soliqqa tortish maqsadlari uchun Yerlarni qiymat baholash mavjud uslubiyatda ko'rsatilgani kabi Yerlardan foydalanishni xo'jalik samaradorligidan emas, balki Yerlarni sifat xususiyatidan kelib chiqqan xolda amalga oshirilishi zarur.

Suvdan foydalanishga bozor tamoyillarini tadbiq qilish, eng avvalo, sug'orish suviga to'lovlar undan samarali foydalanishni ta'minlash, suvni tashishdagi harajatlarni xo'jalik yurituvchi subekttlar tomonidan qoplash, shuningdek xo'jaliklar tomonidan suvdan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Suvni baholashning me'yoriy uslubi daromad ko'rinishida sug'oriladigan Yerlardan foydalanish samaradorligi orqali aks etadigan undan foydalanish samaradorligiga asoslanishi zarur hamda uni bo'laklarga ajratishni talab qiladi. Sug'orish suvining qiymatini baholash uslubiyati ishlab chiqarilgan hamda tavsiya qilinadi. Suvdan foydalanishdagi bozor tamoyillari Yerdan foydalanuvchiga belgilangan limitdan ortiqcha sug'orish suvini realizatsiya qilishni va xo'jalikda suvdan samarali foydalanish natijasida vujudga kelgan

ortiqcha suvlarni shartnoma baholarida suv xo'jaligi tashkilotlari tomonidan ulardan sotib olishni ko'zda tutadi.

Yerni soliqqa tortish fiskal, taqsimlanish va rag'batlantirish mohiyatiga ega. Fiskal mohiyati mamlakat byudjetini shakllantirish zaruriyatini, taqsimlanish-jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda sarf harajatlar o'rtasida byudjetning daromad qismini qayta taqsimlashdan iborat bo'ladi. Rag'batlantiruvchi roli esa yer resurslariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ulardan oqilona va samarali foydalanish hamda qayta tiklashni ko'zda tutadi.

Yerdan foydalanishda soliqni eng muhim funksiyasi-bu Yerdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdir. yerga to'lovlar, yer kadastrini, yer tuzish, yer monitoringini yuritishga, yerlarni qayta tiklash va muhofaza qilishga, yerlardan samarali foydalanishni rag'batlanirishga yo'naltiriladi (36-rasm). Shu sababli ham soliqning to'la miqdorini hamda uni rag'batlantiruvchi qismini asoslash yerdan foydalanishning muhim muammosi hisoblanadi.

Respublikada qishloq xo'jalik yerlardan foydalanganlik uchun 1995 yildan buyon yerlarning sifati hamda yer uchastkalarining joylashgan o'rni bo'yicha tabaqalashtirilgan yer solig'i undiriladi. Ushbu turdagi to'lovlarni ijara to'lovlari deb nomlash zarur, negaki bu yerlar davlat mulkchiligidadir. Ijara to'lovlari stavkasi asoslanmaganligini hamda uni soliq stavkasiga tenglashtirilganligini hisobga olsak, to'lovlar amaliyotida bitta termin-yer solig'i (miqdorlari bo'yicha teng) qo'llaniladi. Soliqni hisoblab chiqish qishloq xo'jalik yerlarining sifat hamda qiymat baholash ma'lumotlaridan foydalanish asosidagi uslubiyat hamda Hukumat tomonidan soliq stavkalari bo'yicha amalga oshiriladi. Yer solig'ini hisoblab chiqish bugungi kunda quyidagi uslubiyat bo'yicha bajariladi:

1) yagona yer solig'ini to'lashga o'tkazilmagan, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, hamda fuqarolardan undiriladigan yer solig'i stavkalari bo'yicha;

2) yerlarni sifat bahosini hisobga olgan holda qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari bo'yicha;

3)qishloq xo'jalik yerlarini me'yoriy qiymatida hisoblab chiqiladigan yagona yer solig'i stavkalari bo'yicha;

Birinchi ikkita uslubiyatning qo'llanilishi yer solig'idan yagona yer solig'iga o'tilishi bilan tushuntiriladi. Ikkala uslubiyat ham Yerlarni sifat bahosiga asoslanadi. Uchinchi uslubiyatni qo'llanilishi yagona YER solig'ini hisoblab chiqish bilan, ammo yerlarni me'yoriy qiymatining natijalari bo'yicha hisoblab chiqish bilan bog'liq.

Yerlarni qayta tiklash amaliyotida harajatlar asosan davlat gardaniga tushgan, ishlab chiqarish harajatlari esa qishloq xo'jalik korxonalarining ichki xo'jalik xarajatlari asosida hisoblab chiqilgan. Shunga tegishli tarzda sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini baholash ham amalga oshiriladi.


Dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish yer-suv resurslarini ishlab-chiqaruvchi iste'moli bilan, ularni o'rnini qoplash esa harajatlar bilan bog'liqdir.

Yer-suv munosabatlariga bozor tamoyillarini qo'llash sharoitida bu vaziyat ishlab chiqarish sarf-harajatlarida tuproq unumdorligini qayta tiklash va sug'orish suviga sarflanadigan harajatlarni ham hisobga olish zaruriyatini talab qilmoqda. Shu munosabat bilan sug'oriladigan tuproqlarni qayta tiklashda quyidagi harajatlarni ajratish zarur, deb hisoblaymiz.

-ichki xo'jalik harajatlari (investitsiya);

-ichki xo'jalik, byudjet (davlat, mahalliy) va sponsorlarning vositalarini hisobga olgan holdagi harajatlar (investitsiya);

-ichki xo'jalik, byudjet sponsorlar vositalarini hisobga olgan tarzda o'rtacha harajatlar(investitsiya).



36-rasm. Yerdan foydalanish funksiyasini joriy qilishga yer solig'ini rag'batlantiruvchi qismini taqsimlash sxemasi [66].

Tuproqlar unumdorligini qayta tiklashning ajralmas qismi-bu tadbirlarning samaradorligi hamda ularni baholash mexanizmi to'g'risidagi masaladir. Tuproq bonitetining ballarida tadbirlar samaradorligini qanday baholash kerak, berilgan ball miqdorlariga qarab yer sifatini oshirish uchun tadbirlar qanday hajmlarda amalga oshirilishi zarur, bunda qanday vositalarni sarflash zarur?. Bu masalalar bugungi kunda amaliy jihatdan javobga ega emas. Masalan, bir tomondan, kollektorlarni tozalash bo'yicha ishlar hajmi bilan chiqarib tashlanadigan yer osti grunt suvlarining hajmi, ikkinchi tomondan, yerlarni sho'rlanishi va yer osti suvlarining pasayish darajasi o'rtalaridagi bog'liqlik ma'lum. Ammo bu tadbirlar tuproq unumdorligini, tuproqlar bonitet ballini qanchaga yaxshilaydi-javob berish mushkul. Jumladan, uch yillik bedadan so'ng paxtaning hosildorligi, birinchi yil 5,0-7,0, ikkinchi yil o'rtacha 4,0 s/ga oshadi va hokozo, ammo YER sifatini ushbu tadbir bilan matyematik bog'liqligi mavjud emas.

Amaliyot uchun o'ta muhim bo'lgan qator masalalarga javob beradigan korrelyasion bog'liqlikni o'rnatish talab qilinadi:

1) yerning sifatini bir ballga ko'tarish uchun qanday hajmlardagi tadbirlarni o'tkazish zarur bo'ladi;

2)u yoki bu tadbir turi bo'yicha tuproqning bonitetini 1 ballga ko'tarish uchun qanday harajatlarni zarur;

3) u yoki bu tadbir turi tuproq bonitetini 1 ballga oshirishning qiymati bilan qanday taqqoslangan bahoga ega;

4) tuproqlar bonitet balli hamda ularga sarflanadigan harajatlarni dasturlashning imkoniyatlari qanday;

5) aniq bir yer uchastkasi, massiv tuproq bonitet ballini o'sishiga sarflanadigan moddiy-texnik va moliyaviy resurslarini nazorat qilish imkoniyatlari qanday?

Bu joyda yerlar sifatining monitoringi muhim rol o'ynaydi. Uni yuritish nainki tuproqlar unumdorligini qayta tiklashda zarur, balki sug'oriladigan yerlarni butun qayta tiklanishlar, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning vakolatidir. Ular yerlarni miqdori va holati to'g'risidagi har yillik hisobotlarni taqdim etishlari; Yerlardan foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik samaradorliklarini aniqlashlari; Yerlardan foydalanish samaradorligini baholashning ilmiy asoslangan uslubiyatlariga ega bo'lishlari; tegishli yer-kadastr axborotli ta'minotga va avtomatlashtirilgan yer axborotli tizimga chiqish, yer monitoringi tizimiga chiqish imkoniyatlariga ega bo'lishlari; tegishli davlat rejalashtirish tashkilotlari bilan birgalikda o'z idorasiga tegishli tarmoqda Yerdan foydalanish dasturini ishlab chiqishlari; Yerdan foydalanishni va ularni sifat holatini, ularni muhofaza qilishni va qayta tiklanishini istiqbolga yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berishlari zarur. SHu sababli yuridik va jismoniy shaxslar Yerlardan foydalanishlari va muhofaza qilishlarini davlatning vakolatli organlari tomonidan nazorat qilish obyektiv zaruriyatdir. Bu esa, o'z navbatida, ko'rib chiqilayotgan funksiyani amalga oshirish zaruriyatini belgilab beradi.

Yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni nazorat funksiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi: qaysi vazirlik va idoraga, yer toifasiga mansubligidan qat'iy nazar barcha yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar tomonidan yerdan foydalanish, yerlardan foydalanishdagi kamchiliklarni aniqlash va ushbu aniqlangan kamchiliklarni tugatish hamda bartaraf etishga ilmiy-uslubiy

yordam ko'rsatish, shuningdek yerlardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish va yerdan foydalanish bo'yicha yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarning majburiyatlari bajarilmagan taqdirda ularga tegishli jarima sanksiyalarini qo'llash uchun ham zarurdir, negaki, yerlardan foydalanishda ham, ular sifatini qayta tiklashda ham tuproqlar unumdorlik darajasini o'zgarishi to'g'risidagi axborotlar zarurdir.

Bilimini aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu funksiyasiga qanday ta'rif beriladi?
2. Yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu funksiyasini mazmuni qanday?
3. Yerdan foydalanishni tarkiblash jarayoni nima?
4. Yerdan foydalanishni tarkiblash qanday belgilarga ega?
5. Qishloq xo'jalik yerdan foydalanishining tarkibini aytib bering?
6. Foydalaniladigan kadastrlar hamda ularni yuritish xususiyatlariga tarkib qanday ta'sir ko'rsatadi?
7. Sug'oriladigan yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmida tuproq bonitirovkasi qanday rol o'ynaydi?
8. Yer va suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lovlar mexanizimining mazmunini nima tashkil etadi?
9. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasini amalga oshirishda yer solig'ini rag'batlantiruvchi qismi qanday taqsimlanadi?
10. Yerdan foydalanishning jamlangan samaradorligini baholash mexanizmining mohiyati nimadan iborat?

4.6 Yer monitoringi va yerlardan foydalanishni nazorat qilish yerlardan foydalanishni boshqarishning funksiyalari sifatida

O‘zbekiston Respublikasida yerlardan foydalanishni tashkil etish va amalga oshirish tizimida keyingi yillari yer monitoringi yuritilmoqda. U yerlardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. yer monitoringining mazmuni, maqsadli mohiyati va vazifalari to‘g‘risida o‘zbekiston respublikasi yer kodeksida alohida to‘xtalib o‘tilgan (14-modda). Unda e’tirof etiladiki, “yer monitoringi-bu yer maydonlarida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarni baholash, salbiy o‘zgarishlardan ogoh qilish va oqibatlarini bartaraf etish uchun yer fondidagi o‘zgarishlarini kuzatish tizimidir”. Shunday qilib, yer monitoringi amalda Yerlardan oqilona va samarali foydalanish va muhofaza qilishning nazorat funksiyasini bajaradi. Shu sababli yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni boshqarishning nazorat funksiyasi yer kodeksida noo‘rin qaytarilganligini haqqoniy ravishda hulosa qilish mumkin. Ammo e’tirof etish zarurki, yer kodeksida hamda yer monitoringini yuritish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda keltirilgan yer monitoringi tushunchasi etarli darajada to‘la emas. Uning mazmuni, tamoyillari, uslublari, mohiyati maxsus adabiyotlarda kam o‘rganilgan va yoritilgan. Shu munosabat bilan yer monitoringining bu tushunchalarini ancha kengroq qarab chiqamiz.

Monitoring (inglizcha “monitoring” so‘zidan olingan bo‘lib) kuzatishni bildiradi. Quyidagi jarayonlarni, jumladan tabiiy voqeiliklarni, tizimlarni tarkibiy qayta tashkil etishlarni, moddiylashgan obyektlarni (tabiiy resurslar, xo‘jalik obyektlari) tarkibiy va sifat qayta tashkil etishlarni, ijtimoiy-iqtisodiy (shu jumladan, ishlab chiqarish) va ekologik jarayonlarni kuzatish amalga oshiriladi. Bundan asosiy maqsad-ulardagi o‘zgarishlarni aniqlash va ularni o‘zgarish xarakteri hamda darajasini o‘rganish va zaruriy hollarda ularga ta’sir ko‘rsatishdan iboratdir. O‘rganiladigan voqeilik va jarayonlar, shuningdek, obyektlar ko‘lamiga va faoliyat sohalariga qarab turli xildagi monitoringlar ajratiladi: ijtimoiy monitoring, boshqarish monitoringi, hayvonot dunyosining monitoringi, yer monitoringi va hak. jumladan, yer monitoringi faqatgina yerdan

foydalanish sohasidagi jarayonlarni o'rganishni bildiradi xolos hamda maqsadli mohiyatiga qarab o'z navbatida boshqarish monitoringi, yerlar sifatining monitoringi, yerlar miqdorining monitoringi kabilarga bo'linadi.

Yerlarni boshqarish monitoringi yer resurslaridan foydalanish bo'yicha qabul qilingan boshqarish qarorlarini amalga oshirishning borishi va sifatini kuzatish (nazorat) uchun mo'ljallangan. Yerlar sifatini monitoringining mazmuni yerlarni sifat holatidagi o'zgarishlarini aniqlashdan iboratdir. Yerlar miqdorining monitoringi yer fondi tarkibidagi miqdoriy o'zgarishlar dinamikasini o'rganadi. boshqa turlardagi yer monitoringlari ham bo'lishi mumkin, masalan, yerga bo'lgan huquqlar (servitut va cheklanishlar bilan birgalikda) monitoringi, yer bozorining (yoki yerga bo'lgan huquqlar) monitoringi, yer uchun to'lovlar monitoringi va boshq. Bulardan tashqari, yerlarning maqsadli mohiyatiga qarab (yer toifalari bo'yicha) quyidagi yer monitoringlarini ajratish zarur: qishloq xo'jalik yerlari monitoringi, sanoat yerlari monitoringi, aholi punktlari yerlari monitoringi va hak. yer monitoringini maqsadli mohiyatini, turlari va mazmunini hisobga olgan holda haqqoniy hulosasi qilish mumkinki, u huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mohiyatlarga egadir.

Yagona davlat yer fondi va uning alohida tarkibiy qismlari: yer toifalari, ma'muriy-hududiy bo'linmalar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, posyolkalar, yer uchastkalarini) yer monitoringini obyekt hisoblanadi. salbiy va ijobiy jarayonlarni aniqlash hamda shu asosda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha zaruriy qarorlar qabul qilish maqsadida yer resurslaridan foydalanishni boshqarish, yerlarning sifat va miqdor holatlarini dinamikasini aniqlash va baholash yer monitoringini o'rganish predmeti hisoblanadi.

Barcha turlardagi yer monitoringlari yerlardan foydalanish sohasidagi faoliyatning xarakteri, yerlarning maqsadli mohiyati, yer uchastkalarini o'rganiladigan tavsiflari bilan belgilanadi, ammo tarkibiy qismlariga nisbatan amaliy jihatdan o'xshashligi, tamoyillari va yuritish uslublari bilan farq qiladilar. O'z tarkibi bo'yicha u to'rtta kichik tizimni o'z ichiga olgan: Yerdan foydalanishning holatidagi o'zgarishlarni kuzatish va aniqlash; aniqlangan

o'zgarishlarni ularning xarakteri bo'yicha o'rganish, klassifikatsiyalash va tahlil qilish; o'zgarishlar darajasini baholash; salbiy jarayonlardan ogohlantirish yoki bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish (37-rasm). Shu munosabat bilan qayd etish zarurki, "O'zbekiston Respublikasining yer monitoringi to'g'risidagi Nizom"da yer monitoringining kichik tizimlari noto'g'ri talqin qilinadi, negaki yer toifalarining turlariga mos keluvchi uni turlari asossiz ravishda uning kichik tizimlari sifatida qaraladi.

Yer monitoringi uni asosiy, boshlang'ich, ya'ni birlamchi holatini aniqlaydigan tamoyillariga mos tarzda amalga oshirilishi zarur. Tamoyillarning mazmuni yer monitoringini yuritish ma'lumotlarining sifatiga, tezkorligiga va iqtisodliligiga talablar bilan aniqlanadi. Uning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi.

-yagona davlat fondini barcha yerlarini to'la qamrab olish va yer monitoringini yuritishga markazlashgan rahbarlik;

-yer monitoringini yuritilishini tanaffussizligi;


-yer monitoringi ma'lumotlarini ishonchliligi va hujjatliligi;

-yer monitoringini yer kadastri bilan bog'liqligi;

-yer monitoringini kompyuterlashgan tarzda yuritish;

-yer monitoringini yuritishni iqtisodligi.

Yer monitoringini maqsadli mohiyatiga qarab uni birinchi tamoyili shakllantiriladi-mamlakatning barcha yerlarini, barcha toifa yerlarini, barcha turdagi yer uchastkalarini, yerlarning barcha turlari va kichik turlarini qamrab olish. mamlakat miqyosida yer monitoringini yuritishga zaruriyat Yerlarning sifat holatidagi o'zgarishlarini aniqlash va baholashning ma'lumotlarini taqqoslanishini ta'minlaydigan uslubiyat bo'yicha yer monitoringini yuritishga markazlashgan rahbarlikka zaruriyatni aniqlaydi.



37-rasm. Yer monitoringi tizimi

“Yer monitoringini amalga oshirishini tanaffussizligi” tamoyili yerlarning sifat holatida yuz beradigan o‘zgarishlarni vaqt bo‘yicha doimiy ravishda qayd qilib borish bilan belgilanadi. Kuzatishni asosiy ravishda yirik vaqt oraliqlarida o‘tkazish yerlarning sifat holatida yuz beradigan o‘zgarishlarni aniqlashda xatarliklarga olib kelishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, qabul qilinadigan tegishli qarorlarni samarasiz bo‘lishiga va keyingi o‘zgarishlarni aniqlashda ham asosiz baholashni amalga oshirilishiga, ya’ni yer monitoringini sifatsiz yuritilishiga sabab bo‘ladi.

Yer monitoringini yuritish materiallari aniq qaror ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Bu qarorlarni amalga oshirish tegishli moddiy-texnik resurslardan foydalanish bilan bog‘liq hamda yerlardan foydalanish va muhofaza qilishning samaradorlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan. Shu sababli qabul qilinadigan qarorlar yer monitoringi ma’lumotlarini haqqoniyligi va hujjatligiga asoslanishi zarur.

Yer monitoringini yer kadastri bilan uzviy bog‘liqligi yerlarning sifat holatini kuzatish jarayoni yer-kadastr axborotlariga asoslanishining natijasidir. Yer monitoringi faqatgina huquqiy maqomga ega bo‘lgan obektlarda o‘tkazilishi mumkin. Jumladan: huquqiy jihatdan rasmiylashtirilgan huquqiy munosabatlar subektti, tegishli tartibda huquqni o‘rnatuvchi hujjatga ega bo‘lgan yer

uchastkasiga ma'lum bir huquq turi, yer uchastkasining maqsadli mohiyati va boshqa zaruriy hisob-ro'yxatlash axborotlari. Shunday qilib, yer monitoringini yuritish uchun birlamchi sifatida ro'yxatlash va hisob kadastrli axborotlar zarur. Bundan tashqari, agarda yer monitoringini o'tkazish vaqtida u zamonaviy bo'lmasa, yerlarni baholash kadastr axboroti ham foydalanilishi mumkin.

Yerlarning sifat holatidagi o'zgarishlarni aniqlash maqsadida mamlakat miqyosidagi yirik hajmlardagi axborotlarni qayta ishlash, ma'lumotlarni ishlab chiqish yagona davlat yer fondining sifat holatini kuzatish jarayonlarini kompyuterlashtirishning obyektiv zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Yer monitoringini yuritishni iqtisodligi uni vazifalarini amalga oshirish sifatiga zararsiz eng kam zaruriy harajatlarni ta'minlashi zarur. Bu esa uni yuritishda takomillashgan usullarni qo'llashni va ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tizimga keltirish va foydalanuvchilarga axborotlarni berish jarayonlarini avtomatlashtirishni talab qiladi.

Yer monitoringining mazmuni, maqsad va mohiyati uning vazifalarini belgilaydi, shulardan asosiylari quydagilardir:

-manfaatdor foydalanuvchilarni zaruriy axborotlar bilan ta'minlash tezkorligini har tomonlama oshirish;

-yerlarning holati va foydalanishdagi o'zgarish xarakteri hamda darajasini baholash aniqligini ta'minlash;

-yerlarning holati va foydalanishdagi salbiy jarayonlarni oldini olish va tugatish bo'yicha ishlab chiqariladigan tadbirlar samaradorligini ta'minlash;

-yer monitoringini yuritish texnologiyasini takomillashtirish;

-yer monitoringini yuritish jarayonini kompyuterlashtirish.

Yer monitoringining vazifalari uni yuritish to'g'risidagi Nizomda, bizningcha juda ham to'g'ri shakllantirilmagan. Nizomda e'tirof etiladiki, yer monitoringining asosiy vazifasi yer fondi holatidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash uchun kuzatuvlar tizimini tashkil etish va o'tkazishdan iboratdir. "yer fondining holati" tushunchasi juda keng tushuncha bo'lib, Yer monitoringining vazifalari doirasiga aniq nima qo'yilganligi ham uncha tushunarli emas. bundan

tashqari, “salbiy jarayonlarni oldini olish va tugatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish” eng avvalo, monitoringni vazifasi bo‘lmasdan uni materiallarining mohiyatidir (yer monitoringi materiallarini qo‘llash natijalari). Bundan tashqari, yer monitoringining bitta vazifasi to‘g‘risida Nizomda “davlat yer kadastrini yuritishni axborotli ta‘minoti” to‘g‘risida gapiriladi, bu ham, fikrimizcha uncha to‘g‘ri emas. Birinchidan, yer kadastrining o‘zi axborotlarni ishlab chiqish maqsadida yuritiladi. Ikkinchidan, kadastr axboroti (ro‘yxatlash va hisob, shuningdek alohida holatlarda baholash ham) yer monitoringini o‘zini yuritish uchun boshlang‘ich zaruriy axborot hisoblanadi. Yerning sifat va miqdoriy holatlari to‘g‘risida yer monitoringining zamonaviy axborotlari mavjud bo‘lganida ular yer kadastrini yuritishda foydalanilishi mumkin edi.

Yer monitoringini yuritish maxsus va umumiy usullarda amalga oshiriladi. Asosiy yoki maxsus usullar quyidagilar: o‘rganiladigan obyektga yer axborotini vaqt bo‘yicha taqqoslash usuli; yerlarning holatida va foydalanishdagi o‘zgarishlarni aniqlash usuli; o‘zgarishlar darajasini miqdoriy baholash usuli; kuzatuvlar natijalarini hujjatlashtirish usuli. Yer monitoringini yuritishning umumiy usullariga quyidagilarni kiritish zarur: aerofotogeodezik, xaritalashtirish, agroxo‘jalik, geobotanik va yer holatini maxsus kuzatuvining boshqa usullari; hisoblash-me‘yoriylik usuli; kuzatuv natijalarini matyematik va kompyuterli qayta ishlash; matyematik modellashtirish usuli; bashoratlash, statistik va boshqa usullar.

Xalq xo‘jaligini turli tarmoqlarida yerning turlicha maqsadli mohiyatini hisobga olgan holda (yer toifalari bo‘yicha), so‘zsiz, yer monitoringini yuritish uslubiyati yerlardan maqsadli foydalanishning xususiyatini yoritishi zarur. Eng avvalo, ular yerning sifat va miqdor holatlaridagi o‘zgarishlarni baholashning ko‘rsatkichlar tizimini va yer monitoringi mazmunining xususiyatlarini yoritishi zarur. Boshqacha qilib aytganda, har bir aniq holatda (har bir yer toifasi uchun) ishlab chiqariladigan baholash axborotlarining turlariga, maqsadli mohiyatiga hamda yer monitoringini yuritish uslublariga talablar o‘rnatilishi zarur.

Yer monitoringi axborotlari yerdan foydalanish sohasida amaliy jihatdan keng foydalaniladi. Yer-baholash axborotlari dinamik qirrasini nuqtai nazardan yerlarning sifat holatidagi salbiy jarayonlardan ogoh qilish va bartaraf etish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, yer uchastkalaridan samarali foydalanganlari holatida yer huquqiy munosabatlari subektlarini rag'batlantirish, soliqqa tortish stavkalarini va ijara haqlarini korrekcirovka qilish, shuningdek yerning sifati o'zgargan taqdirda me'yoriy baholarni korrekcirovka qilish uchun zarurdir. Uning materiallari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini tashkil etishdan, meliorativ tadbirlarni rejalashtirish, o'g'itlar tizimini tanlashda, yerlarni texnologik ishlashda, qishloq xo'jalik ekinlarini xosildorliklarini rejalashtirishda keng qo'llaniladi. Yerlar bonitirovkasi ko'rsatkichlarining o'zgarishi, yerlarni qiymat baholash, auksionlardan tanlov asosida yerlarni realizatsiya qilishdagi uchastkalarining me'yoriy qiymati monitoring natijalari bilan uzviy bog'liqdir. Yer monitoringining natijalari yer solig'i va ijara haqini hisoblashga ta'sir ko'rsatadi, negaki tuproqlar sifatining o'zgarishi soliq stavkalari va ijara haqi stavkalarini korrekcirovka qilish zaruriyatini tug'diradi. Yer monitoringining materiallari tuproqlarni eroziyalanganlik darajasi, yerlarni ifloslanganlik va zaharlanganlik darajasi, yerlarning sifat holatidagi boshqa salbiy jarayonlari to'g'risida ham axborot beradilar.

Yer monitoringini yuritish materiallari yerdan foydalanish tizimining o'zida, tizimni boshqarish maqsadida keng qo'llaniladi. Bu yerda axborot yerdan foydalanishning barcha funksiyalarini amalga oshirish uchun zarurdir. jumladan, yer sifatining o'zgarish xarakteri va dinamikasini bilish yerlarni toifalari, xalq xo'jalik tarmoqlari o'rtasida taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi, Yerlarni sifat holatidagi salbiy jarayonlarini oldini olish yoki bartaraf etish bo'yicha yer tuzishni loyihalashning tegishli tadbirlari, ularni amalga oshirish uchun zarur. Yer monitoringi axboroti yerlardan samarali foydalanish va muxofaza qilishni davlat nazorati, yerlardan samarali foydalanganlik uchun yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilarni rag'batlantirish to'g'risida qarorlar qabul qilish, yer

resurslarini qayta tiklash bo'yicha tadbirlarni loyihalash, yer munozaralarini hal qilish uchun zarur.

Shu munosabat bilan yer monitoringini yerdan foydalanish tizimidagi roli to'g'risida haqli savol tug'iladi. Ma'lumki, yer kadastri yerdan foydalanish tizimini boshqarishning birinchi funksiyasidir va uni egallagan o'rni har qanday gumondan holidir. Yer monitoringi, o'z navbatida, birinchidan, yerlar holatini o'zgarishi to'g'risidagi axborotlarni ishlab chiqadi: ikkinchidan, uning ma'lumotlari bo'yicha yerlarni holati va foydalanishidagi salbiy jarayonlardan ogohlantirish va ularni bartaraf etish bo'yicha zaruriy tadbirlarni loyihalash bo'yicha amalga oshiradi: uchinchidan, yer monitoringining axboroti boshqaruv qarorlarini korrektirovka qilish, Yerlardan foydalanish va muhofaza qilishni nazorat qilish hamda yer resurslarini qayta tiklash maqsadida foydalaniladi. Demak, yer monitorinning maqsadli mohiyati yerdan foydalanish va qayta tiklashdagi o'zgarishlarni (qabul qilingan qarorlardan cheklanishlar) tezkor tarzda aniqlashdan va shuning uchun barcha funksiyalarini (yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirishdan tashqari) kuzatishi zarur. Ikkinchi tomondan, "Yerlardan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha nazorat funksiyasi" ham o'zining mohiyati bo'yicha boshqarishning qator funksiyalarini bajarishi zarur, negaki u boshqarishning barcha boshqa funksiyalarini (yerlardan oqilona va samarali foydalanishni rag'batlantirish funksiyasidan tashqari) amalga oshirishlarining to'g'riligini nazorat qilishni amalga oshirishga yo'naltirilgan. O'z navbatida, u yer monitoringining tezkor axborotlaridan keng foydalanadi, nazorat natijalari yer monitoringi ma'lumotlarida asoslanadi hamda ularsiz olinishi mumkin emas. bu yerda "nazorat" funksiyasi va yer monitoringini o'zaro bog'liqligi vujudga keladi, ya'ni nazoratning zarurligi tezkor ravishdagi kuzatuvlarga zaruriyatni tug'diradi, o'z navbatida, tezkor kuzatuvlar ma'lumotlari nazoratni amalga oshirish hamda tegishli qarorlar qabul qilishning asosi hisoblanadi. Bularning barchasi ushbu ikkita jarayonlarni boshqarishning bitta funksiyasiga-yerlardan foydalanish va muhofaza qilish bo'yicha monitoring (kuzatuv) va nazorat funksiyasiga birlashtirish uchun asos bo'ladi.

Yer monitoringini yer kadastrini bilan aloqalari to'g'risidagi hulosalardan qayd qilish zarurki, ular ko'pgina umumiylikka egalari: o'rganish obyekti, yer axborotlarini ishlab chiqish, ularni yuritishning qator umumiy uslublari bir, axborot ko'rsatkichlar tizimi, natijalarni amaliy qo'llanish sohalari bitta va boshqa. Ammo yuqorida sanab o'tilganlar davlat tadbirlari tizimining rolini boshqarish bilan almashtirishga hech qanday asos bermaydi, shunga qaramasdan bugungi kunda foydalanish nazariyasi va amaliyotida ushbu ikkita tizimni ilmiy jihatdan talqin qilishda yo'l qo'yib bo'lmaydigan noaniqliklar ham uchraydi. Yerdan foydalanish tizimida yer monitoringining roli va o'rni etarli darajada obyektiv aniqlanmagan.

Eng avvalo qayd qilish zarurki, yer kadastrini o'zining maqsadli mohiyati va mazmuni bo'yicha davlat tadbiri sifatida anchagina keng va salmoqliroqdir. Birinchidan, yer kadastrini yerdan foydalanishni boshqarish tizimining birinchi funksiyasidir, shu bilan bir vaqtda yer monitoringi ham aynan ushbu yer-kadastr axborotini ishlab chiqishga tortiladi, ammo bu axborot tezkor hamda chegaralangan hududdagi axborotdir (nazorat qilinadigan). Ikkinchidan, yer kadastrining mazmuni yer uchastkalariga huquqlarni ro'yxatga olish, yerlarni miqdor va sifat hisobi, yerlarni baholashdan iborat, ya'ni yerlarning holatini va foydalanilishini etarli darajada to'la tavsiflaydigan, keng qo'lamdagi masalalardan iborat. Monitoringni o'rganish predmeti esa faqatgina yerlarning holati va foydalanishidagi o'zgarishlardan iboratdir, ya'ni uning yerlarni tavsiflash sohasi yer kadastriga nisbatan anchagina tordir.

Shu munosabat bilan qayd qilish joizdir, O'zbekiston Respublikasi yer kodeksida "yer monitoringi (14-modda) ning moddasi" davlat yer kadastrining moddasidan (15-modda) oldin qo'yilganligi maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari, fikrimizcha yer monitoringini bu yerdagi talqini ham unchalik to'g'ri emas: yer monitoringi quyidagi sabablarga ko'ra davlat yer kadastrini axborotlar bilan ta'minlash asosi bo'la olmaydi. birinchidan, davlat yer kadastrini yer monitoringiga nisbatan ro'yxatlash, hisob-kitob va baholash ma'lumotlarini e'tiborga olgan holda yerning holati to'g'risidagi yirik hajmlardagi turli-tuman

axborotlarni ishlab chiqadi. Ikkinchidan, yer monitoringini o'rganish predmeti faqatgina Yerning holatidagi va foydalanishidagi o'zgarishlar bo'ladi. Uchinchidan, yer monitoringini o'zini yer uchastkalari to'g'risidagi ro'yxatlash va hisob axborotlaridan foydalanmagan holda yuritish amaliy jihatdan mumkin emas. Yerdan foydalanishni boshqarishni boshqa funksiyalarini yer to'g'risidagi axborotlar bilan ta'minlashiga kelsak, yer kadastriga nisbatan bu yerda ham yer monitoringi kamroq rol o'ynaydi. Bu yerda yer monitoringiga faqatgina yer uchastkalarining miqdoriy va sifat holatlarining o'zgarishi to'g'risidagi tezkor axborotlarga tegishlidir. Bundan albatta, yer monitoringining axborotlari karoq ahamiyatli, uni yerdan foydalanishni boshqarishda qo'llanish sohasi esa qandaydir darajada cheklangandir, degan hulosasi kelib chiqmaydi. Yer monitoringi axborotlaridan foydalanishga zaruriyat boshqarishning istalgan funksiyasini amalga oshirishda, yer resurslaridan foydalanish va qayta tiklash bo'yicha nazoratni yuritilishiga qarab yuzaga kelishi mumkin.

Yer monitoringini yuritishning maqsadi, mohiyati va mazmunini tahlil qilish asosida uning quyidagi qoidasi beriladi: yer monitoringi-bu oqilona va samarali yerdan foydalanishni ta'minlash maqsadida yer resurslarining holati, foydalanilishi va qayta tiklanishidagi o'zgarishlarni kuzatish va nazorat qilish tizimidir.

Respublikada yer monitoringi 2000 yil 23 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 496-sonli Qaroriga muvofiq tegishli vazirliklar va idoralar ishtirokida "O'zergeodezkadastr" Davlat qo'mitasining tarkibiy bo'linmalari tomonidan o'tkaziladi. Tegishli tashkilotlar va muassasalardan qabul qilingan takliflarga muvofiq 2006-2010 yillarga mo'ljallangan yer monitoringini yuritish Dasturi ishlab chiqilgan. "O'zergeodezkadastr" Davlat qo'mitasining tarkibiy bo'linmalari tomonidan joriy yilda 185 ming gektar maydonda Yerlardan foydalanish bo'yicha YER kodeksi talablariga rioya qilinishining nazoratli tekshiruvlari o'ikazilgan. Bajirilgan tekshiruvlar natijasida 7767 gektar maydonda 1949 qonunbuzarliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. Ushbu qonunbuzarliklar

bo'yicha tegishli dalolatnomalar tuzilgan va 173 ta qonunbuzarliklar bo'yicha ish prokuratura organlariga o'tkazilgan. 1589 ta qonunbuzarlik holatlarini ko'rib chiqish natijasida 1589 yerdan foydalanuvchilarga 21,8 mln.so'm jarima solingan. Ko'pgina qonunbuzarliklarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarning 35%-yerdan foydalanuvchilar tomonidan yerdan foydalanish to'g'risidagi axborotlarni yashirib qolishdan iborat ekan.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi sifatida yer monitoringiga qanday ta'rif beriladi?
2. Yer monitoringining mazmuni nima?
3. Yer monitoringining mazmuni nimadan iborat?
4. Yer monitoringining tizimi nimadan iborat?
5. Yer monitoringining tizimi qanday kichik tizimlarni o'z ichiga oladi?
6. Kuzatish kichik tizimining mazmuni nima?
7. Natijalarni tahlili kichik tizimining mazmuni nima?
8. Natijalarni baholash kichik tizimining mazmuni nima?
9. Qarorlar va tavsiyalarni tayyorlash kichik tizimining mazmuni nima?
10. Yer monitoringi materiallarini amaliy jihatdan qo'llanish sohalarini aytib bering.

4.7 Yerni qayta tiklash - yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi


Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishni to'la qayta tiklanish siklida tuproq unumdorligini qayta tiklash bosqichi muhim tashkil etuvchidir. Agarda yer resurslari qayta tiklanmasa, keyingi qayta tiklanish siklida boshqa teng shartlarda yerning unumdorligi past bo'ladi. Oldin iste'mol qilingan tuproq unumdorligini qayta tiklamasdan turib ham ba'zi bir vaqtinchalik samaraga erishishi mumkin, ammo bu yerning sifati evaziga emas, balki ishlab chiqarishning boshqa omillarini jadallashtirish evaziga ro'y beradi. Bunda ishlab

chiqarishning asosiy omili-yer ishlab chiqarish jarayonida o'zining rolini pasaytiradi va oxir-oqibatda boshqa omillarning o'sishi yoki sezilarli natijalarni bermaydi, yoki bo'lmasa natijalar sarflangan harajatlarga mos bo'lmaydi.

Yer resurslarini qayta tiklanish siklining barcha bosqichlarini joriy etishning obyektiv zaruriyati to'g'risidagi prinsipial qoidalar keyingi yillari buzilib ketdi, tuproqlar unumdorligini tiklash bosqichiga etarli e'tibor berilmadi. Keyingi yillari ekinlar hosildorligini birmuncha o'sishi yerga nisbatan boshqa ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Yer (uni sifati), ishlab chiqarishning asosiy omili sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim va asosiy imkoniyati bo'lib qolaveradi.

Tuproqlar unumdorligi dinamik xarakterga ega, bunda uning tabiiy va sun'iy turlarini bir-birlariga nisbatlari ham dinamik xarakterlarda bo'ladi. Aholi sonining va ularni moddiy boyliklarga bo'lgan talablarini o'sishida tuproq unumdorligini qayta tiklash jamiyatning rivojlanishida obyektiv omil bo'ladi. Jamiyat yerlarning sifat holatini investitsiyalashga majburdir. Tuproq unumdorligini ishlab chiqarish iste'moli va qayta tiklanishining texnologik sxemasi quyidagi ko'rinishda keltirilishi mumkin (38-rasm).

Bu yerda quyidagi belgilar qabul qilingan: IP_1 -boshlang'ich (qishloq xo'jalik yilining boshidagi) tuproq unumdorligi; B_{i1} -joriy yildagi boshlang'ich tuproqlarning bonitet balli (TBB); PP-ishlab chiqarish jarayonida tuproq unumdorligini ishlab chiqarish iste'moli; P_r -qishloq xo'jalik jarayoni (ishlab chiqarish); P_{k1} -joriy qishloq xo'jaligi yilining ohiridagi tuproq unumdorligi; B_{k1} -joriy qishloq xo'jaligi yilining ohiridagi TBB; V_{pr} -yangi mahsulot; Z_{pr} -mahsulot ishlab chiqarish harajatlari; V_d -yangi daromad; $S_{t,d}$ -yangi daromadni mahsulotlash turlari; K_{vp} -tuproq unumdorligini qayta tiklanishiga yo'naltirilgan kapital, investitsiyalar:



38-rasm. Tuproqlar unumdorligini ishlab chiqarish iste'moli va qayta tiklanishining texnologik sxemasi [66].

VP –joriy yilda tuproqlar unumdorligini qayta tiklanishi (siklda);

Z_{vos} -unumdorlikni qayta tiklanishiga sarf-harajatlar;

IP₂-keyingi yildagi boshlang'ich tuproq unumdorligi (siklda);

B_{i2}-keyingi yilda boshlang'ich tuproqning bonitet balli.

38-rasmdan ko'rinadiki yerlardan foydalanish va qayta tiklanish fazalarining bog'liqligi yaqqol ko'rinadi. Boshlang'ich unumdorlikni ishlab chiqarish iste'moli natijasida B_{i1} joriy yilning oxiriga kelib B_{k1} gacha kamayadi, aynan shuni tiklash zarur bo'ladi. 38 rasmdan yana shuni ko'rish mumkinki, unumdorlik darajasi doimiy ravishda o'zgaradi, yalpi daromadning qandaydir asoslangan qismi esa qayta tiklashga yo'naltirishi zarur, harajatlar ishlab chiqarish sarf-harajatlariga kiritilishi zarur yoki bo'lmasa YER solig'i sifatida undiriladigan sarf-harajatlar evaziga amalga oshirilishi zarur.

Tuproq unumdorligini qayta tiklanishi amalga oshiriladigan meliorativ tadbirlarning turlari, xarakteri va joriy qilinish turlari, xarakteri va joriy qilinish usullari bo'yicha tavsiflanadi. Xarakteri bo'yicha u kengaytirilgan, oddiy, oddiy darajadan past bo'lishi mumkin (39-rasm).

Kengaytirilgan qayta tiklanish holatida qaytadan tiklangan unumdorlik miqdori, ballarda (ΔB_{vost}) iste'mol qilinganidan (ΔB_{post}) yirikdir:


$$\Delta B_{vost} > \Delta B_{post} \quad (7)$$

Oddiy qayta tiklanish uchun bu quyidagicha;

$$\Delta B_{vost} = \Delta B_{post} \quad (8)$$


oddiydan past daraja uchun esa

$$\Delta B_{vost} < \Delta B_{post} \quad (9)$$



A) 1-qayta tiklanish mavjud emas
(uzluksiz chiqish iste'mol);

2- qayta tiklanish oddiy
Darajadan past (punktir chiziq);



B) 3-oddiy qayta tiklanish
(punktir chiziq);

4-kengaytirilgan qayta tiklanish
(uzluksiz qalin chiziq);

5-tuproq unumdorligini iste'moli
(uzluksiz nozik chiziq);

39-rasm. Tuproq unumdorligini qayta tiklanish turlari.

Vaqt bo'yicha unumdorlikni ishlab chiqarish iste'moli bir xilda yoki turli xilda bo'lishi mumkin. Bu qishloq xo'jalik ekinlari vegetatsiyasining xususiyatlariga, o'g'itlarni solish muddatlari va me'yorlariga, sug'orishni o'tkazish, tuproqlarni ishlash muddatlariga bog'liqdir. Aynan shunday holat tuproqlar unumdorligini qayta tiklanishida ham bo'lishi mumkin (40-rasm); meliorativ tadbirlarning turlari, ularning samaradorligi bilan bog'liq bir xil yoki turlicha xarakteri; tanaffussiz va davriy xarakteri; Yerlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish jarayonida ham, ushbu jarayonlar oralig'ida ham amalga oshirilishi; unumdorlikni tiklanishini vaqt bo'yicha unumdorlikni ishlab chiqarish iste'moli bilan mos kelishi yoki mos kelmasligi (ildamlab ketishi yoki orqada qolib ketishi).

Meliorativ tadbirlarning turlari bo'yicha tuproqlar unumdorligini qayta tiklanishi quyidagi tadbirlar asosida amalga oshirilishi mumkin; gidrotexnik melioratsiya bilan; agroxo'jalik melioratsiyasi bilan; kimyoviy melioratsiya bilan. Sanab o'tilgan melioratsiya turlari turlicha samaradorlik va qiymatga ega, amalga oshirish bo'yicha turli vaqt sarfini talab qiladilar, o'ziga xos usullar yordamida hamda turlicha muddatlarda o'tkaziladilar. Ulardan har biri tuproqlarning bir yoki bir necha xususiyatiga ta'sir ko'rsatadilar, bu hol ularni majmuali tarzda, bir vaqtning o'zida bir necha turlari bo'yicha o'tkazishni ko'zda tutadi. Bu holat




a) 1-teng miqdorda (to'g'ri)

b) 1-turli miqdorda

(uzluksiz)

2-turli miqdorda (punktir)

2-davriy (punktir)



v) 1-Yerdan foydalanish jarayonida qayta tiklanish (punkti bilan)

2-Yerdan foydalanish jarayonlari orasida qayta tiklanish

40-rasm. Tuproq unumdorligini qayta tiklanish xarakteri

samaradorlikni baholashni alohida tadbir sifatida ham, ayniqsa agar ular vaqt bo'yicha biroz surilgan holda o'tkazilsa, majmua sifatida ham qiyinlashtiradi. Va, nihoyat, qayta tiklanish samarali yoki samarasiz bo'lishi mumkin. Bu Yerni qayta tiklash siklining barcha bosqichlari bo'yicha xarakatlarni alohida-alohida o'rganishni talab qiladi. Qayta tiklanishning xarakteri va usullarini tahlil qilish ko'rsatadiki, tuproqlar unumdorligini samarali darajada ushlab turish uchun tizimli yondoshuv zarur.

Tuproq unumdorligini tizimli qayta tiklanishi deganda resurslarni mumkin qadar kamroq sarflash evaziga tuproqlar unumdorligini oshirish bo'yicha va asoslangan muddatlarda amalga oshiriladigan meliorativ, iqtisodiy va tashkiliy tadbirlar majmuasi tushuniladi. Ushbu maqsadda quyidagi vazifalar bajariladi:

- unumdorlikni tiklanishida bonitirovkani va Yerlar sifatining monitoringini roli aniqlanadi;

- unumdorlikni qayta tiklanishini samarali usullari o'rganiladi;

- ekinlar xosildorlik qiymatining unumdorlik darajasini pasayishiga bog'liqligi o'rnatiladi;

- natural va qiymat jixatidan TBB ning bahosi o'rnatiladi;

- bitta TBBning qayta tiklanish qiymati o'rnatiladi;

- unumdorlikni qayta tiklanish darajasini dasturlash imkoniyatlari o'rganiladi;

- qayta tiklanishga sarflanadigan harajatlarni nazorat qilish mexanizmi ishlab chiqiladi;

- yerni qayta tiklanish siklining barcha turlardagi harajatlari o'rnatiladi;

- qayta tiklanish harajatlarining bozor modeli ishlab chiqiladi.

Amaliy hamda ko'p sonli tadqiqotlar ko'rsatadiki, sug'oriladigan yerlar unumdorligini pasayishi quyidagilar natijasida ro'y beradi (41-rasm): tuproqdagi ozuqa elementlarining pasayishi; botqoqlanishi, ifloslanishi va zaharlanishi; tuproq Eroziyasi, jipslanishi va qattiqlashishi. Yerlar sifati o'zgarishining asosiy sabablari quyidagilar: tuproqdagi ozuqa elementlarini to'ldirilmasligi; YER osti suvlarini ko'tarilishi; sug'orish me'yorlarining buzilishi; tuproqlar ishlash tizimini buzilishi; almashlab ekishlarni mavjud bo'lmasligi; o'g'itlarning

buzilgan tizimi; kimyoviy preparatlardan foydalanish; sug'orish uchun ifloslangan suvlardan foydalanish; agroo'rmon meliorativ tadbirlarning mavjud bo'lmashligi; tuproqlarning suv va shamol Eroziyasi; tuproqlar unumdorligini qayta tiklanishiga investitsiyani etarli bo'lmaganligi.

Tuproqlarni tizimli qayta tiklanish mummosini tahlil qilish shuni hulosa qilishga imkon beradiki, u o'z ichiga quyidagi tarkibiy elementlarni olishi zarur (42-rasm):

-meliorativ nuqtai nazardan yomon bo'lgan sug'oriladigan Yerni inventarizatsiya qilish; melioratsiyalanadigan massivlar hududlarini xaritalashtirish;

-unumdorlikni qayta tiklanish darajasini dasturlashtirish;

-Yerni boshlang'ich sifatini baholash (tuproq bonitirovkasi);

-zaruriy turlardagi meliorativ tadbirlarni belgilash, tadbirlar turlari va ularni amalga oshirish muddatlari bo'yicha hududlarni mintaqalash;

-Yerlar melioratsiyasiga zarur bo'ladigan investitsiyalarni asoslash;

-meliorativ tadbirlarni majmuali tarzda o'tkazish;

-Yerlar melioratsiyasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimini belgilash;

-melioratsiyalanadigan Yerlar sifatining monitoringi;

-meliorativ tadbirlarning samaradorligini baholash;

-meliorativ tadbirlarni amalga oshirish harajatlarini hisobga olish;

-sug'oriladigan Yerning qayta tiklanish sikli chegarasida meliorativ tadbirlar samaradorligini baholash.

Yerning sifat holatini yomonlashuvining sanab o'tilgan sabablarini bartaraf qiluvchi asosiy meliorativ tadbirlar quyidagilardir:


-organik va mineral o'g'itlar tizimini joriy etish;

-o'z tarkibida beda ekini bo'lgan almashlab ekish tizimini kiritish;

-kollektor-zovur tarmoqlarini o'z vaqtida tozalash va massivlardan minerallashgan yer osti suvlarini chiqarib tashlash;

-sho'rlangan Yerni yuvish;

-dalalar yuzasini kapital va joriy tekislash;



- yerni chuqur haydash (maydalash);
- sug'orish tarmoqlari va inshootlarini ishchi holatda tutib turish;
- sug'orish me'yorlarini asoslash;
- sug'orish texnologiyasiga rioya qilish;
- sug'orish suvini hisob qilish;
- eroziyaga qarsh tadbirlar o'tkazish;
- dala-himoya o'rmon ixotazorlarini barpo etish;
- qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash va dalalarni ishlash tizimiga rioya qilish;
- zaharli kimyoviy moddalar qo'llanilishini nazorat qilish.

Tizimli qayta tiklanishda tadbirlarni o'tkazish muddatlari, jumladan, boshlanish vaqti va ularni amalga oshirishning davomiyligi muhim omil hisoblanadi. Ko'pgina jarayonlarni o'tkazish, qoidaga binoan, vaqti bo'yicha bir-birlariga mos kelmaydi, shu sababli ularni amalga oshirishdan qutiladigan eng ko'p jamlanma samaradorlikni ta'minlaydigan vaqtni surilish miqdorini asoslash juda muhimdir.

Meliorativ jarayonlar ham tuproqlar unumdorligini oshirishi sifatida, ham resurslarni sarflanishi sifatida qayd qilinadigan aniq samaradorlikka erishish orqali kuzatiladi. Ushbu maqsadda tizimli qayta tiklanish meliorativ tadbirlarni o'z ichiga olishi zarur. Ularning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari quyidagilardir: kollektorni tozalashda yer ishlarining hajmi, dalalar yuzasini tekislash maydonlari, chuqur haydash maydonlari, o'rmon ixotazorlarining maydonlari va boshqalar. Ammo ular tadbirlar samaradorligini tavsiflaydi, negaki tuproqlar unumdorligining miqdoriy tavsiflari bilan bog'lanmagan hamda qayta tiklanishning yakuniy natijalariga qaratilmagan. Har bir turdagi tadbirni o'tkazish oldidan va o'tkazilmaganidan so'ng yerlar sifatini monitoringini o'tkazish zarur, deb hisoblaymiz.

Meliorativ ishlar turlarini, hamda ularga zaruriy investitsiyalar hajmini, ular kim tomonidan amalga oshirilishini, ijarachilar (fermerlar) tomonidanmi, investor xomiylar tomonidanmi, davlat yoki ma'lum bir belgilangan kombinatsiyalarni, aniqlash juda muhimdir. Bu tegishli QSXV, STBBlariga, tumanlararo STB, SIUning

YER balansiga berilishi va ularni mahkamlash maqsadida sug'orish manbaalari, sug'orish va meliorativ tarmoqlarni aniq tasniflashni talab qiladi. Servitutlarni o'rnatilishiga ham ayniqsa alohida e'tibor berish zarur.

Resurslar sarfining turlari va xarakteri tizimli qayta tiklanishning muhim omili hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida ajratiladigan, yil davomida amalga oshiriladigan xarajatlarni alohida ajratish maqsadga muvofiqdir. Jamlanma harajatlarda ularni har bir turdagi tadbirlar harajatlariga bo'lish muhimdir.

Meliorativ tadbirlar samaradorligi deganda, eng avvalo, yerlarni iqtisodiy natija berishi tushuniladi. Bunda quyidagi hollar yuz berishi mumkin: unumdorlikni qayta tiklanish harajatlari olingan hosildorlikdan kam, teng, olingan hosildorlikdan yirik. Demak, ikkinchi holatda samaradorlik Oga teng, uchinchi holatda samaradorlik manfiydir.

Unumdorlikni tizimli qayta tiklanishida uning darajasini hamda natijaga erishish muddatlarini dasturlashtirish muhim zveno hisoblanadi.

Quyidagi 42-rasmda Tuproq unumdorligini tizimli qayta tiklanishi [66]sxemasi keltirilgan.


Tuproq unumdorligini tizimli qayta tiklash



Tizimning elementlari



Elementlar mazmuni



Bu unumdorlik darajasi bilan o'tkaziladigan tadbirlar hajmi, zaruriy darajadagi unumdorlikni asoslash, tadbirlar turlarini tanlash, ishlarni o'tkazish muddatlarini asoslash, talab qilinadigan resurslarning hisobi o'rtasidagi korrelyasion bog'liqlikni aniqlash talab qilinadi. Korelyasion aloqalarni ishlab chiqish qayta tiklanishda resurslar sarfi samaradorligining nazorati uchun ham muhimdir.

Bugungi kunda hukumat tomonidan Yerlarni meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha keng miqyoslardagi tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, QSXV bilan Osiyo Rivojlanish Banki (ORB) o'rtasidagi bo'lg'usi qo'shma loyihada Buxoro, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlardagi meliorativ tarmoqlarni qayta qurish, dalalar yuzalarini kapital tekislash, tuproqlarni chuqur yumshatish, agroxo'jalik tadbirlarini amalga oshirish ko'zda tutiladi. Ammo dastur tizimli xarakterga ega bo'lishi, yerlarni sifat darajasini dasturlashni, zaruriy tadbirlarni majmualni amalga oshirilishini, yer sifatining monitoringini, meliorativ tadbirlarni amalga oshirishni iqtisodiy baholashni ko'zda tutishi zarur.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Tuproqlar unumdorligini qayta tiklanishi Yerni qayta tiklanish siklining qaysi fazasi hisoblanadi?
2. Tuproq unumdorligi qanday xarakterga ega?
3. Tuproq unumdorligini unumli iste'moli nima?
4. Yerlarni unumdorligini qayta tiklanish fazasi qayta tiklanish siklining boshqa fazalari bilan qanday bog'liq?
5. Tuproq sifatini pasayish tavsiflarini sanab bering.
6. Tuproq sifatini pasayishining asosiy sabablarini aytib bering.
7. Tuproq unumdorligini pasaytiruvchi asosiy salbiy omillarni ayting.
8. Tuproqlarni qayta tiklanishi qanday belgilar bo'yicha tasniflanadi?
9. Tuproqlar unumdorligini tizimli qayta tiklanishi nima?
10. Tuproqlar unumdorligini tizimli qayta tiklanishi qanday tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi?

11. Tuproqlar unumdorligini oshirish bo'yicha asosiy tadbirlarni sanang.

12. Tuproqlar unumdorligini oshirishni dasturlashtirishning mohiyati qanday?

4.8 Yer munozaralarini hal qilish, yerlarni muhofaza qilish, yer resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish-yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalari

Yerlarni muhofaza qilish funksiyasi yerlardan foydalanuvchi vazirliklar va idoralar, yer uchastkalari ma'lum maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yuridik va jismoniy shaxslarning harakatidir. Yerdan foydalanish tartibini buzish va ular tomonidan Yerlarning miqdori, holatini, foydalanishi va qayta tiklanishi to'g'risidagi har yillik hisobotlarni taqdim etilmasligi davlat organlari tomonidan nazoratni talab qiladi. Idoraviy mansubligidan qat'iy nazar Yerlarning holati va foydalanishini nazorat qilish, rag'batlantirish yoki jarima sanksiyalari joriy etish Yerdan foydalanish va tabiiy majmualarni garmonik rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar funksiyasining mazmunini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining asosiy vazifalaridan biri- yerlardan foydalanishga cheklanishlar o'rnatilgan Yerlarni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi. Yuridik va jismoniy shaxslarni yerga bo'lgan huquqlarini muhofazalash maqsadida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatiga olish ko'zda tutilgan (28,35-moddalar). Yer kodeksida yer resurslarini muhofaza qilishga alohida e'tibor berilgan (alohida, 11-bob ajratilgan), Yerlardan foydalanish va muhofaza qilishni nazorat qilish (12-bob)ga va huquqlari buzilgan taqdirda subektlar yo'qotishlari o'rnini qoplash (13-bob)ga alohida diqqat qilinadi. Davlat organlari respublika va hududiy dasturlar doirasida yerlarni muhofaza qilish bo'yicha zaruriy tadbirlarni qabul qilishga bosh-qoshdir, deb yozib qo'yilgan. Yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarning yerlarni muhofaza qilish bo'yicha majburiyatlari belgilangan (79-modda). Obyektlar, qurilishlar va inshootlarni

joylashtirish, loyihalash, qurish va ekspluatatsiya qilishga ekologik talablar ko'zda tutilgan (80-modda).

Yerlarni muhofaza qilish tizimi Yerdan maqsadli, oqilona foydalanish, qayta tiklash va tuproqlarni unumdorligini oshirish, o'rmon fondi yerlarini mahsuldorligini oshirish, qishloq xo'jalik oborotidan hamda alohida muhofaza qilinadigan yerlarni asossiz ajratib olinishini oldini olish, samarali antropogen ta'sirlardan ximoya qilishga yo'naltirilgan huquqiy tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar majmuasi sifatida aniqlanadi (79-modda). Yerlardan barqaror foydalanish tabiatni muhofazalash, resurslarni tejash xarakterini amalga oshirish hamda tuproqlarni saqlanishini, o'simliklar va hayvonlar dunyosiga, geologik qatlamlarga va atrof-muhitning boshqa komponentlariga ta'sirni cheklanishini ko'zda tutishi zarur (79-modda).

Tabiatga zararli ta'sir ko'rsatadigan faoliyatlarni taqiqlagan holda davlat qo'riqxonalari, milliy va dendrologiya parklari, botanika bog'lari, buyurtma bog'larda (ov xo'jaliklari bundan mustasno), tabiat yodgorliklarini qo'riqlash mintaqalari ko'zda tutilgan (72-modda). Sog'lomlashtirish ahamiyatidagi yerlardan tabiiy davolash xususiyatlarini hamda aholini dam olish uchun maqbul shartlarini muhofaza qilinishi bilan mos kelmaydigan faoliyatlar ta'qiqlangani holda maxsus sanitariya-himoyalash okruglari ko'zda tutilgan (73-modda). Rekreatsiya ahamiyatidagi yerlarda ularni asosiy maqsadlarda foydalanishga to'sqinlik qiluvchi har qanday faoliyat ta'qiqlanadi (74-modda). Tarixiy va madaniy yodgorliklar atrofida himoya mintaqalari va qurilishlarni tartibga solish mintaqalari ko'zda tutilgan (75-modda).

O'rmonlarni ko'paytirish, jarliklar kengayishini tugatish, shaharlar va sanoat markazlari atrofida o'rmonzorlar va yashil mintaqalar yaratish maqsadida o'rmon fondi yerlari tarkibiga belgilangan tartibda boshqa mohiyatdagi yerlar berilishi mumkin (76-modda). Suv fondi yerlarida suv obyektlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xo'jalik faoliyatlarini va qurish ishlarini olib borish taqiqlanadi (77-modda).

Shu bilan birga, yer kodeksida tizimli yerdan foydalanish va yer resurslaridan foydalanishni barqaror boshqarishning huquqiy asoslari mavjud emas, yer munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishga va hududiy darajalarda yerdan foydalanishni ma'muriy boshqarishga etarli e'tibor berilmagan.

Kodeksning huquqiy qoidalari, asosan, yerlardan foydalanish uchun sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan, yerdan foydalanishni maqbullashtirish muammosiga amaliy jihatdan qo'l urilmagan. Kodeksning qator moddalari faqatgina qishloq xo'jalik yerlarini qayta tiklanish zaruriyatlariga bag'ishlangan, ularning ahamiyati amaliy jihatdan ko'ra ko'proq nazariy jihatdandir, ular oldindan bajarib bo'lmaydigan xarakterga ega, davlat byudjeti hisobiga yer resurslarini qayta tiklanish qismi bo'yicha talablar mavjud emas. bunday holat yerlar sifatini pasayishi sababli yerdan foydalanish subektlariga nisbatan sanksiyalar qo'llash uchun asos bermaydi. Yerlardan samarali foydalanganlik uchun yerdan foydalanuvchilarni ko'zda tutilgan rag'batlantirish amalda mavjud emas, uni mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Qo'ychilik va qoramolchilikning yem-xashak bazasi hisoblangan yaylovlar (jami yer fondining 28%)yuqori darajada buzilgan. Kodeksda ushbu turdagi yerdan foydalanishni tarkiblashga, yaylovlar hududini oqilona tashkil etish va foydalanishga, tuproqlar va yem-xashakni qayta tiklanishiga, boshqarishni tizimli tashkil etishga e'tibor berilmagan. O'rmon yerlaridan foydalanishni tarkiblash, uning hududini tashkil etish va ushbu yerlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklanishi to'g'risida qoidalar mavjud emas (76-modda). O'rmon fondi boshqa maqsadli mohiyatdagi yirik yer maydonlarini va birinchi galda, yaylov yerlarini o'z ichiga olgan, ammo ularning huquqiy tarkibi kodeksda mavjud emas, yerlarni buzilishi mavjud, ammo yerlardan foydalanish samaradorligini baholash amalga oshirilmaydi. Aholi punktlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlardagi, suv fondi Yerlaridan foydalanish, qayta tiklash va muhofaza qilish tartibi, shuningdek ulardan foydalanish samaradorligini baholash Kodeksda belgilanmagan (77-modda).

O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunining (2.12.2004y) vazifalari quyidagilar: tipik, yirik ahamiyatga malik, qimmatli tabiiy obyektlar va majmualar, o‘simliklar va xayvonlarning genetik fondini saqlash; tabiatga inson faoliyatining salbiy ta‘mirini bartaraf qilish; tabiiy jarayonlarni o‘rganish; atrof tabiiy muhitining monitoringini yuritish; ekologik ta‘lim va tarbiyani takomillashtirish(2-3 moddalar).

Ustuvor ekologik, ilmiy, estetik, rekreatsion va sanitar-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga ega bo‘lgan, to‘la yoki qisman, doimiy yoki vaqtinchalik xo‘jalik foydalanishidan ajratib olingan yer va suv kengliklari muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar sifatida(MQTX) belgilangan. Tabiiy hududlarni saqlash, qayta tiklash maqsadida, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda MQTX ni muhofazalash va foydalanish tartibi o‘rnatilgan (4-5 moddalar). MQTX yer uchastkalari tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya ahamiyatidagi yerlarga kiritilgan. Ularning maqsadli mohiyatiga zid keladigan har qanday faoliyat bu yerda taqiqlanadi. Agarda yuridik va jismoniy shaxslar MQTX ni muhofazalash bo‘yicha o‘zlariga yuklatilgan majburiyatlarni ta‘minlay olmasalar, ularning yer uchastkalari tortib olinadi (7-modda). MQTXlar O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi va joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarorlari bilan tashkil etiladilar. Ularni qayta tashkil etish va kamroq qat‘iylik tartibiga o‘tkazishga alohida hollardagina yo‘l qo‘yiladi. MQTX faoliyatini to‘xtatishi favqulodda nochorlik va texnogen xarakterli ta‘sir natijasida qimmatli yo‘qotilganda va muddati tugagandagina amalga oshiriladi. Ularni boshqarish O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, joylardagi davlat hokimiyati organlari, maxsus vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi (11-13moddalar).

MQTX davlat kadastr hududlar toifalari va turlarini, ularning geografik holatlarini, miqdoriy va sifat tavsiflarini, ekologik, iqtisodiy, ilmiy, ta‘lim va boshqa qismlari to‘g‘risidagi, yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar va yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi (14-modda).

MQTX yerlarini muhofaza qilish to'g'risidagi qoidalar O'zbekiston Respublikasi yer kodeksining ushbu yerlar bo'yicha qoidalariga to'la mos keladilar (9-bob, 71-75 moddalar). Qonunning muhim qoidalaridan biri (O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonuniga nisbatan, 1992 y), uning 2-moddasidir. Unda aholi o'rtasida ekologik ta'lim va tarbiyani o'tkazishning muhimligi va zarurligi ko'rsatib o'tiladi.

Shunday qilib, "Yerlarni muhofaza qilish" funksiyasi yerdan foydalanishni integratsion boshqarish tizimida muhimdir. Amaliy jihatdan uning roli YER resurslarini qayta tiklanishi va amalga oshirilishini shunday usullardan foydalanishi shunga keltiradiki, ular yer sifatini pasaytirmaydilar, xo'jalik oborotidan chiqishiga olib kelmaydilar. Shuni e'tiborga olish zarurki, yerdan foydalanishni ushbu funksiyasini amalga oshirish ko'p jihatdan yer monitoringini yuritish natijalaridan foydalanadi, ya'ni yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu funksiyasi bilan uzviy bog'liqdir.

Yer monitoringini yuritish jarayonida yerlardan foydalanishda qonunbuzarlik faktlari aniqlanadi, jumladan tekshirilgan 1610 korxonadan 7%ida -yerlarni o'zboshimchalik bilan egalash, 35%ida -yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, 11%ida -boshqa maqsadlarda foydalanish, 12%ida -tuproqlar unumdorligini qayta tiklash amalga oshirilmaganligi kuzatildi.

Yer munozaralarini hal qilish funksiyasining asosiy maqsadi yer huquqiy-munosabatlar subektlari tomonidan yerlarni berish, foydalanish va qayta tiklanishning huquqiy tartibida buzilishlar sababli turli janjallarni obyektiv ravishda hal qilishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasining yer kodeksida yer munozaralarini hal qilish masalalariga 14 bob (89,90,91 moddalar) bag'ishlangan.

Yer munozaralari jismoniy shaxslar o'rtasida, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida yuzaga kelishi mumkin. Yer munozaralari yer uchastkalarini berish, ulardan foydalanish, shuningdek yerlarni qayta tiklash hamda yer uchastkalariga huquqlarni bir shaxsdan ikkinchisiga berish munosabati

bilan yuz beradi. Yer munozaralari davlat hokimiyati organlari hamda sud tomonidan hal qilinadi (yer kodeksining 4,5,6,7 va 89 moddalari) [2].

Yer kodeksining 90-moddasida yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning yer uchastkasini oldi-sotdisi, sovg'a qilishi, garovga qo'yishlari (qonunchilikdan ko'zda tutilgan holatlardan tashqari), o'zboshimchalik bilan almashtirishlari bo'yicha noqonuniy harakatlari haqiqiy emas, shunday hodisalarni vujudga keltirishda aybdor shaxslar yer qonunchiligini buzganliklari uchun javobgarlikka tortiladilar, deb qayd qilingan. Yerdan foydalanuvchi subektlar quyidagi hollarda ham javobgarlikka tortiladilar: Yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanganlarida, yer uchastkasini o'zboshimchalik bilan egallab olganida, qishloq xo'jalik va boshqa yerlarni buzganida (ifloslantirish, radioaktiv va kimyoviy moddalar bilan zaharlash, ishlab chiqarish qoldiqlari bilan bulg'ash), yerlar holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi obyektlarni joylashtirganda va qurganda, yerlardan foydalanish bo'yicha tabiatni muhofazalash talablarini bajarmaganda, vaqtinchalik foydalanilayotgan yerlarni qaytarish muddatini buzganda, buzilgan yerlarni keyinchalik foydalanishga yaroqli holatga keltirish bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganida, yer uchastkalari chegaralaridagi chegara belgilarini yo'q qilganda, davlat yer ma'lumotlarini buzib ko'rsatganda, o'zboshimchalik bilan pichan o'rganda va mollarni boqqanda, begona o'tlar va o'simliklar hashoratlari bilan kurash choralari ko'rilmaganda, Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanilganda, yerlarni sifat holatini yaxshilash bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganida, yer uchastkalarini berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari buzilganda. (yer kodeksi,90-modda). O'zboshimchalik bilan egallangan yerlar oldingi egalariга noqonuniy egallash va foydalanish natijasida sarflangan harajatlarni qoplamagan holda qaytariladi. Bunda yer uchastkalarini foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish o'zboshimchalik bilan yer uchastkasini egallab olgan shaxs hisobiga amalga oshiriladi. O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasini yer egasiga, yerdan foydalanuvchiga, ijarachiga yoki mulkdorga qaytarish tegishli tuman, viloyat hokimining qarori bilan amalga oshiriladi (yer koddeksi 91-modda).

Demak, “Yer munozaralarini hal qilish” funksiyasi yerlarni ifloslanishi va zaharlanishi, yer uchastkalarini noqonuniy egalab olish, ular bilan noqonuniy harakatlar sodir etish, boshqa maqsadlarda va xo‘jasizlarcha foydalanish nuqtai nazaridan yerdan foydalanishni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli boshqarish funksiyasini amalga oshirish “Yer monitoringi” funksiyasi bilan uzviy bog‘liqdir, negaki yerlardan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha uning ma‘lumotlari yer uchastkalariga xuquqlarni olish va ulardan foydalanish bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarining noqonuniy harakatlarini tasniflash asosida yotadi.

Rag‘batlantirish funksiyasi yerlardan oqilona va samarali foydalanishni amalga oshirish maqsadida yerdan foydalanuvchi subektlarga iqtisodiy ta‘sir ko‘rsatish mexanizmi hisoblanadi. Rag‘batlantirish, bir tomondan, Yerdan foydalanuvchi subektlarni turli shakllarda mukofotlashni o‘z ichiga olsa, ikkinchi tomondan, foydalanayotgan yer uchastkalariga salbiy munosabatlar uchun jazolash chorasini o‘z ichiga oladi. Yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu funksiyasiga O‘zbekiston Respublikasining yer kodeksining 82-moddasi (11-bob)-“Yerlardan oqilona foydalanish va muhofazalashni iqtisodiy rag‘batlantirish” moddasi bag‘ishlangan.

Ushbu moddada qayd qilinadiki, yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni iqtisodiy rag‘batlantirish yer egalari, Yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarni tuproqlar unumdorligini saqlash va qayta tiklash, Yerlarni ishlab chiqarish faoliyatining salbiy oqibatlaridan himoya qilishga manfaatdorliklarini oshirishga yo‘naltirilgan hamda quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- yangidan o‘zlashtirilgan yerlarga va meliorativ tayyorgalik holatidagi mavjud sug‘oriladigan yerlarga yer solig‘i imtiyozlarini berish;

- yerlarni muhofaza qilish va qayta tiklash faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga kamchiqimli va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni qo‘llashda soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berish;

- yerlar sifatini yaxshilash, ilmiy asoslangan almashlab ekishlarni o‘zlashtirishni, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;

-buzilgan yerlarni tiklash, agrotexnik, o‘rmon meliorativ va boshqa tuproqlarni muhofaza qilish tadbirlari uchun byudjet vositalarini ajratish;

-yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilarning hech qanday aybsiz buzilgan yer uchastkalarini vaqtinchalik konservatsiya qilish natijasida pasaygan daromadni byudjet vositalari hisobiga qisman qoplash.

Shunday qilib, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanganlik uchun yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar va ijarachilarni rag‘batlantirishning turli-tuman shakllari yer kodeksida ko‘zda tutilgan. Shu bilan bir qatorda yer uchastkalari bilan noqonuniy harakatlarni amalga oshirish, yer uchastkalarini ifloslantirish va zaharlanishi, yerlar sifatini pasayishga olib keluvchi yerdan foydalanishda qonun buzilishiga yo‘l qo‘yilgan hollarda yer uchastkalariga huquq subekttlariga qo‘llaniladigan jarima sanksiyalari ko‘zda tutilgan. Ushbu funksiyani amalga oshirilishi yer monitoringi va yerdan foydalanish samaradorligini baholash materiallariga ham asoslanadi. Shunday qilib, ushbu funksiyani joriy etilishi yerlardan sifatli foydalanish uchun va ayniqsa, Yerlarni unumdorligini to‘la qayta tiklanishi, ya’ni yerni qayta tiklanish siklini 2 va 3 fazalarini joriy etish uchun yirik ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. “Yerlarni muhofaza qilish” termini nimani bildiradi?
2. Yerdan foydalanishni boshqarishning ushbu funksiyasini qaysi davlat organlari amalga oshiradilar?
3. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
4. O‘zbekiston Respublikasining yer kodeksida yerlarni muhofaza qilish bo‘yicha qanday qoidalar qayd qilingan?
5. Yerdan foydalanishni integratsion boshqarishning yer munozaralarini hal qilish funksiyasining mohiyati nimalardan iborat?
6. Yerdan foydalanishni boshqarishning funksiyasi sifatida yer resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirishning mohiyati nima?

4.9 Yerdan foydalanish samaradorligini baholash-yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi

Yerlardan foydalanish samaradorligini baholash yerdan foydalanishni boshqarish tizimining eng muhim funksiyalaridan hisoblanadi, negaki u yer resurslaridan foydalanishni to'la qayta tiklash siklining samaradorligini miqdoriy va sifat o'lchamlarini aniqlaydi va shunday qilib, Yerdan foydalanishni boshqarishning samaradorligini belgilaydi. Baholash joriy qayta tiklash siklida yer resurslaridan foydalanish natijalarini tahlili uchun, bo'lg'usi siklda ularni rivojlantirish uchun, shu jumladan qayta tiklash siklining har bir bosqichi bo'yicha alohida-alohida rejalashtirish uchun zarurdir. Funksiyani amalga oshirish uchun quyidagi birin-ketin hal qilinadigan uchta vazifani o'z ichiga oladi: Yerlarni toifalari, iqtisodiy tarmoqlari va tarmoqlar ichi bo'yicha yer resurslarini taqsimlanish samaradorligini baholash; barcha turdagi samaradorlikni olish nuqtai nazaridan yerlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish (texnologik) baholash; yer resurslarini qayta tiklash samaradorligini baholash.

Tizimli yerdan foydalanishi uchun samaradorligini tizimli baholashni ko'zda tutadi, qaysiki u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yerdan foydalanish tarkibining samaradorligini baholash;
- yer resurslarini asosiy maqsadi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri foydalanish samaradorligini baholash;
- yer resurslarini qayta tiklash samaradorligini baholash;
- yerdan foydalanish qayta tiklash siklining jamlangan (umumiy) samaradorligini aniqlash.

Ushbu maqsadda ular berilgan vazifalar va idoralar tomonidan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashning tegishli usullarini ishlab chiqish zarur.

1. Yerdan foydalanish tarkibi yerlardan foydalanishning maqsadli xarakteriga yirik ta'sir ko'rsatadi, ulardan foydalanishning ijtimoiy, iqtisodiy, rekreatsion, sog'lomlashtirish va ekologik samaradorlik turlarining miqdoriy nisbatlarini aniqlaydi. U ko'p variantli xarakterga ega hamda jamiyat faoliyatining har bir

sohasida, iqtisodiyotning har bir tarmog'ida, har bir regionda, tumanda, yer uchastkasida xususiy va dinamik xarakterga ega, shuning uchun uning samaradorligini baholash ko'p bosqichli, birin-ketinlik xarakteriga ega va har yili mamlakat yer fondidan foydalanish samaradorligini belgilash maqsadida amalga oshirilishi zarur.

Yerdan foydalanish tarkibining iqtisodiy mohiyati yerdan foydalanish jarayonida namayon bo'ladi, uni samaradorligi yerlarni maqsadlari bo'yicha taqsimlanish jarayonida-yoq rejalashtiriladi. Masalan, tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun aniq yer massasidan foydalanish bitta samaradorlikka ega; ushbu yerlardan qisman tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga va qisman qishloq xo'jaligi uchun foydalanish boshqa samaradorlik bilan bog'liq bo'ladi.

Yerdan foydalanish tarkibi jamiyatni o'sib borayotgan moddiy va boshqa turlardagi boyliklarga bo'lgan talab-ehtiyojlarini qondirilishini va yer resurslarini mavjudligini, shuningdek, jamiyatning moddiy, mehnat, moliyaviy, texnik va boshqa imkoniyatlarini ko'zda tutadi. Uni samaradorligi nisbiy tushunchadir hamda uni turli variantlarini faqat taqqoslangan baholash bilangina o'rnatish mumkin. Tarkibni samaradorligi deganda yerdan foydalanishning bir xil shartlarida yerdan foydalanishning ikkita turli tarkibi uchun olingan yalpi mahsulotlar o'rtasidagi farqlar tushuniladi.

Shu bilan birga, yerdan foydalanish tarkibi bilan yerdan foydalanishni jadallashganlik darajasi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Eng avvalo tarkib yerlardan foydalanish samaradorligiga ma'lum miqdorlarda ta'sir o'tkazadi, keyinchalik-yerdan foydalanishning jadallashganlik darajasining o'sishi bilan jadallashganlik, endi, yerdan foydalanishning keyingi, bo'lg'usi tarkibiga ta'sir ko'rsata boshlaydi, demak, uning samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni ushbu turlardagi samaradorliklar o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjuddir.

Yerdan foydalanish tarkibining samaradorligini yerdan foydalanish samaradorligidan qanday ajratish (bo'lish) mumkin?. Tarkibni namoyon bo'lishi yerdan foydalanish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas, u turli maqsadli

mohiyati bo'yicha taqsimlanishi bilangina bog'liq. Yerdan foydalanish samaradorligi esa ularni jismoniy xususiyatlaridan foydalanish bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, yerdan foydalanish tarkibining samaradorligi yerdan foydalanishning boshqa teng sharoitlarida tarkiblar ikkita variantlari daromadlarini D (yoki qiymat shaklida aks ettiriladigan tegishli daromadlardagi ijtimoiy, rekreatsion, ekologik sharoitlar) farqiga tengdir.

2. Sug'oriladigan yerlardan foydalanish samaradorligini baholashning mavjud uslubiyati qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha resurs salohiyatidan foydalanishni tavsiflaydigan qator iqtisodiy ko'rsatkichlarni qo'llanilishini ko'zda tutadi. Ularning asosiylaridan biri solishtirma sof daromaddir (bir birlik maydonga). Ammo bozor tamoyillarini qo'llanish sharoitida sug'oriladigan yerlardan foydalanishda bu ko'rsatkich to'la baholanishni endi ta'minlay olmaydi, chunki ishlab chiqarish harajatlarning tarkibi va miqdori tubdan o'zgaradi. Yuqorida qayd qilinganidek, Yerlardan foydalanish samaradorligini baholashning mavjud uslubiyati umumiy, tarmoq xarakteriga ega bo'lmasdan ichki tarmoq xarakteriga egadir. Birinchidan, 1995 yildan yer solig'i va ijara haqi shaklidagi yerdan foydalanishga to'lovlar kiritildi, suvni tashish uchun to'lov undiriladi, sug'orish suvining qo'shimcha hajmi uchun (limitdan tashqari) uni bozor qiymati bo'yicha to'lov undirilishi ko'zda tutilgan. Ikkinchidan, SIUga biriktirilgan ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini ushlab turish harajatlari tovar ishlab chiqaruvchilarning hisobiga kirdi. Va nihoyat, tizimli yerdan foydalanish Konsepsiyasiga muvofiq, iste'mol qilingan tuproq unumdorligini (qiymat jihatidan) ishlab chiqarish harajatlari ta'sir ko'rsatuvchi va o'zini tiklanishini talab qiluvchi resurslar sarfi sifatida qaramoq zarur. SHuning uchun ishlab chiqarishning to'la harajatlari, bozor sharoitida, quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

-Yer-suvdan tashqari barcha resurslar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish xarajatlari (I_{pr});

-sug'orish suvini tashish qiymati $S_{tr.v}$;

-qo'shimcha, me'yordan tashqari sug'orish suvining qiymati $S_{dop v}$;

- iste'mol qilingan tuproq unumdorligini qiymati (S_{ppp});
- sug'oriladigan yerlardan soliq (ijara haqi)- ZN_{or} ;
- Yer bilan chambarchas boshliq ishlab chiqarish vositalari tagidagi yerlardan soliq (ijara haqi)- ZN_{spnsz}

Ishlab chiqarishning o'zini harajatlari mexanizatsiyalashtirilgan ishlarga, urug'lik, yonilg'i-moylash materiallariga, mineral va organik o'g'itlar, hosilni yig'ib-terib olish va tashishga, mehnatga haq to'lashga sarflangan harajatlardan iborat. Sug'orish suvini tashish qiymati ularning uzunligiga, xizmat ko'rsatadigan massivining maydoniga va boshqalarga qarab sug'orish tarmoqlari bo'yicha farq qilib turadi. Iste'mol qilingan tuproq unumdorligining qiymati tegishli tartibda foydalanilganda moddiy mahsulot-hosilni yaratish imkoniyatiga ega bo'lgan iqtisodiy salohiyat sifatida qarash tavsiya qilinadi.

3.Tuproqlar unumdorligini qayta tiklanishi yerlarni to'la qayta tiklanish siklining uchinchi, oxirgi fazasi hisoblanadi. Fazaning samaradorligi quyidagi asosiy omillar bilan aniqlanadi: iste'mol qilingan tuproqlar unumdorligining miqdori, qayta tiklanish sikli davomida unumdorlikni qayta tiklanishi va qayta tiklanish xarakteri. Iste'mol qilingan unumdorlik miqdori, o'z navbatida, shart sharoitlarga bog'liq: o'stirilayotgan ekin turlariga, ishlab chiqarishning boshqa omillar bilan ta'minlanganligiga, ekinlarni o'stirish texnologiyasiga, iqlim sharoitlariga.

4.Sug'oriladigan yerlarni to'la qayta tiklash siklining samaradorligi siklning barcha uchta fazalarini jamlagan samaradorligi ko'rinishiga egadir (43-rasm):

$$E_p = \sum_{j=1}^3 E_j \quad (10)$$

bu Yerdagi j-Yerdan foydalanish to'la siklining bosqichlar indeksi (j=1,2,3).

Yerdan foydalanish tarkibining samaradorligi (E_I) musbat, Oga teng yoki manfiy bo'lishi mumkin. Agarda yerdan foydalanish loyihaviy tarkibini iqtisodiy

va ekologik natijasining yig'indisi oldingilardan yuqori bo'lsa, bunday holda uning samaradorligi musbat va aksincha bo'ladi. Ushbu faza samaradorligining tengligi formula yordamida aniqlanadi. Ikkinchi faza- sug'oriladigan Yerlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish (E_{II})ning samaradorligi uchun ham huddi shunday hulosa xarakterlidir. Uni samaradorligining miqdori o'zining formulasi bilan aniqlanadi. Uchinchi faza samaradorligi (E_{III}) meliorativ ishlarni bajarishga solishtirma harajatlarni me'yoriga nisbatan qisqarishi bilan bog'liqdir. (10) formulani yoyilgan holatda quyidagi ko'rinishda aks etirish mumkin:

$$E_{sik} = (E_1 - I_1)_{st1} + (E_2 - I_2)_{st2} + (E_3 - I_3), \quad (11)$$

bu Yerda: D_1, D_2, D_3 -yer tiklanish siklining tegishli 1-chi, 2-chi va 3-chi bosqichlarida aniqlanadigan daromad;


I_1, I_2, I_3 -yer tiklanish siklining tegishli 1-chi, 2-chi va 3-chi fazalarini joriy etish harajatlari (sarflari).

Ma'muriy tuman sug'oriladigan yerlaridan foydalanishni qayta tiklash siklining to'la samaradorligi ushbu tumandagi qishloq xo'jalik korxonalari bo'yicha samaradorlikni jamlagan holda aniqlanadi. Viloyat, tarmoq bo'yicha bu ko'rsatkich yuqoridagiga o'xshash tarzda belgilanadi.

Yer uchastkalari, aholi yashash punktlari, tumanlar, viloyatlar va umuman respublika yerdan foydalanishi turli toifalardagi va turlicha maqsaddagi yerlarni o'z ichiga oladi, buning oqibatida uni joylashgan samaradorligi bitta maqsaddagi yerdan foydalanish samaradorligini baholashdan, masalan, qishloq xo'jaligi mohiyatidagi yerlar samaradorligini baholashdan tubdan farq qiladi. Bundan tashqari, turli maqsadli mohiyatdagi yerlardan foydalanishda turlicha samaradorliklar kuzatiladi.

Har qanday yerdan foydalanish samaradorligini baholash asosida yer uchastkasidan foydalanish samaradorligi yotadi. Agarda yer uchastkasidan maqsadli foydalanish bitta, ikkita yoki uchta turdagi samaradorlikni ular ichiga olishi bilan bog'liq bo'lsa, mavjud bo'lmagan boshqa samaradorlikning qiymati nolga teng bo'ladi.

Aholi punktlari yerlardan foydalanish samaradorligi ularni aniq maqsadli mohiyatlari bilan barcha yer uchastkalaridan foydalanish samaradorligining summasiga teng. Ma'muriy yerdan foydalanishning samaradorligi aholi punktlari yerlari bilan birgalikda uni chegarasidagi barcha yer uchastkalaridan foydalanishning jamlangan samaradorligidan iboratdir. Viloyat bo'yicha ham o'rganilayotgan ko'rsatkich shunga o'xshash tarzda aniqlanadi-viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar va viloyatning barcha tumanlari bo'yicha samaradorliklar summasidir. Respublika yerdan foydalanish samaradorligi barcha viloyatlar, shuningdek respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar yerlardan foydalanish samaradorliklarini o'z ichiga oladi.



Shunday qilib, har qanday hududiy darajadagi yerdan foydalanishni baholash asosida yer uchastkasidan foydalanish samaradorligi (yerdan foydalanishning barcha turdagi samaradorliklari) yotadi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

- 1.Yerdan foydalanish samaradorligini tizimli baholashga qanday ta'rif beriladi?
- 2.Yerdan foydalanish tarkibining samaradorligi nima?
- 3.Yerdan foydalanish tarkibining samaradorligi qayta tiklanish siklining qanday fazasida amalga oshiriladi?
- 4.Yerlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish (yerlarni qayta tiklash siklining 2-chi fazasi) samaradorligi nima?
- 5.Tuproq unumdorligini qayta tiklanish samaradorligi nima?
- 6.Tuproq unumdorligini qayta tiklanishi bo'yicha meliorativ tadbirlarni amalga oshirish samaradorligi nima?
- 7.Yerlarni qayta tiklanish siklining to'la (jamlangan) samaradorligining mohiyati nima?
- 8.Yer uchastkasining jamlangan samaradorligi qanday o'rnatiladi?
- 9.Aholi punktlari yerdan foydalanishining jamlangan samaradorligi qanday o'rnatiladi?
- 10.Ma'muriy tuman yerdan foydalanishining jamlangan samaradorligi qanday o'rnatiladi?
- 11.Viloyat yerdan foydalanishining jamlangan samaradorligi qanday o'rnatiladi?
- 12.Respublika yerdan foydalanishining jamlangan samaradorligi qanday o'rnatiladi?

V BOB .YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI INTEGRATSION BOSHQARISHNING CHET EL TAJRIBALARI

5.1 Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning chet el tajribasi

Chet mamlakatlarda, ayniqsa yer bozori rivojlangan davlatlarda yer resurslaridan foydalanishni boshqarishni tashkil etish tartibi va uslublari keskin farq qiladi. O‘zbekiston uchun yerdan foydalanishni boshqarish xarakteri bo‘yicha anchagina yaqin bo‘lgan mamlakatlar ichiga bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida bo‘lgan MDH, va ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlari kiradi, negaki ushbu region uchun sug‘oriladigan dehqonchilik va asosiy qishloq xo‘jalik ekinlarining turlari umumiy shartlar hisoblanadi. Bundan tashqari, MDHning barcha mamlakatlarida siyosiy tizim o‘zgardi va bu demokratik xukumatlar iqtisodiyotning agrar sektorida, shu jumladan yer munosabatlarida ham islohotlarni amalga oshirishga o‘zlarining siyosiy moyilligini namoyon qilishdi. Shu maqsadda tegishli tarkiblar tuzildi, yer qonunchiligining bazasi yaratildi. Boshlanish shartlari, iqtisodiy va yer o‘zgarishlarini bir necha bosqichda o‘tkazish zaruriyati bu yerda amalda deyarli bir xilda kechmoqda. Ushbu regiondagi mamlakatlar yerdan foydalanishning boshqarishdagi yagona farq iqtisodiy, shu jumladan yer islohotlarini, boshqarishning institutsional tarkibini joriy etishning turlicha darajadaligi hisoblanadi.

Turkmanistonda 1991-1992 yillardagi yer-agrar munosabatlar sohasidagi o‘zgarishlar Dasturi bo‘yicha quyidagilar ko‘zda tutilgan edi:

-qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerlarni xususiy lashtirish;

-qishloq xo‘jaligini tashkil etishning jamoa shaklini tugatish.

Yer qonunchilik bazasini shakllantirish mamlakatda Turkmaniston Prezidentining “Shaxsiy yordamchi xo‘jalikni yuritish uchun yer uchastkalari maydonlarini ko‘paytirish to‘g‘risida”gi Qaroriga binoan 1991 yili boshlandi, 1991 yil 30 mayda “Turkmaniston yer kodeksiga qo‘shimchalar va o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, 1993 yil 2 fevralda mamlakat Prezidentining “Turkmanistonda yerga egalik qilish va foydalanish huquqi

to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mamlakat Prezidentining 1994 yil 28 martdagi "Kolxozlar, savxozlar va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarini isloh qilish to'g'risida"gi Qarorida yerga mulkchilik to'g'risidagi masala ko'tarilmadi. 1996 yil 30 dekabrda "Tovar qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun fuqarolarga yerni mulk qilib berish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. 1998 yildan boshlab bo'lg'usi hosil uchun avans berish to'xtatildi, uning o'rniga kreditlar ajratila boshlandi. 1997 yil dekabrda mamlakatda yerdan foydalanish, yer tuzish va yer islohotini o'tkazish bo'yicha Davlat qo'mitasi tuzildi. Mamlakat Prezidentining "Suv xo'jaligini rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori (1998y)ga binoan suvdan foydalanish tizimiga bozor prinsiplarini qo'llash to'g'risidagi masala birinchi marta o'rta qo'yildi. O'tish davrining islohotlari oldingi jamoa sektoridan (yirik qishloq xo'jalik korxonalari) shaxsiy sektorga resurslarni bir qadar qayta taqsimlanishiga olib keldi, ammo ular qandaydir sezilarli iqtisodiy samaraga olib kelmadi.

Bugungi kunda Turkmanistonda yerlarning ichki xo'jalik ijarasi asosida tashkil etilgan 650 fermer xo'jaliklarining Birlashmalari faoliyat ko'rsatmoqda, ya'ni bu yerda oilaviy pudrat rivojlangan (paxta bo'yicha yer bo'laklarining miqdori 0,5-1,5ga, kuzgi bug'doy bo'yicha-1,0-3,0ga). Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari mamlakatda mavjud emas, birlashmalarnig asosiy ixtisosligi-paxtachilik va kuzgi donchilik. Tor ixtisosliklarga (sabzavotchilik, polizchilik, donchilik, sholichilik, mevachilik) ega xo'jaliklar mavjud emas. Birlashmalarda 60-70 gektarli brigadalar tashkil etilgan, aynan ushbu brigadalarda mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ishlarning texnologik majmuasi tashkil etilgan va amalga oshiriladi. Birlashmani boshqarish tizimida-raisa, ishlab chiqarish masalalari bo'yicha uning o'rinbosari, ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosar, tuman MTPsi bilan texnik aloqalar bo'yicha 1-mexanik, 1-agronom, 1-mirob (suvchi) mavjud.

Har bir ma'muriy tumanda (etrapda) bittadan MTP mavjud, xo'jaliklar, birlashmalarda qishloq xo'jalik texnikalari yo'q, ular birlashmalarga

biriktirilgan. MTPlarda ehtiyoj qismlari etishmaydi, 1 dekabrda barcha birlashmalar yer haydashni tugata olmaydilar, har gektar yer hisobiga me'yordagi 1 ot kuchi o'rniga amalda bugungi kunda 0,1 ot kuchiga ega texnika mavjud.

Mamlakatda suv xo'jaligining tarkibi eskicha holatda qolgan, fermer xo'jaligi Birlashmalarigacha suvni olib kelish davlat byudjeti hisobiga amalga oshiriladi, mirob-mutaxassislar (suvchilar) ham byudjetdan haq olishadi. Davlat buyurtmasi bo'yicha mahsulot etishtirish bilan band yerlardan ijara haqi undirilmaydi. Takroriy ekinlardan yer uchun ijara haqi ham, suvni etkazib berish qiymati ham undiriladi.

Davlat yer hisobining ma'lumotlari bo'yicha mamlakatda 1,7 mln.ga sug'oriladigan ekin yerlari mavjud, haqiqatda esa 1,5 mln.ga Yerdan foydalaniladi. Kuzgi don ekinlarining maydoni 2007-2008 yillarda 880,0 ming gani, shu jumladan, lalmi ekinzorlarda-80,0 ming gani tashkil etgan, 840 ming tonna don etishtiriladi, sug'oriladigan ekin yerlarida hosildorlik gektariga 11 sentnYerni tashkil etadi. Paxta maydonlari 550 ming gani tashkil etgan, 850 ming tonna paxta xom-ashyosi olinadi, hosildorlik rejadagi 19,1 s/ga o'rniga 15,0 s/ga ni tashkil etadi. Kuzgi bug'doyni sug'orishga gektariga 5,2 ming kub. m.gacha va paxtani sug'orishga, sho'r yuvish va namlantirishlar bilan birgalikda gektariga 7,2 ming kub.m.gacha suv sariflanadi. Paxta ekini maydonlarini 400 ming gektarigacha va kuzgi bug'doy maydonlarini 600 ming gektargacha qisqartirish rejalashtirilgan. Sug'oriladigan yerlardan samarasiz foydalanish yer-agrar munosabatlarini isloh qilishda yirik kamchiliklar mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Qirg'iziston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning boshlanishi bilan yer islohoti ham boshlandi. U o'z oldiga yerga xususiy mulkchilikni paydo bo'lishini va doimiy faoliyat ko'rsatadigan yer bozorini yaratishni o'z ichiga olgan xolda yer mulkchilik munosabatlarini chuqur isloh qilishni maqsad qilib qo'ydi. Ammo, respublikada yer islohotining bosh maqsadi nihoyatda muhimligiga qaramasdan, u bugungi kunda juda sekinlik bilan kechmoqda,

ko'pgina masalalar iqtisodiy o'zgarishlarning talablariga javob bermagani xolda tizimsiz ravishda kechmoqda. Qishloq xo'jalik yerlarining, ayniqsa sug'oriladigan yerlarning sifati pasaymoqda, yaylovlar buzilmoqda, sug'orish va kollektor tarmoqlarining holati yomonlashmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish darajasi pasaydi, qishloq aholisining moddiy holati yomonlashdi. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning bunday holatining sabablari bir nechadir, ulardan asosiylari quyidagilar: o'tish davriga aniq yer siyosatining yo'qligi, respublikada davlat va jamoa xo'jaliklarini isloh qilish va yer bozorini yaratish Konsensiyasini etarli ilmiy asoslanmaganli, YER munosabatlarini tartibga solish va respublikada yerdan foydalanishni boshqarishda davlat rolining etarli emasligi, yerda xo'jalik yuritishning yangi tashkiliy-huquqiy shakllarining davlat tomonidan etarli qo'llab-quvvatlanmaganligi. Mamlakat yerdan foydalanish samaradorligini pasayishining muhim sababi yer-qonunchilik bazasini hamda yer munosabatlarini isloh qilishni ilmiy-uslubiy ta'minotini va ayniqsa davlat, mulkdor va ijarachini yerdan foydalanishdan keladigan daromadni taqsimlash va o'zlashtirish muammosini hal qilish qismini o'z vaqtida tayyorlanmaganligi bo'lgan. O'tkazilayotgan yer islohotining kamchiligiga yana shuni ham kiritish mumkinki, chet rivojlangan mamlakatlar tajribasini, respublika yerdan foydalanishning xususiyatlarini hisobga olmagan holda kiritishga urinish, shuningdek yerdan foydalanishni boshqarishdagi ko'p sonli kam samarali institutsional o'zgarishlar. Mamlakat yerdan foydalanishini tubdan yaxshilashning asosiy vazifalari quyidagilar:

-yer munosabatlari sohasida-yerga hususiy egalik huquqini joriy etish, yerlarni xo'jalik maqsadlarida foydalanish jarayonida ularni mustaqil tarzda tasarruf qiluvchi yer egaliklari va davlat o'rtasidagi mavjud qarama-qarshiliklarni bartaraf etish;

-mulk munosabatlarini bir turdan ikkinchisiga aylantirish sohasida-yerga xususiy mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jalik kooperativlaridagi daromadlarni haqqoniy taqsimlash tamoyilini joriy etish;

-yer bozorini samarali ishlash mexanizimini shakllantirish uchun yer egaliklarining barcha shakllari uchun teng iqtisodiy va hududiy sharoit yaratish.

Rossiya Federatsiyasida agrar-yer tuzishni o'zgartirish yer qonunchilik asosini yaratishdan boshlandi. 1991 yilda mamlakat yer Kodeksi, "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonun hamda "RFda davlat mulkini chegaralanishi to'g'risida"gi Qaror, RFning "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida", "YER osti to'g'risida"gi Qonunlari va navbatdagi mamlakat Prezidentining Farmonlari hamda RF hukumatining Qarorlari qabul qilindi. 1992 yil 14 iyundagi mamlakat Prezidentining Farmoni bilan davlat va munitsipial korxonalarni xususiylashtirishda yer uchastkalarini sotish tartibi tasdiqlanadi. 1991 yili RFsining "Yerga haq to'lash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Bu qonun mamlakatda Yerdan foydalanishni to'lovli amalga oshirishga asos soldi. To'lov shakllari quyidagilar hisoblanadi: yer solig'i, ijara to'lovi, Yerning me'yoriy bahosi. To'lovlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad- yer resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iboratdir. Mamlakat Prezidentining 1993 yil 27 oktyabrdagi navbatdagi qabul qilingan Farmonining maqsadi yerga xususiy mulkchilikni himoya qilishga qaratilgan edi.

90-yillarda yer munosabatlarida ro'y bergan tub o'zgarishlarga qaramasdan ular ijtimoiy an'analarda tez o'zgarishlar yuz berishga va boshqarishning adekvat tizimini ro'y berishiga olib kelmadilar. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda o'zini yaxshi ko'rsatgan institutsional va iqtisodiy tartibga keltirish tajribalarini ko'chirib olish yerga jamoa-ulushlik shakllilik sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlay oladi.

O'tish davrida yer munosabatlarini isloh qilishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari ajratiladi [33]:

- yerga xususiy va munitsipial mulkchilikni birgalikda olib borish;
- yerlarni ijtimoiy-yo'naltirilgan birlamchi taqsimlash;
 - yerdan foydalanishni to'lov tamoyilini kiritish;
 - bozor va bozordan tashqari yer oborotini rivojlantirish;

-yerdan foydalanishga ekologik talablarni kuchaytirish.

“2001-2010 yillarga RF Hukumatining agro oziq ovqat siyosatining asosiy yo‘nalishlari”da yer islohotini yanada chuqurlashtirish hamda YER bozorini takomillashtirish ko‘zda tutilgan. Bunda, ushbu jarayonda salbiy holatlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida hukumat tomonidan quyidagi chegaralanishlar ko‘zda tutilgan[40]:

-qishloq xo‘jalik yerlari faqatgina qishloq xo‘jalik maqsadlari uchun foydalanishi mumkin;

-qishloq xo‘jalik yerlarini faqatgina uzoq muddatli investitsiyalar uchungina garovga qo‘yish mumkin;

-qishloq xo‘jalik yerlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar mulkchiligida bo‘lishi mumkin;

-RF subektlarining qonunchilik hokimiyati organlari yer uchastkalarini fuqarolar va yuridik shaxslarga mulkchilik merosiy umrbod egalik va doimiy foydalanish huquqlari bilan berishning eng yirik miqdorlarini belgilash huquqiga egadirlar.

Institutsional muhitning va shunga mos iqtisodiy mexanizmini shakllantirish-uzoq va ko‘p qirrali jarayondir. Bozor iqtisodiyotini rivojlanishi hamda oziq-ovqatga bo‘lgan dunyo talablari kuchayib ketgan tartibda sharoitida yerdan foydalanishni boshqarish tizimi jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojini shakllanayotgan modelini joriy etishning o‘xshash quroli bo‘lishi zarur.

Ukrainada, qo‘shimcha-bosqich o‘tkazilayotgan yer islohotining asosiy maqsadi-agrar-yer munosabatlarini isloh qilishdan hamda yerlarni dehqonlarga mulk qilib berishdan iboratdir. Yerni berish yer islohotining birichi bosqichida amalga oshiriladi. Bunda yer zahira yerlar toifasidan va rezerv fondidan xususiy mulkchilikka berildi, shuningdek mavjud va faoliyat ko‘rsatayotgan qishloq xo‘jalik korxonalarini a‘zolariga mulkdor statusini berish yo‘li bilan xususiy mulkchilik vujudga keltiriladi. Shu sababli qishloq xo‘jalik Yerlari yangi jamoa xo‘jaliklari a‘zolarining jamoa mulkiga o‘tkazildi. Yerlarni berishning bu

jarayoni mamlakatda qabul qilingan yer kodeksi bilan mahkamlanadi (1993yil 13 mart).

Ammo qishloq xo'jalik yerlarini jamoa mulkchiligiga berish dehqonlarda xo'jalik xissini tug'dirmadi, bu yerdan foydalanish samaradorligini oshishini ta'minlaydi. Shu munosabat bilan yer islohotining ikkinchi bosqichida jamoa mulkdorlari maqomini jamoaning har bir a'zosiga yer ulishini mahkamlash yo'li bilan Yerlarni qo'shma egalari maqomiga ko'tarishga harakat qilindi. Mamlakat Prezidentining 1994 yil 10 noyabrdagi "Qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sohasida yer islohotini tezlashtirish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bilan yer islohotini rivojlantirishdagi bu holat tasdiqlanadi: yer ulushining mulkdorlari o'zlarining xoxish-irodalari bo'yicha, mustaqil foydalanish uchun joyda o'z yer uchastkasini ajratib olishgacha ularni to'la tasarruf etish huquqini oldilar.

Yer islohotining uchinchi bosqichida Ukrainada yerga xususiy mulkchilik huquqini beruvchi davlat dalolatnomasini berish bilan jamoa qishloq xo'jalik korxonalarini qayta tashkil etish amalga oshirildi. Yerdan foydalanish sohasidagi ulushli munosabatlar ham dehqonlarni yerdan foydalanishdagi tub munosabatlarida kutilgan rolni o'ynamadi, yerga bo'lgan mulkchilik asosan jamoa qishloq xo'jalik korxonalarining mulki sifatida qaraldi. 1996 yil 28 iyunda Ukrainaning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinganida hamda jamoa mulkchiligi mulkchilikning mustaqil turi sifatida o'z kuchini yo'qotganiga qaramasdan, jamoa qishloq korxonalari faoliyat yurituvchilar va shu bilan birga amalda yerga bo'lgan jamoa mulkchiligi ham amalda mavjud bo'ldi. Shu munosabat bilan 1997 yil 10 yanvarda bo'lib o'tgan agrosanoat majmuasi masalalari bo'yicha Umumukraina yig'ilishi jamoa qishloq xo'jalik korxonalarini yerga xususiy mulkchilikka asoslangan, bozor tipida xo'jalik yurituvchi yangi tashkiliy-huquqiy shakliga aylantirdi.

Bugungi kunda Ukrainada yerga mulkchilikning ikkita shakli rivojlanmoqda: davlat va kommunal mulkchilikni o'z ichiga olgan ochiq, hamda

fuqarolar va yuridik shaxslarni yerga xususiy mulkchiligini o'z ichiga olgan xususiy mulk.

Moldova Respublikasida agrar hamda tegishli yer islohotlari yirik xususiyatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar, negaki bu mamlakatda mehnatga loyoqatli aholining 40%dan ortig'i qishloq xo'jaligida banddir, qishloq xo'jaligining ulishi respublika yalpi ichki mahsulotini 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Moldova iqtisodiy islohotlarga qadar ham yerlarining yuqori mahsuldorligi bilan ajralib turgan, chunki uning asosiy maydonlarini qora tuproq tashkil etgan (8% ga yaqin).

Yer islohining bosh maqsadi yerga davlat mulkchiligidan cheklashgan hamda xususiy mulkchilikni kiritishdan iborat bo'lgan, bu holat agrar islohotlar va qishloq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi "Konsensiyasi"da (1991y, fevral) qayd qilingan edi. Shu bilan birga, Konsepsiyada "Yerga jamoa mulkchiligi to'g'risida"gi maqom saqlab qolingan, u esa 2001 yilga qadar yerni oldi-sotdisiga amalda ruxsat bermagan. Bunda Konsepsiyaning ko'pgina qoidalari mamlakat yer kodeksiga kiradi (1991y, dekabr), shunga muvofiq kolxozlar va savxozlar a'zolari yerga mulkchilik huquqini oldilar. Yer bo'laklarining o'lchamlari yirik bo'lmaganligi (1,5ga atrofida) sababli, shunda ham ko'p uchastkalik hamda bu uchastkalar turli joylarda joylashganligi sababli, ularni hammasini yer egalariga huquqiy jihatidan birlashtirish mumkin bo'lmadi. Shunday qilib, "kichik xususiylashtirish" deb ataladigan birinchi bosqich (1994 yilga qadar) oldingi davlat qishloq xo'jalik yer turlarining atigi 5-6 ming ga maydonida xususiy fermer xo'jaliklari tashkil etildi. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga qishloq xo'jalik yerlari bozorining mavjud bo'lmaganligi yirik to'siq bo'ldi.

Mamlakat yer kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchaga (1995y, fevral) hamda 1995 yil 6.06dagi 377-sonli hukumat Qaroriga mos ravishda yakka tartibda uy-joy va bog' (dacha) uchastkasini qurish uchun yer sotishga ruxsat beriladi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik korxonalarini a'zolariga faqatgina aynan o'zlarining qishloq xo'jalik korxonalarining a'zolariga

uchastkalari kvotasini olish huquqi to'g'risidagi guvohnomani (titul) sotishga ruxsat berildi. Ushbu tadbir xususiylashtirilgan Yerlar maydonini 275 ming gektargacha oshirish imkonini berdi.

Yerlarni keng xususiylashtirish bosqichi Moldovada 1999 yildan noqishloq xo'jalik yerlarida boshlandi, bunda 1ga yerning bahosi 13 ming \$ gacha etdi, Kishinev shahrida esa o'rtacha 30 ming \$ga etdi. Yuqori baholar qishloq xo'jalik yerlari bozorini rivojlantirishga to'siq bo'ldi. 1999 yilga bor-yo'g'i 1 ming gektarga yaqin yer maydoni sotildi, xolos. Keyingi davrlarda va umuman, bugungi kunda respublikada normal faoliyat ko'rsatayotadigan yer bozorini, shu jumladan qishloq xo'jalik yerlari bozorini shakllantirish muammosi hal qilinmoqda.

Sharqiy Evropa Mamlakatlarida mulkchilik munosabatlarini, shu jumladan Yerni isloh qilish xususiy shakllar foydasiga amalga oshiriladi [32]. Qishloq xo'jalik Yerlarining umumiy miqdorlari xususiy sektorda ancha o'sdi. Vengriyada 6 marta, Chexiyada-49 marta, Slovakiya va Ruminiyada 2-3 marta, Bolgariyada 2-marta. Iqtisodiy islohotlarning boshlanishi deyarli barcha mamlakatlarda ishlab chiqarishni iqtisodiy pasayishiga olib keldi va faqatgina 1994 yildan holat bir muncha to'g'rilana boshlandi. Yirik davlat xo'jaliklari Polshada 15 marta, Vengriyada 3 marta, Chexiyada 12marta, Slovakiyada 2 marta, Ruminiyada 2,5 barobar, Bolgariyada 12 barobar kichiklashdi. Vengriya va Chexiyada bugungi kunda xususiy (fermer) xo'jaliklari yaratilgan, ularning o'rtacha o'lchamlari g'arb mamlakatlari xo'jaliklarining o'lchamlariga yaqinlashtirilgan.

Xitoy Xalq Respublikasi o'tish iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakat hisoblanadi, o'z iqtisodiyotini isloh qilishda o'zining bosqichli, iqtisodiy islohotlarning evolyusion modelini tanladi. Iqtisodiy o'zgarishlar agrar sektordan boshlandi, u sektor doimo mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. O'zining tashkil etilishini boshlanishida mamlakatning qishloq aholisi 89%ga yaqinni tashkil etgan, qishloq xo'jaligini ichki yalpi mahsulotdagi ulushi 45%ni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligini keyingi qattiq

tartibli markazlashtirilishi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojini to'xtatdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini pasayishiga olib keldi, dehqonlar daromadi amalda o'smadi, urbanizatsiya jarayoni to'xtadi. Iqtisodiyotning agrar tarmog'ini isloh qilishning quyidagi asosiy vazifalari belgilab olingan [67]:

-yer munosabatlari va yerdan foydalanish tarkibini isloh qilish, yer tuzishni va yer resurslarini bozorini yangi tizimini shakllantirish;

-mulkchilikning tubdan o'zgartirish va qishloq xo'jalik korxonalarini qayta tashkil etish;

-xo'jalik yuritish turlicha tashkiliy-huquqiy shakllarini rivojlantirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;

-davlatning funksiyasini o'zgartirish.

1978 yildagi islohotni amalga oshirishning boshlanishi dehqon hovlilari tizimini yaratish bilan bog'liq, u 1983 yilga kelib qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakliga aylandi (islohotning 1-chi bosqichi). Keyin qishloq joylaridagi ma'muriy va xo'jalik boshqaruvini isloh qilishga o'tish amalga oshirildi. 1984 yildan boshlab qishloq xo'jalik mahsulotlarini muomala tizimini isloh qilish boshlandi (2-chi bosqich), u aholining keng qatlamlari manfaatlarini qamrab oldi hamda shu sababli ***birinchi bosqich***dan ancha yirik bo'ldi. ***Ikkinchi bosqich*** 1991 yili nihoyasiga etdi. Islohotning ***uchinchi bosqichi*** (1992-2000y) mamlakat iqtisodiy tizimining keng miqyosli, tizimli qayta o'zgartirish bosqichi hisoblanadi. ***To'rtinchi bosqich*** (2001 yildan) amalga mamlakatni Umumjahon Savdo Jamiyatiga qabul qilinishi bilan bog'liqdir.

Keyingi yillar amaliyoti ko'rsatdiki, Xitoy asta-sekinlik bilan o'zining agrar sohasini ocha boshladi, chet el tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan raqobat kuchaya boshladi. Shuning uchun ham bugungi kunda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha majmualiy tadbirlar ishlab chiqilmoqda va amalga oshirilmoqda. Xitoydagi yer islohoti natijalari ko'rsatadiki, yer bozorini rivojlantirish uchun yerning aylanishi nihoyatda zarur, bu esa yerga bo'lgan mulkchilik huquqini va xo'jalik yuritish huquqini bir-birlaridan

ajratishni talab qiladi. Xo‘jalik yuritishning ko‘p ukladli shakllari, yakka tartibdagi xo‘jaliklar va kooperativ xo‘jaliklarini birgalikda mavjud bo‘lishi o‘tish davrining muhim zaruriyatidir. Va nihoyat, o‘tish davrida agrar sektorni rivojlantirishda davlat boshqaruvi muhim rol o‘ynaydi.

Bilimni aniqlash uchun savollar:

1. Mustaqil rivojlanish yillarida Turkmanistonda yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish qanday amalga oshirilmoqda?
2. Mustaqil rivojlanish yillarida Qirg‘izistonda yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish qanday amalga oshirilmoqda?
3. Yer islohoti davrida Rossiya Federatsiyasida yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish qanday amalga oshirilmoqda?
4. Mustaqil rivojlanish yillarida Ukrainada yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish qanday amalga oshirilmoqda?
5. Mustaqil rivojlanish yillarida Moldovada yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish qanday amalga oshirilmoqda?
6. Sharqiy Evropa mamlakatlarida yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarish qanday xususiyatlarga ega?
7. XXR da yer munosabatlarini tartibga solish va yerdan foydalanishni boshqarishning qanday xususiyatlari mavjud?

GLOSSARIY

aholi punktining bosh rejasi - yashash va faoliyat muhitini shakllantirishning kompleks sharoitlarini, aholi punktlari hududiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydigan shaharsozlik hujjati;

bino - funksional maqsadiga qarab odamlar yashashi yoki bo‘lishiga va har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo‘ljallangan, yopiq hajmni tashkil etuvchi tayanch, to‘sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;

garov xati — ko‘chmas mulk garovga qo‘yilganligi to‘g‘risidagi qarzlik guvohnomasi, qarz beruvchiga — yuridik yoki jismoniy shaxsga bank tomonidan beriladi;

yer uchastkasini ijaraga olish – yer uchastkasidan ijara shartnomasining shartlari bo‘yicha vaqtincha haq evaziga foydalanish;

yer uchastkasini ijaraga oluvchi – yer uchastkasini belgilangan tartibda ijaraga olgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yer uchastkasini ijaraga beruvchi – yer uchastkasini belgilangan tartibda ijaraga bergan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yer uchastkasining egasi – yer uchastkasidan yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish hamda dehqon xo‘jaligini, shuningdek jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqida foydalanuvchi fuqaro;

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish – yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarining vujudga kelishi, boshqa shaxsga o‘tishi, bekor qilinishining davlat tomonidan e‘tirof qilinishi va tasdiqlanishi yuridik akti;

davlat yer kadastri – yerlarning tabiiy, xo‘jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qimmati, yer uchastkalarining o‘rni va o‘lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijaraga oluvchilar va mulkdorlar o‘rtasidagi taqsimoti to‘g‘risidagi zaruriy hamda aniq ma‘lumotlar va hujjatlar tizimi;

yerlarning ifloslanishi – tupoqlarda tarkibida kimyoviy birikmalar, radioaktiv elementlarning atrofdagi tabiiy muhitga, tuproq unumdorligiga va inson sog‘ligiga zararli ta’sir ko‘rsatadigan miqdorlarda mavjudligi.

yer uchastkasi garovi (ipotekasi) – yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan yer uchastkasini yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatni ta’minlash sharti bilan boshqa shaxsga o‘tkazilishi;

yer munosabatlari – davlat hokimiyati organlari, yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi yerga egalik qilish, undan foydalanish hamda uni tasarrf qilish bilan bog‘liq munosabatlar;

servitut – yuridik va jismoniy shaxsning bir yoki bir nechta begona yer uchastkalaridan kelishuv yoki sud qarori asosida belgilanadigan cheklangan foydalanish huquqi;

yer nizosi – yer munosabatlari sub’ektlari o‘rtasidagi, xususan yer uchastkasi yoki uning bir qismining qaysidir shaxsga mansubligi, shuningdek servitutning belgilanishi va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning cheklanishi borasidagi nizolar;

yer uchastkasi – yer sirtining qayd etilgan berk chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimga hamda davlat yer kadastrida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlariga ega bo‘lgan qismi;

yer fondi – yer sirtining, xususan suv ob’ektlari tubining O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaxarlarning ma’muriy chegaralari ichida joylashgan qismi;

yer tuzish – yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki xo‘jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimi;

yerlarning toifalari – yer fondining yer uchastkalari ularning asosiy maqsad vazifalari bo‘yicha kiritilgan qismlari;

yerlar monitoringi – yer tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tug‘atish uchun yer fondining holatini ko‘zatib turish tizimi;

tupoq sifatini normalashtirish – tuproqlar unumdorligi, yerlarning ifloslanishi va buzilishi sohasida normalarni belgilash

yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarning cheklanishi – yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalaridan foydalanish bo‘yicha huquqlarining davlat, atrof-muhitni muhofaza qilish, muhandislik kommunikatsiyalarini qurish va ulardan foydalanish, boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijaraga oluvchilari va mulkdorlari, shuningdek qonunda nazarda tutilgan hollarda aholi xavfsizligi manfaatlari yo‘lida qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda cheklanishi;

sug‘oriladigan yerlar – yerlarni sug‘orish uchun etarli miqdordagi suv resurslariga ega sug‘orish manbai bilan bog‘langan doimiy yoki vaqtinchalik sug‘orish tarmog‘i mavjud bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar

yerlarning asosiy maqsad vazifasi – yerlardan yer-kadastr hujjatlarida aks ettirilgani kabi maqsadlarni ko‘zlab foydalanishning qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibi va shartlari;

yerlarni muhofaza qilish – yerlardan belgilangan maqsadda, oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va oshirish, qishloq xo‘jalik oborotidan va alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan yerlarning asossiz ravishda olib qo‘yilishi oldini olish, ularni zararli antropogen ta’sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimi;

yer uchastkasidan foydalanuvchi – yer uchastkasidan doimiy yoki vaqtincha foydalanish huquqida foydalanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

yer uchastkasidan vaqtincha foydalanish huquqi – yuridik yoki jismoniy shaxsning davlat mulkidagi yer uchastkasidan davlat hokimiyati organining qarori bilan mahkamlangan belgilangan muddatlarda foydalanish huquqi;

zonalashtirish - hududni rivojlantirishning shaharsozlik jihatidan rejalashtirilishida shaharsozlikning foydalanish turlarini hamda bu turlardan foydalanishdagi cheklashlarni belgilab olgan holda uning funksional maqsadga ko‘ra bo‘linishi;

ipoteka — ko‘chmas mulkni (er uchastkasini, bino va inshootni) yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatni ta‘minlash sharti bilan garovga qo‘yish, u ushbu mulkni garov kreditori egaligiga topshirmasdan amalga oshiriladi;

meros qilib qoldiriladigan yer uchastkasiga umrbod egalik qilish huquqi – fuqaroning hayot davrida amal qiladigan va uning merosxo‘rlariga belgilangan tartibda o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan yer uchastkasidan yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish hamda dehqon xo‘jaligini, shuningdek jamoa bog‘dorchiligi va uzumchiligini yuritish uchun foydalanish huquqi;

yer fondi toifasi - bu er fondining foydalanish va muhofaza qilishning belgili huquqiy holatiga ega va asosiy mo‘ljallangan maqsadi bo‘yicha ajratilgan bir qismi.

yer turi - bu o‘zining tabiiy-tarixiy belgilari bilan ajralib turadigan va belgili xo‘jalik maqsadlari uchun doimiy foydalaniladigan yoki foydalanish mumkin bo‘lgan yer uchastkasi.

yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqi – yuridik yoki jismoniy shaxsning davlat mulkidagi yer uchastkasidan davlat hokimiyati organining qarori bilan mahkamlangan belgilangan muddatsiz foydalanish huquqi;

yer uchastkasiga bo‘lgan mulk huquqi – yuridik yoki jismoniy shaxsning unga tegishli bo‘lgan yer uchastkasiga o‘zining ixtiyori bo‘yicha va o‘z manfaatlari yo‘lida egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi;

yer uchastkalari berish – davlat mulkidagi yer uchastkalarini davlat hokimiyati organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish, doimiy yoki vaqtincha foydalanish yohud ijaraga olish huquqlarida berish;

yerlarni xususiylashtirish – jismoniy shaxslar va nodavlat yuridik shaxslar tomonidan yeruchastkalarini davlatdan xususiy mulk qilib sotib olish;

yerlardan oqilona foydalanish – qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun – yerlardan ularning maqsad vazifasi bo‘yicha yerlarning tabiiy-qishloq xo‘jalik jihatdan rayonlashtirilishini, yerlarning ko‘p jihatli xususiyatlarini inobatga olgan holda, tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya qilgan holda hududni mehnat unumdorligining oshishini va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘payishini ta‘minlash yo‘lida maqsadga muvofiq tashkil etib foydalanish; qishloq xo‘jaligidan boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar uchun – yerlardan ularning maqsad vazifasi bo‘yicha foydalanish, yer uchastkalaridan imoratlarning tabiatni muhofaza qilish va shaxarsozlik talablarini inobatga olgan holda maksimal zichligini ta‘minlagan holda tejamli foydalanish;

yerlarni rekultivatsiya qilish – buzilgan yerlarni vazifasi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holga keltirish borasidagi texnik, meliorativ va agrotexnik tadbirlar kompleksi;

yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olish – yerlardan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarsiz foydalanish;

yer uchastkasi bilan bog‘liq bitimlar – jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari;

kadastr yig‘ma jildi — ob‘ektning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan kadastr suratiga olish, texnik inventarizatsiya qilish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatdan baholashning hujjatlari, materiallari va ma‘lumotlari jamlamasi;

kadastr plani — ko‘chmas mulk ob‘ektining o‘rnashgan joyini, chegaralarini, binolar, inshootlar va boshqa topografik elementlarini aks ettiruvchi, umumiy qabul qilingan shartli belgilarda tuzilgan chizma hujjat;

kadastr raqami — yer uchastkasi, bino, inshootning o‘ziga xos, O‘zbekiston Respublikasi hududida takrorlanmaydigan raqami, u ko‘chmas

mulkni shakllantirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq beriladi, va u ro'yxatdan o'tkazilgan huquqning yagona ob'ekti sifatida mavjud bo'lishi davrida saqlab qolinadi;

ko'p yillik daraxtlar — bog'lar, tokzorlar, tutzorlar va boshqa o'rmon daraxtlari;

ko'chmas mulk — yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar etkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan ob'ektlar;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish — yuridik va jismoniy shaxslarning jumladan bitimlar asosida yuzaga keladigan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarining vujudga kelganligini, boshqa shaxsga o'tganligini, cheklanishini (yuklanishini), bekor bo'lishini tan oladigan hamda tasdiqlaydigan huquqiy harakat;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar va u haqda tuzilgan bitimlarning davlat reestri — ko'chmas mulk va ularga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlarning, huquq egalarining tizimga solingan jamlamasi, u ko'chmas mulk ob'ektining o'rnashgan joyi bo'yicha tuman (shahar) chegarasida yuritiladi;

ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning cheklanishi — ko'chmas mulk ob'ektining mulkdori bo'lmagan shaxslarning (ipotekaga oluvchilar, ijaraga oluvchilar, kreditorlar va boshqalarning) unga bo'lgan mulkiy huquqlari;

qishloq xo'jalik yerlari – qishloq xo'jaligi ahamiyatidagi yerlarning bevosita qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun yoki em-xashak bazasi sifatida foydalanilayotgan yohud foydalanilishi lozim bo'lgan asosiy qismi; Qishloq xo'jalik yerlari haydaladigan yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, bo'z yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan tashkil topadi;

qonun- davlatning oliy vakolatli organi tomonidan maxsus tartibda qabul qilinib jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normative-huquqiy hujjat;

huquq egasi — bitim asosida yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha ko'chmas mulkka bo'lgan huquqqa ega yuridik va jismoniy shaxs;

ro'yxatdan o'tkazish yig'imi — ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun qonun hujjatlarida belgilangan to'lovlar;

inshoot - har xil turdagi ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob-uskunalarni saqlashga, odamlarning vaqtincha bo'lishiga, odamlar, yuklar va boshqa narsalarni olib o'tishga mo'ljallangan, tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi qurilish tizimi;

tuproq unumdorligi – tuproqning qishloq xo'jalik o'simliklarining to'yimli moddalar, havo, suv, issiqlik, biologik va fizikaviy-kimyoviy muhitga bo'lgan talabini qondirish, qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishni ta'minlash xususiyati;

normativ-huquqiy hujjat- belgilangan shaklda qabul qilingan, umumijburiy davlat ko'rsatmalari sifatida qonun hujjatlari normalarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat;

servitut – yuridik va jismoniy shaxsning bir yoki bir nechta begona er uchastkalaridan kelishuv yoki sud qarori asosida belgilanadigan cheklangan foydalanish huquqi;

sug'oriladigan yerlar – erlarni sug'orish uchun etarli miqdordagi suv resurslariga ega sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy yoki vaqtinchalik sug'orish tarmog'i mavjud bo'lgan qishloq xo'jaligi va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;

suv iste'moli – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv resurslaridan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish;

suv iste'molchisi - o'z ehtiyojlarini qondirish uchun suv ob'ektidan suv resurslarini belgilangan tartibda oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

suv ob'ekti – suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to'planadigan va suv rejimining o'ziga xos shakllari va belgilari bo'lgan tabiiy (jilg'alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun'iy (ochiq va yopiq kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko'llar, dengizlar, er osti suvlari qatlamlari) va sun'iy (suv omborlari, sel suvlari to'planadigan joylar va boshqalar), suv xavzalari, shuningdek buloqlar va boshqa ob'ektlar;

suv ob'ektlarini muhofaza qilish — suv ob'ektlarini saqlash va tiklashga qaratilgan tadbirlar tizimi;

suv resurslari – foydalaniladigan yoki foydalanishi lozim bo'lgan suv ob'ektlari suvlari;

suv rejimi – suv ob'ektlari va tuproq-gruntda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo'yicha o'zgarishi;

suvdan foydalanish – yuridik va jismoniy shaxslar suv resursini suv ob'ektidan olmagan holda ulardan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish;

suv xo'jaligi – iqtisodiyotning suv resurslarini va suv ob'ektlarini o'rganish, hisobga olish, boshqarish, ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, shuningdek suvlarning zararli ta'sirga qarshi kurashishni qamrab oluvchi tarmog'i;

transchegaraviy suvlar – ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday er usti yoki er osti suvlari;

transchegaraviy suv ob'ektlari - ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv ob'uklari.

shahar va posyolka chizig'i - aholi punkti erlarining ularni er fondining boshqa toifalaridan ajratib turadigan, shaharsozlik hujjatlarida belgilab qo'yilgan tashqi chegarasi;

shaharsozlik - aholi punktlarini, aholi punktlariaro hududlarni rejalashtirish hamda qurishning ijtimoiy-iqtisodiy, qurilish-texnika, arxitektura-

badiiy va sanitariya-gigienaga oid echimlarining yig'indisini ta'minlovchi nazariyasi va amaliyoti;

shaharsozlik hujjatlari - hududlarni, aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish to'g'risidagi hamda ularni qurish haqidagi, belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjatlar.

elektron raqamli imzo — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (asosiy qonuni). T., O‘zbekiston, 1992
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “Xalq so‘zi”, 15 yanvar 2017 yil.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. SH.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. “Xalq so‘zi”, 2016 yil 15 dekabr
4. Mirziyoev SH.M. Ilm fan yutuqlari- taraqqiyotning muhim omili. “Xalq so‘zi”, 2016 yil 31 dekabr
5. O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. T.,O‘zbekiston, 2012
6. O‘zbekiston Respublikasining Shaxarsozlik kodeksi. T., O‘zbekiston, 2012
7. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Ijara to‘g‘risida”. T., 1991
8. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Muxofaza qilinadigan hududlar to‘g‘risida”. T.,2004
9. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. T.O‘zbekiston, 2012
- 10.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”. T., 1993
- 11.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”. T., O‘zbekiston, 2012
- 12.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Davlat yer kadastrlari to‘g‘risida”. T., O‘zbekiston, 2012
- 13.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”. T., 2001
- 14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 15 oktyabrdagi PF 3502 sonli Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya,

- kartografiya va davlat kadastrlari Davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida”. T.,2004
- 15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 iyuldagi PF 3780 sonli Farmoni “Yuridik shaxslar va fuqarolarni bino va inshootlari bilan band bo‘lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”. T.,2006
- 16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 29 oktyabrdagi PF 3932 sonli Farmoni “Yerlarni meliorativ jixatdan yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar to‘g‘risida”. T.,2007
- 17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 – fevraldagi “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF 4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining qonun xujjatlar to‘plami, 2017 yil 6-son
- 18.Avezboev S. Ratsionalnoe ispolzovanie zemel v nizovyax Amudari. T., Mexnat, 1990
- 19.Avezboev S.A., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash (darslik) .T., YAngi asr avlodi, 2004
- 20.Babajanov A.R., Raxmonov Q.R.,G‘ofirov A.J. Yer kadastr (darslik). T.,TIMI, 2012
- 21.Babajanov A.R. Ko‘smas mulk kadastr (o‘quv qo‘llanma) . T: TAQI, 2014
- 22.Varlamov A.A., Galchenko S.A. Upravlenie zemelnymi resursami. M.:GUZ, 2005
- 23.Varlamov A.A.,SHamanaev V.S.,Xlystun V.N., Komov V.N. Gosudarstvennoe regulirovanie zemelnyx otnosheniy. M.: Kolos, 1999
- 24.Golubkov E.P.Texnologiya prinyatiya upravlencheskix resheniy. M.: Kolos, 2005
- 25.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqoror rivojlanish yo‘lida. T., O‘zbekiston, 1995
- 26.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz-keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T., O‘zbekiston, 2013

27. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish. 20 jild, T., O‘zbekiston, 2012
28. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajak yo‘lida xizmat qilish-eng oliy saodatdir. T., O‘zbekiston, 2015
29. Rumyanseva E.E. Novaya ekonomicheskaya ensiklopediya. 3-e izd., M.: INFRA-M, 2008
30. Stanchin I.M., Zemelnaya reforma v Turkmenistane. Izrail-Rexovot, 2003
31. Talipov G.A. Земельные ресурсы Узбекистана и проблемы их рационального использования. T.: 1992
32. Tkachuk S.A. Управление земельными ресурсами. Selinograd, 1986
33. Chertovitskiy A.S., Bazarov A.K. Управление землепользованием. T., TIIM-TEMPUS, 2009
34. Yusupov N.S. Аграрные реформы в Китае. Достижения и проблемы. T.: Fan, 2005
35. O‘zbekiston Respublikasining yer fondi (1990-2015 yillar). T., Yergeodezkadastr
36. O‘zbekiston Respublikasining yer resurslari holati to‘g‘risidagi Milliy hisobot (2008-2015 yillar). T.: Yergeodezkadastr
37. O‘zbekiston Respublikasining Statistika to‘plamlari. T.: Davlat statistika qo‘mitasi, 2006, 2009, 2014 yy.

Mundarija

T.r.	Mavzular nomi	Betlar
	Kirish	3
I Bob	Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning nazariy masalalari	
1.1	Boshqarish to‘g‘risida tushuncha. Tizimlarni integratsion boshqarish	5
1.2	Mamlakatning yer fondi - boshqarish obyekti sifatida	16
II Bob	Yerdan foydalanish va undagi muammolar	
2.1	Qishloq xujaligi yerdan foydalanishi	29
2.2	Suv xo‘jiligi yerdan foydalanishi	49
2.3	Aholi punktlari yerlaridan foydalanish	59
2.4	Mamlakatning mavjud yerdan foydalanishidagi muammolari.	74
2.5	Tizimli yerdan foydalanishning konseptual asoslari.	84
2.6	Mamlakatning yerdan foydalanish holati	90
2.7	Jamiyatdagi yerni mavjud bo‘lish shakllari hamda undan foydalanish usullari.	116
2.8	Yer resurslaridan foydalanish qirralari.	138
2.9	Yerdan oqilona va samarali foydalanish	155
III Bob	Mamlakatda yerdan foydalanishni integratsion boshqaruvning mavjud holati.	
3.1	Yerdan foydalanishni boshqarish tamoyillari	164
3.2	Yerlardan foydalanishni davlat boshqaruvi	173
3.4	Yer munosabatlarini davlat tomonidan muvofiqlashtirish	184
3.5	O‘zbekistondagi yer islohotlarining mazmuni	198
3.6	Suv resurslaridan foydalanishni boshqarishning asosiy masalalari	207
3.7	Sug‘orish va meliorativ tarmoqlar faoliyatini boshqarish	223
3.8	Yerdan foydalanishni ma’muriy boshqarish	243
3.9	Suvdan foydalanishni va yerdan foydalanishni boshqarishda	249

	suvdan foydalanuvchilar uyushmasining roli	
IV Bob	Yerdan foydalanishni integratsion boshqarishning funksiyalari	
4.1	Yer qonunchiligi ijodiyoti-Yerdan foydalanishni boshqarishning funksiyasi	260
4.2	Yerdan foydalanishni yer-axborotli ta'minot-boshqarish funksiyasi	270
4.3	Yer resurslaridan foydalanishni bashoratlash va rejalashtirish hamda ularni tarmoqlararo taqsimlash-Yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi	279
4.4	Yer tuzishi-yerdan foydalanishni boshqarishning muhim funksiyasi	288
4.5	Yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi-uni boshqarish funksiyasi	297
4.6	Yer monitoringi va yerlardan foydalanishni nazorat qilish yerlardan foydalanishni boshqarishning funksiyalari sifatida	312
4.7	Yerni qayta tiklash yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi	323
4.8	Yer munozaralarini hal qilish, yerlarni muhofaza qilish, yer resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish-yerdan foydalanishni boshqarish funksiyalari	335
4.9	Yerdan foydalanish samaradorligini baholash-yerdan foydalanishni boshqarish funksiyasi	342
V Bob	Yer resurslaridan foydalanishni integratsion boshqarishning chet el tajribalari	
5.1	Yer resurslaridan foydalanishni boshqarishning chet el tajribasi.	351
	Glossariy	362
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	371